YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 3-son

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025
DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.

ISSN: 2181-1938
DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:
S. Rasulova

Texnik muharrir:
U. Sapayev

Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnoma
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 27-iyunda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 22,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR
B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI
J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR
N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI
J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

I. To'raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

S. Xolboyev – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

J. Ne'matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев, К. Абдувалиева, Й. Махмудов, М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:
С. Расулова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент, улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию 27.06.2025.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 22,8. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР
Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ
Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

"Yurisprudensiya" – "Юриспруденция" – "Jurisprudence" legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev, K. Abduvalieva, Y. Makhmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:
S. Rasulova

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address::
100047. Tashkent city, Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 27.06.2025.
Paper size: A4.
Cond.p.f: 22,8.
Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF
B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR
J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR
N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD
J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

11 **RAXIMOV DILMURODJON G'ULOMJON O'G'LI**
Davlat xizmatini tasniflash va ushbu jarayonda davlat fuqarolik xizmatining o'rni

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

23 **RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH**
Xususiy huquq fani sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-metodologik tahlili: muammo va yechimlar

36 **G'AYBULLAYEV ALISHER ISMATOVICH**
Tovar omborida omonat saqlash munosabatlarini fuqarolik-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish

46 **QILICHOVA MUNIRA AZIMJON QIZI**
Islom moliyasi normalariga muvofiq mudoraba shartnomasida kapital kafolati masalalari

62 **G'AFFOROV MEHRANGIZ SHAVKATOVICH**
Ulushdorlar ulush kiritish asosidagi qurilish shartnomasining zaif tarafi sifatida

73 **SIDIKOV RUSTAM**
Xalqaro huquqda uchuvchisiz uchish apparatlarining huquqiy tabiati: tasniflash yondashuvlari va suverenitet masalalari

85 **SARABEKOV A'ZAMJON ABDUQODIROVICH**
Blokcheyn va smart-kontraktlardan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda foydalanish

92 **ZIYAMOV BOBURXON**
Raqamli diplomatiya va sun'iy intellekt: xalqaro huquqda tartibga solish jihatlari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

102 **XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
Fuqarolik protsessida vakillik instituti: o'ziga xos ahamiyati va xususiyatlari

111 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O'G'LI**
Oilaviy nizolarda mediatsiya

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

125 **NIGMATOV RUFTULLO OLIMDJONOVICH**
Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir ilg'or tajribalari va ularning ayrimlarini milliy tizimga joriy etish masalalari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

134 **XUDAYBERGENOV BAXRAM KUANISHBAEVICH, PARAXATOVA SHAXNOZA YERNAZAROVNA**
Ekspertiza tadqiqoti uchun namunalar olish tergov harakati sifatida: nazariy va amaliy masalalar

146 **SADRIDDINOVA LATOFAT HUSNIDDIN QIZI**
Apellyatsiya va kassatsiya: ushbu yuqori instansiyalarning sud tizimidagi o‘rni

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

155 **XALIQULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH**
Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda xalqaro shartnomalarning ahamiyati

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

166 **YULDASHEV MAQSUD MAMASOLIYEVICH**
Bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirishning huquqiy asoslari tahlili

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH. PROBATSIYA FAOLIYATI

175 **DJUMANIYAZOVA DILFUZA KAMALOVNA, SHAYAKUBOV SHOMANSUR SHAKABILOVICH**
Ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari: Toshkent viloyati va Toshkent shahri misolida

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

11 **РАХИМОВ ДИЛМУРОДЖОН ГУЛОМЖОН УГЛИ**
Классификация государственной службы и место государственной гражданской службы в этой системе

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

23 **РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ**
Научно-методологический анализ научных исследований в области частного права: проблемы и решения

36 **ГАЙБУЛЛАЕВ АЛИШЕР ИСМАТОВИЧ**
Дальнейшее гражданско-правовое совершенствование отношений по хранению вещей на товарном складе

46 **КИЛИЧОВА МУНИРА АЗИМЖОН КИЗИ**
Вопросы гарантии капитала в договоре мудараба с точки зрения норм исламского финансирования

62 **ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**
Дольщики как слабая сторона договора долевого строительства

73 **СИДИКОВ РУСТАМ**
Правовая природа беспилотных летательных аппаратов в международном праве: классификационные подходы и вопросы суверенитета

85 **САРАБЕКОВ АЪЗАМЖОН АБДУКОДИРОВИЧ**
Использование блокчейна и смарт-контрактов в гражданско-правовых отношениях

92 **ЗИЯМОВ БОБУРХОН**
Цифровая дипломатия и искусственный интеллект: аспекты регулирования в международном праве

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

102 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ**
Институт представительства в гражданском процессе: его значение и особенности

111 **ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АВАЗ УГЛИ**
Медиация в семейных спорах

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

125 **НИГМАТОВ РУФТУЛЛО ОЛИМДЖОНОВИЧ**
Передовой опыт Великобритании в борьбе с преступностью и вопросы его имплементации в национальную систему

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

134 **ХУДАЙБЕРГЕНОВ БАХРАМ КУАНЫШБАЕВИЧ, ПАРАХАТОВА ШАХНОЗА ЕРНАЗАРОВНА**
Получение образцов для экспертного исследования как следственное действие: теоретические и практические вопросы

146 **САДРИДДИНОВА ЛАТОФАТ ХУСНИДДИН КИЗИ**
Апелляция и кассация: роль высших инстанций в судебной системе

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

155 **ХАЛИКУЛОВ КОМОЛИДДИН НОСИРОВИЧ**
Значение международных договоров в регулировании межгосударственных отношений по признанию и исполнению судебных решений иностранных государств

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

166 **ЮЛДАШЕВ МАКСУД МАМАСОЛИЕВИЧ**
Правовой анализ основ преобразования таможенных органов в сферу, свободную от коррупции

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

175 **ДЖУМАНИЯЗОВА ДИЛЬФУЗА КАМАЛОВНА, ШАЯКУБОВ ШОМАНСУР ШАКАБИЛОВИЧ**
Вопросы совершенствования системы работы с молодёжью, относящейся к группе социального риска: на примере города Ташкента и Ташкентской области

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

11 **RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON UGLI**
Classification of civil service and the role of state civil service in this system

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

23 **RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH**
Scientific and methodological analysis of research in the field of private law: problems and solutions

36 **GAYBULLAYEV ALISHER ISMATOVICH**
Further improvement of civil-legal relations of storage in a warehouse

46 **KILICHOVA MUNIRA AZIMJON KIZI**
Issues of capital guarantee in mudarabah contract from the perspective of islamic finance norms

62 **GAFFOROV MEHRANGIZ SHAVKATOVICH**
Shareholders as a weakness of the contract of share construction

73 **SIDIKOV RUSTAM**
The legal nature of unmanned aerial vehicles in international law: classification approaches and issues of sovereignty

85 **SARABEKOV AZAMJON ABDUKODIROVICH**
The use of blockchain and smart contracts in civil law relations

92 **ZIYAMOV BOBURKHON**
Digital diplomacy and artificial intelligence: regulation aspects in international law

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

102 **KHABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH**
The institute of representation in civil procedure: its significance and characteristics

111 **KHUDOYNAZAROV DADAHON AVAZ UGLI**
Mediation in family disputes

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

125 **NIGMATOV RUFTULLO OLIMDJONOVICH**
Advanced experience of Great Britain in combating crime and issues of implementing some of them in the national system

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

134 **KHUDAYBERGENOV BAKHRAM KUANI'SHBAEVICH, PARAKHATOVA SHAKHNOZA YERNAZAROVNA**
Obtaining samples for expert examination as an investigative action: theoretical and practical issues

146 **SADRIDDINOVA LATOFAT HUSNIDDIN KIZI**
Appeal and cassation: the role of these higher instances in the judicial system

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

155 **KHALIKULOV KOMOLIDDIN NOSIROVICH**
The importance of international treaties in the regulation of interstate relations on the recognition and execution of judicial rulings (decisions) of foreign states

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

166 **YULDASHEV MAQSUD MAMASOLIYEVICH**
Analysis of the legal basis for transforming customs authorities into a corruption-free sphere

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

175 **DJUMANIYAZOVA DILFUZA KAMALOVNA, SHAYAKUBOV SHOMANSUR SHAKABILOVICH**
Issues of improving the system of working with youth belonging to socially risk groups: on the example of Tashkent region and the city of Tashkent

Kelib tushgan / Получено / Received: 06.05.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 16.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./ANTF2580
UDC: 342.5(045)(575.1)

DAVLAT XIZMATINI TASNIFLASH VA USHBU JARAYONDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING O‘RNI

Raximov Dilmurodjon G‘ulomjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi katta o‘qituvchisi,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti doktoranti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0002-9788-5698
e-mail: drakhimov95@gmail.com

Annotatsiya. *Maqola davlat xizmatini tasniflash va ushbu tizimda davlat fuqarolik xizmatining o‘rni borasidagi nazariy yondashuvlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi amaliyoti tahliliga bag‘ishlangan. 2019-yildan boshlab mamlakatimiz qonunchiligi va amaliyotida “davlat fuqarolik xizmati” tushunchasi qo‘llanib kelayotganiga qaramay, uning chegarasi va davlat xizmatining boshqa turlaridan` farqlanishi bo‘yicha muammolar mavjudligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Maqolada davlat xizmati tizimida davlat fuqarolik xizmatining o‘rni, davlat fuqarolik xizmatining maxsus xizmat sohalaridan farqli jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, qaysi xizmat sohalari davlat fuqarolik xizmati tizimiga kirishi yoki aksincha, kirmasligi haqidagi mulohazalar asoslandi. Davlat xizmatini tasniflash bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari, ular taklif etayotgan nazariyalar xronologik uslubda tizimlilik, determinizm prinsiplari va statistik, qiyosiy-tahlil, umumlashtirish, ilmiy manbalarni kompleks tahlil qilish, mantiqiylik, formal-yuridik, induksiya, deduksiya kabi ilmiy metodlar asosida o‘rganildi. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning nazariyalari, respublikamiz qonunchiligi va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili asosida bir qancha amaliy taklif hamda tavsiya lar ishlab chiqildi. Jumladan, “davlat xizmati” va “davlat fuqarolik xizmati” tushunchalariga mualliflik ta’riflari berildi. Davlat fuqarolik xizmatining davlat xizmatining boshqa turlaridan farqlanishiga oid asosiy xususiyatlar tizimlashtirildi. Shuningdek, davlat xizmatini tasniflash jarayonida vujudga kelgan huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xizmati tizimi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishi va unda davlat xizmatining turlari aniq belgilanishi qayd etilib, qonun loyihasining asosiy mazmuniga oid konseptual g‘oyalar taklif etildi.*

Kalit so‘zlar: *davlat xizmati, davlat xizmatchisi, davlat fuqarolik xizmati, maxsus xizmat, siyosiy xizmat, davlat xizmati tasnifi, rahbar, mansabdor shaxs*

КЛАССИФИКАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ И МЕСТО ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В ЭТОЙ СИСТЕМЕ

Рахимов Дилмуроджон Гуломжон угли,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
старший преподаватель Академии государственного управления
при Президенте Республики Узбекистан,
докторант Университета мировой экономики и дипломатии

Аннотация. *Статья посвящена теоретическим подходам к классификации государственной службы, определению места государственной гражданской службы в данной системе, а также анализу практики Республики Узбекистан. Несмотря на то, что с 2019 года в законодательстве и практике страны используется термин «государственная гражданская служба», сохраняются проблемы, связанные с определением её границ и разграничением с другими видами государственной службы, что и предопределяет актуальность рассматриваемой темы. В статье проводится анализ роли государственной гражданской службы в системе государственной службы, отличий гражданской службы от специальных видов службы, а также аргументировано, какие сферы деятельности подлежат включению в систему гражданской службы, а какие – нет. Изучены точки зрения отечественных и зарубежных учёных, предлагаемые ими теории классификации государственной службы, с применением хронологического метода, принципов системности и детерминизма, а также статистического, сравнительно-аналитического, метода обобщения, логического, формально-юридического, индукции и дедукции. На основе анализа теорий, национального законодательства и международной практики разработаны конкретные практические предложения и рекомендации. В частности, предложены авторские определения понятий «государственная служба» и «государственная гражданская служба», систематизированы ключевые отличительные признаки гражданской службы от других видов государственной службы. Также обоснована необходимость принятия Закона Республики Узбекистан «О системе государственной службы», в котором были бы чётко определены виды государственной службы, и представлены концептуальные идеи относительно содержания указанного законопроекта.*

Ключевые слова: *государственная служба, государственный служащий, государственная гражданская служба, специальная служба, политическая служба, классификация государственной службы, руководитель, должностное лицо*

CLASSIFICATION OF CIVIL SERVICE AND THE ROLE OF STATE CIVIL SERVICE IN THIS SYSTEM

Rakhimov Dilmurodjon Gulomjon ugli,
Senior Lecturer at the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan,
Doctoral student of the University of World Economy and Diplomacy,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *The article is devoted to the classification of the civil service and theoretical approaches to the role of the civil service in this system, as well as an analysis of the practice of the Republic of Uzbekistan. Despite the fact that since 2019, the concept of "state civil service" has been used in the legislation and practice of our country, the presence of problems regarding its boundaries and differentiation in other types of state service determines the relevance of the topic. The article analyzes the role of the state civil service in the civil service system, the differences and specific features of the state civil service from special service sectors, and substantiates considerations about which service sectors are included or not included in the state civil service system. The views of domestic and foreign scientists on the classification of public service and the theories proposed by them were studied in a chronological style based on the principles of systematization, determinism, and scientific methods such as statistical, comparative-analytical, generalization, comprehensive analysis of scientific sources, logic, formal-legal, induction, and deduction. Based on the theories of domestic and foreign scientists, analysis and correlation of the legislation of our republic, as well as the experience of developed foreign countries, a number of practical proposals and recommendations were developed. In particular, authors definitions of the concepts of "state service" and "state civil service" were given. The main features of the difference*

between the state civil service and other types of public service have been systematized. Also, in order to eliminate the legal gaps that have arisen in the process of classifying the civil service, it was noted that the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Civil Service System" will be adopted and the types of civil service will be clearly defined in it, and conceptual ideas regarding the main content of the draft law were proposed.

Keywords: *civil service, civil servant, state civil service, special service, political service, civil service classification, leader, official*

Kirish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvini isloh qilish sharoitida davlat xizmati tizimini ham takomillashtirish, uni meritokratiya va professionallik tamoyillari asosida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2016-yilgacha bo‘lgan davrda davlat organlari tizimi, unga oid qonun-qoidalar takomillashtirildi. Lekin davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi jonli subyekt – davlat xizmatchilarini tanlash, ularni tayyorlash, malakasini oshirish, huquqlarini himoya qilish masalalariga sust qaraldi. Hatto davlat xizmatchilari faoliyatini tartibga soluvchi qonun qabul qilinmadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur masalaga o‘zining prezidentlikka nomzod sifatidagi saylovoldi dasturida-yoq e’tibor qaratgan va 2016-yil 19-oktabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi ma’ruzasida: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat xizmatchilariga yuksak talablar qo‘yishdan oldin ularning huquqlarini kafolatlash va himoya tizimi bilan mustahkamlash darkor. Masalaning o‘ta dolzarbligini e’tiborga olib, davlat xizmati bo‘yicha qonun qabul qilish vaqti keldi deb hisoblaymiz”, – deb ta’kidlagan edi [1, 58-b.]. Ushbu fikrlar davlat xizmatini zamonaviylashtirish hamda uning huquqiy asoslarini mustahkamlashga asos bo‘ldi.

Yaqin yillargacha mamlakatimiz qonunchiligi va amaliyotida faqatgina “davlat xizmati”, “davlat xizmatchisi” tushunchalari qo‘llanib kelgan. 2017-yildagi “Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi”da davlat xizmatini tasniflash orqali uning huquqiy asoslarini mustahkamlash belgilangan edi. Natijada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5843-sonli Farmoni bilan davlat xizmati funksional jihatdan *davlatning maxsus xizmati* va *davlat fuqarolik xizmatiga* ajratildi.

Shu nuqtayi nazardan olimlarning qarashlari va xorijiy mamlakatlar tajribasini tadqiq etish orqali davlat xizmatini tasniflash hamda uning tarkibida davlat fuqarolik xizmati institutining chegarasini aniq belgilash davlat xizmatini samarali tashkil etishning bosh mezonlaridan biri hisoblanadi. Maqolaning maqsadi davlat xizmati tizimida davlat fuqarolik xizmatining o‘rni, davlat fuqarolik xizmatining maxsus xizmat sohalaridan farqli jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, qaysi xizmat sohalari davlat fuqarolik xizmati tizimiga kirishi yoki aksincha, kirmasligi haqida mulohazalarni asoslashdan iboratdir.

Ushbu masala yuzasidan bir qancha xorijiy olimlar izlanishlar olib borgan. Ular asosan o‘z mamlakatlari qonunchiligidan kelib chiqib, muammoni tahlil qilishga harakat qilishgan. Shuning uchun davlat xizmatini tasniflash umumiy standartlarga emas, har bir davlatning o‘z qonunchiligiga bog‘liq masala hisoblanadi.

Maqoladagi asosiy ilmiy muammo qonunchilik va amaliyotda “davlat xizmati” va “davlat fuqarolik xizmati” institutlarini to‘g‘ri qo‘llash, ularning farqli xususiyatlarini aniqlash, qaysi xizmat sohalarini ularning tarkibiga kiritish masalasi hisoblanadi.

Material va metodlar

Maqolada davlat xizmatini klassifikatsiyalash va ushbu tizimda davlat fuqarolik

xizmatining o‘rni yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi o‘rganildi. Chet ellik huquqshunoslar D.M. Ovsyanko, Y.N. Starilov hamda milliy olimlar X.R. Alimov, E.T. Xojiyev, B.Sh. Mirboboyev, I.A. Xamedovning davlat xizmatini guruhlarga ajratishga oid nazariy-konseptual qarashlari tadqiq etildi. Tadqiqot materiallarini davlat xizmatiga oid xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ–788-son Qonuni predmet doirasida batafsil tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida barcha huquqiy fanlar uchun muhim bo‘lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik, determinizm prinsiplari, xronologik uslub, statistik, qiyosiy-tahlil, umumlashtirish, ilmiy manbalarni kompleks tahlil qilish, mantiqiylik, formal-yuridik, induksiya, deduksiya va boshqa ilmiy metodlar qo‘llandi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini tasniflash va unda davlat fuqarolik xizmatining o‘rni bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi maqolaning obyekti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari

Tasniflash bo‘yicha bir qancha olimlarning ham qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, taniqli huquqshunos D.M. Ovsyanko masalaga kengroq yondashganini ko‘rish mumkin. Uning fikricha, davlat xizmatchilarini quyidagi mezonlar bilan tasniflash o‘rinli [2, 287-b.]:

“davlat hokimiyati organlarining faoliyat doirasiga qarab davlat xizmatchilari: respublika miqyosida harakat qiluvchi xizmatchilar; mahalliy miqyosda harakat qiluvchi xizmatchilar;

davlat xizmatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari: fuqarolik davlat xizmatchilari; militarlangan davlat xizmatchilari (masalan, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xizmatchilari);

hokimiyatning bo‘linish prinsipidan kelib chiqqan holda davlat xizmatchilari: qonunchilik hokimiyati organlarining xizmatchilari; ijro hokimiyati organlarining xizmatchilari; sud hokimiyati organlarining xizmatchilari;

mansab vakolatlarining hajmiga ko‘ra davlat xizmatchilari: mansabdor shaxslar; mansabdor shaxslar tarkibiga kirmaydigan boshqa xizmatchilar;

xizmat muddatining davomiyligiga ko‘ra davlat xizmatchilari: ma’lum bir muddatga tayinlanadigan (saylanadigan) xizmatchilar; belgilanmagan muddatda tayinlangan xizmatchilar; sinov muddati bilan tayinlangan xizmatchilar”.

Yana bir rus olimi Y.N. Starilov davlat xizmatchilarini D.M. Ovsyanko kabi harakat doirasiga qarab (respublika va mahalliy) tasniflashini ta’kidlaydi. Uning qarashlarida tasniflashning bir qancha yangi mezonlari ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Y.N. Starilov davlat-xizmat huquqiy munosabatlarining davom etishiga qarab, davlat xizmatchilarining umrbod, muayyan, belgilanmagan va sinov muddatiga tayinlanadigan turlarini ko‘rsatadi. Uning klassifikatsiyasida davlat xizmatchilarining bilim darajasi va professional tayyorgarligiga qo‘yilgan talablardan kelib chiqib, oliy, bosh, katta, kichik guruhlarga bo‘linishi alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, u “deputatlar, davlatda oliy mansablarni egallab turgan shaxslar (prezident, vakillik va ijro hokimiyati organlarining rahbarlari, vazirlar) davlat xizmatchisi bo‘lmagan, ommaviy-huquqiy xizmat maqomiga ega” [3, 345–355-b.] ekanini ta’kidlaydi.

O‘zbekistonlik olim X.R. Alimov esa davlat xizmatchilari to‘rt guruhga: “*rahbarlar* (vazir, direktor, rektor), *asosiy tarkib* (injener, iqtisodchi, agronom, arxitektor, shifokor, o‘qituvchi, ilmiy xodim), *yordamchi xizmatchilar* (ish yurituvchi, kuryer, mashinistka, laborant, ekspeditor), *ma’muriy hokimiyat vakillari* (sudya, prokuror, deputat, Qurolli kuchlar, ichki ishlar va xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlari tarkibiga kiruvchilar)” bo‘linishini ta’kidlaydi [4, 116-b.].

D.M. Ovsyanko va Y.N. Starilovlarning davlat xizmatini tasniflash bo‘yicha takliflari

umumiy ahamiyat kasb etib, aksariyat mamlakatlardagi tasniflashga mos keladi. X.R. Alimovning davlat xizmatchilariga bergan tasnifi milliy xususiyatlardan kelib chiqib taklif etilgan. Mazkur tasniflanishdagi "asosiy tarkib" bugungi kunda davlat tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va ularga tenglashtirilgan lavozimlarga birmuncha mos keladi.

Y.N. Starilovdan farqli ravishda, huquqshunos E.T. Xojiyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentini, shuningdek, vazirlar, hokimlar, sudyalarni davlat xizmatchilari doirasiga kiritadi: "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchiligidan kelib chiqadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oliy mansabdor shaxs. U davlat tomonidan berilgan vakolatlar doirasida hamda davlat nomidan va davlat manfaatlarini ko'zlab davlat funksiyalarini amalga oshiradi. Demak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faoliyatini davlat xizmatiga kiritishimiz mumkin yoki vazirlar, hokimlar, sudyalarni olib ko'radigan bo'lsak, ular ham davlat tomonidan berilgan vakolatlar doirasida davlat nomidan va davlat manfaatlarini ko'zlab tegishli sohada davlatning funksiyalarini amalga oshiradilar" [5, 39-b.]. Huquqshunos B.Sh. Mirboboyev ayrim davlat xizmatchilarining nomlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalarida ko'rsatilganiga urg'u qaratib, ularga Prezident, Bosh vazir va uning o'rinbosarlari, vazirlar, hokimlar, sudyalar, deputatlar, senatorlar, prokurorlar kabi lavozimlarni misol qilib ko'rsatadi [6, 57-b.].

Jahon amaliyotiga nazar tashlasak, davlat xizmati tushunchasi turli atamalar bilan qo'llanishini ko'rish mumkin. Bu borada "*public service*" ("ommaviy xizmat"), *"civil service*", ("fuqarolik xizmati") "*government service*" ("hukumat xizmati") atamalaridan foydalaniladi. Odatda bu atamalar ma'nodosh sifatida tarjimada umumiy "davlat xizmati" shaklida qo'llanadi. Lekin mazmunan olib qaraganda bir-biridan farq qiladi. Jumladan, professor I.A. Xamedovning qayd etishicha, sobiq Ittifoq hududidagi davlatlarda "davlat xizmati", ayrim Yevropa mamlakatlarida (Germaniya, Ispaniya, Belgiya) "ommaviy xizmat" va aksariyat davlatlarda "fuqarolik xizmati" atamalaridan foydalaniladi [7, 251-b.].

Ingliz tilidagi izohli lug'atlarda "*public service*" tushunchasi ikki xil ma'noda qo'llanadi. Ushbu tushuncha, birinchidan, davlatning fuqarolarga ko'rsatadigan xizmatini (muayyan guvohnoma, ma'lumotnoma, litsenziya kabilarni berishni) nazarda tutsa, ikkinchi holat biz o'rganayotgan professional davlat xizmatini bildiradi [8]. Bu so'z rus tiliga "*государственная услуга*" (davlatning fuqarolarga ko'rsatadigan davlat xizmati) tarzida tarjima qilinadi. Ya'ni rus tiliga tarjima qilishda uning birinchi ma'nosi qo'llanadi. O'zbek tiliga tarjima qilinganda esa "*public service*" tushunchasi professional davlat xizmatini nazarda tutmoqda. Ya'ni Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining nizomida uning ingliz tilidagi nomlanishi "*Agency for the Development of Public Service*" tarzida qo'llanmoqda. Izohli lug'atlardagi "*civil service*" tushunchasi esa Qurolli kuchlar, sudyalar va saylangan siyosatchilardan tashqari, davlat organlaridagi ma'muriy xodimlarni nazarda tutadi [9]. Ushbu so'z rus va o'zbek tiliga asl mohiyatini saqlab qolgan holda "*государственная гражданская служба*" va "davlat fuqarolik xizmati" tarzida tarjima qilinadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mavjud 22 ta vazirlikning 19 tasiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni tatbiq etiladi. Shuningdek, ushbu 19 ta vazirlik tizimidagi qo'mita, agentlik va inspeksiyalarga nisbatan ham qonun tatbiq etiladi. Lekin Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasiga "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun tatbiq etilmaydi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi o'z xususiyatiga ko'ra davlat fuqarolik xizmatini nazarda tutsa, uning tarkibida bojxona xizmati maxsus xizmat sanaladi. Bizningcha, bunday tartib

davlat xizmatini to‘g‘ri tasniflash, uni samarali huquqiy tartibga solish masalalariga unchalik ham mos kelmaydi. Bundan tashqari, adliya va tashqi xizmat sohalari ham nima uchun davlat fuqarolik xizmati tizimiga kiritilgani bilan bog‘liq bahsli masalalar mavjud. Tadqiqotda ushbu masalalarni batafsil tahlil qilamiz.

Tadqiqot natijalari tahlili

O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatini tasniflashda Rossiya tajribasiga alohida e’tibor qaratildi. Rossiyaning “Davlat xizmati tizimi to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasida davlat xizmatining quyidagi turlari ko‘rsatilgan: davlat fuqarolik xizmati, harbiy xizmat, huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat va davlat xizmatining boshqa turlari [10]. Ularning har biri, shu jumladan, davlat fuqarolik xizmati sohasi ham alohida qonun bilan tartibga solinadi [10].

Shunday qilib, davlatimiz qonunchiligida davlat xizmati ikki yo‘nalishga bo‘lingan: davlat fuqarolik xizmati va davlatning maxsus xizmati. Davlatning maxsus xizmati o‘z ichida harbiy xizmat va huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmatga ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatining harbiy xizmat sohasi huquqiy jihatdan yetarlicha tartibga solingan, deyish mumkin. Jumladan, ushbu soha O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi Qonunlar, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Prezident qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi.

Ta’kidlash joizki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kiruvchi idoralarning aniq ro‘yxati qonunchilikda belgilanmagan. Aksariyat normativ-huquqiy hujjatlardan xulosa qilinsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlar sud, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati, ichki ishlar organlari, bojxona, soliq, milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar va adliya organlarini o‘z ichiga oladi. Ayrim adabiyotlarda ta’kidlanishicha, “huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat har bir huquqni muhofaza qilish organi faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Bunday xizmat turiga sud, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati, ichik ishlar organlari, bojxona, soliq kabi organlardagi xizmatni misol sifatida keltirish mumkin” [11, 12-b.]. Masalan, ichki ishlar organlaridagi xizmatni olaylik. 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunda ushbu sohada xizmatni o‘tashning fundamental qoidalari belgilab qo‘yilgan. “Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizom”da esa xizmatga kirishdan uni tugatishgacha bo‘lgan mexanizmlar batafsil tartibga solingan.

2022-yil 8-avgustda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida uning qo‘llanish sohasi belgilangan. Unga ko‘ra, qonun maxsus reyestr (ro‘yxat)ga kiritilgan lavozimlardagi xizmatchilarning faoliyatini tartibga soladi. Tadqiqotchi F. Maxmudov “davlat fuqarolik xizmati tizimi – vazirliklar, idoralar, qo‘mita va agentliklar va ular tizimiga kiradigan organlar” ekanini aytadi [12, 15-b.]. Lekin barcha vazirlik va idoralarni davlat fuqarolik xizmatiga taalluqli, deb bo‘lmaydi. Ma’lumki, ba’zi vazirliklar va qo‘mitalar (jumladan, Mudofaa va Ichki ishlar vazirliklari, Bojxona qo‘mitasi)dagi xizmat maxsus xizmat hisoblanadi. Shunday qilib, ijro hokimiyatida (bunga viloyat, tuman va shahar hokimliklari ham kiradi) davlat xizmatchilarining asosiy qismini davlat fuqarolik xizmatchilari tashkil etadi. Professor M.A. Axmedshayeva ham qayd etganidek, ijro etuvchi hokimiyatda davlat organlari, funksiyalari va davlat xizmatchilarining asosiy qismi to‘plangani uning davlat hokimiyati tizimida tutgan o‘rnini ko‘rsatadi [13, 11-b.].

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida uning amal qilishi tatbiq etilmaydigan sohalar ham belgilangan.

Unga ko‘ra, “Ushbu qonunning amal qilishi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining va Senati a’zolarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda boshqa mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati devonlari xodimlarining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi a’zolarining, sudyalarning va sud tizimi xodimlarining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi a’zolarining, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlarida xizmatni o‘tayotgan davlat xizmatchilarining, shu jumladan, harbiy xizmatchilarning; davlat organlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi”. Shuningdek, qonunning 24- va 43-moddalari diplomatiya xizmati xodimlari, 43-moddasi Markaziy bank xodimlari uchun qo‘llanmaydi.

Shu o‘rinda, bir qancha munozarali masalalar vujudga keladi. Masalan, diplomatiya xizmati xodimlari va Markaziy bank xodimlariga nisbatan qonunning ayrim moddalarini qo‘llab, ayrimlarini istisno qilish qanchalik to‘g‘ri? Ular “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning xususiyatlariga to‘liq mos tushadimi? MDHga a’zo davlatlar Parlamentlararo assambleyasining 1998-yil 15-iyundagi 11-5-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xizmati asoslari to‘g‘risida”gi namunaviy qonunning 4-moddasida Markaziy bank boshqaruvi raisi, o‘rinbosari va uning xodimlari, shuningdek, diplomatiya xizmati xodimlarining faoliyati alohida qonunchilik bilan tartibga solinishi belgilangan [14]. Aksariyat davlatlarda ham yuqoridagi xizmat xodimlari davlat xizmatidagi maxsus qonun doirasiga kiritilmaydi.

Ta’kidlash joizki, tashqi (diplomatlik va konsullik) xizmat sohasi bir qancha xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik bilan tartibga solinadi. Xususan, 1992-yil 3-iyulda “O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalari belgilash to‘g‘risida”gi Qonunlari qabul qilingan. Ushbu qonunlar 1961-yilda qabul qilingan “Diplomatiya munosabatlari to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasi [15] hamda xalqaro huquq normalari va qoidalariga muvofiq, diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olishning tartib-taomillarini hamda O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya darajalari va martabalarini belgilab beradi. Unga ko‘ra, 3 ta diplomatiya darajasi va 11 ta diplomatiya martabasi (unvoni) belgilangan. Konsullik munosabatlari esa 1963-yilda qabul qilingan “Konsullik munosabatlari to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasi [16] va 2019-yil 17-yanvarda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining konsullik ustavini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonunga asoslanadi. Huquqshunos F. Isayeva davlat xizmati haqida so‘z yuritar ekan, ayrim davlatlar (Armaniston, Qirg‘iziston)da diplomatik xizmat davlat fuqarolik xizmatidan alohida tur ekanini ta’kidlaydi [17]. Ko‘rinib turibdiki, tashqi (diplomatlik va konsullik) xizmat xodimlarini lavozimga tayinlash va ozod etish, ularga toifalar berishning alohida tartiblari mavjud. Shu sababli tashqi (diplomatlik va konsullik) xizmat sohasiga “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun normalari qo‘llanmasligi lozim. Shuningdek, ijro hokimiyatidan mustaqil bo‘lgan Markaziy bankning nafaqat boshqaruvi a’zolari, balki xodimlari faoliyati alohida qonunchilik bilan tartibga solinishi mumkin.

Yana bir bahsli masala davlat xizmatida adliya organlari, soliq va bojxona xizmatlarining o‘rni bilan bog‘liq. “Davlat fuqarolik

xizmati to‘g‘risida”gi Qonun tatbiq etilmaydigan sohalarda adliya organlari va soliq xizmati mavjud emas. Demak, qonun ushbu sohalarga ham tatbiq qilinadi. Lekin ushbu sohalar o‘zining xususiyatlari bilan davlat fuqarolik xizmatidan farq qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida nizomning 2-bandiga ko‘ra, Adliya vazirligi hamda uning hududiy boshqarma va bo‘limlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi. Huquqshunos Sh.Y. Jurayev ham Adliya vazirligini huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida ta’kidlab, uni davlatning maxsus xizmati sifatida e’tirof etadi [18, 27-28-b.]. Shuningdek, adliya organlari xodimlariga 10 ta maxsus martaba darajalari beriladi. Ushbu martaba darajalari davlat fuqarolik xizmatchisi malaka darajalaridan farq qiladi.

MDHga a’zo davlatlar Parlamentlararo assambleyasining “Davlat xizmati asoslari to‘g‘risida”gi namunaviy qonuni 4-moddasida esa soliq xizmat xodimlarining faoliyati alohida qonun bilan tartibga solinishi tavsiya etilgan [19]. 1997-yil 29-avgustdagi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi 474-I-son Qonunning 11-moddasida soliq xizmati xodimlariga beriladigan maxsus unvonlar sanab o‘tilgan. Ushbu unvonlar davlat fuqarolik xizmatchisi malaka darajalaridan farq qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 320-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida”gi nizomda soliq tizimidagi davlat xizmatchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari belgilangan.

Shu bois, adliya va soliq xizmati sohalariga “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning normalari tatbiq qilinmasligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–269-sonli Farmoni ma’muriy islohotlarni amalga oshirish, xususan, davlat boshqaruvi organlarini optimallashtirishni belgilab berdi. Vazirlik va idoralar soni qisqarib, soliq xizmati va bojxona xizmati O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibiga Soliq qo‘mitasi va Bojxona qo‘mitasi sifatida kiritildi (keyinroq Soliq qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bo‘ysunuviga o‘tkazildi). Iqtisodiyot va moliya vazirligi o‘z xususiyatiga ko‘ra davlat fuqarolik xizmatini nazarda tutsa, uning tarkibida bojxona xizmati maxsus xizmat sanaladi. Bizningcha, bunday tartib davlat xizmatini to‘g‘ri tasniflash, uni samarali huquqiy tartibga solish masalalariga unchalik ham mos kelmaydi.

Keyingi masala davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining o‘z ichida guruhlarga tasniflanishidir. Huquqshunos N.Sh. Said-Gaziyeva “davlat xizmatchilari rahbarlar, mutaxassislar va texnik ijrochilar guruhlariga bo‘linishi”ni qayd etadi. Lekin bugungi kunda texnik ijrochilar davlat xizmatchisi hisoblanmaydi. Qonunchilikda *siyosiy, boshqaruv* va *yordamchi* guruhlari mavjud bo‘lib, boshqaruv va yordamchi guruhlaridagi lavozimlar uchun tanlov o‘tkaziladi, siyosiy guruhdagi lavozimlarni kadrlar bilan ta’minlash maxsus qonun va qarorlar bilan belgilanadi [20]. Siyosiy guruhga Vazirlar Mahkamasi, respublika davlat boshqaruv organlari rahbariyati, viloyat, tuman (shahar) hokimlari kabilarni kiritish mumkin.

Davlat xizmatchilarini tasniflash haqida gap ketganda, “O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilarining odob-axloq kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Oliy Majlis palatalarining qo‘shma qaror loyihasiga e’tibor qaratish lozim. Kodeks loyihasida “O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik, ijro etuvchi, sud hokimiyati va davlat nazorati, shuningdek, davlat mudofaasini amalga oshiruvchi davlat tashkilotlarining saylanadigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda xizmat faoliyatini amalga oshirish davlat xizmati hisoblanadi” deyilib, uning *davlat siyosiy xizmati, davlat fuqarolik xizmati, davlat maxsus xizmati* turlari taklif etilgan. Mazkur kodeks loyihasi, birinchidan, dav-

lat xizmatini izohlashda barcha xizmatlarni inobatga olganligi bilan, ikkinchidan, O‘zbekiston amaliyotiga yangi tushuncha – davlat siyosiy xizmatini taklif etayotgani bilan ahamiyatlidir.

Ta’kidlash joizki, loyihada “davlat siyosiy xizmati – ichki va tashqi siyosatni belgilash hamda siyosiy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq davlat hokimiyati vakillik organiga saylanadigan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nomenklaturasiga kiradigan lavozimlarga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishga qaratilgan hamda haq to‘lanadigan kasbiy xizmat faoliyati bo‘lgan davlat xizmatining bir turi” sifatida ifodalanmoqda. Ya’ni davlat rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadigan davlat xizmatchilari – vazir, vazir o‘rinbosarlari va hokimlar, shuningdek, Oliy Majlis senatorlari, deputatlari va mahalliy Kengash deputatlari davlat siyosiy xizmatchisi sifatida ko‘rsatilmoqda.

Aslida parlament a’zolarining davlat xizmatchisi masalasi bahsli hisoblanadi. Aksariyat olimlar parlament a’zolari davlat xizmatchisi hisoblanmasligini ta’kidlaydi. Ayrim davlatlar amaliyotida esa ular davlatning maxsus xizmati yoki davlat siyosiy xizmatiga kirishi belgilangan. Masalan, mutaxassislar L. Bordogna va S. Nerining qayd etishicha, Fransiya va Italiyada harbiy xizmatchilar, sud hamda parlament xodimlari davlat xizmatchilarining alohida guruhi hisoblanadi [21]. Boshqacha aytganda, ushbu guruhni davlatning maxsus xizmati deyish mumkin. Professor K.P. Suk Koreya Respublikasida davlat xizmatchilari umumiy, maxsus va siyosiy xizmat guruhlariga bo‘linishini qayd etadi. U Prezident, vazirlar, sudyalar va deputatlarni siyosiy xizmat guruhiga kirishini ta’kidlab, bu tizimni quyidagicha izohlaydi: “saylov asosida tayinlangan yoki Quyi palata (Milliy uyushma) tomonidan tasdiqlangan murakkab qaror chiqarish siyosati bilan aloqador bo‘lgan yoki shu kabi ishlarning bajarilishida ko‘maklashuvchi hamda siyosiy xizmat sifatida qonuniy tayinlangan davlat xizmatchilari” [22, 18–19-b.]. Ukrainaning “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasida Ukraina Oliy radasi raisi va uning o‘rinbosarlari, deputatlar, Bosh vazir, sudyalar, hukumat a’zolari va vazirlar faoliyati Ukraina Konstitutsiyasi va maxsus qonunlari bilan tartibga solinishi belgilangan [23]. Shunday qilib, Fransiya va Italiyada parlament xodimlari davlatning maxsus xizmati hisoblansa, Koreya Respublikasida esa saylanadigan lavozimlar siyosiy xizmat hisoblanmoqda. Ukrainada esa deputatlarning faoliyati davlat xizmati to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinmasligi belgilangan.

Nazarimizda, davlat xizmatining alohida *davlat siyosiy xizmati* kategoriyasini amaliyotga kiritish zarurati mavjud. Bu guruhga parlament a’zolarini kiritish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlash mumkin. Aksincha, Oliy Majlis palatalari devonlarining xodimlari hamda Mahalliy kengashlar kotibiyatlarining deputat bo‘lmagan xodimlari davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida belgilanishi lozim. Chunki ularning faoliyati fuqarolik xizmati xususiyatlariga to‘liq mos tushadi. Ular siyosiy xizmat bilan shug‘ullanmaydi hamda lavozimi bo‘yicha siyosiy huquq va majburiyatlarga ega emas.

Davlat xizmatini tasniflashda yana bir muhim masala davlat muassasalarida faoliyat yurituvchi ta’lim va tibbiyot xodimlarining huquqiy maqomidir. Bugungi kunda ularining davlat xizmatidagi o‘rni masalasi ham ochiq qolmoqda. Aksariyat davlatlarda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasi xodimlari sudyalar, prokurorlar, tashqi ishlar xizmati xodimlari, militsiya va harbiy soha vakillari bilan bir qatorda davlatning maxsus xizmati tarkibiga kiritilgan. Bunday holatni Koreya Respublikasida ko‘rish mumkin. Buyuk Britaniyada o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, sudyalar, harbiy xizmatchilar, politsiya xodimlari davlatning maxsus xizmati hisoblanadi [24, 162–164-b.]. Fransiyada davlat xizmatchilarining barchasi ikkita yirik guruhga bo‘lingan. Birinchi guruh fuqarolik sohasida-

gi xizmatchilar bo‘lib, unga o‘qituvchilar va shifokorlar mansub. Ikkinchi guruh harbiy xizmatchilar, sud va parlament xodimlaridan iborat. Shuningdek, fuqarolik sohasidagi xizmatchilar 4 ta guruhga – “A”, “B”, “C”, “D” iyerarxik kategoriyalariga bo‘linib, o‘qituvchilar eng yuqori “A” guruhga mansubdir [25, 78–90-b.]. Germaniyada ham o‘qituvchilar davlat apparati, temir yo‘l va pochta xodimlari bilan bir qatorda davlat xizmatiga kiritilgan [26, 205–223-b.]. K. Demmkening tahlillariga ko‘ra, Yevropaning Belgiya, Chexiya, Finlandiya, Gretsiya, Vengriya, Irlandiya, Italiya, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya kabi mamlakatlarida ham davlat muassasalaridagi pedagog va tibbiyot xodimlari davlat xizmatchilari guruhlariga kiradi [26, 21–23-b.].

Bizningcha, davlat muassasalarida faoliyat yurituvchi o‘qituvchilar va tibbiyot xodimlari ham davlat xizmatchisi sifatida e’tirof etilishi va davlat xizmatchilariga beriladigan huquq va kafolatlardan foydalanishi lozim. Bunda ikki yo‘l taklif etiladi. Birinchi yo‘l sifatida o‘qituvchilar va tibbiyot xodimlari davlat fuqarolik xizmatchisi deb e’tirof etilishi mumkin. Ikkinchi yo‘l esa o‘qituvchilar va tibbiyot xodimlaridan iborat alohida davlat xizmati yo‘nalishi qonunchilikda belgilanishi lozim.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, davlat fuqarolik xizmati davlat xizmatining alohida bir turi hisoblanadi. Tahlillar natijasida davlat fuqarolik xizmati quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, deyish mumkin:

– birinchidan, davlat fuqarolik xizmati siyosiy jarayonlardan xoli xizmat hisoblanadi. Prezidentlik va parlament saylovlari natijasidagi o‘zgarishlar davlat fuqarolik xizmatiga ta’sir etmaydi, ya’ni davlat fuqarolik xizmatchilarining iste’fosiga olib kelmaydi (shu sababli ham davlatning siyosiy xizmatini qonunchilikka kiritish zarurati mavjud);

– ikkinchidan, davlat fuqarolik xizmatchilariga aynan shu sohadagi xizmatlari uchun malaka darajalari berilib, bu davlatning maxsus xizmati sohalaridagi unvon, daraja va martabalardan farq qiladi;

– uchinchidan, davlat fuqarolik xizmatida davlatning maxsus xizmati sohalari kabi alohida ust-bosh joriy qilinmaydi. Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloq va etiket qoidalari asosida kiyinishlari mumkin bo‘ladi;

– to‘rtinchidan, boshqaruv va yordamchi guruhlardagi davlat fuqarolik xizmati lavozimlari uchun kadrlar tanlov asosida qabul qilinadi va ular bilan mehnat shartnomasi tuziladi;

– beshinchidan, davlat fuqarolik xizmati sohasida maxsus qonun bilan bir qatorda (ushbu qonun bilan tartibga solinmagan mehnatga oid munosabatlari uchun) mehnat qonunchiligi ham amal qiladi.

Tahlillar natijasida davlat fuqarolik xizmati va davlat fuqarolik xizmatchisi tushunchalariga ilmiy ta’riflar ishlab chiqish lozim bo‘ladi. Birinchi paragrafda o‘rganilgan qarashlar, xorijiy mamlakatlar tajribasi va amaldagi qonunchilikdan kelib chiqib, aytish mumkinki, *“davlat fuqarolik xizmati – davlat xizmatining bir turi bo‘lib, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarida davlat budjetidan to‘lanadigan maosh evaziga fuqarolar tomonidan davlatning vazifalari va funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan kasbiy (professional) faoliyat”dir.* Darhaqiqat, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda ham davlat fuqarolik xizmatining haq to‘lanadigan kasbiy faoliyat ekaniga urg‘u qaratilgan. Davlat fuqarolik xizmatchisi tushunchasini esa quyidagicha izohlash mumkin: *“davlat fuqarolik xizmatchisi – qonunchilik bilan o‘rnatilgan tartibda belgilangan yoshga to‘lgan, belgilangan malaka talablariga ko‘ra, davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallagan, davlat budjetidan doimiy maosh oluvchi, lavozimiga ko‘ra huquq va majburiyatlarga ega fuqaro”*.

Shuningdek, davlat xizmatini tasniflash bo‘yicha yagona yondashuv mavjud bo‘lmay, olimlar bu borada o‘z nazariyalarini taklif etadi. Ular davlat xizmatini tasniflashda bir

qancha mezon va xususiyatlarga e'tibor qaratadilar. Shu sababli tasniflash umumiylik kasb etmaydi. Aynan tadqiqotchi olimlarning qarashlari asosida barcha davlatlarda davlat xizmatini tasniflash bo'yicha turlicha asoslar shakllanib boradi. Yuqorida ko'rib chiqilganidek, mamlakatimizda davlat xizmati instituti davlatning maxsus xizmati va davlat fuqarolik xizmatiga bo'lindi. Bu esa tizimning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish ehtiyojining paydo bo'lishiga olib keldi. Shu nuqtayi nazardan davlat xizmatini tasniflash jarayonida vujudga kelgan huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Davlat xizmati tizimi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi va unda davlat xizmatining turlari aniq belgilanishi lozim. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunida davlat xizmatining quyidagi turlardan iborat bo'lishi taklif etiladi: davlatning siyosiy xizmati, davlatning maxsus xizmati, davlat fuqarolik xizmati. Ushbu xizmat turlari alohida moddalarda izohlanib, uning tartib doirasi belgilanishi yoki tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga havola qilinishi mumkin. Qonunda har bir davlat xizmati turi doirasida beriladigan maxsus unvonlar, diplomatik martabalar, malaka va martaba darajalariga oid norma ham belgilanishi maqsadga muvofiq. Unga ko'ra, ushbu unvon va darajalarning qiyosi belgilanib, bir davlat xizmati turidan boshqasiga o'tganda oldingi unvon va darajalar inobatga olinishiga oid umumiy norma ham belgilanishi mumkin. Mazkur qonun doirasida davlat xizmatchilarining umumiy reyestrini ham belgilash lozim. Bu kimlar davlat xizmatchisi hisoblanishiga oid masalaga huquqiy yechim bo'ladi. Shuningdek, qonunda barcha davlat xizmati turlariga xos bo'lgan umumiy prinsiplar ham belgilanishi zarur. Bundan tashqari, qonunda davlat xizmatini boshqarish, davlat xizmatiga kirish va uni o'tash, davlat xizmatini moliyalashtirishga oid fundamental qoidalar ham belgilanishi, qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish borasidagi quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin:

– birinchidan, adliya organlari, soliq xizmati, tashqi (diplomatlik va konsullik) xizmat faoliyati "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun doirasiga kiritilmasligi hamda bu haqdagi alohida qonun hujjatlari tartibga solinishi maqsadga muvofiq. Chunki ular o'z xususiyatiga ko'ra, davlat fuqarolik xizmati belgilaridan farq qiladi;

– ikkinchidan, davlat muassasalarida faoliyat yurituvchi o'qituvchi va tibbiyot xodimlarining davlat xizmatidagi huquqiy maqomini aniq belgilash zarurati mavjud. Bunda ikki yo'l taklif etiladi. Birinchi yo'l sifatida o'qituvchilar va tibbiyot xodimlari davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ikkinchi yo'l esa davlat xizmati tizimida o'qituvchilar va tibbiyot xodimlaridan iborat alohida davlat xizmati yo'nalishi belgilanishi mumkin;

– uchinchidan, Oliy Majlis palatalari devonlarida kundalik faoliyat bilan shug'ullanuvchi, senator va deputat bo'lmagan xodimlar hamda Mahalliy kengashlarning deputat bo'lmagan kotibiyat xodimlari davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida e'tirof etilishi maqsadga muvofiq. Chunki ular siyosiy xizmat bilan shug'ullanmaydi hamda lavozimi bo'yicha siyosiy huquq va majburiyatga ega emas.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz [We will continue our path of national development with determination and take it to a new level]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2017, vol. 1, p. 58.

2. Ovsyanko D.M. Gosudarstvennaya sluzhba Rossiyskoy Federatsii [Civil Service of the Russian Federation]. Moscow, Lawyer Publ., 2003, p. 287.
3. Starilov YU.N. Sluzhebnoye pravo [Service law]. Moscow, BEK Publ., 1996, pp. 345–355.
4. Alimov Kh.R. Administrativnoye pravo Respubliki Uzbekistan [Administrative law of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Justice Publ., 1999, pp. 113–116.
5. Xojiyev E.T. Davlat xizmati [Civil service]. Tashkent, TSIL Publ., 2004, p. 39.
6. Mirboboyev B., Xusanov O., Begmatov A. O'zbekiston davlat xizmatini tashkil etishning tashkiliy huquqiy masalalari [Organizational and legal issues of the organization of the civil service of Uzbekistan]. Tashkent, Academia Publ., 2005, p. 57.
7. Khamedov I.A. Organizatsionno-pravovyye problemy sovershenstvovaniya sistemy gosudarstvennogo upravleniya v Respublike Uzbekistan [Organizational and legal problems of improving the public administration system in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2004, p. 251.
8. Public servive. Available at: https://www.merriam-webster.com
9. Civil servive. Available at: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com
10. Federal Law on the Civil Service System of the Russian Federation. Available at: www.consultant.ru
11. Azizov X., Yo'ldoshev A., Asadov SH., Xayitov X., Karimov D., Bekchanov D., Atajanova D., Yuldasheva F. Davlat xizmati [Civil service]. Tashkent, Wing of Thought Publ., 2019, p. 12.
12. Maxmudov F.B. Davlat fuqarolik xizmatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari [Organizational and legal mechanisms for preventing conflicts of interest in the civil service]. Tashkent, 2021, p. 15.
13. Axmedshayeva M.A. Davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyati [Executive power in the system of state power]. Tashkent, 2011, p. 11.
14. Resolution of the Interparliamentary Assembly of Member Nations of the Commonwealth of Independent States On the model law On the Fundamentals of Civil Service. 1998. Available at: http:// www.levonevski.net/
15. Vienna Convention on Diplomatic Relations, 1961. Available at: https://legal.un.org
16. Vienna Convention on Consular Relations, 1963. Available at: https://legal.un.org/
17. Isayeva F.B. Uzoq muhokamalarga sabab bo'lgan qonun loyihasi: Davlat xizmatchisining huquqiy maqomini belgilash zarur edi [The bill that caused lengthy discussions: It was necessary to determine the legal status of a civil servant]. Available at: http://hudud24.uz
18. Zhurayev Sh.Yu. Gosudarstvennaya sluzhba [Public service]. Tashkent, TSUL Publ., 2020, pp. 27–28.
19. Resolution of the Interparliamentary Assembly of Member Nations of the Commonwealth of Independent States "On the model law 'On the fundamentals of civil service'", 1998. Available at: http://www.levonevski.net/
20. Said-Gaziyeva N.Sh. O'zbekistonda davlat xizmatini isloh qilishning nazariy va amaliy muammolari [Theoretical and practical problems of civil service reform in Uzbekistan]. Tashkent, 2010, pp. 75–76.
21. Bordogna L., Nerini S. Convergence towards an NPM programme or different models? Public service employment relations in Italy and France. *The International Journal of Human Resource Management*, 2011, vol. 22, pp. 2311–2330.
22. Suk K.P. Davlat boshqaruvida inson resurslari 2018-yil nigohida [Human resources in public administration in 2018]. 2018, pp. 18–19.
23. Law of Ukraine "On Civil Service", No. 3723-XII, 1993. Available at: http://consultant.parus.ua/
24. Salikov D.Kh. Institut gosudarstvennoy sluzhby v Velikobritanii [Institute of Civil Service in the UK]. *Society, Economy, Management*, 2017, vol. 2, pp. 162–164.
25. Rubinskiy Yu. Gosudarstvennaya sluzhba Frantsii [Civil Service of France]. *Modern Europe*, 2007, vol. 2(30), pp. 78–90.
26. Schröter E., Reinhard Ch. Civil Service and Public Employment. *Public Administration*, 2021, pp. 205–223. DOI: 10.1007/978-3-030-53697-8_13.
27. Demmke Ch. Who is a Civil Servant and Who is not–and Why. *Study for the Directors General of the public services of the Member states of the European Union, Maastrich,* 2004, pp. 21–23.

Kelib tushgan / Получено / Received: 07.05.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 16.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./IHLX8184
UDC: 001.8:347(045)(575.1)

XUSUSIY HUQUQ FANI SOHASIDA ILMIY TADQIQOT ISHLARINING ILMIY-METODOLOGIK TAHLILI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, Turon Fanlar
akademiyasi akademigi
ORCID: 0000-0001-8550-9276
e-mail: sh.ruzinazarov@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada raqamli transformatsiyalashuv sharoitida xususiy huquqda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishning metodologik muammolari va takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Raqamli reallik davrida fuqarolik-huquqiy tadqiqotlarning predmeti, mazmuni va uslubiy yondashuvlariga qo‘yilayotgan talablar mavjudligiga qaramay, dissertatsion tadqiqotlarning nazariy va amaliy asoslari yetarli darajada shakllanmagani mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Muallifning aytishicha, ilmiy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushuncha va kategoriyalarning nazariy gnoseologik ta’rifi tadqiqot doirasida tugal sivilistik mazmun kasb etmaydi. Maqolada ilmiy yangilik, xulosa va tavsiyalarni ifodalashdagi mavjud kamchiliklar ko‘rsatilib, xususiy huquq fani sohasida ilmiy tadqiqot ishlari ilmiy-metodologik tahlil qilingan va uning tadrijiy rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotda huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanilgan hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo‘llangan. Xususiy huquqni rivojlantirishning tarixiy va tadrijiy qonuniyatlari asosida ilgari fanga ma’lum bo‘lmagan yangi ishlanmalar yoki gipoteza (nazariya)ni fuqarolik muomalasida qo‘llashga oid yangi bilimlarni shakllantirish zaruriyati vujudga kelayotgani asoslantirilgan. Xulosada zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy muloqot maydonchalarini shakllantirish, tadqiqotchilarni metodik tayyorlashning yangi mexanizmlarini joriy etish kabi mualliflik takliflari ilgari surilgan.*

Kalit so’zlar: *raqamli transformatsiya, xususiy huquq, fuqarolik muomalasi, ilmiy metodologiya, dissertatsion tadqiqot, qiyosiy-huquqiy tahlil, ilmiy yangilik, huquqiy munosabatlar, sud amaliyoti, raqamli huquq, sivilistika, ilmiy xulosa va tavsiyalar*

НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ ЧАСТНОГО ПРАВА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Рузиназаров Шухрат Нуралиевич,
доктор юридических наук, профессор кафедры
«Бизнес-право» Ташкентского государственного
юридического университета,
академик Академии наук «Турон»

Аннотация. *В статье рассматриваются методологические проблемы и направления совершенствования научных исследований в сфере частного права в условиях цифровой трансформации. Несмотря на существующие требования к предмету, содержанию и методологическим подходам гражданско-правовых исследований в эпоху цифровой реальности, теоретико-практическая база диссертационных исследований пока не выработана в должной степени, что определяет актуальность рассматриваемой темы. По мнению автора, теоретико-гносеологическое определение новых понятий и категорий, входящих в научный оборот, в рамках исследований не всегда приобретает полноценное цивилистическое содержание. В статье указаны имеющиеся недостатки в формулировке научной новизны, выводов и рекомендаций, приводятся научно-методологический анализ текущих исследований в области частного права и размышления о его поступательном развитии. В исследовании использованы научно-теоретические взгляды юристов, а также применены сравнительно-правовой метод, анализ, синтез, наблюдение, обобщение, индукция и дедукция. Обоснована необходимость формирования новых знаний, направленных на применение ранее неизвестных в науке разработок или гипотез (теорий) в гражданском обороте, с учётом исторических и поступательных закономерностей развития частного права. В заключение автором предложены практические рекомендации, включая формирование площадок для научного дискурса с использованием современных технологий и внедрение новых механизмов методической подготовки исследователей.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, частное право, гражданский оборот, научная методология, диссертационное исследование, сравнительно-правовой анализ, научная новизна, правовые отношения, судебная практика, цифровое право, цивилистика, научные выводы и рекомендации*

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ANALYSIS OF RESEARCH IN THE FIELD OF PRIVATE LAW: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Ruzinazarov Shukhrat Nuraliyevich,
Professor of the Department of Business Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law,
Academician of the Turan Academy of Sciences

Abstract. *The article analyzes the methodological problems and directions for improving the conduct of scientific research in private law in the context of digital transformation. Despite the existing requirements for the subject, content, and methodological approaches of civil law research in the digital reality era, the insufficient formation of the theoretical and practical foundations of dissertation research determines the relevance of the topic. According to the author, the theoretical epistemological definition of new concepts and categories entering scientific circulation does not have a complete civilizational content within the framework of the research. The article highlights existing shortcomings in the expression of scientific innovations, conclusions, and recommendations, provides a scientific and methodological analysis of research in the field of private law, and reflects on its evolutionary development. The research used the scientific and theoretical views of legal scholars, as well as the comparative legal method, methods of analysis, synthesis, observation, generalization, induction, and deduction. Based on the historical and evolutionary laws of the development of private law, it is substantiated that there is a need to form new knowledge about the application of previously unknown developments or hypotheses (theories) in civil transactions. The conclusion puts forward such author's proposals as the formation of scientific communication platforms using modern technologies, the introduction of new mechanisms for the methodological training of researchers.*

Keywords: *digital transformation, private law, civil circulation, scientific methodology, dissertation research, comparative legal analysis, scientific novelty, legal relations, judicial practice, digital law, civilistics, scientific conclusions and recommendations*

Kirish

Xususiy huquq fanining raqamli transformatsiyalashuvi metodologik jihatdan nafaqat huquqiy ilmiy ijodiyotda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni, balki raqamli reallik davrida tadqiqot ishlari sifati va samaradorligini oshirishning zamonaviy shakl hamda uslublarini puxta o‘zlashtirishni taqozo etmoqda. Binobarin, raqamli reallik sharoitida sivilistik tadqiqotlarning predmeti hamda mazmuniga qo‘yiladigan umumiy va maxsus talablar o‘ziga xos xususiyatga egadir. *Birinchidan,* ilmiy adabiyotlar (ilmiy g‘oya va qarashlar) normativ huquqiy hujjatlar – eng yaxshi xorijiy tajribaning tizimli va qiyosiy-huquqiy tahlili, huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili, statistik-sosiologik tahlil, huquqiy eksperiment tasdiqlarining tahlili, raqamli fuqarolik muomalasi ehtiyojidan kelib chiqib, huquqiy tartibga solishning tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari – huquqiy tartibga solishning mazmuni, xususiyatlari va uni takomillashtirish istiqbollari; *ikkinchidan,* huquqiy tartibga solish, fuqarolik-huquqiy kategoriyalar, amaldagi huquqiy normalar, qonunchilikni o‘rganish va tahlil qilish, doktrina va amaliyot – fuqarolik-huquqiy tartibga solishning dolzarb muammolari, nazariy, amaliy jihatlari va uning yechimi, huquqiy tartibga solishning huquqiy mexanizmlari kabilar shular jumlasidan.

Fuqarolik muomalasi raqamli shaklga o‘tgan bugungi sharoitda raqamli huquqiy munosabatlar bo‘yicha dissertatsiyaviy ilmiy tadqiqot ishlariga e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, biroq ularning nazariy-metodologik asoslari juda zaif. Ayniqsa, ilmiy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushuncha va kategoriyalarning nazariy gnoseologik ta’rifi tadqiqot doirasida tugal sivilistik mazmun kasb etmaydi. Shuning uchun milliy sivilistik huquqiy doktrina nuqtayi nazaridan ilmiy muomalaga kiritilayotgan ilmiy tushunchalar genezisi ularni puxta tadqiq etishni talab qiladi. Eng katta muammoli masalalardan biri dissertatsiya ishlarining ilmiy yangiligini ifodalashda faqat muayyan darajada amaliyotga tatbiq etilgani haqidagi dalolatnoma hujjatidagi takliflarning ko‘rsatilayotganidir. Ma’lumki, bunday takliflar qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, ilmiy xulosalar bo‘yicha uni amaliyotda qo‘llashga oid dalolatnoma olish juda murakkab masala hisoblanadi.

Darhaqiqat, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy manbalar bilan ishlashda keng imkoniyatlarni yaratayotgan bo‘lsa-da, ulardan maqsadli va oqilona foydalanish taqozo etilmoqda. Internetdagi ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatyaptiki, barcha ma’lumotlar ham metodologik asoslarga tayanilgan va ilmiy tadqiqot usullari talablariga to‘liq rioya etgan holda asoslantirilgan dalil va isbotlar asosida yozilmagan. Ijtimoiy munosabatlarning real va raqamli makonda yuz berishi bilan bog‘liq turli ilmiy-huquqiy manbalardan foydalanishga e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, biroq ularning fundamental va metodologik ilmiy manbalarga asosli havolalar keltirish darajasi sayoz. Bu esa ilmiy asoslantirilgan xulosa va takliflarni ishlab chiqishga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Maqolada ilgari surilayotgan asosiy g‘oyaning asoslantirish darajasi shu bilan izohlanadiki, real va raqamli makondagi ilmiy manbalardan foydalanishda fundamental va metodologik tahlil ustuvorlik kasb etmog‘i lozim.

Mamlakatimizdagi aksariyat sivilist olimlarning klassik ilmiy manbalarini internet sahifalariga joylashtirishni tizimli yo‘lga qo‘yish, o‘z navbatida, xususiy huquq sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-metodologik asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlari materiallari tahlili asosida har qanday ilmiy tadqiqot ishi fundamental va metodologik asoslarga tayanib yozilgan taqdirda davlat va jamiyat rivojlanishining obyektiv rivojlanish qonuniyatlariga hamohang bo‘lgan sivilistik ilmiy tadqiqot ishlari natijadorligiga erishish

imkoniyati yuzaga kelishi mumkin, deb ilmiy bashorat qilish mumkin. Ayni paytda fundamental tadqiqotlarga qo‘yiladigan talablar jihatidan ilmiy-amaliy asoslantirilmagan, faqat shaxsiy taassurotlarga tayanilgan yuzaki, umumiy fikr-mulohazalar nafaqat ilmiy-metodologik mazmun kasb etmaydi, balki kelgusida bunday asoslanmagan xulosalarga tayanib ishlab chiqilgan “umumiy g‘oyalar” xususiy huquq fanini rivojlantirishga ham hech qanday yordam bermaydi. Ayni shu ma’noda vaqti-vaqti bilan dissertatsiyaviy tadqiqot ishlarini ilmiy-amaliy monitoring qilish maqsadida chuqur metodologik tahlil o‘tkazish, o‘z navbatida, nafaqat mavjud muammolarni hal etish, balki uni ilmiy bashorat qilish uchun asosli yechimlarga kelish imkonini beradi.

Material va metodlar

Tadqiqot bo‘yicha material va metodlar tavsifi xususiy huquq sohasida ilmiy tadqiqotlarni metodologik ta’minlashi tahliliga oid farazlar bu borada muayyan bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shuni nazarda tutgan holda tadqiqotda yuridik fanlar doktrinasida shakllangan xususiy huquq fani sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining holati haqidagi tizimli muammolarni o‘rganishga maxsus tadqiqot yo‘nalishi sifatida alohida ahamiyat berildi. Chunki zamonaviy sharoitlarda internet texnologiyalarning jadal rivojlanishi ilmiy manbalar bilan ishlashda yangicha ilmiy metodologik usullarini qo‘llashni taqozo etmoqda.

Tadqiqotda xususiy huquq fani sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-metodologik tahlili, uning tadrijiy rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanilgan hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo‘llangan.

Tadqiqot natijalari

Har qanday ilmiy tadqiqot ishlarining natijasi ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan iborat bo‘lishini nazarda tutsak, hozirda mavjud bo‘lgan dissertatsiya ishlarining ilmiy yangiliklar qismiga oid bunday yondashuvlardan voz kechish kerak. Dissertatsiyalarning ilmiy yangilik qismida nafaqat tatbiq etilgan takliflar, balki uning natijasida olingan asosiy ilmiy xulosa va tavsiyalar ham o‘z ifodasini topishi zarur. Bu borada yana bir muhim ilmiy argument shundaki, yurisprudensiya sohasidagi tadqiqot natijalari u yozilgan yoki himoya qilingan davrda emas, balki oradan muayyan muddat o‘tgandan so‘ng amaliyotga tatbiq etilishi mumkin. Afsuski, bunday ilmiy-metodologik haqiqatni tan olish masalasi hanuzgacha o‘z yechimini topmayapti. Bu borada bildirilayotgan nuqtayi nazarni inobatga olib, yurisprudensiya sohasidagi dissertatsiyalarni rasmiylashtirishda bu kabi kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish fursati yetdi. Aksariyat tadqiqot ishlari natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosli tarzda ifoda etilmaydi. Aksariyat xulosa va takliflar dissertatsiya mazmuni bilan mantiqan va tizimli bog‘liq bo‘lmagan holda bayon etilishi dissertatsiyalar sifatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Mavzu doirasidagi masalalarni bitta dissertatsiya ishida tugal yoritish imkoniyati mavjud emas. Shu sababli, ilmiy tadqiqot ishlari an’analari va yondashuvlaridan kelib chiqib, tegishli o‘rinlarda amalga oshirilayotgan tadqiqotni chegaralash va qismlarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash, ayrim dolzarb muammolar maxsus tadqiqot obyekti bo‘lishi lozimligi haqidagi nuqtayi nazarlarni ham asoslantirib berish maqsadga muvofiq. Eng muhimi, bunday tadqiqot ishlarining aksariyatida sotsiologik va huquqiy eksperimental tasdiqlar ham yetarli darajada emas – sotsiologik va huquqiy eksperimentlarni qo‘llashning tashkiliy, huquqiy va metodik mexanizmlari to‘liq ishlab chiqilmagan.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlarining asosi sifatida xorijiy doktrina va qonunchilikka tayanilayotgan bo‘lsa-da, biroq milliy huquqiy tizimning real voqeligidan kelib chiqib, uni qiyosiy huquqshunoslik metodologiyasi

nuqtayi nazaridan tadqiq etishga lozim darajada ahamiyat berilmayapti. Tadqiqotlarning mazmun va mohiyati aksariyat ishlarda faqat bayoniy usulda yoritilayotgani sababli uning natijasida olingan xulosa va takliflarni huquqni qo‘llash amaliyotida joriy etishning samaradorlik darajasi juda past. Nazarimizda, huquqiy tartibga solishda vujudga kelayotgan yangi voqelikdan kelib chiqib, raqamli fuqarolik muomalasi bilan bog‘liq mavzularni o‘rganishda raqamli transformatsiyalashuvning obyektiv qonuniyatlarini inobatga olish lozim. Bundan tashqari, bunday tadqiqot natijalari raqamli makondagi huquqiy munosabatlar haqidagi ilmiy ta’limotlarga tayanilmasa, samara bermaydi.

Davlat va jamiyat raqamli transformatsiyalashuvining dastlabki tarixiy bosqichida fuqarolik muomalasida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar raqamli makonda vujudga kelayotgan munosabatlarni oqilona va samarali huquqiy tartibga solishni taqozo etadi. Fuqarolik huquqi fanlari mavzularini ilmiy tadqiq etishdagi eng jiddiy muammo umumilmiy va maxsus usullarga deyarli e’tibor berilmayotgani yoki tadqiqot tugal mazmun kasb etmayotganidir. Mavzuning dolzarbligi, har bir kichik mavzuni o‘rganishning ahamiyati va zaruriyati yetarli asoslantirib berilmayapti. Shuningdek, ilmiy tadqiq etishda metodologik talablarga, xususan, ilmiy manbalardan foydalanish va maqsadli, muammoli masalalar bo‘yicha huquqshunos olimlar bilan bahs-munozaraga kirishish, ularning nuqtayi nazarlarini to‘liq yoki qisman qo‘llab-quvvatlash hamda ilmiy ijodiyotning odob-axloq qoidalariga rioya qilib, ular fikriga qo‘shilmaslikning nazariy-amaliy argumentlarini izohlab berish bo‘yicha ko‘nikmalar yo‘qligi namoyon bo‘lmoqda.

Huquqni qo‘llash amaliyotiga oid xorijiy va milliy sud misollari keltirilayotgan bo‘lsada, biroq ular faqat holatni bayon etish bilan bog‘liq. Amaliyotdagi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilish, sudlarga muayyan toifadagi nizolarni hal etishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalasi aksariyat ishlarda tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining tegishli Plenum qaroriga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoki alohida qarorlarni ishlab chiqish va ularning loyihalarini tayyorlash masalasi ko‘pchilik ishlarda tadqiqotchilarning diqqat-e’tiboridan chetda qolmoqda. Ayniqsa, raqamli huquqni qo‘llash amaliyoti ehtiyoji va zaruriyatidan kelib chiqib, sudlar uchun bu haqdagi tavsiyalarni ishlab chiqish nafaqat ilmiy tadqiqot ishlarining, balki huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishga ham xizmat qilgan bo‘lar edi. Shuningdek, qonunchilik tahliliga oid yondashuvlar ham bir tomonlama bo‘lib, xorijiy qonunchilik tizimi bilan qiyoslash darajasi talabga javob bermaydi. Har bir ixtisoslik yo‘nalishining nafaqat tarixi, balki bugungi raqamli fuqarolik muomalasining nazariy-metodologik asoslarini mukammal o‘rganmasdan xulosaga kelish – masalaning yana bir muhim jihati. Bu borada ilmiy rahbarlar mas’uliyatini oshirish, ilgari bo‘lgani kabi maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning, ya’ni tegishli ixtisoslik fan sohalari bo‘yicha mavzularni chuqur o‘rganishning oqilona zamonaviy ilmiy onlayn va oflayn muloqot maydonlarini vujudga keltirish lozim.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqot ishlarida taqrizchilik faoliyati samaradorligini oshirish choralarini ko‘rish talab etilmoqda. Har bir ixtisoslik yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil tadqiqotchi yoki tayanch doktorant bilishi lozim bo‘lgan maxsus ilmiy-metodologik fan dasturlarini raqamli platformalar orqali tizimli o‘rganishning tashkiliy, texnik va metodik mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Hozirgi paytda maxsus ixtisoslik fanlaridan talabgorlarni baholash tizimi yaratilgan bo‘lsa-da, biroq ularning bu boradagi bilimi va amaliy ko‘nikmalari raqamli transformatsiyalashuv sharoitida ustuvor mavzular bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning obyek-

tiv ehtiyoji bilan bog‘liq talablarga javob bermaydi. Umumiy va yuzaki tadqiqot ishlari raqamli reallik sharoitida huquqiy munosabatlarni samarali tartibga solishga yordam bermaydi. Ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarida ilmiy tadqiq etish mahorati yetishmasligi, dissertatsiyani tayyorlash texnikasi, metodologik ilmiy texnologiyani bilish darajasi zamonaviy talabga javob bermasligi, ilmiy va amaliy yondashuv mexanizmlarini to‘g‘ri tushunmaslik kuzatiladi. Shu bilan birga, joylarda qonun hujjatlarining amaliyotda qo‘llash holati chuqur o‘rganilmayotgani raqamli fuqarolik muomalasiga oid muammolarni o‘rganish sifati past bo‘lishiga olib kelmoqda. Raqamli yurisprudensiya muammolarini maqsadli o‘rganish uchun ustoz-shogird an’analariga muvofiq tashkiliy, intellektual dasturiy o‘quv ta’minotini yo‘lga qo‘yish ilmiy tadqiqot ishlarining sifat darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu zamonaviy ilmiy-metodologiyani puxta egallagan yosh huquqshunos ilmiy tadqiqotchilar korpusini shakllantirish imkonini beradi.

Xususiy huquq sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda mulk, tadbirkorlik, investitsiya, qishloq xo‘jaligi, oila, xalqaro xususiy huquq, ayniqsa, fuqarolik huquqining dolzarb muammolari va ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari fanimiz taraqqiyotiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. Biroq raqamli transformatsiyalashuv sharoitida yuridik fanlarni fundamental tadqiq etishning konsepsiyaviy, izchil, muammoli-maqsadli kompleks tizimi yo‘qligi va uni sohalararo muvofiqlashtirish talabga javob bermasligi yana bir muammodir. Shu sabab huquqiy izlanishlarning sur’ati huquqiy tartibga solishning obyektiv ehtiyoji talablariga javob bermay qoldi. Hozirgi paytda yuridik soha bo‘yicha fundamental tadqiqotlarni muvofiqlashtirilgan holda kompleks o‘rganish jarayoni talabga javob bermaydi. Bugun monografik tadqiqotlarda raqamli transformatsiyalashuv sharoitida yuridik fanlarning rivojlanishi va zamonaviy muammolari, xususan, fuqarolik, tadbirkorlik huquqining ayrim sohaviy institutlari tizimli o‘rganilmoqda. Raqamli fuqarolik muomalasining obyektiv zaruriyatidan kelib chiqib, kompleks maqsadli yondashuvlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish va raqamli yurisprudensiyaning fundamental ilmiy-amaliy “Yo‘l xaritalari”ni ro‘yobga chiqarishning ahamiyati ortmoqda.

Fuqarolik, tadbirkorlik, oila, xalqaro xususiy huquq sohalarining, shuningdek, ko‘plab xususiy huquqning kichik sohalari, shu jumladan, elektron tijorat huquqi ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha uzoq yillarga mo‘ljallangan “Raqamli huquqiy metodologik tadqiqot strategiyasi”ni ishlab chiqish ayni muddaodir. Bu hol raqamli reallik sharoitida yuridik fanlarni, xususan, xususiy huquqiy fanlarni fundamental tadqiq etish bo‘yicha raqamli institutsional tuzilmalarni shakllantirishni ham talab etmoqda. Ushbu huquq sohalari bo‘yicha huquqshunos olimlar korpusini ustoz-shogird tizimi asosida nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoning nufuzli tadqiqot va ta’lim muassasalarida tayyorlash raqamli iqtisodiy va huquqiy rivojlanishni tamomila yangi tarixiy bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi muhim huquqiy tartibga solish funksiyasini bajarmoqda. Endigi vazifa – raqamli fuqarolik muomalasining asosiy bazaviy huquqiy asosi sifatida kodeksning huquqiy tartibga solishdagi rolini yanada oshirish lozim. Raqamli transformatsiyalashuv ehtiyojlaridan kelib chiqib, xususiy huquq sohasida kodifikatsiyalashtirish tizimi masalasini hal qilish ham ustuvor vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Xususiy-huquqiy fanlar bo‘yicha fundamental ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish borasidagi vazifalarni quyidagi omillarga ko‘ra tavsiflash mumkin. Fundamental so‘zi lug‘aviy jihatidan “bosh, asosiy, muhim, eng muhim” degan ma’noda ifodalanishini inobatga olib, xususiy-huquqiy fanlarning asosiy institutlarini tushunish va talqin etish

bo‘yicha ilmiy doktrinal gipoteza, qarashlar majmuini ishlab chiqish lozim. Xususiy huquqning raqamli reallik bilan bog‘liq hodisa, jarayon va obyektlari tabiatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni chuqur ilmiy tadqiq etib, uni rivojlantirishning tarixiy va tadrijiy qonuniyatlari asosida ilgari fanda ma’lum bo‘lmagan yangi ishlanmalar yoki gipoteza (nazariya)ni fuqarolik muomalasida qo‘llashga oid yangi bilimlarni shakllantirish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Xususiy huquq faniga oid fundamental tadqiqotlar o‘zining klassik ma’nosiga ko‘ra, tabiat qonuniyatlari, real haqqoniylikdagi hodisa va obyektning dialektik birligi bilan bog‘liq munosabatlarni aniqlash jarayonida yuz beradigan kompleks huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning monand nazariyasi, yuridik mexanizmning konseptual ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Xususiy huquq bo‘yicha fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishning eng asosiy xususiyati shundaki, u bevosita amaliy muammoni hal etmasa-da, bazaviy fundamental muammoni hal etishning juda ko‘plab amaliy vazifalariga samarali yechim uchun konseptual yo‘llarni ochib beradi. Eng muhimi, fuqarolik huquqining fundamental tadqiqotlariga tayanmasdan uning mohiyatini to‘g‘ri tushunish juda murakkab masaladir. Fundamental fuqarolik-huquqiy tadqiqotlar fanning doktrinal mo‘ljallar va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini, qonuniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Xususiy huquqqa oid fundamental nazariy tadqiqotlar uning normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish uchun doktrinal mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladi. Fuqarolik-huquqiy fundamental nazariy tafakkur fuqarolik qonun hujjatlari normalarini rivojlantirish va takomillashtirishda “nazariy konsepsiya” funksiyasini bajaradi. Shuningdek, bunday turdagi tadqiqot fanning gnoseologik ildizlari mohiyatini chuqur tushunish, idrok etishga, nazariy mushohada etishga, fuqarolik-huquqiy fanlarni ilmiy anglashni haqqoniy ilmiy tadqiq etishning tan olingan va innovatsion metodlarga tayanib uni dialektik rivojlantirish asoslari va prinsiplarining istiqbolli fundamental yo‘nalishlarini yoritib beradi. Xususiy huquqiy fanlar bo‘yicha fundamental nazariy tadqiqotlar davlatning huquqiy siyosatini, xususan, fuqarolik-huquqiy siyosatining asosiy negizlarini belgilab berish barobarida, fanlararo yondashuvlar asosida davlat va jamiyatni rivojlantirish qonuniyatlarining tadrijiy istiqbollariga oid gipotezalar ishlab chiqilishi va uni ijtimoiy hayotda qo‘llashning natijadorligiga erishishni talab etadi. Eng muhimi, fuqarolik huquqi bo‘yicha fundamental nazariy tadqiqotlarda fuqarolik muomalasining holati va rivojlantirishga oid oldindan ishlab chiqilgan va har tomonlama chuqur asoslantirilgan ilmiy bashoratlarga tayanilishi lozim.

Raqamli globallashuv sharoitida fuqarolik huquqi bo‘yicha dunyo sivilist olimlari sa’y-harakatlarini birlashtirish o‘zaro hamkorlikning yangi shakl, usul va formatlarini ishlab chiqish, jamoaviy fundamental nazariy tadqiqotlarni amalga oshirishda g‘oyatda muhim vazifalardan hisoblanadi. Xususiy huquqiy fanlarga oid fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bugungi talabga javob bermaydi. Fundamental tadqiqot mavzularini belgilashga tizimli yondashuv mavjud emas. Fuqarolik huquqiy fanlarning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish tarqoqligi, samaradorlik va natijadorlik darajasi pastligi, raqamli fuqarolik huquqiga oid fundamental tadqiqotlarning deyarli yo‘qligi uning nazariy, qonunchilik asoslarini rivojlantirish imkoniyatini yaratmayapti. Qolaversa, raqamli reallik sharoitida sohaga oid chuqur fundamental tadqiqotlarga kompleks yondashuv holati bugungi kun ehtiyoji va zaruriyatidan ortda qolmoqda, huquqni qo‘llash amaliyotidagi ko‘plab muammolarni hal qilishga ilmiy yechim topishda qiyinchiliklar vujudga kelib, huquq normalari mohiyatini to‘g‘ri talqin etishga yordam bermayapti.

Hozirgi zamonaviy sharoitlarda raqamli iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga obyektiv ehtiyoj va zarurat tobora ortib bormoqda. Huquqiy ilmiy ijodiyot globallashuv jarayonlaridan va huquqni qo‘llash amaliyotidan orqada qolayotgani nafaqat fakt, balki ayni haqiqatdir. Xususan, iqtisodiyot sohasida turli huquqiy tizimdagi davlatlarning raqamli munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchiligini yaqinlashtirish, fuqarolarning raqamli huquqlarini onlayn himoya qilish tizimini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlariga raqamli yuridik yordam ko‘rsatish, raqamli reallik sharoitida xalqaro xususiy huquqning dolzarb muammolarini fundamental tadqiq etib o‘rganish lozim. Ayniqsa, fuqarolik huquqiy munosabat subyektlarining nafaqat real, balki raqamli makonda erkin harakatini ta’minlash, iqtisodiyot sohasida raqamli qonunchilikni imperativ huquqiy tartibga solishdan oqilona, bosqichma-bosqich voz kechish, hakamlik, mediatsiya, xalqaro tijorat arbitraji faoliyatini rivojlantirish, transchegaraviy huquqiy tartibga solishning samaradorligiga erishish zarur.

Raqamli iqtisodiyotni huquqiy ta’minlash maqsadida blokcheyn, token, kripto-valyuta [1, 93-b.; 2, 7–10-b.; 3, 29–44-b.; 4, 3–16-b.], bitkoin [5, 27–31-b.], raqamli investitsiya loyihasi, transchegaraviy elektron tijoratda hisob-kitoblarni huquqiy ta’minlash, fond birjalarida yevrobondlar muomalasining huquqiy rejimi, raqamli muhit sharoitida tuziladigan elektron bitimlar, xususan, smart-kontraktlarning fuqarolik huquqiy tabiati tadqiq etib o‘rganilmagan. Shuningdek, haydovchisiz transport va uchuvchi (dron) vositalar faoliyatini huquqiy tartibga solish, yuridik xizmat ko‘rsatish tizimini raqamlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni huquqiy ta’minlash, sun’iy intellekt, sudlar faoliyatini raqamlashtirish va virtuallashtirish bilan bog‘liq masalalarni fundamental tadqiq etishga zarurat vujudga kelmoqda. Raqamli reallik sharoitida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini huquqiy tartibga solish, tibbiy xizmat ko‘rsatish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish, maxsus, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining huquqiy rejimi, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirishni ilmiy tahlil etish, raqamli ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning fuqarolik huquqiy muammolari, qishloq xo‘jaligi klasterlarining fuqarolik huquqiy maqomi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish zarur [6, 401–414-b.]. Auditorlik va baholash faoliyatini fuqarolik huquqiy tartibga solish, uy-joy huquqining dolzarb muammolari, qimmatli qog‘ozlar bozori, raqobat, geodeziya va kartografiya, shaharsozlik sohasidagi munosabatlarni huquqiy ta’minlash, raqamli iqtisodiyot sharoitida intellektual mulk huquqi subyektlari huquq va manfaatlarini himoya qilishni takomillashtirish borasida ustuvor tadqiqot yo‘nalishlarini belgilash obyektiv zaruratdir. Bundan tashqari, raqamli transformatsiyalashuv sharoitida investitsiya, transport, sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi huquqini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga raqamli davlat xizmatini ko‘rsatishning huquqiy asosini takomillashtirish, “xufiyona iqtisodiyot”ni kamaytirishning huquqiy vositalari samaradorligini oshirish, moliya, soliq [7, 224-b.], sug‘urta, valyuta bozori, budjet huquqining qonunchilik asoslarini takomillashtirishga oid fundamental tadqiqotlarni kuchaytirish lozim.

Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatida minoritar aksiyadorlar ishtirokini oshirish, davlat ulushi mavjud xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalarini boshqarishning klassik ta’limotlarini yangicha ilmiy talqinda idrok etish, Fuqarolik kodeksining ashyoviy huquqlar va yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllariga oid normalarini xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi asosida qiyosiy tadqiq etish maqsadga muvofiq [8, 33-b.]. Suvdan foydalanish shartnomaviy munosabatlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish [9, 87–90-b.], elektron tijoratda tovarlar eksport faoliyatining huquqiy asoslarini rivojlan-

tirish, texnoparklar, xususiy bandlik agentliklarining huquqiy maqomi, oilaviy mehmonxona, xususiy tibbiyot subyektlari maqomi, sanitariya epidemiologiya xizmat ko‘rsatishni huquqiy tartibga solish, uy-joy mulkdorlari shirkatlarida davlat-xususiy sheriklikning huquqiy mexanizmlari bilan bog‘liq zamonaviy masalalarni ustuvor tadqiqot yo‘nalishi sifatida belgilab olgan holda yuridik fanlarning ixtisoslashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish, o‘z navbatida, davlat dasturlaridagi maqsadli vazifalarni ilmiy ta’minlashga xizmat qiladi.

Huquqiy tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishlari fuqarolik huquqida yangi institutlar bo‘lmish *estoppel* [10, 25-b.], *abstrent* (sud neustoykasi) meros shartnomalarining huquqiy tabiatini o‘rganish bilan ham uzviy bog‘liq [11, 9-b.; 12-13-b.]. Raqamli innovatsion tadbirkorlik, raqamli sayyohlik, raqamli va startap yoshlar tadbirkorlik klasterlari faoliyatini huquqiy tartibga solish, xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ommaviy ahamiyatga molik raqamli funksiyalarni bajarishning tartib va asoslari, raqamli ekologik tadbirkorlik, metropolitenda yo‘lovchi va bagaj tashish, autsorsing, *karshering* (tadbirkorlik bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlar uchun jismoniy shaxslarga avtomobilni ijaraga berish) innovatsion, axborot, investitsiya shirkati, korporativ [13], raqamli energetika huquqi [14] va ommaviy xizmat ko‘rsatish huquqiy munosabatlarini tizimli va maqsadli fundamental tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli transformatsiyalashuv sharoitida fuqarolik huquqlarini amalga oshirishning erkinligi, chegarasi, oqilonaligi, halolligi, ijtimoiy adolatni ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Huquq va majburiyatni suiiste’mol qilish, qonunni mensimaslik, uni hurmat qilmaslik, fuqarolik muomalasida huquqbuzarliklarning oldini olishni kuchaytirish “qonun bilan taqiqlanmagan har qanday harakatga ruxsat etiladi” degan yuridik “oltin” tamoyilni amalda ro‘yobga chiqarishni ilmiy ta’minlashni talab etadi. Fuqarolik-huquqiy normalarning dispozitiv mazmun kasb etishidan kelib chiqib, axloqiy-etik tarbiyaviy funksiyasini amalga oshirishni ta’minlashning huquqiy muammolarini tadqiq etish zarur. Shuningdek, tipik ahamiyatga ega bo‘lmagan manba sifatida ish muomalasi odatlari, raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun’iy intellekt odob-axloq qoidalarini qo‘llash doiralarini yanada kengaytirishga oid istiqbolli fundamental yo‘nalishlarni belgilash kerak. Raqamli huquqning globallashuvi sharoitida xususiy va ommaviy manfaatlarning uyg‘unlashuvi, davlat va xususiy raqamli innovatsion sheriklik, davlatning fuqarolik huquqiy munosabat subyektlariga ommaviy raqamli xizmat ko‘rsatishning roli oshayotganligi va bu borada konstitutsiyaviy prinsiplarning ro‘yobga chiqayotganligi, raqamli huquqiy ijodiy metodologiya va aqlli tartibga solish bilan bog‘liq norma ijodkorligi sohasida yangicha fundamental yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Raqamli fuqarolik-huquqiy muomalaning o‘ziga xos jihati sifatida huquqiy munosabat ishtirokchilariga virtual erk, erkni raqamli izhor qilishning sivilistik raqamli texnologik mexanizmlariga oid ilmiy ta’limotni yaratish lozim. Bundan tashqari, raqamli fuqarolik huquqidagi virtual harakatsizlik va majburiyatni bajarmaslikning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan nazariy metodologik ta’limotlarni rivojlantirish, raqamli texnologik protsessual tejamkorlikning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish (onlayn tarzdagi sudgacha himoya qilish) tizimining ta’sirchanligini oshirish lozim.

Raqamli iqtisodiyot Milliy konsessiyasini ro‘yobga chiqarish va shu asosda “Raqamli iqtisodiyot – 2030” dasturini hayotga tatbiq etishga oid olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan vazifani hal qilishda yuridik fanlarning, ya’ni ommaviy va xususiy huquqning ilg‘or ilmiy doktrinalarini ham ishlab chiqish zarurati tug‘ladi. Fan, shu jumladan,

yuridik fan yutuqlariga tayanmasdan raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga va uni ilmiy ta’minlashga erishib bo‘lmaydi. Fuqarolik huquqi fanlar bo‘yicha fundamental tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar nafaqat an’anaviy fuqarolik muomalasida ulkan yutuqlarga erishishning omili bo‘ladi, balki raqamli huquqiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladigan normativ-huquqiy bazani yaratishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini raqamli iqtisodiyotning talablaridan kelib chiqib takomillashtirish vazifasini hal qilish raqamli iqtisodiyot Milliy konsepsiyasining asosiy o‘zagi bo‘lib hisoblanadi. Raqamli fuqarolik muomalasi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni xususiy huquqiy tartibga solish mexanizmlarining yangi tendensiyalarini inobatga olish obyektiv zaruratga aylanadi.

Xulosalar

Xususiy huquqiy, ayniqsa, fuqarolik-huquqiy fanlar bo‘yicha fundamental tadqiqotlardan kutiladigan natijalar quyidagilardan iborat bo‘lishi haqida bi qancha xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, raqamli fuqarolik huquqi muammolarining fundamental ilmiy tadqiqot asoslarini o‘rganish natijalarni amaliyotda qo‘llashning samaradorligini oshirishga va istiqbollarni belgilashga yordam beradi.

Ikkinchidan, fuqarolik-huquqiy fanlar bo‘yicha fundamental tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyotni huquqiy ta’minlashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli fuqarolik-huquqiy muomalaga oid fundamental tadqiqot natijalari uning har bir huquqiy institutining tadrijiy rivojlanishi bo‘yicha yangi bilimlarni shakllantirishga, undan fuqarolik huquqiy muomalasida foydalanishga imkoniyat yaratadi.

To‘rtinchidan, raqamli huquq doktrinasi va qonunchiligiga asos solinishi davlatning fuqarolik huquqiy siyosati bo‘yicha strategik ahamiyatga molik konsepsiya va dasturlarni ishlab chiqishda va uni huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirishda nazariy-metodologik manba hisoblanadi.

Beshinchidan, raqamlashtirish sharoitida fuqarolik-huquqiy fanlar bo‘yicha fundamental tadqiqotlarning natijalari xususiy huquq doktrinasining nazariy gipotezalarini chuqur tadqiq etish barobarida raqamli iqtisodiyotda davlat ishtirokining hajmi va chegarasini, mulkdorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarining raqamli huquqiy himoyasini takomillashtirish, ayniqsa, xususiy mulkchilikning ustuvor rolini ta’minlash, tadbirkorlik va investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishning raqamli-huquqiy mexanizmlarini qo‘llash samaradorligini oshirish uchun nazariy mo‘ljal va haqqoniy amaliy yo‘nalish beruvchi manba vazifasini bajaradi.

Oltinchidan, fuqarolik-huquqiy fanlar bo‘yicha fundamental tadqiqot uning ajralmas qismi bo‘lib, undan zamonaviy amaliy va raqamli innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirishda va pirovardida raqamli bozor iqtisodiyoti talablari asosida raqamli mahsulotni fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida tijoratlashtirishda foydalaniladi. Raqamli iqtisodiyotning fuqarolik-huquqiy muomalasida innovatsion texnologiyalarning keng qo‘llanishi majburiyat huquqiy institutini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Yettinchidan, raqamli huquqqa oid eng yaxshi xorijiy tajribani inobatga olib, fuqarolik huquqi tadqiqot natijalarini o‘quv jarayoniga maqsadli tatbiq etish uchun raqamli fuqarolik huquqini o‘qitish nazariyasi va metodi bo‘yicha maxsus zamonaviy darsliklar tayyorlash maqsadga muvofiq. Bu esa, o‘z navbatida, magistr va talabalarning raqamli huquqqa oid nazariy bilimlarini oshirish bilan bir qatorda, uni kelgusida raqamli huquqni qo‘llash amaliyotida to‘g‘ri tatbiq etishga yordam beradi. Raqamli reallik sharoitida raqamli huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikning tez o‘zgaruvchanligi va jadal rivojlanish sur’atlari huquqshunos

mutaxassislardan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlashni talab etadi. Bo‘lajak mutaxassis raqamli qonunshunoslikni emas, balki raqamli ta’limotga asoslangan huquqshunoslikni g‘oyatda puxta egallashi lozim. Ayniqsa, roman-german huquqiy tizimi oilasiga kiruvchi davlatlarda raqamli huquqni o‘rganishga metodologik jihatdan shunday yondashuv bo‘lmog‘i kerak. Eng muhimi, raqamli huquqning asoslariga oid nazariy bilimlarni puxta egallagan mutaxassislar korpusi huquqni qo‘llash amaliyotida raqamli qonunchilik normalarini amaliy tatbiq etishga qodir bo‘ladi, deyish mumkin.

Sakkizinchidan, butun dunyoda raqamli transformatsiyalashuv sharoitida fundamental fanlarni rivojlantirishga turtki beruvchi omillar shiddat bilan o‘zgarmoqda. Ayniqsa, raqamli huquqqa oid tadqiqotlar natijalarini ilmiy anglash va mushohada etish barobarida uning amaliyligini ta’minlashga juda katta e’tibor berilmoqda. Raqamli algoritmga asoslangan huquqiy tartibga solish sohasida zamonaviy texnologiyalarning huquqni qo‘llash amaliyotiga qaratilgan tadqiqot natijalarining ahamiyati va zaruriyati tobora ortib bormoqda. Raqamli reallik sharoitida tovar va moliya bozorlarida xalqaro raqobatning rivojlanishi, davlatning raqamli iqtisodiy qudratini oshirish, mamlakatning raqamli innovatsion xalqaro reytingida o‘rnini oshirish, davlatlar va kompaniyalar fanni rivojlantirishga juda katta mablag‘ sarflab, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish uchun fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Global va milliy chaqiriqlarga asosan raqamli fuqarolik muomalasini shakllantirish va rivojlantirish chuqur ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotda qo‘llashga erishishni taqozo etmoqda. Bu esa fuqarolik-huquqiy tadqiqotlar sohasida sifat o‘zgarishlari asosida ishlab chiqilgan g‘oyani eksperimental huquqiy tasdiqlariga tayanib fan va amaliyot uchun g‘oyatda muhim bo‘lgan ilmiy tadqiqot natijalariga erishishni zaruriyat qilib qo‘yadi.

To‘qqizinchidan, raqamli fuqarolik muomalasini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida ilmiy tadqiq etishga yangi metodologik yondashuvlar mamlakatni raqamli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalarni hal qilishda fundamental tadqiqotlarning rolini yanada oshirish, davlatimizning ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish raqamli huquq muammolarini maxsus tadqiq etish bo‘yicha zamonaviy sivilistik maktabni yaratish ilmiy darajali kadrlar korpusini shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi, raqamli huquq muammolarini samarali va o‘zaro manfaatli asosda o‘rganish maqsadida xalqaro sivilistik hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishga yordam beradi, raqamli huquq sohasiga oid fundamental tadqiqot natijalarini qo‘llash samaradorligini oshirish va fanga ajratilgan budjet mablag‘laridan samarali, oqilona foydalanish uchun xizmat qiladi.

O‘ninchidan, xorijiy davlatlarning raqamlashtirishga oid eng yaxshi tajribasini inobatga olib va mamlakatimizning raqamlashtirishga oid qonunchiligini tizimlashtirish va unifikatsiya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Raqamli kodeksi loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha ishchi guruhini tuzish, uning ilmiy-amaliy konsepsiyasini yaratish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy masalalarni hal qilishning uzoq yilga mo‘ljallangan norma ijodkorligi vazifalarini belgilab olish lozim.

O‘n birinchidan, mamlakatimizda raqamli xususiy huquq sohasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlarning samaradorligini oshirish va uning ilmiy asoslangan doktrinasini shakllantirish maqsadida “Uzoq yillarga mo‘ljallangan raqamli xususiy huquq konsepsiyasi”ni ishlab chiqish strategik ahamiyatga molik raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda ijtimoiy munosabatlarni xususiy huquq normalari bilan tartibga solishga xizmat qiladi. Shuningdek, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini inobatga olib, raqamli xususiy huquq sohasida tadqiqot-

larni muvofiqlashtirish uchun institutsional tuzilmani tashkil etish lozim. Raqamli xususiy huquq sohasining muammoli-maqsadli jihatlarini aniq dasturiy ta'minlash va institutsional tuzilmalarning tashkil etilishi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda raqamli xususiy huquqiy yondashuvlarga oid ilg'or g'oya va nazariyalarning konseptual asoslarini davlat va jamiyat taraqqiyotida qo'llash imkoniyatini yanada kengaytirishga yordam beradi.

O'n ikkinchidan, raqamli algoritmga asoslangan munosabatlarni huquqiy tartibga solishni unifikatsiya qilish va tizimlashtirishning zaruriyati shu bilan izohlanadiki, yangi raqamlashtirish obyektlari huquqiy rejimi, ularni amaliyotda qo'llash tajribalaridan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlarda tizimlashgan mazmunda mukammal ifoda etib berilmagan. Qolaversa, raqamli qonunchilik va raqamli fuqarolik muomalasiga oid konsepsiyasini yaratish haqidagi ta'limot haqida yetarli ilmiy-metodologik yondashuvlar mukammal emas. Umuman olganda, raqamli algoritmga asoslangan munosabatlarni tartibga solish asoslari qanday bo'lishi kerak, uning raqamli transformatsiyalashuv sharoitida milliy huquqiy tizimdagi o'rni qanday bo'ladi? Bu va bunga o'xshash raqamli norma ijodkorligi faoliyatidagi konseptual masalalarni kompleks tarzda hal qilish zarur. Raqamlashtirish qonunchiligini o'zining amal qilish doirasi nuqtayi nazaridan nafaqat real maydonda, balki virtual makonda huquqiy tartibga solish vositasi sifatida tizimlashtirish qonunshunos oldiga juda muhim mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalarni hal qilishning tugal bashorat mazmunidagi andozasi hali shakllanmagan va juda ko'plab ilmiy isbot-dalillarni talab qiladi. Qolaversa, bu borada shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymay, uning ilmiy sotsiologik va amaliy eksperimental tasdiqlariga tayangan holda xulosa va takliflarni ishlab chiqib, amaliyotda joriy etishga erishish mumkin. Shu sababli, hozirdanoq u bo'yicha yetuk olim va mutaxassislardan iborat vakolatli maxsus ishchi guruhi tashkil etib, O'zbekistonda raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy bazani tizimlashgan mazmunda ishlab chiqish bo'yicha ishlarni boshlashning fursati yetdi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda raqamli transformatsiyalashuv sharoitida yuridik fanlarni, shu jumladan, xususiy huquqiy fanlarning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks tashkiliy-huquqiy va o'quv-uslubiy hamda amaliy chora-tadbirlarning ko'rilishi uning ilmiy natijadorligini ta'minlashda strategik islohotlarning nazariy metodologik asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Churilov A. K voprosu o pravovoy prirode kriptovalyuty [On the legal nature of cryptocurrency]. *Economy and Law,* 2016, vol. 9, p. 93.

2. Perov V.A. Kriptovalyuta kak ob'yekt grazhdanskogo prava [Cryptocurrency as an object of civil law]. *Civil Law*, 2017, vol. 5, pp. 7–10.

3. Novosyolova L. Tokenizatsiya ob'yektov grazhdanskogo prava [Tokenization of civil law objects]. *Farms and Law*, 2017, vol. 12, pp. 29–44.

4. Novosyolova L. O pravovoy prirode bitkoina [On the legal nature of Bitcoin]. *Economy and Law*, 2017, vol. 9, pp. 3–16.

5. Motosova D.D. Grazhdansko-pravovoye uregulirovaniye ispol'zovaniya bespilotnykh letatel'nykh apparatov v rossiyskom i zarubezhom zakonodatel'stve [Civil-legal regulation of the use of unmanned aircraft in Russian and foreign legislation]. *Agrarian and Land Law*, 2017, vol. 1, pp. 27–31.

6. Kookuyeva V.V., Tsertseil Yu.S. Obzor zarubezhnogo opyta realizatsii klasternoy politiki v razvitii territoriy [Review of foreign experience in implementing cluster policy in territorial development]. *Russian Enterprise*, 2019, vol. 20, no. 1, pp. 401–414.

7. Ryabov A.A. Vliyaniye grazhdanskogo prava na nalogovyye otnosheniya (doktrina, tolkovaniye, praktika) [The influence of civil law on tax relations (doctrine, interpretation, practice)]. Moscow, Norma Publ., 2014, p. 224.

8. Fokov A.P. Mezhdunarodnoye korporativnoye pravo: zakonodatel'noye obespecheniye yuridicheskikh lits (sravnitel'nyy analiz) [International corporate law: legislative support for legal entities (comparative analysis)]. *International Public and Private Law*, 2016, vol. 4, p. 33.

9. Abramov V.V. Znacheniye i osobennosti dogovornogo regulirovaniya vodnykh otnosheniy [The importance and features of contractual regulation of water relations]. *Agrarian and Land Law*, 2017, vol. 3, pp. 87–90.

10. Nestoliy V.G. Astrent i obyazatel'stvo [Astrent and obligation]. *Lawyer,* 2016, vol. 5. p. 25.

11. Gushchin V.V., Dobravinskaya A.V. Pravovoye konstruktsiya nasledstvennogo dogovora v Rossii: plyusy i minusy [Legal structure of the inheritance contract in Russia: pros and cons]. *Inheritance Law*, 2016, vol. 4, p. 9.

12. Grebenkina I.A. Teoreticheskiye i prakticheskiye aspekty nasledstvennogo dogovora v svete tekushchego reformirovaniya rossiyskogo grazhdanskogo prava [Theoretical and practical aspects of the inheritance contract in light of the current reform of Russian civil law]. *Inheritance Law*, 2016, vol. 4, p. 13.

13. Shitkina I.S. Korporativnoye pravo [Corporate law]. Moscow, Knorus Publ., 2015.

14. Lakhno P.G. *Energeticheskoye pravo Rossiyskoy Federatsii: stanovleniye i razvitiye* [Energy law of the Russian Federation: formation and development]. Moscow, 2014.

15. Ro'zinazarov Sh.N. Elektron tijorat huquqi [E-commerce law]. Tashkent, TSUL Publ., 2024, p. 608.

Kelib tushgan / Получено / Received: 12.05.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./OMZK2556
UDC: 347.767+658.786(045)(575.1)

TOVAR OMBORIDA OMONAT SAQLASH MUNOSABATLARINI FUQAROLIK-HUQUQIY JIHATDAN YANADA TAKOMILLASHTIRISH

G‘aybullayev Alisher Ismatovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Tashkiliy boshqarmasi,
yuridik ta’minlash boshqarmasi
boshlig‘i, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0009-0000-7952-1893
e-mail: alisher.law@gmail.com

Annotatsiya. *Zamonaviy davrda tovarlarni omonat saqlash munosabatlarining mazmuni, mohiyati hamda iqtisodiy aloqalar tizimidagi o‘rni tubdan o‘zgardi, deb aytish mumkin. Asosan, shartnomadagi tomonlarning huquq va majburiyatlari doirasining kengayib borishi bevosita raqobat, talab va taklif, tashabbuskorlik hamda subyektlarga berilgan keng imkoniyatlar natijasidir. Shu bois ushbu maqolada tovar omborida omonat saqlash munosabatlarini fuqarolik-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish, O‘zbekiston qonunchiligiga ushbu sohada mavjud muammolar va ularning yechimi uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar kiritilishi zarurati tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy va tizimli yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy va amaliy tahlil, shuningdek, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish hamda mantiqiy xulosalar chiqarish kabi metodlardan foydalanildi. O‘tkazilgan izlanish natijasida tovar omborlarida saqlanayotgan organik va organik-mineral o‘g‘itlar uchun saqlash joylarida ularning o‘ziga xos xususiyatlari, gigiyena qoidalari, xavfsizlik choralari, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda amalga oshiriladigan tadbirlar rejasiga oid ma’lumotlar ko‘zga ko‘rinadigan joylarga joylashtirilishi zarurligi aniqlandi. Ushbu takliflar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi 729-son qarori bilan tasdiqlangan “Organik va organik-mineral o‘g‘itlar xavfsizligi to‘g‘risida umumiy texnik reglament”ning 43-, 44- va 45-bandlari ishlab chiqilishida qo‘llandi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston sivilistikasida omonat saqlash shartnomasiga oid umumiy masalalar Fuqarolik kodeksi sharhlari va o‘quv adabiyotlari doirasida yoritilgan. Biroq O‘zbekiston milliy sivilistikasi fanida omonat saqlash shartnomasining mohiyati, uning iqtisodiy-huquqiy vazifalari, maqsadlari, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi o‘rni hamda omonat saqlashning yangi turlari kabi munosabatlarning huquqiy asoslarini kengroq tadqiq etishga ehtiyoj mavjud.*

Kalit so‘zlar: *omonat saqlash, majburiyat, huquq, shartnoma, fuqarolik huquqi, omonat saqlovchi, yuk topshiruvchi, tovar ombori*

ДАЛЬНЕЙШЕЕ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТНОШЕНИЙ ПО ХРАНЕНИЮ ВЕЩЕЙ НА ТОВАРНОМ СКЛАДЕ

Гайбуллаев Алишер Исматович,
доктор юридических наук, начальник
управления юридического обеспечения
Организационного управления
МВД Республики Узбекистан

Аннотация. *В современной реальности содержание, сущность и роль отношений по хранению товаров на складе в системе экономических связей претерпели кардинальные изменения. Расширение круга прав и обязанностей сторон по договору напрямую связано с растущей конкуренцией, спросом и предложением, инициативностью субъектов и предоставлением им широких возможностей. В данной статье рассматриваются вопросы гражданско-правового совершенствования института хранения товаров на товарном складе, анализируются существующие проблемы в законодательстве Республики Узбекистан и необходимость принятия соответствующих нормативно-правовых актов для их разрешения. В исследовании применялись исторический и системный подходы, методы анализа и синтеза, сравнительно-правовой, нормативно-правовой и практический анализ, а также метод обобщения статистических данных и логический метод. В результате проведённого исследования было установлено, что при хранении органических и органоминеральных удобрений на товарных складах необходимо размещение в видимых местах информации об их свойствах, санитарных правилах, мерах безопасности и действиях в чрезвычайных ситуациях. Эти предложения были учтены при разработке пунктов 43, 44 и 45 Общего технического регламента «О безопасности органических и органоминеральных удобрений», утверждённого постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 ноября 2020 года № 729. Следует отметить, что общие вопросы договора хранения в цивилистике Узбекистана в основном освещаются в рамках комментариев к Гражданскому кодексу и учебной литературы. Однако остаётся потребность в более глубоком исследовании правовых основ сущности договора хранения, его экономико-правовых задач, целей, роли в развитии предпринимательства, а также новых форм хранения в национальной цивилистической науке.*

Ключевые слова: *хранение, обязательство, право, договор, гражданское право, хранитель, поклажедатель, товарный склад*

FURTHER IMPROVEMENT OF CIVIL-LEGAL RELATIONS OF STORAGE IN A WAREHOUSE

Gaybullayev Alisher Ismatovich,
Head of the Department of Legal Support,
Organizational Department of the Ministry
of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Science in Law

Abstract. *In the modern era, it can be said that the content, essence, and place of goods storage relations in the system of economic relations have fundamentally changed. Basically, the expansion of the scope of rights and obligations of the parties to the contract is a direct result of competition, supply and demand, initiative, and broad opportunities provided to the subjects. Therefore, this article analyzes the need for further improvement of warehouse storage relations from a civil-legal point of view and the introduction of regulatory legal acts necessary for solving existing problems in this area in the legislation of Uzbekistan. The study used such methods as a historical and systematic approach, analysis and synthesis, comparative legal analysis, normative legal and practical analysis, as well as generalization of statistical data and drawing logical conclusions. As a result of the conducted research, it was established that for organic and organo-mineral fertilizers stored in commodity warehouses, information on their characteristics, hygiene rules, safety measures, as well as the plan of measures taken in emergency situations should be placed in visible places in storage areas. These proposals were used in the development of clauses 43, 44, and 45 of the "General Technical Regulations on the Safety of Organic and Organomineral Fertilizers," approved by the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 729 dated November 18, 2020. It should be noted that in the civil law of Uzbekistan, general issues related to the custody agreement are covered within the framework of commentaries on the Civil Code and educational literature. However, in the science of national civil law of Uzbekistan, there is a need for a broader study of the legal basis of relations, such as the essence of the safekeeping agreement, its economic and legal tasks, goals, role in the development of entrepreneurial activity, and new types of safekeeping.*

Keywords: *storage, obligation, right, contract, civil law, custodian, supplier of the item, warehouse*

Kirish

Ma’lumki, mulkni saqlash va asrash munosabatlari insoniyat tarixida qadim zamonlardanoq hayotiy ehtiyojlardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, mol-mulk doimiy ravishda egasi nazorati va ta’siri ostida bo‘lmasligi bu munosabatlarga nisbatan ijtimoiy-huquqiy ehtiyojlarni yuzaga keltirgan. Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik huquqida o‘ziga xos majburiyat-huquqiy munosabatlar, ya’ni o‘zganing mol-mulkini saqlash, yoki boshqacha aytganda, omonat saqlash shartnomasi instituti vujudga kelgan.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan omonat saqlash munosabatlari ham o‘ziga xos yangi mazmun kasb etdi, deb aytish lozim. Endilikda omonat saqlash sohasidagi davlat monopoliyasi tugatilib, ushbu faoliyatni professional faoliyat turi sifatida belgilagan tadbirkorlar va xususiy mulkdorlar shakllandi. Bu esa omonat saqlash sohasining keng rivojlanishiga xizmat qildi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi natijasida omonat saqlashga, ayniqsa, uning o‘ziga xos turi bo‘lgan tovar omborlarida omonat saqlashga ehtiyoj sezilarli darajada ortdi.

Omonat saqlash xizmati fuqarolik muomalasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, aynan shu jihati bilan ajralib turadi. Ushbu xizmat turida bir taraf – omonat saqlovchi, ikkinchi taraf – yuk topshiruvchi tomonidan o‘ziga topshirilgan mol-mulkni saqlash va uni to‘liq qaytarish majburiyatini oladi. Omonat saqlash munosabatlari fuqarolik huquqida an’anaviy tusga ega bo‘lib, qadim zamonlardan buyon shakllanib kelayotgan institutlardan biridir. Bu munosabatlarda mulkdorning ashyoga nisbatan egalik huquqi ma’lum muddatga boshqa shaxsga, ya’ni saqlovchiga o‘tadi va u saqlovchi sifatida ashyoni saqlash bilan birga, unga egalik huquqini vaqtinchalik qo‘lga kiritadi.

Umumiy qoidalarga binoan, xizmat ko‘rsatish shartnomalari jumlasiga kiruvchi ushbu huquqiy munosabat quyidagi muhim harakatlarni o‘zida ifodalaydi:

1. Ashyoni ma’lum bir muddatga, uning o‘ziga xos xususiyatlarini yo‘qotmasdan saqlash maqsadida boshqasiga egalik uchun topshirish;

2. Saqlovchining obyektning muhim xususiyatlarini saqlashni ta’minlash bo‘yicha harakati;

3. Saqlanayotgan obyektning belgilangan vaqt tugashi yoki talab qilinishi asosida qaytarib berilishi.

Ashyolarni saqlash uchun tashkil etilgan maxsus joylarning qadim zamonlardan beri mavjudligi haqidagi ma’lumotlarga ko‘ra, bunday joylar dastlab eramizdan avvalgi IX asrda Misrda mavjud bo‘lgan. Ilk bosqichda bunday joylar, asosan, savdo tovarlarini saqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ashyolarni saqlashga ixtisoslashgan birinchi omborxonalar paydo bo‘lgan. Omborlar, o‘z navbatida, muayyan qismlarga ajratilgan edi. Ya’ni omborga topshirilgan ashyolar turi, sifati, rangi va boshqa xususiyatlariga ko‘ra alohida guruhlarga bo‘lib saqlangan. Buning maqsadi keyinchalik ularni osonlik bilan topib, egalariga qaytarishni ta’minlash edi. Shuningdek, ashyoning sifati o‘zgarmasligi va uzoq muddatda xususiyatlarini yo‘qotmasligi uchun maxsus tizimlar – suv o‘tkazish quvurlari o‘rnatilgan bo‘lib, shu orqali namlik va quruqlikning optimal nisbati saqlangan.

Xitoyda ham ashyolarni saqlash va omonatga saqlash tizimining qadimiyligi haqida ko‘plab afsonalar mavjud. Shulardan biriga ko‘ra, Sian shahridagi jasur jangchi urushda qo‘lga kiritilgan o‘ljalarni yig‘ib, ularni uyida saqlagan. Keyinchalik uyda qo‘lga kiritilgan o‘ljalar sig‘masdan qolganida, ularni ko‘zalar va xumlarga joylab, dalada chuqur qazib, bu idishlarni o‘raning devorlariga terib chiqqan. Mutaxassislarning fikricha, bu voqea birinchi “Self Storage made in China” hisoblanadi [1].

Qadimgi misrliklar va xitoyliklardan keyin rimliklar ashyolarni saqlash bilan shug‘ullana boshlagan. Qudratli Rim imperiyasining gullab-yashnagan davrida mahsulotni saqlashga katta e’tibor berilgan. Shuning uchun

bu davrni o‘z-o‘zini saqlash yoki individual saqlash kabi xizmatni shakllantirishning oltin davri deb atash mumkin. Chunki o‘sha davrda Rim imperiyasi o‘zining savdo yo‘llari, fathlari va ko‘plab sayohatchilar bilan mashhur edi. Shu sababli hammada qayerdadir biron-bir narsani saqlash zarurati mavjud bo‘lgan.

Biroq miloddan avvalgi 500-yilga kelib, mahsulotlar va tovarlar uchun qo‘shimcha konteyner (idish)lar va omborxonalarga ehtiyoj keskin kamaydi. Ijaradan olingan foyda miqdori juda tez minimal darajaga tushganligi sababli omborxonalar uzoq vaqt davomida ishlatilmay qoldi. X asr davomida dunyo jamoat va individual omborxonalarini yaratish imkoniyatini deyarli butunlay unutdi.

“Self storage” (shaxsiy saqlash) xizmatini tiklash vazifasini o‘z zimmasiga olgan birinchi mamlakat Venetsiya hisoblanadi. Jug‘rofiya jihatdan Osiyodan Yevropaga o‘tadigan yirik savdo yo‘llari kesishmasida joylashgan Venetsiya Respublikasi faol ravishda omborlar yaratishni boshladi. Saqlash uchun olingan tovarlar hisobini yuritish g‘oyasi ham venetsiyaliklarga tegishlidir.

Shundan so‘ng estafeta inglizlarga o‘tdi, chunki ularga choy, oziq-ovqat mahsulotlari, ziravorlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, mo‘yna va zargarlik buyumlari kabi tashilayotgan yoki qabul qilinayotgan tovarlarni saqlab turish uchun muayyan joy zarur edi. O‘sha paytlarda mustamlaka mamlakatlariga uzoq safarlarga boradigan boy janoblar uchun tashabbuskor ingliz bankirlari mulkni saqlash xizmatlarini taklif qilishdi. Odatda, bu otlar va aravalar qoldiriladigan otxonalar bo‘lib, ikkinchi qavatlarda sayohatchilarning mol-mulki va qimmatbaho buyumlari qaytib kelguniga qadar saqlangan.

Angliyaliklardan keyin yevropaliklar sanoat inqilobi ta’sirida omborxonalar yaratishni boshladilar. Biroq sanoat inqilobining imkoniyatlaridan ilhomlangan yevropaliklar orasida bu jarayon kengroq rivojlandi. Shunga qaramay, “Self storage” tizimiga haqiqiy muhim yangiliklar kiritib, uni rivojlantirish imkoniyati faqat amerikaliklarga nasib etdi.

Shaxsiy saqlash tizimi AQShda birinchi ko‘chmanchilar davridan boshlab paydo bo‘lgan, deb hisoblanadi. Ulardan biri P. Minuyet o‘z hududida mahalliy aholidan turli narsalarni saqlash uchun joy ajratishni boshlagan. Asosan, u savdogarlar tomonidan olib kelingan golland mo‘ynalari bilan konteynerlarni to‘ldirgan.

Qo‘shma Shtatlardagi birinchi ommabop shaxsiy ombor 1891-yilda aka-uka Martin va Jon Bekkins tomonidan Ayova shtatining Su-Siti shahrida tashkil etilgan. 1906-yilda Bekins Van and Storage Co. kompaniyasi o‘z biznesini Kaliforniyada kengaytirgan. Aka-ukalar nafaqat narsalarni saqlash, balki “moving”, ya’ni ko‘chirish, tashish va yetkazib berish xizmatlari bilan ham shug‘ullanganlar. Qiziqarli jihati shundaki, kompaniya hanuzgacha faoliyatini davom ettirmoqda.

Nihoyat, yigirmanchi asrning 50-yillarida individual vazifalar uchun birinchi omborlar paydo bo‘ldi.

1958-yil zamonaviy “Self storage” xizmatlarining qayta vujudga kelgan yili hisoblanadi, chunki aynan shu yildan boshlab ushbu xizmat turi dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ommalasha boshladi. Aynan shu yili Florida shtatining Fort-Loderdeyld shahrida birinchi individual saqlash obyekti – Lauderdale Storage ochildi. Mazkur saqlash turi bugungi kungacha o‘zining asosiy mazmunini saqlab qolmoqda. O‘shandan beri omborlarga saqlash uchun nafaqat kompaniya mahsulotlari yoki tarqatish uchun mo‘ljallangan tovarlar, balki alohida iste’mol uchun mo‘ljallangan turli xil kichik narsalar ham joylashtirilmoqda. Ma’lumki, amerikaliklarning mobilligi yuqori bo‘lgani uchun ular o‘zlariga tegishli mol-mulkni biror joyda saqlashga qoldirish zaruriyatiga duch keladilar.

“Self storage” omborlari faoliyati – bu hozirga kelib shiddat bilan rivojlanayotgan sanoat bo‘lib, unda iste’molchilar yoki korxonalar ma’lum vaqt davomida shaxsiy yoki korporativ foydalanish uchun saqlash joyi-

ni ijaraga olishlari mumkinligi ham bugungi kunda olimlarimiz tomonidan ta'kidlanmoqda. Mazkur saqlash faoliyatida ashyolar o'lchamiga doir talablar, saqlash uchun baho, obyekt ichida ashyolar joylashuvi, iqlim nazorati, xavfsizlik yoki tashqi kirish va hokazolarga oid ko'plab talablarni hisobga olgan holda, daromadni cheklangan vaqt ichida maksimal darajaga ko'tarish uchun qanday qilib ombor faoliyatini rejalashtirish zarurligi kabi masalalar ham bo'yicha ilmiy yechimlar taklif etilmoqda [2].

Material va metodlar

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, AQShda har bir fuqaro uchun ashyolarini saqlashga mo'ljallangan maydon o'rtacha 0,7 kvadrat metrni tashkil etadi. Ushbu faoliyat yo'nalishining yillik o'rtacha aylanmasi taxminan 22 milliard dollarga teng. Maishiy ehtiyojlar uchun mo'ljallangan "Self storage" omborlarining umumiy maydoni butun mamlakat bo'ylab 210 million kvadrat metrdan ortiq. 2010-yilda ushbu bozorning o'sishi o'rtacha 4–5 foiz atrofida bo'lgan. Mazkur omborlardan foydalanish talabining o'ziga xos jihati shundaki, ularning taxminan 4 foizi harbiylar tomonidan foydalanilgan.

Yevropada "Self storage" omborlar faoliyati 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida rivojlana boshladi. Biroq 10 yil ichida ushbu faoliyat yo'nalishining aylanmasi taxminan 4 mlrd yevroga yetib, butun Yevropa bo'ylab 5000 ta bu kabi omborlar tashkil etildi.

"Self storage" omborlarining faoliyati bugungi kunda Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyada ham keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, Angliyada ularning 650 dan ortig'i, Fransiyada 170 ga yaqini, Gollandiyada 100 ga yaqini faoliyat ko'rsatmoqda. Yevropada "Self storage" omborlari bozorining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 5–7 foizni tashkil etmoqda.

Ashyolarini yashash joyidan tashqarida yoki boshqa hududlarda saqlash amaliyoti Avstraliyada ham keng tarqalgan. Rossiyada esa bunday faoliyatni birinchilardan bo'lib avtotransport vositalari haydovchilari amaliyotga tatbiq etib, aksariyat hollarda transport vositalarining shinalarini saqlashga ehtiyoj ko'payib borayotganligi sababli so'nggi 5 yil ichida bunday omborlar faoliyatiga talablar ortib borayotganligini kuzatish mumkin [3].

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, hozirgi kunda yakka tartibdagi tadbirkorning tovar omborida omonat saqlash faoliyatini yurituvchi subyekt sifatida huquqiy maqomini belgilovchi maxsus huquqiy hujjat mavjud emas. Biroq amaldagi qonun hujjatlari, xususan, Fuqarolik kodeksining 39-40-moddalarida tovar ombori yuridik shaxs sifatida, shu jumladan, yagona ishtirokchining jamiyati shaklida tashkil etilishi nazarda tutilgan. Bu esa yakka tartibdagi tadbirkorga tovar ombori sifatida faoliyat yuritish imkoniyatini berib, hech qanday to'siq yaratmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatida ularning tovar ombori faoliyatini yuritish bilan bog'liq faoliyat olib borishi ko'rsatilmagan. Shunga ko'ra, yuqoridagi masala yuzasidan Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga yangi pozitsiya sifatida yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar ombori faoliyatini yuritishini nazarda tutuvchi qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiq.

Biz jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyati shaklini o'zi uchun tanlash huquqiga ega ekanligidan kelib chiqamiz. Yuridik shaxsni, shu jumladan, bir shaxsning shirkatini tashkil etish orqali jismoniy shaxs o'zi uchun bunday faoliyatni amalga oshirish shakli – yuridik shaxs – huquq subyektini tanlaydi. Ammo u jismoniy shaxs – tadbirkorning shakli ham bo'lishi mumkin, ayniqsa, jismoniy shaxslar – tadbirkorlarning huquqiy holatini tavsiflovchi qonun chiqaruvchi huquqiy texnikaning maxsus usuli – qonun chiqaruvchi iqtisodiyotni qo'llaganligi sabab-

li tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishga imkon beradi. Agarda qonunchilik hujjatlarida o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa yoki munosabatlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqmasa, yuridik shaxslarning huquqiy maqomini belgilash bo‘yicha faoliyat [4, 222–256-b.] yuqorida qayd etilganlarga asosan, amaldagi qonunchilikka, xususan, Fuqarolik kodeksining 901-moddasiga quyidagicha o‘zgartirish kiritishni taklif qilish mumkin:

“Tovar ombori – bu tovarlarni saqlaydigan va saqlash bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatadigan tadbirkorlik subyekti”.

Shu bilan birga, tovar omborlarini sertifikatlash va ularni sertifikatdan mahrum qilish tartibi belgilanadi hamda bu vakolatli organ tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutiladi, biroq shu paytga qadar aynan qaysi organ bunga vakolatli ekanligini aniqlash qiyinchilik tug‘diradi. Sertifikatlangan tovar omborlari reglamenti mazmuniga qo‘yiladigan talablar ham vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi, biroq bu o‘rinda ham yuqoridagi holat ko‘zga tashlanadi. Tovar omborlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari qabul qilingandan buyon amalda bo‘lgan qonunchilik normalari tahlili vakolatli organ va uning vakolatlariga oid qonunchilik normalarida nomuvofiqliklar borligini tasdiqlaydi. Bu esa tovar omborlari, jumladan, don omborlarida omonat saqlash jarayoni qiyinlashuviga sabab bo‘ladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun tovar omborlarini sertifikatlash va uni o‘tkazish tartibi, shuningdek, tovar omborida omonat saqlash faoliyatini amalga oshirish uchun sertifikat berish hamda uni chaqirib olishga vakolatli organni belgilovchi nizom ishlab chiqish hamda qabul qilish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari

Shu o‘rinda dunyoning qaysi mamlakatlarida tovar omborlari to‘g‘risida qonunlar borligi va ular o‘sha mamlakatlar hayotiga ta’siri qanday bo‘layotganligini ko‘rib chiqsak.

Masalan, 2004-yil 23-dekabrda Ukrainaning “Sertifikatlangan tovar omborlari, oddiy va ikki qismli ombor guvohnomalari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinib, ushbu qonun tovar omborlari faoliyati va ularning tovar birjalaridagi bitimlarda qatnashishlarida mavjud bo‘lgan ko‘plab qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan [5].

AQShda tashuvchilarga nisbatan bo‘lgan qoidalar federal qonunlar va xalqaro shartnomalar bilan tartibga solingan bo‘lsa, tovar omborlari hamda ularning faoliyatiga doir qoidalar shtatlarning alohida qonunlari bilan tartibga solinadi. Biroq mazkur qoidalar aksariyat shtatlarda Yagona Savdo kodeksining 7-moddasida nazarda tutilgan omborlar va ularning hujjatlarini tartibga soluvchi umumiy normani asos qilib olganligi sababli deyarli butun AQSh bo‘ylab bu masalada ma’lum darajada birxillikni aks ettiradi [6].

Qator davlatlar o‘z amaliyotida qabul qilgan qonunlari tufayli ombor hujjatlaridan samarali foydalanib kelmoqda. Jumladan, AQShda “Omborlar to‘g‘risida”gi, Slovakiyada “Ombor guvohnomalari to‘g‘risida”gi, Ukrainada “Sertifikatlangan tovar omborlari, oddiy va ikki qismli ombor guvohnomalari to‘g‘risida”gi, Filippinda “Omborlar to‘g‘risida”gi, Serbiyada “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun umumiy omborlar to‘g‘risida”gi, Turkiyada “Ombor guvohnomalari to‘g‘risida”gi, Qirg‘izistonda “Tovar ombori va ombor guvohnomalari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilingan.

O‘zbekistonda ham “Tovar omborlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ahamiyati shu bilan bog‘liq bo‘ladiki, unda “tovar ombori”, “ombor hujjatlari”, “ikki qismli ombor guvohnomasi”, “oddiy ombor guvohnomasi”, “ombor pattasi”, “ombor guvohnomalari reyestri” kabi atamalarning mazmuniga aniqlik kiritiladi; tovar omboriga tovarlarni qabul qilish va saqlashning umumiy tartiblari belgilanadi; ombor hujjatlari turlari, ulardan foydalanish tartibi mustahkamlanadi; ombor guvohnomasini saqlovchining huquqlari va

majburiyatlari belgilanadi; ombor guvohnomasi va omborda saqlash uchun qabul qilingan tovarlarning garovi tartibi belgilanadi; tovar omboridan omborda saqlash uchun qabul qilingan tovarlarni qaytarish tartibiga aniqlik kiritiladi; yo‘qotilgan ombor guvohnomasiga bo‘lgan huquqlarni tiklash va ombor guvohnomalarini qayta rasmiylashtirish tartibi belgilanadi; ombor guvohnomalarini bekor qilish va ombor guvohnomalari reyestrini yuritishga doir qoidalarga aniqlik kiritiladi; tovar omborining javobgarligi hamda omborga yetkazilgan zararlarni qoplash normalari belgilanadi.

Hukumatimizning 2022-yil 30-maydagi “2022-yil hosilidan bug‘doyni xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 284-son qarori 15-bandiga muvofiq, “Omborxona guvohnomasi” moliyaviy hujjatlardan foydalanishni amaliyotga kiritishning huquqiy asoslarini yaratish” bo‘yicha topshirig‘i belgilangan. Uning ijrosini ta’minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan 2022-yil sentabrda “Tovar omborida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va ombor hujjatlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Hukumat qarori loyihasi *(ID-67445)* ishlab chiqilib, reglamentga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilganligini ta’kidlash joiz.

Ma’lumki, bugungi kunda tovar omborlari va ularning faoliyatini tartibga soluvchi umumiy tusga ega bo‘lgan qonun hujjati mavjud emas. Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining “Tovar omborlari to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilish vaqti keldi. Unda tovar ombori tushunchasi, uni tashkil etish tartibi, asoslari, tovar omborini litsenziyalash, faoliyat turini aniqlash qoidalari, tovar ombori shartnomasi va tovar ombori hujjatlari haqidagi normalar o‘z ifodasini topishi kerak.

Ta’kidlash lozimki, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyotda tovar saqlashga mo‘ljallangan omborlar turlari haqida alohida fikrlar va ko‘rsatmalar uchramaydi. Biroq Fuqarolik kodeksining 902-moddasi umumiy foydalanishdagi ombor to‘g‘risidagi ba’zi qoidalarni o‘zida belgilaydi. Unga ko‘ra, agarda qonunchilik hujjatlariga ko‘ra, tovar ombori mahsulotlarni omonat saqlash uchun chegaralangan doiradagi (faqat aniq) shaxslardan qabul qilishi mumkin bo‘lgan omborlar qatoriga kiritilmagan bo‘lsa, u umumiy foydalanishdagi ombor hisoblanadi. Bugungi kunda umumiy foydalanishdagi tovar omborlari xususida mamlakatimizda alohida qonun hujjatlari uchramasligini alohida e’tirof etib o‘tish lozim. Shu sababli umumiy tovar omborlari faoliyati omonat saqlash bo‘yicha belgilangan umumiy qoidalar va Fuqarolik kodeksidagi tovar omboriga bag‘ishlangan normalar asosida amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik kodeksida umumiy tovar omborlari alohida ajratib ko‘rsatilganligidan kelib chiqib, amaliyotda maxsus tovar omborlari ham mavjud ekanligini e’tirof etish zarur.

Tadqiqot natijalari tahlili

Qonunga ko‘ra (shu jumladan, Ukraina Fuqarolik kodeksining 936-moddasida), tovarlarni professional asosda saqlaydigan omonat saqlovchi professional omonat saqlovchi maqomini oladi. Shu tarzda zamonaviy sharoitda tovar omboriga professional omonat saqlovchi maqomini berish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblovchi olimlarning yondashuvi [7, 15-b.] muvaffaqiyatsiz bo‘lib chiqadi.

M.V. Zimeleva omborlarni o‘ziga xos tijorat korxonasi deb hisoblagan, chunki sovet qonunlari ularni soliqqa tortishda tijorat korxonalari sifatida tasniflagan [8, 85-b.]; V.P. Nagrebelniy omborni xomashyo, tayyor mahsulotlar, mashina va asbob-uskunalar, logistika, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari hamda boshqa mol-mulkni doimiy yoki vaqtincha joylashtirish va saqlash joyi [9, 502-b.] sifatida ta’riflagan; V.I. Savin omborni “ixtisoslashtirilgan bino, tovarlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va belgilangan maqsadlari bo‘yicha berish uchun inshoot” deb ta’riflaydi [10, 541-b.]; Y.V. Krivenko – tovarlarni

omonat saqlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish orqali tadbirkorlik faoliyati uchun mo‘ljallangan mulkiy majmua sifatida, ya’ni sotish, ijaraga berish yoki garovga qo‘yish obyekti bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘chmas mulk sifatida tavsiflaydi [11, 393-b.]. Albatta, bu olimlarning fikriga qo‘shilish mumkin, agar omborni fuqarolik muomalasi obyekti sifatida ko‘rib chiqsak, ushbu yondashuvlar o‘zini oqlaydi. Biroq ushbu yondashuv omborni omonat saqlash shartnomasining tarafi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida tovar omborining mohiyatini ochib bermaydi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy sharoitda boshqa olimlarning yondashuvi ko‘proq mos keladi. Xususan, omborni tijorat tashkiloti (yuridik shaxs) deb hisoblaydigan A.S. Kolomaskayaning fikricha, ombor professional omonat saqlovchi sifatida faoliyat yuritadi va ombor hujjatlaridan foydalanadi. Omonat saqlash Ustavda tadbirkorlik faoliyatining asosiy turi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin yoki ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, tegishli operatsiyalarning tizimliligi va maxsus jihozlangan binolar (hududlar) mavjudligi bilan tasdiqlanadi [12, 7–8-b.]. Ushbu yondashuvni A.S. Dudko ham qo‘llab-quvvatlaydi. U tovar ombori deganda, har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilgan, umumiy yoki maxsus huquq layoqati doirasida tovar aylanmasi sohasida omonat saqlash orqali yordamchi iqtisodiy tijoriy faoliyatni amalga oshiradigan tijorat xo‘jalik tashkilotlarini tushunadi [13, 67–70-b.].

Bundan tashqari, boshqa nuqtayi nazarlar ham mavjud. Masalan, Y.S. Solovyova nafaqat tashkilotni, balki mahsulotlarni saqlash bilan bog‘liq xizmatni ko‘rsatadigan yakka tartibdagi tadbirkorni ham tan olishi mumkin, deb hisoblaydi. Shunday qilib, u yuridik shaxs bilan bir qatorda, tovar ombori sifatida yakka tartibdagi tadbirkorning mavjudligini ham istisno qilmaydi [14, 7–8-b.].

Adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, omborlarda saqlash faoliyati hozirgi kunda an’anaviy ombor saqlashdan ko‘ra, samaradorlik va natijadorlikni oshiruvchi avtomatlashtirilgan hamda integratsiyalashgan saqlash tizimlariga o‘tish yo‘lida tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda [15].

Bundan tashqari, tovar omborlari tushunchasi va turlarini o‘rganish bilan birga, ularning mohiyatini aniqlashtirish maqsadida bevosita omborlarning ko‘rsatayotgan faoliyati shakliga murojaat qilgan holda, ayrim ilmiy xulosalar shakllanib borayotganligini ham ta’kidlash lozim.

Masalan, ashyolarni omborda saqlashni tadqiq etish bugungi kunda nafaqat an’anaviy usullarga, ya’ni siyrak va qulay joylashtirilgan buyurtmalarni yig‘ishda samaradorlikni oshirish yoki AS/R tizimlari kabi klassik avtomatlashtirish vositalariga qaratilgan, balki juda yuqori zichlikdagi saqlash tizimlari, AVS/R kabi yangi avtomatlashtirilgan texnologiyalar hamda ombor unumdorligini oshirishga yordam beradigan boshqa omillar, masalan, inson omiliga ham katta e’tibor qaratilmoqda [16].

Shu bilan birga, bozordagi raqobat ishlab chiqarish va tarqatish tarmoqlarini loyihalash hamda ekspluatatsiya qilishni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, omborlarning unumdorligini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Just-In-Time (JIT) kabi yangi boshqaruv falsafalarini qabul qilish yoki faoliyatda tejamkorlikni ta’minlash omborda ashyolarni saqlash bilan bog‘liq qo‘shimcha vazifalarni yuzaga keltiradi. Bular inventarizatsiya jarayonini qattiq nazorat qilish, tezkor ishlash yoki bir vaqtning o‘zida ko‘proq mahsulot turini saqlash imkoniyatini yaratishni talab qiladi.

Boshqa tomondan, omborlar faoliyatiga yangi axborot texnologiyalarining (IT) keng tatbiq etilishi, masalan, radiochastota orqali shtrixli kodlash (RF) va ombor boshqarish tizimlari (WMS) – ularning faoliyatini yanada yaxshilash uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Ushbu imkoniyatlar real vaqt rejimida ombor faoliyatini monitoring qilish, ta’minot zanjirining boshqa qismlari bilan oson o‘zaro aloqani ta’minlash hamda yuqori

darajadagi avtomatlashtirishni amalga oshirish imkonini beradi [17].

Xulosalar

Ta’kidlash lozimki, Fuqarolik kodeksi qabul qilinganidan beri chorak asrdan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, amaliyotda tovar omborlaridan foydalanish va ombor hujjatlarining qimmatbaho qog‘oz sifatida qo‘llanishi masalalariga yetarlicha e’tibor berilmayapti. Bu holat, birinchi navbatda, tovar omborlari faoliyatining keng yo‘lga qo‘yilmaganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, tovar omborida omonat saqlash munosabatlarining qonunchilik tomonidan tartibga solinishida mavjud bo‘lgan bo‘shliqlar bilan izohlanadi. Fuqarolik kodeksida tovar omborida omonat saqlash munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan umumiy normalar mavjud bo‘lsa-da, ular ombor faoliyatining o‘ziga xos jihatlari va amaliy qo‘llash mexanizmini to‘liq qamrab olmaydi. Shuningdek, hozirgi kunda ombor guvohnomalarining ikki qismli ekanligi hisobga olinib, ularning muomalasini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjati mavjud emas.

Shu bilan birga, ikki qismli ombor guvohnomasining muomalasi bilan bog‘liq qator muammolar mavjudki, ularni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda qimmatbaho qog‘ozlarning ushbu turi amal qilishining huquqiy va amaliy mexanizmlarini yaratish lozim.

Bundan tashqari, hozirgi kunda mamlakatimizda omonat saqlash faoliyati ko‘plab sohalarda qo‘llanmoqda. Masalan, buyum bozorlaridagi omborlar, bojxona postlaridagi omborlar hamda u yoki bu turdagi tovarlarni saqlashga xizmat qiladigan maxsus omborlar. Biroq ushbu omborlarning barcha uchun xos bo‘lgan umumiy qoidalar, ularning tovar ombori sifatida e’tirof etilishi va fuqarolik muomalasida tovar ombori sifatida shartnomalar tuzishi, saqlash xizmati ko‘rsatish talablariga javob berishi mezonlarini ham ishlab chiqishga bugunda zarurat mavjud.

Shu sababli tovar omborlarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini boshlash uchun zarur shartlarni aniqlash turli xil hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Tovar omborlari to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilish zarur. Ushbu qonunda tovar ombori tushunchasi, ularni tashkil etish tartibi va asoslari, tovar omborini litsenziyalash, faoliyat turini aniqlash qoidalari, shuningdek, tovar ombori shartnomasi va tovar ombori hujjatlari haqidagi normalar o‘z ifodasini topishi kerak.

Shu bilan birga, tovar omborlarini sertifikatlash va uni o‘tkazish tartibi, shuningdek, tovar omborida omonat saqlash faoliyatini amalga oshirish uchun sertifikat berish hamda uni chaqirib olishga vakolatli organni belgilovchi nizom ham ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. The history of self storage industry in the world and Ukraine. Available at: https://www.skladovka.ua/uk/istoriya-razvitiya-self-storage-v-mire-i-ukraine/

2. Shuyu Zh., Yeming G., René de K. Designing self-storage warehouses with customer choice. *International Journal of Production Research*, 2016, vol. 54, no. 10. DOI: 10.1080/00207543.2016.1158880.

3. Chto takoye individual’noye khraneniye veshchey, ili Self storage [What is individual storage of things or Self storage]. Available at: https://www.cheapsklad.ru/informatciya-cheapsklad/48-self-storage/

4. Borisova V.I. Ucheniye o sub”yektakh grazhdanskogo prava [The doctrine of subjects of civil law]. Kharkov, Right Publ., 2013, pp. 222–256.
5. Sertifitsirovannyy tovarnyy sklad [Certified warehouse]. *Legal Practice*, vol. 5(371). Available at: https://pravo.ua/articles/sertificirovannyj-tovarnyj-sklad/
6. Brent W.P. Five Points of Warehouse Law that Every Parcel Shipper Needs to Know. 2016. Available at: https://parcelindustry.com/article-4556-Five-Points-of-Warehouse-Law-that-Every-Parcel-Shipper-Needs-to-Know.html
7. Kravchenko I.V. Dogovor khraneniya na tovarnom sklade: problemy regulirovaniya, kvalifikatsii i primeneniya [Warehouse storage agreement: issues of regulation, qualification and application]. Moscow, 2004, p. 15.
8. Zimeleva M.V. Poklazha v tovarnykh skladakh [Luggage in warehouses]. Moscow, Finizdat Publ., 2017, p. 85.
9. Shemshuchenko Yu.S. Yuridicheskaya entsiklopediya [Legal Encyclopedia]. Kyiv, 2018, vol. 5, p. 502.
10. Savin V.I. Sklady [Warehouses]. Moscow, *Business and Service*, 2001, vol. 8, no. 8, p. 541.
11. Krivenko Yu.V. Otdel’nyye vidy khraneniya. Grazhdanskoye pravo Ukrainy [Certain types of storage. Civil law of Ukraine]. Kharkov, Odyssey Publ., 2008, p. 393.
12. Kolomatskaya A.S. Dogovor skladskogo khraneniya [Warehouse storage agreement]. Moscow, 2004, pp. 7–8.
13. Dudko O.S. K voprosu opredeleniya ponyatiya tovarnykh skladov kak khraniteley tovarov [On the issue of defining the concept of warehouses as storage facilities for goods]. *Law and Society*, 2014, vol. 1-2, pp. 67–70.
14. Solov’yeva Yu.S. Dogovor skladskogo khraneniya po grazhdanskomu zakonodatel’stvu Rossiyskoy Federatsii: na primere dogovora khraneniya zerna i produktov yego pererabotki [Warehouse storage agreement under the civil legislation of the Russian Federation: using the example of a storage agreement for grain and its processed products]. Moscow, 2004, pp. 7–8.
15. Shashank K., Balkrishna E.N., Karuna J. Revisiting the warehouse research through an evolutionary lens: a review from 1990 to 2019. *International Journal of Production Research,* 2021, vol. 59, no. 11. DOI: 10.1080/00207543.2020.1867923.
16. René B.M. De Koster, Andrew L.J., Debjit R. Warehouse design and management. *International Journal of Production Research*, 2017, vol. 55, iss. 21. DOI: 10.1080/00207543.2017.1371856#d1e177.
17. Jinxiang G., Goetschalckx M., Leon F. McGinnis. Research on warehouse operation: A comprehensive review. *European Journal of Operational Research*, 2007, vol. 177, no. 1, pp. 1–10.

Kelib tushgan / Получено / Received: 06.05.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 16.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./FPAN1250
UDC: 346.2(045)(575.1)

ISLOM MOLIYASI NORMALARIGA MUVOFIQ MUDORABA SHARTNOMASIDA KAPITAL KAFOLATI MASALALARI

Qilichova Munira Azimjon qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti
ORCID: 0000-0002-9413-1559
e-mail: muniraqilichova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mudoraba shartnomasi asosida jalb qilingan kapitalni kafolatlash masalasi shariat nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Islomiy moliya tizimida mudoraba – bu foyda olish maqsadida tuziladigan sheriklik shakli bo‘lib, unda moliyaviy zararlar faqat investor (rabb-ul-mal) zimmasiga yuklanadi. Mudorib esa faqatgina o‘zining beparvoligi, xatoliklari yoki shartnomaga zid harakatlari natijasida yuzaga kelgan zararlar uchun javobgar hisoblanadi. Maqolada olimlar tomonidan ilgari surilgan ikki xil yondashuv yoritiladi. Birinchi guruh mutaxassislar kapital kafolatini mudoraba shartnomasining asl mohiyatiga zid deb hisoblaydi, chunki bu holat shartnomani foizli qarzga yaqinlashtiradi va islom moliya prinsiplariga mos kelmaydi. Ularning fikricha, kafolat talabi mudorabani nohalol moliyaviy amaliyotga aylantiradi. Ikkinchi guruh esa uchinchi tomon tomonidan kafolat berilishi mumkinligini asoslashga harakat qiladi va bu orqali investorlarning ishonchini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsad qilinadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekistondagi mavjud holat ham o‘rganiladi. Jumladan, islomiy banklar mavjud emasligi sharoitida ayrim nobank moliyaviy tashkilotlar mudoraba shartnomasidan foydalanib, investorlarni jalb qilayotganliklari ko‘rsatib o‘tiladi. O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, kommandit shirkatlar tarkibida tuzilgan bitimlarda kapital kafolati majburiyati mavjud emas, ya’ni barcha ishtirokchilar zararlar uchun o‘z ulushlari miqyosida javobgar hisoblanadi. Shu bilan birga, islomiy moliyaga mos ravishda faoliyat yuritayotgan nobank moliyaviy tashkilotlarning ishini takomillashtirish uchun uchinchi tomon kafolatidan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv islomiy talablar va amaldagi huquqiy me’yorlar o‘rtasida muvozanatni saqlash zaruratini yuzaga keltiradi. Maqolada mudoraba shartnomasining zamonaviy moliya tizimidagi o‘rni, uning shariat qoidalari bilan uyg‘unligi va milliy qonunchilik bilan integratsiyalash imkoniyatlari atroflicha tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *islom moliyasi, islom banklari, shariat me’yorlari, mudoraba, kafolat, takaful va tabarru, kommandit shirkat, investor*

ВОПРОСЫ ГАРАНТИИ КАПИТАЛА В ДОГОВОРЕ МУДАРАБА С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ НОРМ ИСЛАМСКОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ

Киличова Мунира Азимжон кизи,
базовый докторант Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос гарантии капитала, привлечённого по договору мудараба, с точки зрения норм шариата. В системе исламского финансирования*

мудараба представляет собой форму партнёрства, заключаемого с целью извлечения прибыли, при которой все убытки несёт только инвестор (рабб уль-маль). Мудараб (исполнитель) несёт ответственность исключительно за убытки, возникшие в результате его небрежности, ошибок или действий, противоречащих договору. В статье освещаются два подхода, представленные в трудах учёных. Первая группа экспертов рассматривает гарантию капитала как противоречащую сущности мударабы, поскольку она приближает договор к процентному займу и нарушает принципы исламского финансирования. По их мнению, требование гарантии превращает мударабу в недобросовестную финансовую практику. Вторая группа, напротив, обосновывает возможность предоставления гарантии со стороны третьего лица, что, по их мнению, способствует укреплению доверия инвесторов и обеспечению финансовой устойчивости. В статье также анализируется ситуация в Узбекистане. В частности, несмотря на отсутствие исламских банков, некоторые небанковские финансовые учреждения привлекают инвесторов на основе договоров мударабы. Согласно законодательству Узбекистана, в сделках, заключённых в рамках коммандитных товариществ, отсутствует обязанность по гарантии капитала: все участники несут ответственность за убытки пропорционально своим долям. В то же время для совершенствования деятельности небанковских финансовых организаций, функционирующих в соответствии с принципами исламского финансирования, рекомендуется использование гарантии со стороны третьих лиц. Такой подход способствует установлению баланса между требованиями шариата и действующими правовыми нормами. В статье подробно анализируются место договора мударабa в современной финансовой системе, его соответствие нормам шариата, а также возможности интеграции с национальным законодательством.

Ключевые слова: *исламское финансирование, исламские банки, нормы шариата, мударабa, гарантия, такафул и табарру, коммандитное товарищество, инвестор*

ISSUES OF CAPITAL GUARANTEE IN MUDARABAH CONTRACT FROM THE PERSPECTIVE OF ISLAMIC FINANCE NORMS

Kilichova Munira Azimjon kizi,
Basic doctoral student at Tashkent State University of Law

Abstract. *In this article, the issue of guaranteeing capital raised under the mudarabah contract is analyzed from the perspective of Sharia. In the Islamic financial system, mudarabah is a form of partnership established for profit, where financial losses are solely attributed to the investor (rabb-ul-mal). The mudarib is liable only for losses resulting from their negligence, mistakes, or actions contrary to the contract. The article highlights two different approaches put forward by scientists. The first group of experts considers the guarantee of capital to contradict the true essence of the mudarabah contract, as this situation brings the contract closer to an interest-bearing loan and does not comply with the principles of Islamic finance. In their opinion, the guarantee requirement turns mudarabah into an unfair financial operation. The second group tries to justify the possibility of a guarantee from a third party, thereby increasing investor confidence and ensuring financial stability. The article also examines the current situation in Uzbekistan. In particular, it is indicated that in the absence of Islamic banks, some non-bank financial organizations are attracting investors using the mudarabah contract. According to the legislation of Uzbekistan, in transactions concluded within a limited partnership, there is no guarantee of capital, that is, all participants are liable for losses to the extent of their shares. At the same time, it is recommended to use a third-party guarantee to improve the work of non-bank financial organizations operating in accordance with Islamic finance. This approach creates the need to maintain a balance between Islamic requirements and current legal norms. The article thoroughly analyzes the role of the mudarabah contract in the modern financial system, its compatibility with Sharia rules, and possibilities of integration with national legislation.*

Keywords: *islamic finance, islamic banks, sharia norms, mudarabah, guarantee, takaful and tabarru, limited partnership, investor*

Kirish

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida islomiy moliya tizimi jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston aholisi va tadbirkorlari orasida ham diniy e’tiqod bilan bog‘liq holda shariat talablariga mos moliyaviy mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu holat mamlakatda islomiy moliya tizimini joriy etish masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida mamlakatda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish vaqti-soati kelganini ta’kidlab, ushbu yo‘nalishda huquqiy bazani yaratish zarurligini alohida qayd etgan edi. Mazkur tashabbus doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi PQ–292-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yilgi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ilova qilingan “Yo‘l xaritasi”da islomiy moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va banklar faoliyatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish vazifalari belgilab berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi 158-son bilan qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish belgilangan.

Garchi islom moliyasi va bankchiligi bo‘yicha maxsus qonun hali qabul qilinmagan bo‘lsa-da, bugungi kunda mamlakatimizda ushbu tamoyillarga mos holda faoliyat yuritayotgan biznes subyektlarini uchratish mumkin. Moliyaviy munosabatlar doirasida iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda, islom moliyasi asosida tashkil etilgan tadbirkorlik yo‘nalishlarida jamoaviy tarzda mablag‘ yig‘ish, mahsulot yoki xizmatlarga investitsiya kiritish orqali daromad olish kabi faoliyat turlari iste’molchilar, ya’ni mijozlar orasida tobora ommalashib bormoqda. Shu bois islom moliyasi asosida ishlayotgan tadbirkorlik subyektlarining mahsulot va xizmatlaridan foydalanuvchi iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish masalasini chuqur o‘rganish ayni paytda dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida islom moliyasi va bankchiligi bo‘yicha maxsus qonun hali qabul qilinmagan bo‘lsa-da, islomiy moliyaviy instrumentlardan foydalangan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari mavjud. Shu nuqtayi nazardan, islom moliyasining mudoraba instrumentidan foydalanayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda qanday usullar qo‘llanishi mumkinligini o‘rganish muhim hisoblanadi. *Xususan, iste’molchilar (sarmoyadorlar) tomonidan mudoraba asosida kiritilayotgan investitsiya mablag‘larining kafolatlanishi masalasi islom moliyasi tamoyillari nuqtayi nazaridan hamda amaldagi milliy qonunchilik doirasida qanchalik to‘g‘ri ekanini tahlil qilish ushbu maqolaning asosiy maqsadi etib belgilanadi.*

Ma’lumki, islom moliyasiga muvofiq faoliyat yurituvchi bank va nobank moliya tashkilotlari mablag‘larni, ayniqsa, sarmoyaviy va omonat shaklidagi resurslarni mudoraba asosida jalb qiladi [1]. Shu bois maqolada mudoraba doirasida jalb etilgan investitsiya va omonat mablag‘larining qanday kafolatlanishi, bunda iste’molchilar manfaatlari qanday himoya qilinishi masalalari yoritiladi.

Mudoraba – sheriklik asosidagi shartnoma bo‘lib, bunda kapital rabb ul-mal (sarmoyador) tomonidan taqdim etiladi, kapitalni boshqarish esa mudorib (boshqaruvchi) zimmasiga yuklanadi. Ushbu sheriklikning asosiy maqsadi foyda olishdan iboratdir. Mudoraba shartnomasining yana bir jihati shuki, u “uyqudagi” yoki “passiv sherik” bilan tuziladigan hamkorlik shaklida namoyon bo‘ladi. Bunda

sarmoyador (rabb ul-mal) biznesning kundalik boshqaruvi yoki qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etmaydi. Aksincha, mudorib biznes faoliyatini yuritadi, uni boshqaradi va o‘zining tajribasi hamda malakasi orqali maqsadga erishishga harakat qiladi.

Mudorib doimo rabb ul-malning vakili (wakil) sifatida ish yuritadi. Chunki mudoraba shartnomasida boshqaruvchi shaxs (mudorib) sarmoya egasining mulki bo‘yicha zarur harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘ladi.

Shartnomaning asosiy maqsadi foyda olish hisoblanib, tomonlar o‘rtasida bu foydaning taqsimoti oldindan aniq va nisbiy ulushlarda kelishib olinishi lozim. Foyda taqsimoti aniqlanmagan yoki noaniq ko‘rsatilgan holatlarda, ko‘pchilik fiqh mazhablariga ko‘ra, bunday shartnoma yaroqsiz (fasid) hisoblanadi. Demak, foydaning taqsimot nisbatini aniq belgilash – mudoraba shartnomasida tomonlarning huquq va majburiyatlarini himoya qilishning muhim va zaruriy sharti hisoblanadi [2, 151-b.].

Mudoraba shartnomasiga ko‘ra, biznes egalari kapital orqali olingan daromadni oldindan kelishilgan nisbatlarga muvofiq bo‘lishadi. Ushbu shartnoma an’anaviy moliyalashtirish usullaridan farqli o‘laroq, yillik aniq belgilangan to‘lovlarni yoki foydaning aniq kafolatini ta’minlamaydi. An’anaviy qarz munosabatlarida esa kapitalning qaytarilishi kafolatlangan bo‘lib, biznesning daromad olishiga bog‘liq emas [3, 103-b.].

Mudorabada yo‘qotishlar mulk huquqiga muvofiq aniqlanadi. Shunga ko‘ra, barcha yo‘qotishlar kapital egasining zimmasida bo‘lib, Mudoribning zararlarni qoplash majburiyati yo‘q. Bu mantiqan tushunarli, chunki yo‘qotishlar kapitalning kamayishi sifatida ko‘riladi va mulk huquqi prinsipiga muvofiq barcha yo‘qotishlarni kapital egasi o‘z zimmasiga olishi lozim. Yo‘qotishlarning har qanday qismida boshqaruvchini ayblash adolatli emas va agentlik (Wakalah) prinsiplariga zid hisoblanadi. Zarar bo‘lgan holatda boshqaruvchining javobgar emasligining yana bir sababi – uning biznes uchun qilgan mehnati behuda ketganligi [2, 151–152-b.].

Islom moliyasi sohasida xalqaro mutaxassis, shu sohada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan professor *Monzer Kahf* mudoraba instrumentini deposit instituti hisoblab, uning turli davlatlar qonunchiligi bo‘yicha qanday ishlashini ko‘rsatib beradi. An’anaviy moliyaga xizmat qiluvchi qonunchilik deposit oluvchi banklardan asosiy pul mablag‘ini hamda hisoblangan foizlarni ham kafolatlashni talab qiladi. Biroq islom moliyasi qoidasiga asosan, mudoraba asosida tikilgan pullarni kafolatlash taqiqlanadi hamda omonat berish munosabatini qarzga aylantirib qo‘yib, olinayotgan daromadning foiz bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli muallif islom moliyasi uchun alohida qonunchilik bazasi bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi [2, 37–38-b.].

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston sharoitida ham shaxslarning bankka qo‘yilayotgan omonatlari 2025-yil 19-fevralda 1031-son bilan qabul qilingan “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan kafolatlanadi. An’anaviy banklarning mijozlar omonatlarini kafolatlashi ushbu qonun asosida majburiydir. M. Kahf fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda islomiy banklarning faoliyat yuritishi uchun maxsus qonun qabul qilinishi muhimdir. Chunki mudoraba instrumenti orqali mijozlardan omonat qabul qiluvchi islomiy banklar ushbu omonatlarni an’anaviy banklar kabi kafolatlashi mumkin emas. Bank sohasidagi munosabatlar davlat tomonidan tartibga solingan bo‘lsa-da, nobank tashkilotlarning faoliyati nisbatan erkin hisoblanadi. Shu sababli fuqarolik-huquqiy munosabatlarda islom moliyasiga muvofiq faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari va nobank tashkilotlari mudoraba instrumentini maxsus qonun mavjud bo‘lmasa ham, qo‘llamoqda.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda sifatli tadqiqot metodologiyasidan (qualitative research metho-

dology) foydalanilgan. Sifatli tadqiqot metodologiyasining kontent-tahlil usuli orqali islom moliyasining huquqiy asoslari hamda O‘zbekiston qonunchiligi o‘rganilib, tahlil qilingan. Tadqiqotda to‘plangan ma’lumotlarni umumlashtirish uchun induktiv yondashuv ham qo‘llangan. Shuningdek, ikkinchi darajali manbalar sifatida kitoblar, ilmiy ishlar va ilmiy maqolalarning tegishli qismlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, maxsus huquqiy metodlardan – formal-mantiqiy va qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

1. Olimlarning fikrlari hamda AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) shariat me’yorlarining 45-standarti hamda islomiy fiqh akademiyasining 2001-yildagi 23-rezolutsiyasiga ko‘ra, mudoraba kapitalini kafolatlash mumkin emas. Kafolat faqat mudorib tomonidan shartnomani buzish, aktivlardan noto‘g‘ri foydalanish yoki qo‘pol beparvolik kabi ehtimoliy xavflar mavjud bo‘lganda beriladi. Biroq 1987-yilgi Xalqaro Islom Fiqh Akademiyasining 30-rezolutsiyasiga binoan, mudoraba kapitalini uchinchi tomon kafolati (tabarru va takaful) orqali qo‘llashga ruxsat beriladi.

2. Bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kommandit shirkatlarning biznes modeli mudoraba instrumentiga mos keladi. Tadbirkorlar mudorabani tashkiliy-huquqiy jihatdan shirkat shaklida qo‘llashlari mumkin.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda 308-II-son bilan qabul qilingan “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2022-yil 12-aprelda 763-son bilan qabul qilingan “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, kommandit shirkat sifatida faoliyat yuritayotgan nobank tashkilotlarning hissadorlar kapitalini kafolatlash majburiyati yo‘q. Agar shirkat bankrot bo‘lsa, uning kreditorlari oldidagi qarzdorligi belgilangan navbatlarga muvofiq qanoatlantirilgandan so‘ng, qolgan mol-mulk hissadorlarga taqsimlanadi. Shu bilan birga, nobank tashkilotlar o‘z tadbirkorlik faoliyatining ishonchliligini ta’minlash hamda ko‘plab mijozlarni jalb qilish maqsadida uchinchi tomon kafolatini (takaful va tabarru) qo‘llashlari mumkin. Bunda shariatga ko‘ra, mudoraba shartnomasi aslida omonat shartnomasi hisoblanib, foyda va zararlarni bo‘lish (Profit and Loss Sharing, PLS) prinsipiga asoslanganligi sababli, kafolat asosiy sarmoya yoki minimal daromadlar uchun emas, balki mudoribning aybli harakatlari tufayli yuzaga kelgan zarar uchun qo‘llanishi lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili

Mudoraba instrumentini qo‘llayotgan ba’zi tadbirkorlik subyektlarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda 308-II-son bilan qabul qilingan “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga asoslanadi. Ushbu qonunga ko‘ra, islom moliyasiga muvofiq faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning tashkiliy-huquqiy shakli qonunchilikda belgilangan kommandit shirkat turiga mos keladi.

Kommandit shirkat – shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan va shirkat majburiyatlari uchun o‘zlarining butun mol-mulklari bilan javob beradigan to‘liq sheriklar bilan bir qatorda, shirkat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun faqat qo‘shgan hissalari doirasida javobgar bo‘ladigan, shuningdek, shirkat tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etmaydigan bir yoki bir necha hissa qo‘shuvchi (kommanditchi) ishtirokchilar mavjud bo‘lgan shirkat.

Kommandit shirkatda kompaniya boshqaruvi to‘liq sheriklar tomonidan amalga oshiriladi va ular shirkat majburiyatlari uchun o‘z nomlaridagi butun mol-mulklari bilan javobgar bo‘ladi. To‘liq sheriklardan tashqari, hissa qo‘shuvchi sifatida sarmoya kiritgan shaxslar kommanditchi hisoblanadi va ular faqat qo‘shgan ulushlari doirasida javobgar bo‘lishadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, kommanditchilar shirkat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘z hissalari doirasida javobgar bo‘ladi. Bu

esa shuni anglatadiki, agar kommandit shirkat zarar ko‘rsa yoki bankrot bo‘lsa, hissadorlar o‘z qo‘shgan ulushlarini yo‘qotishga tayyor bo‘lishlari kerak.

Mazkur holatning islom moliyasi qoidalari doirasida qanday tartibga solinishi lozimligi esa shirkatlar tomonidan qo‘llanayotgan mudoraba instrumenti yoki shartnomasi misolida batafsil ko‘rib chiqilishi zarur.

Mudoraba tranzaksiyasi shartnoma sifatida islom yurisprudensiyasida shirkat yoki sharkat (islom sherikchiligi) ko‘rinishida qaraladi. Amaldagi operatsiyalarda mudoraba biznes sherikchiligi sifatida ko‘riladi, bunda bir taraf (rabb ul-mol) kapital bilan ta’minlasa, ikkinchi taraf tadbirkorlikni boshqaruvchi shaxs hisoblanadi [4].

Fiqhning dastlabki va an’anaviy kitoblarida birgalikda olib boriladigan biznes turlari Shirkat sarlavhasi ostida muhokama qilingan. Bu mavzu ko‘plab qo‘shma biznes tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Ko‘plab klassik huquqshunoslarning fikriga ko‘ra, keng ma’noda mudoraba ham shirkatning bir turi hisoblanadi. Fiqh kitoblarida shirkat bobida ham, shuningdek, mudorabaning alohida sarlavhasi ostida mudoraba haqida bahslar mavjud [5, 307-b.].

Yuqoridagi manbalardan ma’lum bo‘lishicha, bugungi kunda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kommandit shirkatlarning biznes modeli mudoraba instrumentini qo‘llashga juda mos keladi va tadbirkorlar uni tashkiliy-huquqiy jihatdan shirkat shaklida qo‘llashlari mumkin.

Jadval

Xo‘jalik shirkatlari bilan mudoraba instrumenti o‘rtasidagi o‘xshashliklar (O‘zbekiston qonunchiligi asosida)

Huquqiy-me’yoriy xususiyatlari	Mudoraba	Kommandit shirkat	O‘xshash jihatlari
Ikki tomon ishtiroki	Kapital egasi (rabb ul-mol) va boshqaruvchi (mudorib) ishtirok etadi	To‘liq hamda hissador sheriklar ishtirok etadi	Har ikkalasida kapital egasi va boshqaruvchi sifatida ikki tomon ishtirok etadi
Foydani taqsimlash tartibi	Oldindan kelishilgan nisbat asosida foyda taqsimlanadi	Sheriklik shartnomasida belgilangan tartibda foyda bo‘linadi	Foyda oldindan kelishilgan ulushlar asosida taqsimlanadi
Investor javobgarligi	Rabb ul-mol faqat qo‘shgan kapitali doirasida javobgar bo‘ladi	Ishtirokchi (kommanditchi) faqat kiritgan hissasi miqdorida javobgar bo‘ladi	Passiv ishtirokchi har ikkala holatda ham cheklangan javobgarlikka ega
Boshqaruvdagi ishtirok	Faqat mudorib faoliyatni boshqaradi	Faqat to‘liq sheriklar boshqaruvda ishtirok etadi	Boshqaruv faqat belgilangan taraf tomonidan amalga oshiriladi
Huquqiy maqomi	Islomiy moliya prinsiplariga asoslangan (qonunlarda bevosita aks etmagan, lekin amaliyotda qo‘llanadi)	Fuqarolik kodeksi va “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadi	Har ikkalasi O‘zbekistonda huquqiy jihatdan mavjud va amal qilinishi mumkin
Faoliyat maqsadi	Halol (shariatga muvofiq foyda olish)	Tijorat faoliyatidan foyda ko‘rish	Har ikkisi foyda olish maqsadida tuziladi
Muddati va tugatilishi	Belgilangan yoki loyiha asosida bo‘lishi mumkin	Belgilangan muddatli yoki doimiy bo‘lishi mumkin	Ikkalasi ham moslashuvchan muddatga ega bo‘lishi mumkin

Islom moliyasiga muvofiq mudoraba instrumentini qo‘llab, kommandit shirkat shaklida faoliyat yuritayotgan nobank tashkilotlarning “Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida”gi Qonunga binoan, ishtirokchilari (hissadorlari) mol-mulkini kafolatlash majburiyati mavjud emas. Agar shirkat faoliyati zarar ko‘rsa yoki bankrot bo‘lsa, hissadorlar o‘z qo‘shgan mol-mulki doirasida javobgar bo‘ladi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, agar shirkat bankrot holatiga tushsa, hissadorlar o‘z ulushlarini qaytarib olish huquqiga ega bo‘ladi. Biroq hissadorlar ulushining qismi qaytarilishi uchun oldindan qanoatlantirilishi zarur bo‘lgan talablar mavjud. Ushbu talablar O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-aprelda 763-son bilan qabul qilingan “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga solingan. Qonunning 150-moddasida kreditorlarning talablarini qanoatlantirish navbatlari belgilangan bo‘lib, navbatdan tashqari qanoatlantiriladigan talablar bajarilgach, birinchi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi navbatdagi talablar qanoatlantirilishi lozim (Qonunda navbatdagi talablar qaysi holatlarni o‘z ichiga olishi batafsil ko‘rsatilgan). Mazkur talablar bajarilgach, qolgan mol-mulkni tugatilayotgan qarzdorning muassislari (ishtirokchilari) yoki mol-mulk egasi oladi.

Yuqoridagi muhokama shuni ko‘rsatadiki, amaldagi qonunchilikka muvofiq, kommandit shirkat shaklida faoliyat yuritayotgan nobank tashkilotlarning hissadorlar kapitalini kafolatlash majburiyati yo‘q. Agar shirkat bankrot bo‘lsa va uning kreditorlari oldidagi qarzdorligi belgilangan navbatlar bo‘yicha to‘liq qanoatlantirilgandan so‘ng mol-mulk qolsa, hissadorlarga o‘z ulushlarini olish imkoniyati beriladi.

Islom moliyasi nuqtayi nazaridan mudoraba shartnomasida kafolat qo‘llanishi yoki qo‘llanmasligini tahlil qiladigan bo‘lsak, A. Deviga ko‘ra, islom banklari qo‘llaydigan mudoraba shartnomasidagi asosiy mablag‘ yoki kapital orqali keladigan foydaning qaytarilishi kafolatlanmaydi. Sababi mudoraba sherikchilik hamda biznes shartnomasi hisoblanib, islom banklari biznes riskini ham o‘z zimmalariga olishi kerak.

Muallif dunyo bo‘ylab mudoraba shartnomasining kam qo‘llanish sabablari sifatida quyidagilarni keltiradi: birinchidan, mijoz mudoraba shartnomasi asosida bankka mablag‘ berishda uning qaytarilishiga kafolat yo‘qligi sababli bunga istak bildirmaydi. Ikkinchidan, banklar o‘z obro‘sini saqlash maqsadida mudoraba shartnomasi asosida mablag‘ jalb qilishni istamaydi, chunki ushbu shartnomada biznes va obro‘ risklari mavjud bo‘ladi [6, 2-b.].

K. Hassan esa mudorabani foyda va zararlarni (profit and loss sharing) bo‘lishish orqali foyda olishni ko‘zlaydigan shartnoma deb ta’riflaydi. Ushbu shartnoma maxsus investitsiyalarni taklif qilib, unda loyiha egalari va investorlar har qanday foydani bo‘lishadilar. Mudorabada qat’iy daromad qiymatining qaytarilishi kafolatlanmaydi. Buning o‘rniga investor foydaning bir qismini oladi yoki tadbirkorlik natijasida yuzaga kelgan zararni o‘z zimmasiga oladi. Asosiy mablag‘ esa shartnoma tugatilgan taqdirda qaytariladi [7, 3-b.].

VU universiteti (Niderlandiya) professori H. Vissarning fikriga ko‘ra, PLS (foyda va zarar ulushi) asosidagi bitimlarda (mudoraba va musharaka) kafolatlar qo‘yilishi o‘rinli emas, chunki moliyachi tadbirkorlik bilan bog‘liq xatarlarni o‘z zimmasiga olishi lozim [8].

Shuningdek, malayziyalik olim M.Y. Saleemning ta’kidlashicha, mudoribga sarmoya beruvchi sohib ul-mol qarz beruvchi hisoblanmaydi, chunki investitsiya qilingan pulning egaligi uning o‘zida qoladi. Xuddi shunday, mudorib ham qarz oluvchi hisoblanmaydi; u sohib ul-molning agenti va sarmoyaning ishonchli vakili hisoblanadi. Mudorib garov taqdim etishga majbur emas va investorga kapitalining qaytarilishini ham, foydani ham kafolatlamaydi. Biznesda har doim yo‘qotish xavfi mavjud bo‘lib, undan qochish mudoribning xohish-irodasi bilan belgilanmaydi. Bi-

roq mudorib zarar xavfini kamaytirish uchun imkon qadar barcha choralarni ko‘rishi shart.

Agar kapital egasiga o‘z sarmoyasi hamda oldindan belgilangan foydani kafolatlash berilsa, mudoraba shartnomasi mohiyatiga ko‘ra, bu foiz asosida olingan qarz shartnomasiga aylanadi. Muallifning ta’kidlashicha, mudoraba shartnomasida sohib ul-molning javobgarligi mas’uliyati cheklangan jamiyatdagidek uning kapitali miqdori bilan chegaralangan. Shu sababli sohib ul-molning roziligi bo‘lmasdan, mudorib mudoraba doirasidagi kapitaldan ortiqcha miqdorda biznes yurita olmaydi [9, 144-b.].

M. Kahf mudorabada kapital egasining riski yuqori ekanligini ta’kidlaydi va bu shartmaning tabiatan assimetrik ma’lumotlarga asoslanganligini bildiradi. Buning sababi shundaki, rabb ul-mol biznesning kundalik faoliyatida ishtirok etishga haqli emas; biznesning muvaffaqiyati boshqaruvchining malakasi va ishonchiga bog‘liq. Natijada, kapital egasi qanchalik kuchli himoya choralarini ko‘rmasin, u mudoribning qobiliyatiga va hisobotlarni halollik bilan taqdim etishiga tayanishga majbur.

Shuningdek, mudoraba shartnomasi muzokaralar yo‘li bilan tuzilgani uchun tomonlar o‘z huquqlarini imkon qadar keng himoya qiluvchi shartlarni kiritishi mumkin. Masalan, biznesning takaful kompaniyasi orqali sug‘urtalanishini talab qilish imkoniyati mavjud. Biroq mudoraba foyda va zarar ulushini bo‘lishishga asoslangan shartnoma bo‘lgani uchun, tomonlar shartnomada foydani bo‘lishishni taqiqlovchi bandlarni belgilay olmaydi. Masalan, agar bir tomon uchun kafolatlangan minimal foyda mavjud bo‘lsa va umumiy foyda shu miqdordan kam bo‘lsa, bu shartnoma asosidagi bo‘lishish tamoyilini buzishi mumkin.

Mudoraba qo‘l omonati shartnomasi hisoblanib, rabb ul-mol mudoribning shartnomani buzishi, aktivlardan noto‘g‘ri foydalanishi yoki qo‘pol beparvolik kabi holatlar yuzaga kelganda garov va tashqi kafolatlarni talab qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, bu kafolatlar oddiy biznes yuritish natijasida yuzaga kelgan yo‘qotishlarga tatbiq etilmaydi [2, 156–157-b.].

Tahrim va bosh. Mudorabani taraflar o‘rtasida yuqori darajadagi ishonch asosida tuziladigan shartnoma deb hisoblash mumkin. Shuning uchun mudoraba yaxshi obro‘ga ega do‘stlar yoki taraflar o‘rtasida tuzilishi lozim, shuningdek, loyiha holati va moliyaviy hisobotlar muntazam ravishda oshkor qilinishi zarur [10]. Otuyo I. va boshqalar ham mudorabani ishonchga asoslangan munosabatlardan (aqd al-amanah) kelib chiqadigan shartnoma deb ta’riflaydi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, mudorib mudorabaga berilgan aktivni ishonch bilan boshqaradi va aktivning yo‘qolishi uchun javobgar bo‘lmaydi. Mudorib faqatgina o‘zining noto‘g‘ri xatti-harakatlari, beparvoligi hamda shartnomadagi belgilangan majburiyatlarni buzishi oqibatida javobgarlikka tortiladi [4, 34-b.].

Avval ta’kidlaganimizdek, mudoraba shirkatning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda barcha sheriklar aktivlarni ishonch sifatida saqlaydi. Shuning uchun shartnomani buzish, noto‘g‘ri xatti-harakatlar yoki beparvolik holatlari isbotlanmaguncha hech kim aktiv uchun javobgar hisoblanmaydi. Beparvolik quyidagi uch holatdan birida sodir bo‘lgan hisoblanadi: sherik shartnoma shartlariga rioya qilmasa; sherik tegishli korxona normalariga zid faoliyat yuritsa; sherikning aniq g‘arazli niyati mavjud bo‘lsa. Demak, har qanday sheriklarning foydasi yoki kapitali taraflar tomonidan kafolatlanmaydi. Biroq huquqbuzarlik yoki ehtiyotsizlik holatlari yuzaga kelganda, bir sherik boshqa sherikdan har qanday kafolat, garov yoki kompensatsiyani talab qilish huquqiga ega bo‘ladi [5, 318-b.].

Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan tashqari, islom moliyasining xalqaro me’yorlariga nazar solsak, nufuzli ilmiy tashkilot hisoblangan Islomiy fiqh akademiyasining 2001-yildagi 23-rezolutsiyasida shunday deyiladi: “Mudorib shariatga muvofiq ishonchli shaxs hi-

soblanadi; shuning uchun yo‘qotishlar uchun kafolat berish majburiyatini olmaydi. Mudoribning beparvoligi, qasddan qoidalarni buzishi yoki shartnoma hamda investitsiya shartlarini buzishi kabi holatlar bundan mustasno hisoblanadi”.

Shuningdek, AAOIFI shariat me’yorlarining 45-standarti quyidagilarni bayon qiladi: ishonchga asoslangan shartnomalar – vakolat, va’da, musharaka, mudoraba hamda mustajir qo‘lidagi mollarni ijaraga berish kabi shartnomalarda mahsulotlarning kafolati (rahn) talab etilmaydi. Agar ishonchli vakil belgilangan chegaradan chiqsa, e’tiborsizlik qilsa yoki shartlarni buzsa, rahn to‘lov manbai sifatida (ishonchli shaxsning huquqi sifatida) ishlatilishiga ruxsat beriladi.

Bundan tashqari, mudorabada kapitalni kafolatlash shartnomaning fosid bo‘lishiga olib keladi. Ibn Qudama fikricha: “Agar kapital egasi (rabb ul-mol) boshqaruvchi (mudorib)dan biznes risklariga javobgar bo‘lishni talab qilsa, bu talab fosid hisoblanadi. Sababi bu talab foydaning qismi emas hamda shartnomaning asl mohiyatiga zid keladi”.

Ushbu masalada olimlar yakdil fikr bildirganlar. Shuningdek, Qodhi Abdul Wahhab ham shunday fikrni bildirib, mudoraba kapitalini kafolatlashni shart qilib qo‘yish shartnomaning bekor bo‘lishiga olib kelishini ta’kidlaydi.

AAOIFI shariat me’yorlari mudoraba, mushoraka va vakillik shartnomalarida kapitalning qaytarilishini kafolatlash taqiqini huquqiy asoslaydi. Unga ko‘ra, mazkur shartnomalarda kafolat qo‘llash ularning mohiyatini o‘zgartirib, uni qarz shartnomasiga aylantiradi (chunki mudorib kapitalning qaytarilishini majburiyat qilib oladi). Bu holat esa shartnomalarning omonat (amanah) sifatidagi asl mohiyatiga zid bo‘lib, shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi [6, 5-b.].

Yuqoridagi olimlarning fikrlari, xalqaro shariat me’yorlari mudoraba kapitalini kafolatlash mumkin emasligini ko‘rsatmoqda. *Biroq mudorabada kafolatni qo‘llash mumkinligini asoslovchi olimlarning guruhi mavjud bo‘lib, ularni ko‘rib chiqish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.*

Zamonaviy olimlar mudorabaga uchinchi tomon kafolati (al-kafala) berish g‘oyasini ma’qullaydilar. Sababi, kafillik risklarga uchrash xavfini kamaytiradi va kapitalning qaytarilishini ta’minlashga yordam beradi. Kafolat investorlarni (rabb ul-mal) bozor riskidan himoya qilmaydi, ammo noto‘g‘ri xatti-harakatlardan yoki firibgarlikdan himoya qilishi mumkin. Dalla Albaraka fikricha, mudoraba kapitalida mudoribga (tadbirkorga) kafolat berish taqiqlanadi. Shunga qaramay, agar kafolat hukumat tomonidan berilsa, bunga ruxsat beriladi. Hozirgi vaqtda uchinchi tomon kafolatlari hukumat yoki xususiy tashkilotlar tomonidan taqdim etilishi mumkin [11, 349–358-b.].

Islom banklari doirasida mudoraba kapitalining kafolatlanish masalasini muhokama qiladigan bo‘lsak, Rice Universiteti professori va islom moliyasi hamda iqtisodiyoti bo‘yicha mutaxassis M.A. El-Gamalning fikricha, islomiy bank tizimi dastlab an’anaviy foizli moliyaviy tizimga muqobil sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, ribodan holi, foyda va zararlarni bo‘lishishga asoslangan mudoraba (jim sheriklik) va mushoraka (ulushdorlik) tamoyillariga tayanadi. Bu modelda omonatchilar sarmoya egasi (asosiy tomon) sifatida qatnashadi, bank esa ularning vakili sifatida investitsiya qiladi. Bank foydadan ulush oladi, ammo zarar faqat sarmoya egasining zimmasiga tushadi. Biroq muallifning fikricha, amalda bu model ma’lumotlar nomutanosibligi va ma’naviy xavf (moral hazard) muammolarini keltirib chiqaradi. Bu esa vakil (bank) tomonidan noto‘g‘ri ma’lumot berish yoki mablag‘ni samarasiz boshqarish ehtimolini oshiradi. Shu bois ba’zi islomiy moliyaviy muassasalar ḥiyal (huquqiy yo‘l topish usullari) orqali belgilangan daromadli vositalardan foydalanishni boshlaganini qayd etadi. Muallifning keltirishicha, islomiy huquqdagi bu bahsda muhim burilish 2002-yilda Shayx Muhammad

Sayyid Tantaviyning rahbarligida Al-Azhar (Misr) Islom Tadqiqotlari Kengashi tomonidan chiqarilgan fatvo bilan yuz berdi. Ushbu fatvo bo‘yicha banklarda belgilangan daromad (sarmoyaga hisoblanuvchi oldindan kelishilgan aniq foyda miqdori) asosida sarmoya kiritish shariatga zid emas. Tantaviy buni bankni qarzdor emas, balki agent-investor sifatida talqin qilish orqali asoslaydi. U Qur’on va Sunnatda bunday turdagi bitimlarni taqiqlovchi aniq dalil yo‘qligini ta’kidlab, bunday amaliyot ijtimoiy manfaatlarga xizmat qilishini ilgari suradi. Ushbu fatvo Tantaviy o‘zi, shuningdek, Muhammad Abduh va Abdulvahhob Xallaf kabi ilg‘or islom huquqshunoslarining qarashlariga tayanadi. Ular belgilangan daromadni foydani oldindan bilish orqali xatarlardan himoya qilish vositasi deb hisoblashadi. Tantaviy zamonaviy ma’naviy xavflar yuqori bo‘lgan davrda investorlarni himoya qilish zaruriyatini ta’kidlaydi.

Biroq Pokiston Oliy Sudi 1999-yilda chiqarilgan qarorda bunday yondashuvni keskin rad etib, barcha turdagi foizlarni *ribo* deb e’lon qildi va ularni iqtisoddan butunlay yo‘q qilish chaqiruvini bildirdi. Pokiston sudi axloqiy muammolar har qanday tizimda mavjudligini qayd etib, belgilangan daromadga ijtimoiy-iqtisodiy asosda emas, balki ideologik asosda qarshi chiqdi.

M.A. El-Gamal islomiy bank tizimining hozirgi rivojlanishida an’anaviy (klassik) va islohotchi yondashuvlar o‘rtasidagi asosiy farqni ko‘rsatadi. An’anaviy yondashuvda matnga (fiqhiy manbalarga) qat’iy sodiqlik ustuvor hisoblanadi, zamonaviy yondashuv esa natija va iqtisodiy foydaga urg‘u beradi. Natijada, bu ikki pozitsiya o‘rtasidagi ziddiyat islomiy moliya tizimining amaliyotiga hali ham ta’sir qilmoqda [12, 144–152-b.].

Biroq A. Muneeza, Z. Mustaphalarning tadqiqotiga asosan islomiy moliyada *kafolat (Kafalah)* tushunchasining mudoraba shartnomalarida qo‘llanishi shariat tamoyillariga qat’iy muvofiq bo‘lishi lozim. Chunki mudorabada boshqaruvchi sherik (mudorib) tomonidan asosiy kapital yoki foydani kafolatlash taqiqlanadi. Mualliflarga ko‘ra mudoraba shartnomalarida kafolat faqat mudorib tomonidan sodir etilgan beparvolik, noto‘g‘ri boshqaruv yoki shartnomani buzish holatlariga nisbatan ruxsat etiladi. Bank Negara Malaysia (BNM) tomonidan belgilangan shariat me’yorlariga ko‘ra, bunday kafolatlar faqat mustaqil uchinchi taraf tomonidan taqdim etilishi kerak va asosiy mudoraba shartnomasidan alohida hujjat sifatida rasmiylashtiriladi. *Bunday kafolatlar faqat ijro (performance) bilan bog‘liq bo‘lib, sarmoya yoki foydani kafolatlash huquqini bermaydi,* chunki bu mudorabaning foyda va zararni bo‘lishish (PLS) prinsipiga zid hisoblanadi. Shu sababli islomiy moliyaviy institutlar mudoraba tuzilmalarida har qanday kafolatni faqat mudoribning aybi aniq isbotlangandagina *cheklangan shaklda* qo‘llashlari kerak. Aks holda, bu shariatga zid hisoblanadi [13, 173–187-b.].

Demak, mudoraba shartnomasida foyda va zararlarni bo‘lishish (PLS) prinsipiga ko‘ra, bitim natijasida yuzaga kelgan zarar faqat mudoribning harakati bilan bog‘liq bo‘lib, bozor yoki biznes risklaridan kelib chiqmasligi lozim.

M. Noureddin va boshqalar fikricha, agar uchinchi tomon rabb ul-mol va mudoribdan mustaqil bo‘lsa, uchinchi tomon kafolati joiz hisoblanadi. Biroq agar kapitalga zarar mudoribning noto‘g‘ri xatti-harakatisiz yoki oddiy holatlar natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, kafolat qo‘llanishi mumkin emas. Rabb ul-mol manfaatlarini himoya qilish maqsadida, mudorib kapitalga keltirilgan zararda aybsizligini isbotlay olmasa, kafolat berilishi kerak [14]. A. Naim va boshqalar ham sheriklar tomonidan kapitalni kafolatlash ko‘pchilik tomonidan taqiqlanganligini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, kafolat faqatgina noto‘g‘ri harakatlar yoki e’tiborsizlik holatlarida uchinchi tomon tomonidan berilishi mumkin [15].

Yuqoridagi manbalarda uchinchi tomon kafolati masalasiga to‘xtalib o‘tilgani sababli, ushbu kafolat islom moliya muassasalarida

qanday ishlashi haqida savol tug‘ilishi tabiiydir. Quyida uchinchi tomon kafolatining islom moliya muassasalari doirasida qo‘llanish tartibi va qoidalari ko‘rib chiqiladi.

An’anaviy banklarda mijozlarning depozitlari kafolatlanishi jarayoniga misol tariqasida, F. Arnaboldi fikriga ko‘ra, Yevropa Ittifoqida Bank Ittifoqi (Banking Union) tashkil etilgan. Uning faoliyati uch yo‘nalishdan iborat bo‘lib, ulardan biri bank depozitlarini kafolatlash tizimidir. Ushbu tizim bank muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, oldindan belgilangan miqdorda depozitlarni yo‘qotishdan himoya qiladi. Natijada, bu tizim orqali bank mijozlarining moliyaviy aktivlarining asosiy qismi himoyalanadi [16, 50–85-b.].

Shuningdek, AQSh va Buyuk Britaniyada ham an’anaviy bank omonatlari depozit banklari tomonidan kafolatlanadi. Biroq mazkur tizim islom banklarining faoliyat yuritishiga to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda [2, 38-b.].

M. Maali va M.A. Atmehlarga ko‘ra, islom moliyasidagi muhim element – bu omonatchilardan mablag‘larni yig‘ish va safarbar qilish usulidir. Islom banklari asosan investitsion hisoblar orqali omonatchilardan mablag‘larni jalb qiladi. Ushbu investitsiya hisoblari mudoraba shartnomasiga asoslanadi, ya’ni foyda bo‘lishish tamoyiliga tayangan holda tashkil etiladi. Mudoraba shartnomasi banklardan depozit puli va undan keladigan foydani kafolatlashni talab qilmaydi. Foyda bank va omonatchilar o‘rtasida taqsimlanishi kerak. Biroq mudorabani zamonaviy bank amaliyotiga moslashtirish uchun dastlabki shartlarning ko‘plari osonlashtirilgan. Bu asoslar asosan tabarru (xayriya) va takaful (o‘zaro kafolatlash) kabi islomiy ijtimoiy farovonlik tushunchalariga tayangan edi. Biroq ushbu ijtimoiy farovonlik konsepsiyalaridan foyda olish operatsiyalarida foydalanish ma’lum darajada shubhali hisoblanadi.

Mualliflarning ilmiy ishida islomiy banklar takaful va tabarru kabi ijtimoiy farovonlik konsepsiyalarini qanday qilib sarmoya omonatlarini kafolatlash vositasi sifatida qo‘llayotganligi tahlil qilinadi. An’anaviy mudoraba shartnomasi foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan bo‘lsa-da, islomiy banklar *Foydani tenglashtirish rezervi (PER) va Sarmoya xavfi rezervi (IRR)* kabi mexanizmlar orqali depozitlarga barqaror daromad ta’minlashga harakat qilmoqda.

Mualliflar ta’kidlaydiki, bu amaliyotlar shariat tamoyillariga zid ravishda risklarni sarmoyadorlardan boshqa tomonlarga o‘tkazadi va natijada islomiy banklarning faoliyati shaklan emas, balki mazmunan an’anaviy bank tizimiga yaqinlashmoqda. Shunga qaramay, islomiy banklarning sarmoyadorlarga ularning *omonatlari kafolatlangan va minimal daromad* stavkasi ta’minlanganini e’lon qilishiga hech qanday to‘sqinlik yo‘q, chunki bank asosiy mablag‘dagi yo‘qotishlar va raqobatbardosh daromad stavkalarini “ehson” tarzida qoplashga tayyor [17, 134–149-b.].

Uchinchi tomon kafolatiga ruxsat berilishining asosi sifatida 1987-yilda qabul qilingan Xalqaro Islom Fiqh Akademiyasining 30-rezolutsiyasi (5/4) keltiriladi. Ushbu qarorga ko‘ra: “Ulush yoki Muqaarada (qarz) sertifikatlarida, huquqiy maqomi yoki moliyaviy holati jihatidan shartnomaning ikki tomoniga butunlay aloqasi bo‘lmagan uchinchi tomon tomonidan ma’lum bir loyihadagi yo‘qotishlarni qoplash maqsadida, hech qanday evazsiz, aniq miqdorda xayriya (ehson) qilish bo‘yicha berilgan va’da shariatda taqiqlanmaydi. Biroq bu majburiyat mustaqil bo‘lishi, ya’ni mudoraba shartnomasiga bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Ya’ni shartnomaning kuchga kirishi ushbu va’daning bajarilishiga shart qilib qo‘yilmasligi yoki va’da shartnomaning asosiy shartlarini belgilamasligi kerak. Shu sababli na sarmoyador (aksiyador), na mudorib (boshqaruvchi sherik) ushbu banddan foydalanib, shartnomadan chekinishga yoki o‘z majburiyatlarini bajarmaslikka haqli emas, chunki uchinchi tomon tomonidan berilgan bu va’da shartnoma doirasida hisobga olinmaydi”.

Monzer Kahfning fikriga ko‘ra, islom banklarida mudoraba asosida jalb qilingan investitsiya mablag‘larini kafolatlash mumkin emas. Buning sababi ushbu shartnomaga ko‘ra, islomiy bank sarmoyalarga nisbatan vakil (mudorib) hisoblanadi, shuningdek, sherikchilik shartnomalari mohiyatan vakillik (Wakalah) bitimi sifatida qabul qilinadi. Shu sababli islom banklari investitsiya hisobvarag‘idagi asosiy mablag‘ga ham, undan keladigan foydaga ham kafolat berolmaydi. Biroq savol tug‘iladi: ushbu investitsiya hisobvarag‘lariga uchinchi tomon kafolatini berish mumkinmi? Nazariy jihatdan bu ijobiy javobga ega, ammo amaliyotda kim bu kafolatni ixtiyoriy tarzda berishi mumkin va qancha miqdorda kafolat beriladi? Ushbu majburiyat hukumat zimmasiga yuklatilishi kerakmi? Agar shunday bo‘lsa, bu kafolat soliq to‘lovchilar mablag‘idan qoplanadimi va omma manfaatlari uchun qanchalik samarali bo‘ladi? Omma uchun ushbu harakatni yetarlicha asoslamay turib amalga oshirish murakkab bo‘lishi tabiiydir.

Shunga o‘xshash muammo islomiy banklarda milliy omonatlarni kafolatlash sxemalarini qo‘llashda ham yuzaga kelishi mumkin. Milliy omonatlarni kafolatlash sxemalarini islomiy banklarni qamrab olishda shariatga oid savollar paydo bo‘lishi mumkin. Albatta, islomiy banklar ushbu sxemalarga o‘z mijozlari manfaatlari uchun hissa qo‘shishi mumkin.

Muallif fikriga ko‘ra, mudorib uchun sherikning asosiy sarmoyasi yoki undan olinadigan foydani kafolatlash joiz emas. Ushbu muammodan chiqish yo‘li sifatida sarmoya hisoblari foydasining taqsimotidan oldin sug‘urta mukofotini ajratish orqali mulk egalari o‘z mulklarini kafolatlashlari mumkin. Mulk egalari o‘z mulklarini himoya qilish uchun shariatga muvofiq barcha choralarni ko‘rishi mumkin. Agar ushbu mulklar islomiy bankdagi sarmoyalarga aylangan bo‘lsa ham, bu prinsip amal qiladi. Ushbu usulning ijobiy jihati shundaki, ko‘pgina milliy omonat sug‘urtasi sxemalari kooperativ turga mansub bo‘lib, hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi [2, 88–89-b.].

Demak, islomiy banklarda mudoraba kapitali asosida jalb qilingan kapitalning egalari ushbu sarmoya orqali keladigan foydaning qanchadir qismini sug‘urta mukofotiga berish orqali o‘z sarmoyalarini kafolatlashi mumkin bo‘ladi. M. Kahfning fikriga ko‘ra, bu tartib mulk egasi uchun moliyaviy faoliyat natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan riskni iloji boricha kamaytirish mumkinligi qoidasidan kelib chiqadi [2, 85-b.].

Yuqoridagi manbalardan ma’lum bo‘ladiki, islom banklari mudoraba asosida jalb qilingan investitsiya omonatlarinining asosiy miqdorini hamda minimal foiz stavkasini tabarru asosida, ya’ni ehson qilish orqali zararlarni qoplash sifatida kafolatlashi mumkin. Shuningdek, sarmoya egalari o‘z kapitalini himoya qilish maqsadida sug‘urta qildirishi mumkin.

Banklardan tashqari boshqa moliya muassasalari, masalan, islom moliyasi asosida faoliyat yurituvchi nobank tashkilotlari ham uchinchi tomon kafolatidan foydalanishi mumkin. Bugungi kunda O‘zbekistonda islom moliyasiga muvofiq faoliyat yuritayotgan nobank tashkilotlaridan biri “Iman” invest kompaniyasi ham sheriklarining (investorlarning) sarmoyalarini takaful orqali sug‘urtalash maqsadida xorijiy takaful kompaniyalari bilan hamkorlik o‘rnatilganini ma’lum qilgan edi. Banklardan alohida bo‘lgan islomiy moliya institutlari/nobank tashkilotlari faoliyati ilmiy sohada banklar singari keng miqyosda o‘rganilmaganligi bois ushbu muassasalarda kapitalni kafolatlashning tartibi qanday bo‘lishi bo‘yicha ilmiy manbalar kam hisoblanadi. Shu sababli bu soha yo‘nalishini ham kelajakdagi ilmiy ishlarda o‘rganish afzal hisoblanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, mudorib kapitalni *o‘z xohishiga ko‘ra* kafolatlashi mumkinligi xususida qarashlar mavjuddir. Mudorib o‘z xohishi bilan kapitalni kafolatlashni shartnoma tuzilayotgan vaqtda ifoda etsa, u shart-

nomaning muhim shartiga aylanadi. Shuningdek, ba'zi olimlar zamonaviy hamda klassik mudoraba o'rtasidagi farqlarni ochib berish orqali, ushbu farqlar shariat qoidalariga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatishadi:

1. Zamonaviy mudorabaga asoslanuvchi bank hisobvarag'lari islom banklarida vujudga kelib, bank sanoati qattiq tartibga solinadigan soha hisoblanadi.

2. CASA (Current account and Savings account) va depozit hisobvarag'ida kapitalning yetarliligi talablari qo'llanganligi uchun mudorabaga asoslangan omonat shartnomasi deyarli kafolatlangan hisoblanadi.

3. Haqiqiy amaliyotda zamonaviy mudoraba depoziti aktivlariga nisbatan Foydani tenglashtirish zaxirasi (PER) yoki investitsiya risklari zaxirasi (IRR) kabi foyda kelishini osonlashtiruvchi, riskni kamaytiruvchi usullar qo'llanadi [6, 7-b.].

Biroq A. Devi yuqoridagi mudoraba aktivlariga nisbatan kafolat berishga ruxsat beruvchi fikrlarning hamda mudorabaning omonat hisoblanmaslik tamoyilini hisobga olmaganini ta'kidladi. Muallif o'z tadqiqotida maslahat (ommaviy manfaat) asosida uchinchi tomon kafolatini berishning ikki xil yo'li mavjudligini ko'rsatadi. Birinchisi – uchinchi tomon resursiga ega bo'lgan kafolat shartnomasi orqali amalga oshiriladi. Bunda mudorib o'z majburiyatini e'tiborsizlik tufayli bajara olmaganda, uchinchi tomon – rabb ul-mol uchun kafolatni taqdim etadi. Ikkinchi usul esa tabarru (xayriya) shartnomasi bo'lib, uchinchi tomon sifatida sug'urta kompaniyasi tomonidan kafolat beriladi. Ushbu kafolatlarni taqdim etishning sharti shuki, uchinchi shaxs mustaqil tomon bo'lishi zarur. Kafolat berishga ruxsat berilishining asosiy sababi – investorlarning ishonchini oshirish va ularning mablag'larini loyihalarga jalb qilishdir [6].

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, mudoraba shartnomasi asosida jalb qilingan kapitalni kafolatlash shariat nuqtayi nazaridan joiz emas. Olimlar mudoraba aktivini kafolatlash borasida ikki xil fikr bildirgan. Birinchi guruh olimlari kafolat usullarini qo'llash mudoraba shartnomasining asl mohiyatini — omonat prinsipini buzish ekanligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, kafolatni qo'llash orqali sherikchilikka asoslangan shartnoma mazmunan o'zgarib, qarz shartnomasiga aylanib qoladi. Natijada, mudoraba shartnomasi orqali olinadigan foyda foizga aylanishi mumkinligi haqida ogohlantirishlar berilgan. Shuningdek, Xalqaro shariat me'yorlarini belgilovchi AAOIFI normalari va Xalqaro Islom Fiqh Akademiyasining xulosalariga ko'ra, mudoraba kapitaliga kafolat faqat mudoribning e'tiborsizligi, noto'g'ri harakatlari yoki shartnoma shartlarini bajarmasligi kabi holatlarda qo'llanishi mumkinligi ma'lum qilingan.

Ikkinchi guruh olimlar (M. Kahf, M.A. El-Gamal, A. Muneeza va boshqalar) fikriga ko'ra, klassik mudoraba bilan zamonaviy mudoraba instrumenti o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Shu sababli bugungi iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy tizim hamda islom banklari bilan an'anaviy banklar o'rtasidagi raqobatni muvofiqlashtirish maqsadida, islom banklarida omonat hisobvarag'lari uchun qo'llanayotgan mudoraba shartnomasiga kafolat berish mumkinligi hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'plab mijozlarning/investorlarning pullarini jalb etish uchun ham kafolatni qo'llah masalalari dolzarbdir. 1987-yilgi Xalqaro Islom Fiqh Akademiyasing 30-rezolutsiyasining (5/4) qaroriga binoan kafolatni qo'llashning muhim shartlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir: kafolat (takaful yoki tabarru) berish majburiyati mudoraba shartnomasiga aloqador bo'lmasligi lozim; uchinchi taraf mudoraba shartnomasiga nisbatan mustaqil subyekt bo'lishi kerak; kafolat hech qanday evazsiz, aniq miqdorda xayriya (ehson) qilish asosida berilgan va'da bo'lishi kerak. Mazkur rezolutsiyaning belgilangan qoidalaridan tashqari olimlarning fikrlarini hisobga olish muhim

hisoblanadi.

Xususan, M.A. El-Gamal 2002-yilda Shayx Muhammad Sayyid Tantaviyning rahbarligida Al-Azhar (Misr) Islom Tadqiqotlari Kengashi tomonidan chiqarilgan fatvoni yoqlaganday bo‘ladi. Ushbu fatvo bo‘yicha banklarda belgilangan daromad (sarmoyaga hisoblanuvchi oldindan kelishilgan aniq foyda miqdori) asosida sarmoya kiritish shariatga zid emas deb topiladi. Mazkur fatvoga ko‘ra islom banklariga mudoraba shartnomasi orqali qo‘yiladigan sarmoyani kafolatlashni mudorabaning islomiy banklar sohasida ishlatilishida unga nisbatan vakillik bitimi sifatida qarab, kapitalga nisbatan oldindan belgilangan daromadni (masalan, 10 000 minglik sarmoyaga 10 % foiz daromad berilishi oldindan kafolatlanadi) qo‘llash mumkinligi g‘oyasi ilgari surilmoqda. M.A. El-Gamal real iqtisodiy vaziyatni hamda axloqiy mezonlarni hisobga olgan holda, mudoraba sarmoyasini kafolatlash yuzasidan chiqqan AL-Azhar fatvosini qo‘llagandek bo‘ladi. Biroq mudorabaning islom huquqshunosligida belgilangan asl mohiyati, ya’ni uning aslida omonat shartnomasi hisoblanishi, natijada u orqali keladigan kafolatlangan daromad uni qarz shartnomasiga aylantirib qo‘yishini hisobga oladigan bo‘lsak, sarmoya egasiga kafolat berish mumkin emasligi qoidasini rad etib ham bo‘lmaydi.

Аннотация. *В статье исследуются правовые аспекты регулирования искусственного интеллекта в контексте цифровой дипломатии. Автор рассматривает процесс трансформации традиционных дипломатических институтов под влиянием цифровизации и внедрения технологий искусственного интеллекта, анализирует существующие международно-правовые механизмы и их применимость к новым дипломатическим практикам. Особое внимание уделяется проблемам юридической ответственности, суверенитета данных, прозрачности алгоритмов и атрибуции в цифровой дипломатии. Исследование основано на совокупности научных методов и подходов, которые обеспечивают полное изучение объекта исследования. Благодаря формально-юридическому методу определён правовой статус дипломатических систем искусственного интеллекта в рамках действующего международного права. Для сравнения национальных и региональных стратегий регулирования ИИ в международных отношениях использовался сравнительно-правовой подход. Историко-правовой подход использовался для изучения развития дипломатического права и его адаптации к новым технологиям. На основе анализа национальных и международных нормативно-правовых актов, судебной практики и доктринальных источников предлагается концептуальная модель многоуровневого регулирования искусственного интеллекта в дипломатической деятельности. Обосновывается необходимость создания специализированных правовых режимов для различных категорий дипломатических систем искусственного интеллекта с учётом их функциональных особенностей и потенциальных рисков.*

Ключевые слова*: цифровая дипломатия, искусственный интеллект, международное право, ответственность государств, дипломатический иммунитет, суверенитет данных, международное информационное право, алгоритмическое управление*

RAQAMLI DIPLOMATIYA VA SUN'IY INTELLEKT: XALQARO HUQUQDA TARTIBGA SOLISH JIHATLARI

Ziyamov Boburxon,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada raqamli diplomatiya kontekstida sun'iy intellektni tartibga solishning huquqiy jihatlari o'rganilgan. Muallif raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ta'siri ostida an'anaviy diplomatik institutlarning transformatsiya jarayonini ko'rib chiqadi, mavjud xalqaro huquqiy mexanizmlar va ularning yangi diplomatik amaliyotlarda qo'llanishini tahlil qiladi. Raqamli diplomatiyada yuridik javobgarlik, ma'lumotlar suvereniteti, algoritmik shaffoflik va atributsiya muammolariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot uning obyektini to'liq o'rganishni ta'minlaydigan ilmiy usullar va yondashuvlar majmuiga asoslangan. Rasmiy-yuridik uslub orqali amaldagi xalqaro huquq doirasida sun'iy intellekt diplomatik tizimlarining huquqiy maqomi aniqlangan. Xalqaro munosabatlarda sun'iy intellektni tartibga solishga oid milliy va mintaqaviy strategiyalarni solishtirish uchun qiyosiy-huquqiy yondashuv qo'llangan. Diplomatik huquqning rivojlanishi va uning yangi texnologiyalarga moslashuvini o'rganishda tarixiy-huquqiy yondashuvdan foydalanilgan. Milliy va xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar, sud amaliyoti va doktrina manbalarini tahlil qilish asosida xulosada diplomatik faoliyatda sun'iy intellektni ko'p darajali tartibga solishning konseptual modeli taklif etiladi. Turli toifadagi diplomatik sun'iy intellekt tizimlari uchun ularning funksional xususiyatlari va potensial xavflarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan huquqiy rejimlarni yaratish zarurati asoslanadi.*

Kalit so'zlar*: raqamli diplomatiya, sun'iy intellekt, xalqaro huquq, davlatlar mas'uliyati, diplomatik immunitet, ma'lumotlar suvereniteti, xalqaro axborot huquqi, algoritmik boshqaruv*

DIGITAL DIPLOMACY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: REGULATION ASPECTS IN INTERNATIONAL LAW

Ziyamov Boburkhon,
Independent researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. *The article examines the legal aspects of regulating artificial intelligence in the context of digital diplomacy. The author examines the process of transformation of traditional diplomatic institutions under the influence of digitalization and the introduction of artificial intelligence technologies, analyzes existing international legal mechanisms and their applicability to new diplomatic practices. Special attention is paid to the problems of legal responsibility, data sovereignty, transparency of algorithms, and attribution in digital diplomacy. Research is based on a set of scientific methods and approaches that ensure the complete study of the object of research. Thanks to the formal-legal method, the legal status of diplomatic artificial intelligence systems within the framework of current international law has been determined. A comparative legal approach was used to compare national and regional strategies for regulating AI in international relations. The historical-legal approach was used to study the development of diplomatic law and its adaptation to new technologies. Based on the analysis of national and international regulatory legal acts, judicial practice, and doctrinal sources, a conceptual model for multi-level regulation of artificial intelligence in diplomatic activities is proposed. The need to create specialized legal regimes for various categories of diplomatic artificial intelligence systems, taking into account their functional characteristics and potential risks, is substantiated.*

Keywords*: digital diplomacy, artificial intelligence, international law, state responsibility, diplomatic immunity, data sovereignty, international information law, algorithmic governance*

Введение

С ростом информационно-коммуникационных технологий и систем искусственного интеллекта (далее – ИИ) характер дипломатических действий государств кардинально изменился. В начале XXI века понятие цифровой дипломатии изменилось от простого использования социальных сетей в дипломатических действиях до использования ИИ в прогнозировании, поддержке

принятия решений, анализе данных и автоматизации консульских функций [1].

Многие вещи делают исследование правовых аспектов использования ИИ в дипломатии полезным. Во-первых, традиционные правовые концепции и институты дипломатического права сформировались в эпоху, предшествовавшую цифровой дипломатии, и поэтому они не всегда способны адекватно реагировать на вызовы, с которыми сталкивается технология, опосредованная дипломатией. Во-вторых, правовая неопределённость и возможные конфликты между юрисдикциями могут возникнуть из-за отсутствия единых международно-правовых стандартов, регулирующих использование ИИ в дипломатических процессах. В-третьих, создание соответствующих правовых гарантий необходимо, поскольку использование автоматизированных систем в консульской деятельности непосредственно затрагивает права человека.

Цель этого исследования состоит в том, чтобы проанализировать международно-правовые механизмы регулирования искусственного интеллекта в цифровой дипломатии как сейчас, так и в будущем. Чтобы достичь этой цели, необходимо решить следующие исследовательские задачи: определить особенности цифровой дипломатии как объекта правового регулирования; исследовать, как традиционные дипломатические конвенции влияют на ИИ-опосредованную дипломатию; изучить новые специализированные правовые инструменты в области ИИ; изучить подходы к регулированию технологически опосредованной дипломатии как на региональном, так и на национальном уровне; создать концептуальную модель многоуровневого регулирования искусственного интеллекта в дипломатической деятельности.

Создание междисциплинарного подхода к анализу правовых проблем ИИ в дипломатии и создание многоуровневой дифференцированной модели регулирования, которая учитывает функциональные особенности различных категорий дипломатических ИИ-систем, являются двумя ключевыми результатами исследования.

Материалы и методы

Исследование основано на совокупности научных методов и подходов, которые обеспечивают полное изучение объекта исследования. Когда речь идёт о нормативно-правовых актах, регулирующих использование искусственного интеллекта в дипломатической деятельности, центральное место занимает формально-юридический метод. Благодаря этому методу можно было определить правовой статус дипломатических ИИ-систем в рамках действующего международного права.

Для сравнения национальных и региональных стратегий регулирования ИИ в международных отношениях использовался сравнительно-правовой подход. В частности, было проведено сравнение регуляторных рамок Европейского союза, США, Китая и России в отношении использования искусственного интеллекта в дипломатической практике.

Благодаря системному анализу международно-правовое регулирование цифровой дипломатии ИИ можно рассматривать как единую систему, взаимодействующую с другими частями международного права. Эта стратегия помогла выявить взаимосвязи между различными правовыми режимами, применимыми к технологии опосредованной дипломатии.

Историко-правовой подход использовался для изучения развития дипломатического права и его адаптации к новым технологиям. Это позволило проследить исторические сходства между современной цифровой трансформацией дипломатии и предыдущими технологическими революциями в международных коммуникациях.

Междисциплинарный подход позволил объединить исследования в области технологий, политологии, права и международных отношений. Это особенно важно для исследований ИИ в дипломатии, потому что это требует понимания как технических, так и юридических аспектов проблемы.

Эмпирическую базу исследования составили международные договоры и конвенции, в частности Венская конвенция о дипломатических сношениях (1961), Венская конвенция о консульских сношениях (1963), а также Венская конвенция о праве международных договоров (1969). Помимо этого, в исследовании были использованы:

- документы, относящиеся к категории «мягкого права», включая Рекомендации ОЭСР по искусственному интеллекту (2019) и Рекомендации ЮНЕСКО об этических аспектах искусственного интеллекта (2021);
- национальные законодательные акты, регулирующие использование ИИ в сфере государственного управления и международных отношений;
- практика международных судебных органов, касающаяся дипломатического права;
- научные труды авторитетных исследователей в области международного права, дипломатии и технологий искусственного интеллекта;
- аналитические материалы исследовательских центров и международных организаций.

Контент-анализ и правовая герменевтика использовались для анализа правовых документов и определения основных тенденций регулирования. Это позволило определить формальное содержание правовых норм, а также их социальный контекст и принципы.

Результаты исследования

Согласно исследованию, существующая структура международного дипломатического права не содержит никаких правил, непосредственно регулирующих цифровую дипломатию и использование искусственного интеллекта в международных отношениях. Фундаментальные документы дипломатического права – Венские конвенции о дипломатических сношениях (далее – ВКДС) и Венские конвенции о консульских сношениях – были разработаны до цифровой революции и не предусматривали технологически опосредованной дипломатической деятельности.

Тем не менее исследование практики государств и решений международных судов показывает, что традиционное толкование дипломатических конвенций изменилось. Это распространяется на цифровые аспекты дипломатической деятельности. В частности, важные правила, такие как неприкосновенность дипломатических помещений (ст. 22 ВКДС), архивы и документы (ст. 24 ВКДС) и свобода сношений (ст. 27 ВКДС), интерпретируются как применимые к электронным коммуникациям и цифровой инфраструктуре дипломатических представительств.

Решения Международного суда ООН имеют особое значение для правового статуса цифровой дипломатии. Несмотря на то, что нет прецедентов, непосредственно связанных с использованием ИИ в дипломатии, существует несколько решений, которые определяют принципы цифровой дипломатии. В частности, в деле «О персонале дипломатических и консульских представительств США в Тегеране» (1980) суд подтвердил важность дипломатической неприкосновенности, которая должна соблюдаться независимо от политического контекста и технологических средств выполнения дипломатических функций.

Исследование выявило формирование международно-правовой системы инструментов «мягкого права», регулирующих

различные аспекты использования искусственного интеллекта, которые опосредованно воздействуют на сферу цифровой дипломатии. Рекомендации ОЭСР по искусственному интеллекту 2019 года и Рекомендация ЮНЕСКО об этических аспектах искусственного интеллекта 2021 года играют важную роль в этой системе.

Рекомендация ОЭСР устанавливает пять принципов ответственного управления надёжным ИИ, которые применимы к дипломатическим ИИ-системам:

1) инклюзивный рост, устойчивое развитие и благосостояние;

2) ориентация на человеческие ценности и справедливость;

3) прозрачность и объяснимость;

4) надёжность и безопасность;

5) подотчётность.

Рекомендация ЮНЕСКО дополняет эти принципы, подчёркивая этические аспекты искусственного интеллекта и важность сохранения человеческого контроля над автоматизированными системами. Установленный ЮНЕСКО принцип многостороннего участия в управлении ИИ, который предполагает сотрудничество различных заинтересованных сторон, имеет особое значение для дипломатической сферы.

Анализ показал, что, хотя эти документы не имеют юридической силы, они создают основу для будущих национальных законов и практик в области регулирования ИИ, включая дипломатические применения.

Исследование показало, что существует значительная разница между региональными и национальными подходами к регулированию ИИ в дипломатической деятельности. Европейский союз использует наиболее сложный и строгий подход к управлению рисками. Проект Регламента ЕС об искусственном интеллекте (AI Act) классифицирует системы искусственного интеллекта в соответствии с их уровнем риска и устанавливает соответствующие требования к регулированию. Дипломатические системы ИИ, касающиеся прав граждан (например, консульские службы), подвергаются строгому надзору и оценке соответствия, прозрачности и человеческого надзора.

Соединённые Штаты Америки придерживаются более либеральной политики, основанной на саморегулировании и минимальном государственном вмешательстве. Государственный департамент Соединённых Штатов включил положения об использовании ИИ в Foreign Affairs Manual. Он сделал это, избегая жёстких регуляторных ограничений и устанавливая процедурные требования для систем автоматизированного принятия решений в дипломатической и консульской сферах.

Китай и Россия используют централизованные системы управления, которые обеспечивают высокий уровень государственного контроля над разработкой и использованием искусственного интеллекта в дипломатических операциях. В частности, положения КНР о регулировании дипломатических информационных систем 2021 года устанавливают строгие требования к безопасности и контролю ИИ-систем, используемых в дипломатических представительствах.

Сравнительный анализ показал, что различия в национальных подходах вызывают риск фрагментации международно-правового регулирования ИИ в дипломатии и возможных юрисдикционных конфликтов, особенно в отношении трансграничной передачи дипломатических данных.

В результате исследования была разработана функциональная типология применения искусственного интеллекта в дипломатической деятельности, которая соответствует различным правовым режимам:

1. Системы аналитического ИИ, обрабатывающие открытые данные для инфор-

мационной поддержки дипломатических операций (низкий риск, минимальное регулирование).

2. Системы прогнозирования ИИ, моделирующие международные события и прогнозирующие развитие дипломатических ситуаций (средний уровень риска, требования прозрачности методологии).

3. Системы коммуникационного ИИ, автоматизирующие перевод и обработку дипломатических сообщений (средний уровень риска, требования точности и конфиденциальности).

4. Консульские системы ИИ, автоматизирующие обработку визовых заявлений и предоставление гражданам консульских услуг (высокий риск, строгие требования процессуальных гарантий и недискриминации).

5. Системы поддержки переговоров, анализирующие позиции сторон и создающие рекомендации для дипломатов (человеческий контроль, высокий риск и прозрачность).

Каждый тип ИИ-системы имеет свои собственные правовые требования, отражающие уровень риска и особенности работы. В рамках многоуровневой модели регулирования эта типология может быть использована для разработки различных правовых режимов.

Анализ результатов исследования

Это исследование показывает, что дипломатическое право, закреплённое в Венских конвенциях, обладает большим потенциалом для адаптации к новым технологиям с помощью механизмов эволюционного толкования. Базовые принципы дипломатического права, такие как неприкосновенность, иммунитеты и привилегии, остаются актуальными и применимыми и в цифровой дипломатии, однако они должны быть адаптированы и конкретизированы для специфики систем искусственного интеллекта.

Для достижения этой адаптации можно использовать как консенсусное толкование существующих конвенций (например, в резолюциях Генеральной Ассамблеи ООН), так и создание общего международного права, основанного на единообразной практике государств. Международные суды играют важную роль в этом процессе, поскольку они формируют авторитетное толкование дипломатических конвенций в свете современных технологий.

Однако анализ показывает, что эволюционное толкование ограничено, особенно в отношении совершенно новых элементов, связанных с опосредованной дипломатией искусственного интеллекта, которые не существуют в традиционной дипломатической практике. Такие аспекты включают, в частности, вопросы юридической ответственности автономных ИИ-систем, алгоритмической дискриминации в консульской деятельности и правового статуса данных, обрабатываемых дипломатическими ИИ-системами за пределами страны.

Результаты исследования показывают основную проблему определения юридической ответственности за использование ИИ-систем в дипломатических операциях. В Проекте статей об ответственности государств за международно-противоправные деяния, принятом Комиссией международного права в августе 2001 года, традиционная концепция ответственности государств основана на принципе атрибуции действий органов и должностных лиц государству. Тем не менее ИИ-системы, особенно основанные на методах машинного обучения, могут действовать непредсказуемым образом, создавая решения, которые не были явно запрограммированы и не могут быть однозначно атрибутированы конкретным лицам.

Считается, что модель «человек в контуре» (human-in-the-loop), которая предполагает сохранение человеческого контроля над важными решениями, принима-

емыми ИИ-системами в дипломатической деятельности, является наиболее подходящим подходом к решению этой проблемы. Эта модель сохраняет преимущества автоматизации рутинных процессов, при этом ясно распределяет ответственность.

Анализ национальных подходов к регулированию показывает широкое согласие в том, что сохранение человеческого контроля над ИИ-системами необходимо, особенно в таких критически важных сферах, как политика. Так, США включили аналогичные положения в свои руководства по использованию ИИ в государственном управлении, а Европейский союз прямо указывает, что высокорисковые ИИ-системы должны иметь человеческий надзор.

Результаты исследования свидетельствуют о формировании новой концепции – «дипломатического суверенитета данных», отражающей стремление государств сохранить контроль над дипломатической информацией в условиях современной информационно-цифровой реальности. Эта идея находит отражение в международных соглашениях и национальном законодательстве, регулирующих трансграничную передачу и обработку дипломатических документов.

Анализ обнаружил возможные разногласия между принципом дипломатической неприкосновенности и применением национальных законов о защите данных и кибербезопасности за пределами страны. Таким образом, Общий регламент по защите данных ЕС (GDPR) может применяться к обработке личных данных дипломатическими ИИ-системами третьих стран, если эта обработка затрагивает субъектов данных из ЕС. Аналогичным образом китайское кибербезопасное законодательство устанавливает строгие требования к обработке данных китайских граждан. Эти требования могут угрожать дипломатическим привилегиям и иммунитетам.

Для устранения указанных разногласий необходимо разработать специальные международные соглашения, предусматривающие эффективные механизмы правового сотрудничества и чётко определяющие границы юрисдикции в отношении дипломатических данных. Перспективным направлением в этом контексте представляется заключение соглашений о дипломатической защите данных, примером чего может служить Договорённость о дипломатии данных между Индией и Сингапуром, подписанная в 2023 году.

Результаты исследования выявляют существенное расхождение между требованиями алгоритмических систем к прозрачности и традиционными нормами дипломатической конфиденциальности. С одной стороны, стандарты ответственного использования искусственного интеллекта предполагают прозрачность и объяснимость принимаемых алгоритмических решений. С другой – дипломатическая деятельность, необходимая для ведения эффективных переговоров и защиты национальных интересов, изначально строится на принципах высокой конфиденциальности. В этой связи наибольшую практическую ценность представляет концепция «дифференцированной прозрачности», предполагающая варьируемые уровни раскрытия информации об ИИ-системах в зависимости от контекста и чувствительности выполняемых дипломатических функций. Так, консульские ИИ-системы должны обеспечивать высокий уровень процедурной прозрачности, включая право на получение объяснений по принятым решениям. В то же время аналитические ИИ-системы, работающие с конфиденциальной дипломатической информацией, могут функционировать в условиях ограниченной прозрачности, сосредотачиваясь не на раскрытии алгоритмов и данных, а на процедурах валидации и обеспечении качества работы.

Согласно анализу, этот метод находит отражение в политике государств. Например, Дипломатический протокол прозрачности ИИ Европейской службы внешних связей определяет различные стандарты раскрытия информации в зависимости от типа ИИ-системы и контекста её использования.

Результаты исследования позволяют сделать вывод, что в цифровой дипломатии необходимо создать многоуровневую модель регулирования ИИ, которая сочетала бы инструменты международного, регионального и национального уровня. Эта модель должна учитывать особенности различных дипломатических ИИ-систем и национальных подходов к регулированию.

На международном уровне целесообразно закрепить общие принципы и минимальные стандарты использования ИИ в дипломатии в рамках универсальных документов, таких как рамочная конвенция или акты «мягкого права». На региональном уровне эти принципы могут быть адаптированы с учётом специфики региональных дипломатических институтов. В свою очередь, на национальном уровне разрабатываются детализированные стандарты, дифференцированные по типам применяемых ИИ-систем и особенностям их функционирования.

Обеспечение интероперабельности различных правовых режимов путём механизмов взаимного признания, гармонизации стандартов и правового сотрудничества является важным компонентом такой модели. Это может способствовать созданию международных мест, где регуляторы могут общаться, обмениваться опытом и разрабатывать общие стратегии для контроля ИИ в дипломатической деятельности.

Выводы

Основные выводы проведённого исследования касаются международно-правовых аспектов регулирования использования искусственного интеллекта в цифровой дипломатии:

1. Адаптация традиционного дипломатического права. Несмотря на то что Венские конвенции о дипломатических и консульских сношениях закрепляют нормы классического дипломатического права, они требуют адаптации к условиям цифровой эпохи. Такие фундаментальные принципы, как неприкосновенность, иммунитеты и привилегии, должны распространяться и на цифровые формы дипломатической деятельности, включая использование систем искусственного интеллекта.

2. Роль инструментов «мягкого права». Документы, не имеющие обязательной юридической силы, такие как Рекомендация ОЭСР по искусственному интеллекту и Рекомендация ЮНЕСКО об этических аспектах ИИ, формируют основу для будущего международного регулирования ИИ в дипломатии. В них закреплены ключевые принципы ответственного ИИ – прозрачность, подотчётность, человеческий контроль, которые должны применяться и в дипломатической сфере.

3. Различия в национальных и региональных подходах. Существуют значительные расхождения в подходах к регулированию ИИ в дипломатии, отражающие более широкий контекст технологической политики государств. Европейский союз демонстрирует комплексную систему, основанную на управлении рисками, США придерживаются либеральной модели с упором на инновации, а Китай и Россия опираются на централизованные подходы с высоким уровнем государственного контроля.

4. Ключевые юридические вызовы. Правовое регулирование ИИ в дипломатии сталкивается с рядом сложных задач: необходимостью соблюдения баланса между прозрачностью и конфиденциальностью, решением вопросов юридической ответственности и атрибуции, опреде-

лением суверенитета и юрисдикции над данными, а также защитой прав человека в автоматизированных консульских процедурах. Решение этих задач требует как реформирования существующего правового поля, так и создания новых регуляторных механизмов.

5. Многоуровневая модель регулирования. Эффективное международно-правовое регулирование ИИ в цифровой дипломатии должно основываться на многоуровневом подходе, включающем: универсальные международные принципы и стандарты, региональные нормативные рамки и национальное законодательство. Это обеспечивает возможность дифференцированного правового регулирования в зависимости от типа ИИ-систем и характера их применения.

6. Принцип «дополненной дипломатии». В основу правового регулирования ИИ в дипломатии должен быть положен принцип «дополненной дипломатии», согласно которому ИИ расширяет возможности человеческой дипломатии, но не заменяет человеческое участие в ключевых аспектах принятия решений. Практическая реализация этого принципа предполагает обязательное наличие человеческого контроля над функционированием ИИ-систем в дипломатической деятельности.

7. Необходимость международного сотрудничества. Эффективное регулирование ИИ в цифровой дипломатии невозможно без широкого международного взаимодействия. Оно должно включать обмен опытом, гармонизацию стандартов, совместную разработку правовых подходов и создание механизмов разрешения юрисдикционных споров.

Таким образом, международное право, регулирующее применение искусственного интеллекта в дипломатии, находится на начальной стадии формирования. Оно требует как глубокого переосмысления традиционных норм дипломатического права, так и комплексного учёта новых технологических реалий. Успех в этой сфере зависит от способности обеспечить баланс между инновационным развитием, международной безопасностью и защитой прав человека.

REFERENCES

1. Manor I. The Digitalization of Public Diplomacy. New York, Palgrave Macmillan Publ., 2019.
2. Bjola C., Holmes M. Digital Diplomacy: Theory and Practice. London, Routledge Publ., 2021.
3. Chesterman S. Artificial Intelligence and the Problem of Autonomy. *Ethics & International Affairs*, 2022, vol. 36(2), pp. 201–216.
4. Denza E. Diplomatic Law: Commentary on the Vienna Convention on Diplomatic Relations. Oxford University Publ., Oxford, 2021.
5. Melissen J., Keulenaar E.V. The Coronavirus Pandemic and the Transformation of Diplomacy. *The Hague Journal of Diplomacy*, 2021, vol. 16(2-3), pp. 138–149.
6. Hocking B., Melissen J. Diplomacy in the Digital Age. Clingendael Institute, The Hague Publ., 2018.
7. Bjola C. Diplomacy in the Age of Artificial Intelligence. *Emirates Diplomatic Academy Insight*, 2020, vol. 15(9), pp. 1–14.
8. Rashica V. Digital Diplomacy and Artificial Intelligence: Challenges and Opportunities. *The Diplomat*, 2022, vol. 14(3), pp. 67–84.
9. Mapping the Challenges and Opportunities of Artificial Intelligence for the Conduct of Diplomacy. Geneva, DiploFoundation, 2022.

10. Alghamdi I.A. The Impact of Artificial Intelligence on Diplomatic Functions. *Global Policy*, 2021, vol. 12(4), pp. 468–480.
11. United Nations. Vienna Convention on Diplomatic Relations. *United Nations Treaty Series*, 1961, vol. 500, p. 95.
12. Kuner C. International Law and Data Protection: The Draft EU-US Privacy Shield. *International Law Studies*, 2020, vol. 96(1), pp. 224–251.
13. Fletcher T. The Naked Diplomat: Understanding Power and Politics in the Digital Age. London, HarperCollins Publ., 2021.
14. Crawford J. The Evolution of Diplomatic Communication Technology: Historical Perspectives and Contemporary Challenges. Cambridge, Cambridge University Publ., 2019.
15. Roberts I. Satow's Diplomatic Practice. Oxford, Oxford University Publ., 2020.
16. International Court of Justice. United States Diplomatic and Consular Staff in Tehran, Judgment, I.C.J. Reports. 1980, p. 3.
17. Berridge G.R. Diplomacy: Theory and Practice. London, Palgrave Macmillan Publ., 2021.
18. Michaels R. The Immunity of AI Diplomatic Agents: Legal Fiction Meets Technological Reality. *Yale Journal of International Law*, 2022, vol. 47(2), pp. 213–246.
19. Recommendation of the Council on Artificial Intelligence. OECD, 2019.
20. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. UNESCO, 2021.

Kelib tushgan / Получено / Received: 03.05.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./FDCD3814
UDC: 347.9(045)(575.1)

FUQAROLIK PROTSESSIDA VAKILLIK INSTITUTI: O‘ZIGA XOS AHAMIYATI VA XUSUSIYATLARI

Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi kafedrasi mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-8355-3983
e-mail: davlat.xabibullayev@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik instituti, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Xususan, fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik qilish tushunchasi, uning ahamiyati va bu borada huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganib chiqilgan. Suddagi vakillik tushunchasi tahlil qilinib, ushbu tushunchaga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan. Shuningdek, ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi “Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni tahlil etilib, bu boradagi huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, maqolada fuqarolarning malakali yuridik yordam olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash, ishonch bildiruvchi shaxsga uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilishda yordam berish, hozirgi kunda fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasida vakil bilan advokat maqomining o‘zaro nisbati, advokatning sud protsessida ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq qilinib, takliflar ishlab chiqilgan. Xulosa qismida vakil bilan advokat maqomining o‘zaro nisbati, advokatning protsessual huquq va majburiyatlari, advokatning sud protsessida ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *fuqarolik sudi, odil sudlov, vakil, advokat, suddagi vakillik, sud orqali himoyalanish, malakali yuridik yordam, bepul yuridik yordam, vakilning protsessual huquq va majburiyatlari*

ИНСТИТУТ ПРЕДСТАВИТЕЛЬСТВА В ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ: ЕГО ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибоевич,
доктор юридических наук, профессор,
заведующий кафедрой «Гражданское
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. *В настоящей статье рассмотрены институт представительства в гражданском судопроизводстве, его значение и особенности. В частности,*

анализируется понятие представительства в гражданском процессе, раскрывается его роль, а также исследуются научно-теоретические подходы юристов к данному понятию. Автор предлагает собственное определение термина «представительство в суде». Кроме того, рассматриваются постановление Пленума Верховного суда Республики Узбекистан от 14 мая 2010 года «О применении судами норм гражданского процессуального законодательства о представительстве», Закон Республики Узбекистан «О предоставлении юридической помощи за счёт государства», а также научные мнения и теоретические взгляды в этой области. Отдельное внимание уделяется обеспечению конституционного права граждан на квалифицированную юридическую помощь, содействию представителя в защите прав и законных интересов доверителя в суде, соотношению процессуального статуса адвоката и представителя в современной теории гражданского процессуального права, а также особенностям участия адвоката в судопроизводстве. В заключительной части статьи освещены различия и сходства в правовом положении адвоката и иного представителя, процессуальные права и обязанности адвоката, а также характерные черты его участия в гражданском процессе.

Ключевые слова: *гражданский суд, правосудие, представитель, адвокат, представительство в суде, судебная защита, квалифицированная юридическая помощь, бесплатная юридическая помощь, процессуальные права и обязанности представителя*

THE INSTITUTE OF REPRESENTATION IN CIVIL PROCEDURE: ITS SIGNIFICANCE AND CHARACTERISTICS

Khabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich,
Head of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law, Professor

Absract. *This article analyzes the institution of representation in civil proceedings, its significance, and specific features. In particular, the concept of representation in civil proceedings, its significance, and the scientific and theoretical views of legal scholars on this issue have been studied. The concept of representation in court was analyzed, and an author's definition of this concept was developed. This article also analyzes the Resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan dated May 14, 2010, "On the Application by Courts of the Norms of Civil Procedure Legislation on Representation," the Law of the Republic of Uzbekistan "On the Provision of Legal Assistance at the Expense of the State," and examines the scientific and theoretical views of legal scholars in this area. In addition, the article examines and develops proposals for ensuring the constitutional right of citizens to receive qualified legal assistance, assisting the principal in protecting their rights and legitimate interests in court, the relationship between the status of a representative and a lawyer in the theory of civil procedural law, and the specific features of the lawyer's participation in court proceedings. The conclusion section outlines the relationship between the status of a representative and a lawyer, the procedural rights and obligations of a lawyer, and the specific features of the lawyer's participation in court proceedings.*

Keywords: *civil court, justice, representative, lawyer, legal representation, judicial protection, qualified legal assistance, free legal assistance, procedural rights and obligations of a representative*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasiga ko‘ra, fuqarolar o‘z ishlarini sudda shaxsan yoki o‘z vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo‘yicha vakilga ega bo‘lish huquqidan mahrum etmaydi. Tashkilotlar ishlarni o‘z rahbarlari yoki vakillari orqali yuritadi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar orasida vakillar muhim o‘rin egallaydi. Chunki fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishda, ularga malakali yuridik yordam ko‘rsatishda vakillik o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bu borada Sh.Sh. Shoraxmetov o‘z fikrini bildirib: “Fuqarolar va yuridik shaxslar fuqarolik ishlarini sudlarda, aksariyat hollarda o‘zlari bevosita yuritadilar. Ammo ba’zi sabablarga ko‘ra, chunonchi: kasallik, komandirovkada bo‘lish, huquq normalaridan yetarli darajada xabardor bo‘lmaslik, muomala layoqatiga ega bo‘lmaslik va boshqa sabablar bilan da’vogar va javobgar shaxslar sud ishini yuritishni boshqa shaxsga (vakilga) topshirishlari mumkin. Sudda vakillik qilish institutining ahamiyati fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xolisona haqiqatni belgilash, nizoning mazmuni yuzasidan to‘g‘ri qaror qabul qilishda sudga ko‘maklashishdan iboratdir”, – deb ta’kidlaydi [1]. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, sudda vakillik qilish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning buzilgan huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini sud orqali samarali himoya qilishning protsessual kafolati hisoblanadi.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakillik institutiga oid dissertatsiyalar, dissertatsiya avtoreferatlari, ilmiy maqolalar, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ va bosha qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi “Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qarori va mavzuga oid boshqa ilmiy materiallardan foydalanilgan. Tadqiqot doirasida huquqiy fanlardagi ilmiy metodlar: tizimli-huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy huquqiy, induksiya va deduksiya kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalari

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida sudda vakillik qilish tushunchasi yoritilmagan. Lekin O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi “Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qarorda: “Suddagi vakil – ishonch bildiruvchi shaxs nomidan va uning manfaatlari uchun berilgan vakolat doirasida protsessual harakatlar sodir etadigan hamda huquqlarini amalga oshirishda unga yordam beradigan jismoniy shaxsdir”, – deb tushuntirish berilgan.

Yuridik adabiyotlarda suddagi vakillik tushunchasiga turli xil ta’riflar berilgan. Huquqshunos olim M.M. Mamasiddiqovning fikricha: “Sudda vakillik qilish institutining fuqarolik huquqidagi vakillikdan avvalambor, uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib farqlash mumkin. Sudda vakillik qilishning maqsadi – fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqlarini sudda himoya qilishda yordam berish hamda sudga ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlashda va nizoning to‘g‘ri hal qilinishida yordam berish hisoblanadi. Shuning uchun suddagi vakil bilan ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi moddiy – huquqiy munosabatlarning mavjudligi protsessual munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo‘ladi” [2].

K.K. Olimovaning fikricha: “Suddagi vakillik instituti vakillik ostidagi shaxs nomidan unga maqbul bo‘lgan hal qiluv qarori chiqarishga erishish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat, shuningdek, vakillik ostidagi shaxsning huquqlarini ro‘yobga oshirishga

va sudda uning huquqlari buzilishining oldini olishga yordamlashuvchi hamda fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxs sifatida ta’rif berish to‘g‘ri bo‘ladi” [3].

R.A. Sidorovning fikricha: “Sudda vakillik – fuqarolarning malakali yuridik yordam olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash, ishonch bildiruvchi shaxsga uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini sudda himoya qilishda yordam berish va fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudga yordam berish maqsadida muayyan fuqarolik ishini yuritishda yoki alohida protsessual harakatni amalga oshirishda sud va vakil o‘rtasida yuzaga keladigan fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlari bo‘lib, unga ko‘ra, vakil o‘z vakolatlari doirasida ishonch bildiruvchi shaxs nomidan uning manfaatlarini ko‘zlab ish yuritadi. Sudda vakillikning fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlari sifatida ta’rifini shakllantirishda muallif tomonidan uning muhim belgilari (elementlari) sifatida vakillikning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi; subyektiv tarkibi; obyekti; mazmuni; bir shaxsning boshqa shaxs nomidan va uning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadidagi faoliyati; vakilning vakolatlari ko‘rsatib berilgan” [4].

N.V. Perepelkina, A.S. Kuskov [5], O.A. Ruzakovalar [6] fuqarolik protsessual qonunchiligining tarkibi nuqtayi nazaridan fuqarolik protsessida vakillik huquqiy munosabat sifatida qarashadi. Ushbu pozitsiyaga ko‘ra, vakillik vakil va sud o‘rtasida rivojlanadigan huquqiy munosabatlardir.

Y. Nekrasovaning fikricha: “Sudda vakillik bir shaxs (ishonch bildiruvchi shaxs) manfaatlarini vakolatni o‘tkazish orqali ishonch bildirilgan bo‘lsa, boshqaning nomidan vakilga berilgan vakolatlar asosida, amalga oshiriladigan huquqiy munosabatlar hisoblanadi, shuningdek, adolatli qaror qabul qilish, ishonch bildiruvchilarning huquqlarini amalga oshirish, ularni buzilishlarini oldini olish va jarayonda fuqarolik holatlarida sud ma’muriyatiga yordam berish tushuniladi” [7].

E.S. Aloyanning fikriga ko‘ra: “Protsessual vakillikning mohiyatini o‘zaro bog‘liq va birbirini to‘ldiruvchi quyidagilar orqali ochib berish maqsadga muvofiq: huquqiy munosabatlar tizimi (ichki va tashqi); muayyan yuridik ahamiyatga ega oqibatlarga olib keladigan dinamik protsess (ishonch bildiruvchi uchun protsessual oraliq va yakuniy moddiy-huquqiy oqibatlar); zamonaviy protsessual huquqning mustaqil instituti” [8].

Umumiy asoslarda yuqorida olimlar tomonidan vakillik faoliyatiga ta’rif berilganda vakillikning vujudga kelish asoslari, vakil va ishonch bildiruvchi shaxs o‘rtasidagi munosabatlar, vakolatlarni rasmiylashtirish tartibi, asoslari, vakolatlarni tasdiqlovchi hujjatlar, sud tomonidan vakilning tayinlanishi, ixtiyoriy va shartnomaviy vakillik turlaridan kelib chiqilib yondashilganligini ko‘rishimiz mumkin. Har bir olim o‘z qarashlari va huquq tizimi nuqtayi nazaridan ta’rif berib fikrlarini ifodalagan. Shu sababli ham har bir berilgan ta’riflarda o‘z asoslari va yondashuv usullari mavjud. Shunga ko‘ra, biz ham sudda vakillik qilish tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin:

Sudda vakillik qilish ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida ishonch bildiruvchining buzilgan huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sudda himoya qilish, malakali yuridik yordam ko‘rsatish, sudlar tomonidan odil sudlovning amalga oshirilishiga ko‘maklashishdan iboratdir.

V.A. Guk vakillikning maqsadi haqida to‘xtalib, vakillikdan maqsad ishonch bildiruvchiga nafaqat malakali yuridik yordam ko‘rsatish, balki fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqishda sudga ko‘maklashishdir degan fikrni ilgari suradi [9].

K.K. Olimovaning fikricha: “Sudda vakillik qilishning maqsadi – fuqarolar va yuridik shaxslarga huquqlarini sudda himoya qilishda yordam berish hamda sudga ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlashda va

nizoning to‘g‘ri hal qilinishida yordam berish hisoblanadi. Shuning uchun suddagi vakil bilan ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi moddiy-huquqiy munosabatlarning mavjudligi protsessual munosabatlarning kelib chiqishi uchun asos bo‘ladi” [10].

V.A. Guk va K.K. Olimovalarning fikrlariga munosabat bildiradigan bo‘lsak, ular vakillikning fuqarolik ishlarini sudda ko‘rib chiqishda ko‘maklashish funksiyasiga alohida urg‘u qaratgan. Ya’ni vakil ishonch bildiruvchi shaxsning nomidan vakillikni amalga oshirish bilan bir qatorda isbotlash va dalillarni taqdim etish majburiyati o‘zining zimmasiga yuklatilganligi sababli ham ishni ko‘rib chiqishda sudga ko‘maklashish sifatida baholanadi. Taraflarning vakili isbotlash funksiyasini amalga oshirishda boshqa bir tomondan qaraydigan bo‘lsak o‘ziga o‘zi ko‘maklashadi. Ularning taqdim etgan dalillari sud uchun isbotlash vositasi bo‘lishi mumkin. O‘zlari uchun esa manfaatlariga xizmat qiluvchi faktlar sanaladi.

Ma’lumki, fuqarolik protsessual qonunchilik sud ishlarini yuritishda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida advokatlar, birgalikda ishtirok etuvchilardan birining topshirig‘i bo‘yicha boshqa ishtirokchilar bilan bir qatorda taraflar, uchinchi shaxslar tomonidan tanlangan shaxslarni ham nazarda tutar edi. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatdiki, sudda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida taraflar, uchinchi shaxslar tomonidan tanlangan shaxslarning, xususan oliy yuridik ma’lumotga, ya’ni huquqshunoslik sohasida maxsus bilim va ko‘nikmalarga yoki yuridik yordam ko‘rsatish uchun litsenziyaga ega bo‘lmagan shaxslarning ishtirok etishi fuqarolarning muhim konstitutsiyaviy huquqi bo‘lmish – sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini amalda ta’minlanmasdan qolishiga olib keldi [11]. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, mazkur holatlar malakali, professional yuridik yordam olish bo‘yicha fuqarolarga bir qator noqulayliklar keltirib chiqardi. Shuning uchun ham fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilishda, ularga malakali yuridik yordam ko‘rsatishda shartnoma bo‘yicha (ixtiyoriy) vakil sifatida advokat ishtiroki muhim o‘rin egallaydi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida Sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuvlik prinsiplarini ro‘yobga chiqarish, ya’ni protsessual qonunchilikda advokatning vakolatlarini, shu jumladan, dalillarni to‘plash va taqdim etish vakolatlarini kengaytirish, davlat hisobidan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga bepul yuridik yordamni jinoyat ishlari bilan bir qatorda fuqarolik va ma’muriy ishlar bo‘yicha ham ko‘rsatish tizimini joriy etish, advokatning protsessual maqomini kuchaytirish kabi maqsad va vazifalarni belgilanishi advokatura sohasidagi islohotlarni yangi bosqichini boshlab beradi.

Ushbu davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida 2023-yil 16-iyunda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 9-moddasida kam ta’minlangan shaxslar, agar ular fuqarolik ishlari bo‘yicha da’vogarlar yoki javobgarlar sifatida ishtirok etishsa davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar etib belgilandi. Shuningdek, ushbu Qonunning 11-moddasida mazkur shaxslar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga taalluqli bo‘lgan quyidagi:

– ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash hamda to‘lash to‘g‘risidagi;
– ishga tiklash haqidagi;
– ish haqini undirish to‘g‘risidagi;
– alimentlarni undirish haqidagi;

– uyga kiritish, turar joydan foydalanish huquqini yo‘qotgan deb topish va ko‘chirish to‘g‘risidagi;

– mehnatda mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqning boshqacha tarzda shikastlanganligi, shuningdek, boquvchining vafot etganligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash haqidagi;

– O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 991-moddasida nazarda tutilgan tartibda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlarining va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida 2024-yil 27-fevraldagi O‘RQ-915-sonli Qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasi: “Sud da’vogarning yoki javobgarning iltimosiga ko‘ra, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatning ishtirok etishini ta’minlash choralarini ko‘rishi shart.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokat jalb etiladigan paytga qadar sud ishning muhokamasini keyinga qoldiradi. Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatni jalb qilishda advokatning ishda ishtirok etishi tasdiqlangan paytdan e’tiboran unga ishga kirishish uchun kamida to‘rt soat vaqt berilishi kerak”, – degan mazmundagi to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirildi.

Ushbu kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartishlar o‘z navbatida fuqarolarning sud jarayonlarida bepul malakali yuridik yordam olish huquqini huquqiy jihatdan mustahkamladi hamda professional yuridik yordam sifatini va advokat kasbining nufuzini oshirishga, shuningdek, sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Darhaqiqat, hozirgi kunda fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasida vakil bilan advokat maqomining o‘zaro nisbati, advokatning sud protsessida ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu masala yuzasidan ilmiy manbalarda turli xil fikrlar ilgari surilgan. Masalan, E.S. Aloyanning qayd etishicha, fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sud va sud protsessining boshqa ishtirokchilari o‘rtasida protsessual huquqiy munosabatlar vujudga kelganligi sababli vakil o‘ziga berilgan huquq va majburiyatlar majmuasini amalga oshirishda fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarida nisbatan mustaqil subyekt sifatida harakat qiladi [8].

R.A. Sidorov vakilning protsessual maqomini: vakil ishda ishtirok etuvchi shaxs ham emas, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxs ham emas deb tasniflaydi. Uning fikricha vakilning protsessual maqomi murakkab bo‘lib, u o‘ziga berilgan vakolatlarni amalga oshiradigan, mustaqil protsessual huquq va majburiyatlarga ega shaxs hisoblanadi [4]. Ushbu fikrga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki vakil ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida ishning boshidan oxirigacha ishtirok etadigan, ishning yakuniy natijasidan ham moddiy ham protsessual manfaatdor shaxs hisoblanadi.

S.S. Kazixanovaning fikricha: “Agar vakilni jarayonga qabul qilish (kiritish) uchun asos vakillikni turlarga ajratish mezoni sifatida qaralsa, shartnomaviy vakil uchun bunday asos shartnoma emas, balki ishni yuritish uchun to‘g‘ri bajarilgan vakolatlarning mavjudligi hisoblanadi. Shartnoma vakilining vakolatlari

esa har doim ham ishonchnoma bilan tasdiqlanmaydi" [12].

Y.E. Kolokolova fuqarolik protsessida vakillik institutini ikki turga bo'ladi, ya'ni professional va noprofessional vakillik. Advokat fuqarolik protsessida vakil sifatida fuqarolik sud ishlarini yuritishning subyekti bo'lib, yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan, o'zing protsessual faoliyatining sifati, o'z vaqtida va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan professional shaxs hisoblanib, jismoniy va yuridik shaxslarning sud orqali himoyalanish va malakali yuridik yordamga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshiradi. Advokat vakillikning boshqa subyektlaridan farqli ravishda protsessual qonunchilikda uning alohida maqomi to'g'risida huquqiy norma kiritish lozimligini ta'kidlagan. Uning fikricha, vakilning protsessual maqomi tarkibiga fuqarolik protsessida taraflar va uchinchi shaxslarning subyektiv (protsessual) huquqlari, taraflarning, uchinchi shaxslarning protsessual majburiyatlari va qonuniy manfaatlari, fuqarolik protsessual huquq layoqati va muomala layoqati, subyektiv protsessual huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarning fuqarolik protsessual kafolatlari, javobgarlik kabi elementlar va huquqiy toifalar kiradi [13].

Y.M. Xaleppo vakil va advokat o'rtasida o'zaro farqli jihatlarni tahlil qilib, ulardan advokat vakillik institutining boshqa subyektlaridan farqi advokat tomonidan amalga oshiriladigan sudda vakillikning vujudga kelishining huquqiy asoslari sifatida murakkab yuridik tarkibni tashkil etuvchi yuridik faktlar deb xulosaga kelgan. Ishda yuridik fakt (advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasida shartnoma tuzish) vakillik asoslarining murakkab huquqiy tarkibining tarkibiy qismlaridan biri va o'zaro bog'liq harakatlar zanjirida birinchi bo'lib ko'rsatilgan. Advokatga murojaat qilish, advokatni tanlash, shartnoma tuzish, advokatning sudga vakolatini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish – order va (yoki) ishonchnoma [14]. Uning fikricha, advokatning huquqiy maqomi protsessda boshqa vakillarning huquqiy maqomidan farq qilib, advokatga vakil sifatida vakolat berishning yanada murakkab tartibi belgilanganligi ta'kidlangan. Advokatlik guvohnomasi va order advokatning "statik" maqomini tasdiqlab, ularning elementi advokatura to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan huquq va majburiyatlardir. Advokatning vakil sifatidagi huquqiy maqomining alohida elementi bu uning javobgarligi, ya'ni advokatlik tuzilmasi oldidagi intizomiy javobgarlik, ishonch bildiruvchi shaxs oldidagi fuqarolik (mulkiy) javobgarlik va protsessual javobgarlik [15].

E.S. Aloyan tadqiqot mavzusi doirasida vakildan farqli ravishda advokatning fuqarolik jamiyati instituti sifatida asosiy xususiyatlarini belgilab beradi. Bular: advokatura mustaqilligi, shu jumladan, uning faoliyatiga davlat organlari tomonidan aralashishdan davlat kafolatlari bilan himoyalanganligi, advokatlar hamjamiyatining o'zini-o'zi tartibga solishi; advokat uchun qonun talablariga ko'ra kafolatlangan advokatlarning professionalligi; professional advokat xizmatlarining mavjudligi, advokat rioya qilishi shart bo'lgan axloqiy me'yorlarning mavjudligi, shuningdek, ushbu qoidalarga rioya qilmaslik uchun javobgarlikning mavjudligi [12].

Xulosalar

Yuqoridagi olimlar S.S. Kazixanova, Y.E. Kolokolova, Y.M. Xaleppo, E.S. Aloyanlarning fikr-mulohazalaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, vakil va advokatning o'zaro nisbati, ishda ishtirok etish xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– advokat vakillikni boshqa turidan o'zaro huquqiy maqomi bilan farq qiladi. Ya'ni advokat maqomiga ega bo'lish uchun oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lish, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish talab etiladi. Vakillikning boshqa turlarida esa bunday talab mavjud emas;

– advokat yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha yozma ravishda shartnoma tuzadi, boshqa vakillar esa shartnoma tuzmaydi;

– sudda ish yuritish bo‘yicha vakil sifatida professional faoliyat bilan faqat advokatlar shug‘ullanishi mumkin, ular boshqa vakillik turidan professionalligi, yuridik soha bo‘yicha mutaxassisligi, fuqarolarning malakali yuridik yordam olish kabi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirilishini ta’minlashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi “Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qarorining 13-bandiga ko‘ra, shartnoma bo‘yicha ayrim vakillar ishga kirishishiga ijozat berilishi uchun qonun sudga ishonchnomadan tashqari yana boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qiladi, jumladan: ishonch bildiruvchining qarindoshlari uchun – ishonch bildiruvchi va vakil orasida qarindoshlik aloqalarini tasdiqlovchi hujjatlar; yuridik shaxsning rahbari uchun – uning mansab mavqeyini tasdiqlovchi hujjat. Advokat ishga kirishishi uchun advokatlik guvohnomasi va advokatlar tuzilmasi tomonidan berilgan order taqdim etilishi kifoya bo‘lib, u advokatga yuridik yordam so‘rab murojaat etgan shaxs manfaatlarini sudda himoya qilish huquqini (FPK 69-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqlardan tashqari) beradi;

– vakil va advokatning javobgarlik masalasi, ya’ni ishonch bildiruvchi shaxs oldidagi fuqarolik (mulkiy) javobgarlik va protsessual javobgarligi, advokatning advokatlik tuzilmasi oldidagi intizomiy javobgarligi kabi masalalar bilan ham o‘zaro nisbati turlicha. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 145-, 220-moddalariga ko‘ra, advokat sud majlisida raislik qiluvchining farmoyishlariga bo‘ysunmagan taqdirda u ogohlantirilishi, uzrsiz sabablar bilan sudga kelmasa, sud xususiy ajrim chiqarishi va O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasiga yuborishi belgilangan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasiga ko‘ra, advokatning intizomiy javobgarligi belgilangan.

REFERENCES

1. Shoraxmetov Sh.Sh. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar [Comments to the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2010, p. 75.
2. Mamasiddiqov M. Fuqarolik protsessi [Civil proceedings]. Tashkent, Bactria Publ., 2014, p. 72.
3. Olimova K.K. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda vakilning ishtirok etish muammolari [Problems of participation of a representative in civil litigation]. Tashkent, TSIL Publ., 2011, p. 18.
4. Sidorov R.A. Predstavitel’stvo v grazhdanskom protsesse [Representation in Civil Proceedings]. Tver, 2003, pp. 12–13.
5. Perepyolkina N.V., Kuskov A.S. Evolyutsiya i pravovaya sushchnost’ predstavitel’stva v grazhdanskom prave i protsesse [Evolution and legal essence of representation in civil law and procedure]. *Laws of Russia: Experience, Analysis, Practice*, 2015, vol. 9, p. 92.
6. Ruzakova O.A. Kommentariy k Grazhdanskomu protsessuall’nomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary to the Civil Procedure Code of the Russian Federation]. *Civil Procedure Bulletin*, 2014, vol. 5, p. 117.
7. Nekrasova Ye. Predstavitel’stvo v nemetskom grazhdanskom protsesse [Representation in German civil proceedings]. *Arbitration and Civil Procedure*, 2010, vol. 11, pp. 30–32.

8. Aloyan E.S. Institut predstavitelstva v sivilisticheskom protsessualnom prave [The Institute of Representation in Civilistic Procedural Law]. Saratov, 2021, p. 17.

9. Guk V.A. Predstavitel'stvo v grazhdanskom protsesse: pravozashchitnaya funktsiya i aktual'nyye voprosy sovershenstvovaniya zakonodatel'stva [Representation in civil proceedings: human rights function and current issues of improving legislation]. *Legal Science and Law Enforcement Practice*, 2014, vol. 2, p. 24.

10. Fuqarolik protsessuall huquqi [Civil procedural law]. Tashkent, TSUL Publ., 2020, p. 182.

11. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the legal framework for civil litigation]. Tashkent, QQMI Publ., 2013, p. 68.

12. Kazikhanova S.S. Predstavitel'stvo po naznacheniyu suda v grazhdanskom sudoproizvodstve [Representation by appointment of the court in civil proceedings]. Moscow, 2015, p. 28.

13. Kolokolova Ye.E. Advokat – predstavitel' v rossiyskom grazhdanskom protsesse [Advocate - representative in Russian civil proceedings]. Saratov, 2005, p. 12.

14. Khaleppo Ye.M. Pravovoye polozheniye advokata kak uchastnika grazhdanskogo i arbitrazhnogo protsessa v Rossiyskoy Federatsii [The legal status of a lawyer as a participant in civil and arbitration proceedings in the Russian Federation]. Moscow, 2012, p. 22.

15. Habibullayev D.Y. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual adolat va protsessual qonuniylikning o'zaro tahlili [Mutual analysis of procedural fairness and procedural legality in the Conduct of civil court cases]. *Jurisprudence,* 2024, vol. 4, no. 4, pp. 105–113.

Kelib tushgan / Получено / Received: 01.05.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 13.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./SYPE3192
UDC: 347.995:347.61/64(045)(575.1)

OILAVIY NIZOLARDA MEDIATSIYA

Xudoynazarov Dadaxon Avaz o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual
huquqi kafedrasi mudiri o‘rinbosari,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
ORCID: 0000-0002-1571-1839
e-mail: dadaxon.xudoynazarov92@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mediatsiyaning oilaviy nizolarni hal etishdagi o‘ziga xos jihatlari va ahamiyati, oilaviy nizolarda ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish mexanizmlari, mediatsiyaning sud muhokamasidan afzalliklari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda xorijiy va mahalliy huquqshunos olimlarning fikrlari o‘rganildi. Tadqiqotda, ayniqsa, tarixiy va qiyosiy metodlardan foydalanib, mediatsiya institutining mamlakatimizda uzoq vaqtdan beri mavjudligi tahlil qilindi. Shuningdek, milliy qonunchilikda mavjud bo‘lgan bo‘shliqlar va ularni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Mediator ishtirokiga doir ijobiy va salbiy tomonlar aniqlandi. Maqolada oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiyaning ahamiyati va mohiyati, shuningdek, oilaviy nizolarni muqobil va tezkor usullar bilan hal qilishning afzalliklari batafsil o‘rganildi. Bundan tashqari, oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiya bo‘yicha milliy qonunchilik xorijiy davlatlar, xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Qozog‘iston va Qirg‘iziston qonunchiligi hamda amaliyoti bilan qiyosiy tahlil qilindi. Maqolada oilaviy nizolarda mediatsiyani takomillashtirish maqsadida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilib, amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *mediatsiya, oilaviy vositachilik, bola tarbiyasi, nizo, vositachi, huquqiy kelishmovchilik, hal etish, muqobil usullar, fuqarolik jamiyati, qaror qabul qilish, kelishuv, mediatsiya bitimi, mediatsiya ishtirokchilari, vositachilik*

МЕДИАЦИЯ В СЕМЕЙНЫХ СПОРАХ

Худойназаров Дадахон Аваз угли,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
заместитель заведующего кафедрой «Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *В настоящей статье рассматриваются особенности и значение медиации в разрешении семейных споров, механизмы надёжной защиты прав и свобод сторон, участвующих в семейных конфликтах, преимущества медиации по сравнению с судебным разбирательством, а также анализируется опыт зарубежных стран и мнения отечественных и зарубежных правоведов. В исследовании, в частности с использованием исторического и сравнительно-правового методов, раскрывается, что институт медиации имеет давние корни*

в Узбекистане. Анализируются пробелы в национальном законодательстве и предлагаются пути их устранения. Определяются как положительные, так и отрицательные стороны участия медиатора. Подробно рассматривается суть и значимость медиации в урегулировании семейных споров, а также преимущества альтернативного и оперативного разрешения конфликтов. Кроме того, проводится сравнительно-правовой анализ законодательства Узбекистана в сфере семейной медиации с законодательством и практикой таких стран, как США, Великобритания, Германия, Австрия, Российская Федерация, Украина, Беларусь, Казахстан и Кыргызстан. В заключение даны научно-теоретические выводы, а также сформулированы практические предложения и рекомендации по совершенствованию института медиации в семейных спорах.

Ключевые слова: *медиация, семейное посредничество, воспитание ребёнка, конфликт, посредник, правовой спор, урегулирование, альтернативные методы, гражданское общество, принятие решений, соглашение, медиативное соглашение, участники медиации, посредничество*

MEDIATION IN FAMILY DISPUTES

Khudoynazarov Dadahon Avaz ugli,
Deputy Head of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *This article examines the specific aspects and significance of mediation in resolving family disputes, mechanisms for reliable protection of the rights and freedoms of the parties involved in family disputes, the advantages of mediation over litigation, as well as the experience of foreign countries and the opinions of foreign and domestic legal scholars. In the study, especially using historical and comparative methods, the long-standing existence of the institution of mediation in our country was analyzed. Existing gaps in national legislation and issues of their improvement were also considered. The positive and negative aspects of the mediator's participation were identified. The article examines in detail the significance and essence of mediation in resolving family disputes, as well as the advantages of resolving family disputes through alternative and expedited methods. In addition, a comparative analysis of national legislation on mediation in resolving family disputes with the legislation and practice of foreign countries, in particular, the United States of America, Great Britain, Germany, Austria, the Russian Federation, Ukraine, Belarus, Kazakhstan, and Kyrgyzstan, was conducted. The article draws scientific and theoretical conclusions and develops practical proposals and recommendations for improving mediation in family disputes.*

Keywords: *mediation, family mediation, child-rearing, dispute, mediator, legal dispute, settlement, alternative methods, civil society, decision-making, agreement, mediation agreement, mediation participants, mediation*

Kirish

Fuqarolik-huquqiy nizolar orasida mediatsiya oilaviy nizolarni hal qilishda ayniqsa dolzarbdir. Bunda mediatsiya eng murakkab oilaviy nizolarni hal qilish imkonini beradi. Umumiy himoya usullari bilan bir qatorda, huquqiy munosabatlarning ayrim turlarini himoya qilishning maxsus usullari ham mavjud (masalan, muallif yoki boshqa mualliflik huquqi egasining mutlaq huquqini buzganlik uchun kompensatsiya, ommaviy axborot vositalarida rad etish va boshqalar). Ularning ko'pchiligi uchun nizolarni hal qilish bo'yicha kelishuvga mediatsiya (mediatsiya) orqali ham erishish mumkin. Mediatsiya deganda, nizoni taraflar o'rtasida o'zaro ixtiyoriy kelishib, mediator yordamida hal qilish usuli tushuniladi. Mediator esa bevosita mediatsi-

yasini amalga oshirish uchun taraflar tomonidan jalb etiladigan shaxsdir.

“Mediatsiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi lotin tilida “mediare”, ingliz tilida “mediation” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “vositachilik” ma’nosini anglatadi [1]. Yustinianning kodeksida nizolarni vositachilar ishtirokida hal etish mumkinligi keltirilgan. Zamonaviy mediatsiya esa XX asr ikkinchi yarmidan AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada shakllana boshlagan [2]. Dastlab oilaviy nizolarni hal etishda keng qo‘llangan mediatsiyaga o‘xshash yarashtirish taomillari mamlakatimizda qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan amalda qo‘llanib kelinib, muhim o‘rin tutgan. Xususan, oilaviy nizolar milliy urf-odatlar va an’analarimizga muvofiq, mahalladagi hurmatga sazovor yoshi ulug‘ oqsoqollar, fuqarolar yig‘ini raislari, qo‘ni-qo‘shnilar yoki qarindosh-urug‘lar ishtirokida va ularning tashabbusi bilan yarashtirish choralarini ko‘rish orqali hal qilib kelingan. Ya’ni oilaviy nizolarni hal qilish jarayonida ular bugungi kunda mediator deb ataladigan shaxslarning vazifasini bajarishgan. Facilitative (ko‘maklashuvchi) mediatsiyada esa mediator taraflar o‘rtasidagi muammoli vaziyatni yaxshilash, o‘zaro maqbul qarorga erishish va nizoni hal etishda yordam beradi.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, mamlakatimizda fuqarolik sudlari tomonidan da’vo tartibida 2020-yilda jami 194 548 fuqarolik ishi ko‘rib chiqilib, shundan atigi 122 tasi mediativ kelishuv tuzish yo‘li bilan yakunlangan. 2021-yilda ko‘rib chiqilgan 351 275 ishdan 1051 tasi mediativ kelishuv tuzilganligi sababli ko‘rmasdan qoldirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, mediativ kelishuv tuzish tartib-taomili bir yilda 9,7 barobarga ortgan [3] va bu, albatta, ushbu institutning fuqarolik protsessi ishtirokchilari tomonidan ijobiy e’tirof etilganini anglatadi.

Oilaviy nizolarni mediatsiya tartib-taomili asosida hal etishning eng muhim jihatlaridan biri taraflarga barcha sohalarda yengillik yaratish bilan birga sud ishlari hajmini kamaytirishidir. Lekin oxirgi vaqtlarda oilalarning ajralishi mamlakatimizdagi eng og‘riqli nuqtalardan sanalmoqda. Buni raqamlar ham yaqqol ko‘rsatib turibdi [4]. Xususan, 2019-yilda 16 000 ta, 2020-yilda 12 800 ta, 2021-yilga kelib esa 19 407 ta oilada nikoh bekor qilingan. Bunga hududlar kesimida qaralsa, 2021-yilda Toshkent shahrida 2 830 ta, Farg‘ona viloyatida 2111 ta, Samarqand viloyatida 2 041 ta, Toshkent viloyatida 2 018 ta, Jizzax viloyatida 620 ta, Navoiy viloyatida 620 ta, Sirdaryo viloyatida 662 ta nikoh holatlari bekor qilingan. Ushbu raqamlar respublikamizda ahvolning og‘ir ekanligidan dalolat berib, mazkur ajralishlarga ko‘plab omillar sabab bo‘lishi mumkin.

Jumladan, er-xotinning biri yoki har ikkisi ortiqcha ish yuklamasi ostida qolishi, uy-joy muammolari, moddiy va ma’naviy qiyinchiliklar hamda oilaning boshqa a’zolari, ya’ni qaynona va qaynotalarning aralashuvi ajralishlarga sabab bo‘lmoqda. Ko‘plar uchun oiladan (nikohdan) ajralish – bu erkinlik va doimiy davom etgan qiyinchilik hamda tazyiqdan qutulish vositasi hisoblanadi.

2019-yilda 51 nafar ayol orasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, ajrashgan ayollarning asosiy qismida uchta muhim muammo mavjud bo‘lib, ulardan biri turarjoy bilan bog‘liq qiyinchiliklardir. Jumladan, bola bilan otasining uyida istiqomat qilish qiyinligi, ijara narxining yuqoriligi va bu uchun to‘lanadigan aliment pulining yarmini ham qoplamasligi kabi holatlar ayniqsa ta’kidlangan.

Farzandlarning ota mehrisiz o‘sishi. So‘rovnomada qatnashgan 51 nafar ayollarning 44 nafarida jami 70 nafar bola bor va ularning 99 % otasi bilan umuman ko‘rishmasligi ma’lum bo‘ldi. Birgina 2019-yilda 31389 ta oila ajrashgani hisobga olinsa, mana shunday bolalar soni ancha bo‘lishi mumkin.

Ajrashgan ayollarga jamiyatda noto‘g‘ri ko‘z bilan qaraladi [5]. Oilaviy nizolarni hal etish tizimini mamlakatimizda qoniqarli deb bo‘lmaydi. Oiladagi har qanday nizoni hal

etishda muqobil yechimlarning mavjudligi sababli ajrashayotgan er-xotinga, birinchi navbatda, to‘g‘ri ko‘nikmalar berilishi zarur. Mazkur maqolada tadqiqot obyekti sifatida oilaviy nizolarda mediatsiyaga oid barcha jihatlar tahlil qilindi.

Material va metodlar

Mazkur maqolada analitik-tahliliy, qiyosiy, tarixiy, tizimli-funksional va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda oilaviy nizolarda mediatsiyaning xorijiy davlatlar qiyosiy-tahlili asosida o‘rganilishi amalga oshirildi. Bundan tashqari, ba’zi manbalarda tezlashtiruvchi va o‘zgartiruvchi usullar ham keltirilgan. Jumladan, oilaviy nizolar ko‘rilayotganda, mediator vositasi orqali nizolar qisqa muddatlarda tezda hal qilinadi hamda nizolar yechimini o‘zgartirish ham taraflar ishtirokida tezkor amalga oshiriladi.

Muallif oilaviy nizolarda mediatsiyaning o‘rni va ularni takomillashtirish samaradorligini baholab, ularni tahlil qilish jarayonida oldingi va hozirgi holatni tarixiy usul yordamida ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda ma’lumot to‘plash usuli sifatida kitoblar, jurnallar va rasmiy veb-saytlardagi adabiyotlar hamda hujjatlar o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalari

Nizolarni hal etishning muqobil usullari qo‘llanadigan huquqiy munosabatlarda, nizolashayotgan tomonlar o‘rtasidagi aloqalarni saqlab qolish, munosabatlarni xolisona olib borish, nizolarni muzokaralar orqali hal etish, yakuniy va barcha tomonlarni qoniqtiradigan xulosaga kelish, nizolarni tez va samarali hal qilish, uzoq vaqt davom etayotgan qo‘shnilar bilan bog‘liq nizolarni bartaraf etish orqali murosaga kelish, bir nechta nizolarni birdaniga hal qilish, shuningdek, maxfiylikni ta’minlash va mojaroni kamroq rasmiy tarzda hal etish kabi ijobiy jihatlarga ega.

Huquqshunos, advokat hamda oilaviy masalalar bo‘yicha xalqaro mediator Eleyn Richardsonning ta’kidlashicha, “aslida, oilaviy sudlarda faoliyat yuritayotgan sudyalar odamlarni o‘z kelishmovchiliklarini suddan tashqarida hal qilishga undaydilar va buning uchun mediatsiyadan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydilar”.

Ko‘pgina oilaviy nizolar mediatsiya yoki vositachilik yo‘li orqali hal qilinadi.

Oilaviy nizolarda tomonlar kelishuvga erisha olmasa, mediatsiya jarayonining istalgan bosqichida undan voz kechish huquqiga ega. Mediatsiya kelishuvlarida vositachilik jarayonining asosiy qoidalarini belgilash muhimdir. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: yozuvlarni yuritish, talablarni navbati bilan bildirish, tomonlarning bir-biriga o‘zaro hurmat ko‘rsatishi, jarayon vaqti va boshqa cheklovlarni kelishish, jarayonda tanaffuslar tashkil etish hamda natijalarni rasmiylashtirish.

Tadqiqot natijalari tahlili

Respublikamiz oilaviy-huquqiy munosabatlarida bir qator zamonaviy tendensiyalar rivojlanib borayotgani sababli oilaviy nizolarni hal etishda muqobil usullar, xususan, mediatsiya institutidan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylangan. O‘zbekistonda fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, oilaviy nizolar mahalla yig‘inlari va sud tartibida hal qilib kelinadi. Biroq oilaviy nizolarni hal etishning an’anaviy usullari taraflar hamda ularning oila a’zolari hisoblangan millionlab fuqarolarning manfaatlarini to‘liq himoya qila olmaydi.

Hozirgi vaqtda sud er-xotin, farzandlar, aka-uka va boshqa oila a’zolari o‘rtasidagi nizolarni hal qilishning yagona vositasi emas. Rivojlangan davlatlardan farqli o‘laroq, O‘zbekistonda muqobil nizolarni hal etish uchun keng tarqalgan vositalar mavjud emas. Shu sababli oilaviy nizolarni muqobil usullar, xususan, mediatsiya orqali hal etish oilaviy-huquqiy munosabatlar subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishning samarali shakllaridan biridir.

Nizolarni muqobil hal etish – nizolashayotgan tomonlarning davlat sudlariga murojaat qilmasdan, kelishmovchiliklarni hal etish uchun qo‘llaydigan metod va usullar majmuasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 17-iyunda qabul qilingan

“Nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4754-son qarori bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, nizolarni muqobil hal etish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, sud ishlari hajmini maqbullashtirishda mediatsiya institutining, hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlarning rolini tubdan oshirish maqsadlari belgilandi.

Shunday qilib, nizolarni muqobil hal etish usullaridan biri sifatida mediatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Mediatsiya – kelib chiqqan nizolarni tomonlar o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun, ularning ixtiyoriy roziligi asosida, mediator yordamida hal etish usulidir. Bu nizolarni hal etishning ixtiyoriy vositasi bo‘lib, unda taraflar qanday masalalarni ko‘rib chiqishi va natija qanday bo‘lishini o‘zlari belgilaydilar. Mazkur jarayonda taraflar neytral uchinchi shaxs – vositachini muzokaralarda yordam berish uchun taklif qilishadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasiga asosan, oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiya qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan taqdirda tatbiq etiladi. Mediator taraflarga muammoning asl ildiziga yetib borish va o‘z yechimini topishga yordam beradi, lekin yechim taklif qilmaydi. Mediator vositachilik qiladi, ammo qaror qabul qilmaydi.

Mediatorning nizoni hal qilishdagi roli jarayonni nazorat qilishdan iborat. Taraflar mediatorga ishonch bildirishlari uchun uning neytralligi va xolisligi zarur bo‘lib, ammo bunga erishish ko‘pincha qiyin kechadi.

Oilaviy nizolarni mediatsiya jarayonida ko‘rib chiqishda mediatorning roli quyidagilardan iborat:

– jarayonda ishga oid munosabatlar o‘rnatish va taraflarni yechim topish uchun murosa hamda hamkorlikka yo‘naltirish, bir-birlarining muloqotiga yordam berish [6];

– taraflarga ularning manfaatlari hamda ehtiyojlarini aniqlashda yordam berish va ikkala taraf uchun ham umumiy foyda olish variantlarini yaratish;

– mediator taraflarni kelajakka e’tibor qaratishga undashi.

Oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda mediatsiya vositasining boshqa usullarga nisbatan quyidagi afzalliklari mavjud:

– mediatsiya jarayoni qisqa muddatda amalga oshiriladi (30 kundan ortmasligi lozim), shuningdek, taraflar kelishmovchilikni o‘sha kunning o‘zida hal qilish imkoniyatiga ega;

– oilaviy nizolarga doir ishlar va ma’lumotlar sir saqlanadi;

– mediatsiya natijasida ikki tomon ham maqbul kelishuvga erishadi;

– oilaviy nizolarni ko‘rib chiqishda vositachilik usuli qo‘llanadi;

– nizolarni aniqlash uchun ma’lumot to‘planadi, taraflarning bir-birini tushunishi uchun qo‘shma va yopiq muhokamalar o‘tkaziladi;

– yechimlar ishlab chiqish jarayonida tomonlar tinglanadi, nizoni hal qilishga ta’sir qiluvchi muammolar aniqlanib, muhokama qilinadi.

Mediatsiya nizolarni hal etishning tez hamda samarali usuli bo‘lsa-da, u ham kamchiliklardan xoli emas.

Birinchidan, mediatsiya adolatni ta’minlashdan ko‘ra, tomonlar uchun maqbul kelishuv yo‘lini topishga qaratilgan. Shu sababli mediatsiya ko‘pincha oilaviy qonunchilik maqsadlariga to‘liq mos kelmasligi mumkin. Masalan, muvaffaqiyatli vositachilik jarayoni murosaga kelishni talab qiladi, bu esa huquqlar bo‘yicha tortishuvlarda ularning cheklanishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Ikkinchidan, meditatsiya, asosan, asosiy muammo yoki sababni emas, balki muammolarning belgilarini hal etish bilan bog‘liq. Natijada taraflar kuchlar nisbatidagi farqdan foydalanib, ko‘pgina hollarda muammoni hal

etish uchun bir-biriga bosim qilishi yoki pul taklif qilishi mumkin.

Uchinchidan, mediatorlarning ko‘nikma hamda malakalaridagi tengsizlikning mavjudligidir. Mediatsiyaga tayyorgarlikdan qat’i nazar, mediatorlar ko‘pgina hollarda avvalgi ko‘nikmalarni aks ettiradigan vositachilar sifatida harakat qilishadi.

To‘rtinchidan, mediatsiya amaliyotidagi standartlar juda farq qilishi – qonuniy ravishda tasdiqlangan amaliyot standartlari va mediator sifatida faoliyat yuritish qoidalarining yetishmasligi kabi kamchiliklar mavjud. Shu bilan birga, mamlakatimiz qonunchiligiga yaqinda kiritilgan mediatsiya instituti hozirda ko‘plab rivojlangan xorijiy davlatlarda nizolarni hal etishning eng keng tarqalgan va samarali usullaridan biri sifatida shakllanib bormoqda.

Oilaviy vositachilik – bu oila a’zolari o‘rtasidagi oilaviy nizolarda taraflarni yarashtirish jarayonidir. Mediativ kelishuvlarning umumiy vazifalari qatoriga oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, taraflar o‘rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirish, ota-onalar hamda bolalar o‘rtasidagi shaxsiy aloqa uzilishining oldini olish hamda nizolarni tez va samarali hal etish kiradi.

Oilada mediatsiya jarayonining o‘ziga xos jihatlari – taraflar bilan muzokaralar olib borish, konstruktiv muloqot o‘rnatish, har bir tomonning manfaatlarini teng darajada ta’minlash, taraflar o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini saqlash hamda voyaga yetmagan bolalarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish kabi maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Oilaviy nizolarda ko‘pincha nikohdan ajratish, bolalar tarbiyasi va aliment masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

N. Imomov, M. Baratov, Q. Mehmonov kabi o‘zbek sivilist olimlari ta’kidlaganidek, O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni oilaviy munosabatlarga tatbiq etilishi mustahkamlangan bo‘lsa-da, Oila kodeksida er-xotin o‘rtasida yuzaga kelgan nizolarni mediator vositasida hal qilish mexanizmi mavjud emas. Sudga nikohdan ajratish to‘g‘risida da’vo arizasi kelib tushganda, sud taraflarga yarashish uchun muhlat bersa, u holda er-xotinni mediatorga majburiy yuborish tartibi Oila kodeksida mustahkamlanishi zarur. Chunki mediator mahalla huzuridagi yarashtiruv komissiyasidan farqli o‘laroq, er-xotin o‘rtasidagi nizoga malakali huquqiy baho berib, amaliy yordam ko‘rsatadi.

Bizningcha, olimlarning fikrlari haqiqatga yaqin bo‘lsa-da, er-xotinni mediatorga majburiy yuborish ularning sudga murojaat qilish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqlariga zid bo‘lmasligi kerak.

Oilaviy nizolarning ichida eng keng tarqalgani va murakkabi bu nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlardir. Ajralish – bu juda stressli va taraflarni hissiy jihatdan zo‘riqtiradigan jarayon bo‘lib, afsuski, ajralishni tanlagan ko‘plab juftliklar ajralish jarayonini yumshatishda mediatsiyaning roli va ahamiyatini e’tiborsiz qoldiradilar. Buning natijasi esa og‘ir asoratlar, adovat va uzoq davom etadigan ajralish jarayoniga olib kelishi mumkin. Nikohdan sud tartibida ajratish tartibi belgilangan bo‘lib, nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlarda sud ishning ko‘rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli. Sud er-xotinga yarashish uchun muhlat tayinlab, ishning ko‘rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotinning birga yashash joyidagi yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo‘lsa, har birining yashash joyidagi yarashtirish komissiyasini er-xotinni yarashtirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish uchun uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Fikrimizcha, oilaviy munosabatlarda ajrimlarni kamaytirishda nizolashayotgan taraflarga bir-birlarini tushunishlari uchun imkon berish hamda nizo predmetiga hech qanday aloqasi bo‘lmagan mediator xizmatidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu esa taraflarga o‘z xato va kamchiliklarini anglab yetishlari, nizoga sabab

bo‘lgan holatlarni tez va ikkala taraf uchun ham maqbul bo‘lgan yechim orqali hal etish imkonini beradi.

Oila qonunchiligiga asosan, quyidagi holatlarda ham mediatsiyani faol qo‘llash mumkin.

Jumladan, oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li orqali hal etilishi, oilada farzandlar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan hamda mehnatga layoqatsiz oila a’zolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi. Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi – otasining ismiga ko‘ra beriladi. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo‘lganda, ota-onaning kelishuviga binoan, bolaga otasi yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko‘ra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an’analarga ko‘ra boboning ismi bo‘yicha familiya berilishi mumkin. Ota-ona o‘rtasida bolaning ismi va (yoki) familiyasi bo‘yicha kelishuv bo‘lmaganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Aliment to‘lash haqida kelishuv tuzish (aliment miqdori, shartlar va to‘lash tartibi) aliment to‘lashi kerak bo‘lgan shaxs bilan aliment oluvchi o‘rtasida tuziladi.

Bundan tashqari, bolalarni oilaga tarbiyaga olish haqida kelishuv. Bu kelishuv vasiylik/homiylik organlari bilan farzandlikka olayotgan ota-ona o‘rtasida tuziladi. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuvda bolalarni ta’minlash, tarbiyalash va ularga ta’lim berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shuningdek, bunday kelishuvlarni bekor qilish asoslari hamda oqibatlari ko‘rsatib o‘tilishi kerak. Kelishuv tuzilishidan avval bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari hamda oila a’zolarining sog‘lig‘i tekshiriladi.

“Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning bolalarning tarbiyasi bilan bog‘liq nizolarga nisbatan tatbiq qilinishi juda sust kechmoqda. Ochiq manbalarda fuqarolarning mazkur institutdan foydalanilayotgani to‘g‘risida ma’lumotlar uchramaydi. Shundan kelib chiqqan holda, mediatsiyaning nazariy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash zarur. Shuningdek, ayrim mutaxassislar oilaviy mediatsiya, shu jumladan, bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolarni hal etishda birgalikdagi mediatsiya (co-mediation) amaliyotini joriy etish zarurligini ta’kidlaydilar.

Shundan kelib chiqib, oilaviy huquqiy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolarni bartaraf etishda mediatsiya tartibini qo‘llash mumkin, degan xulosa chiqarish mumkin. Nazariy jihatdan, bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolar tushunchasi milliy va xorijiy olimlar tomonidan ko‘p bora tahlil qilingan.

Y.A. Chefranovaning fikricha, bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolar – bu bolaning oilada tarbiyalanish huquqini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan va bola tarbiyasida ishtirok etish huquqi berilgan shaxslar yoki shunday shaxslar va bola o‘rtasida yuzaga keladigan har qanday oilaviy-huquqiy nizolardir [7]. A.V. Mujichenkoning ta’kidlashicha, bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolar deganda, birinchidan, bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq ota-onalar o‘rtasidagi nizolar; ikkinchidan, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning bolalarni uchinchi shaxslardan olishi bo‘yicha nizolar; uchinchidan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bo‘yicha ishlar; to‘rtinchidan, bolalarning kelib chiqishi xususidagi nizolar; beshinchidan, farzandlikka olish va farzandlikka olishni bekor qilish bo‘yicha nizolar tushuniladi.

Z.N. Esanova bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolarning kelib chiqishini quyidagi sabablar bilan bog‘laydi: 1) O‘zbekiston Res-

publikasi Oila kodeksi prinsiplarining buzilishi; 2) O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni prinsiplarining buzilishi; 3) Oilaning to‘laqonli mustahkam emasligi; 4) Oiladagi muhitning talabga javob bermasligi; 5) Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va kam ta’minlangan oilalarning himoyasizligi; 6) Ota-onalarning siyosiy-huquqiy va axloq-odob jihatidan savodsizligi; 7) Ijtimoiy xavf guruhiga kiradigan bolalar tarbiyasida oila, maktab va mahalla ishtirokining yo‘qligi; 8) Bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilish yuklatilgan davlat organlari, jamoatchilik tashkilotlari va mansabdor shaxslarning o‘z majburiyatlariga mas’uliyatsiz yondashishi [8].

Ammo har qanday holatda ham oilaviy mediatsiyada bolalarning huquq va manfaatlarini ta’minlashga yuqori darajada e’tibor qaratilishi uning eng asosiy o‘ziga xosligi hisoblanadi. Ushbu prinsip Yevropa Kengashi Vazirlar qo‘mitasining Oilaviy nizolardagi mediatsiya to‘g‘risida Rec № (98)1 tavsiyalarida o‘z aksini topgan. Mazkur tavsiyaga ko‘ra, mediatorga bolalarning huquq va manfaatlariga alohida e’tibor qaratish va ota-onalarga umumiy bolalari farovon hayot kechirishi uchun g‘amxo‘rlik qilish ularning eng asosiy majburiyati ekanligi haqida eslatish tavsiya qilingan. Shu sababli oilaviy mediatorga tomonlarning kelishuvi bolalarning manfaatlariga zid bo‘lgan taqdirda, mediatsiyani to‘xtatish huquqi berilgan.

Y.G. Kuropatskayaning ta’kidlashicha, aynan shuning uchun ham nikoh-oila nizolari, xususan, bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolarni ko‘rishda mediatsiya tartibini qo‘llash zarur [8]. Haqiqatan ham, sudya uchun yuzaga kelgan nizo bo‘yicha tomonlar o‘zaro kelishuvga erisha olmagan holatda qaror qabul qilish oson emas. Bizningcha, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini himoya qilish maqsadida oilaviy nizo tomonlarini mediatorga yuborish maqsadga muvofiq bo‘lib, bunda voyaga yetmaganlarning huquqlariga zid kelishuvga erishilmasligi ta’minlanishi lozim.

S.V. Dorjiyeva bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolarni hal qilishda eng afzal va samarali yo‘l muqobil usullar, xususan, mediatsiya ekanligini ta’kidlaydi. Chunki bu jarayonda sud protsessidan farqli o‘laroq, asosan, yuristlar qatnashadigan jarayonda emas, balki pedagog, psixolog va jamoatchilik orasida obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan namunali fuqarolar ishtirok etishi mumkin. Olimning fikricha, bolaga tegishli nizo unga begona bo‘lgan bino va shaxslardan emas, balki unga yaqin bo‘lgan maktab, ota-ona, o‘qituvchi va maktab psixologi ishtirokida hal qilinsa, bu uning psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa nizoni hal qilish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, pedagog va psixolog bolaga nima kerakligini suddan ko‘ra yaxshiroq biladi. Shu nuqtayi nazardan, olimlarning fikrlariga ko‘ra, bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolar oilaviy mediatsiya doirasida hal qilinadigan nizolar sifatida qaralishi mumkin.

K.Y. Gafner mediatsiyaning afzalliklari haqida [9] “...sud tartibidan farqli ravishda taraflar mediatsiya jarayonida o‘zlarining ijobiy faolligini namoyon eta oladilar va bu holat ularning har ikkisiga ham bir vaqtda foyda keltirishi bilan xarakterlanadi”, mazmunidagi qarashni ilgari suradi. Fuqarolik va oilaviy munosabatlarga oid nizolarning mediatsiya tartib-taomili asosida hal etilishi o‘z o‘rnida fuqarolik sud ishlarini yuritishda sudyalar ish hajmining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

Oilaviy nizolarni hal qilishda huquqshunoslardan tashqari psixologlarning ham o‘rni beqiyos va ular bu borada nima deydi? Har bir oila hayoti davomida muammoli vaziyatlarga duch keladi. Ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar va manfaatlar kontekstida amalga oshiriladi. Konflikt – qarama-qarshi maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, qarashlar to‘qnashuvi sifatida ta’riflanadi. Oila a’zolarining qarashlari yoki e’tiqodlari qarama-qarshi bo‘lsa, nizolar yuzaga kelishi mumkin. Ba’zida insonlar birbirlarini noto‘g‘ri tushunib, noto‘g‘ri xulosa

qilganda, nizolar paydo bo‘lishi mumkin [10]. Tinch yo‘l orqali hal qilinmagan mojarolar janjal hamda norozilikka olib kelishi mumkin. Vaqti-vaqti bilan er-xotinning bir-biri bilan kelishmovchilik qilishi odatiy hol bo‘lib, bu oilaviy hayotning bir qismidir. Biroq davomiy ziddiyat, stressli munosabatlarga zarar yetkazishi mumkin. Ba’zi insonlar his-tuyg‘ularini boshqarishda qiynaladi va bu qasddan xafagarchilik, tajovuzkor yoki hatto zo‘ravonlikka olib keladi.

Oilaviy nizolar ikki kishining fikrlari yoki istaklari to‘qnashishi sifatida tabiiy hol deb hisoblanadi. Natijada taraflar, odatda, o‘zaro til topishga intiladi. Psixologlarning fikricha, oiladagi nizolar normal holat hisoblanadi. Ammo mojarolar davomida er-xotinlar bir-biridan nafratlanib qolishi va ajralishlar ko‘payishi mumkin. Shu sababli oiladagi doimiy yuzaga keladigan nizolarni qanday hal etish masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa, yosh oilalarda hayotning birinchi yillarida ko‘pincha nizolar yuzaga keladi. Ushbu nizolarni bartaraf etish uchun ikki juft quyidagilarga tayyor bo‘lishlari kerak:

1. *Axloqiy va ijtimoiy faollik* nuqtayi nazaridan, sheriklarning tarbiyasi, yoshi va ijtimoiy hayot darajasi muhim hisoblanadi. Natijada yosh ayollar uchun turmush qurish yoshi 22–23, erkaklar uchun esa 23–24 bo‘lishi ma’qul deb qaraladi. Ayol erkakdan katta bo‘lmasligi kerak, degan fikr ham mavjud. Nikohlanuvchilar nikoh nima ekanligi, undan nimalarni kutishlari va o‘z majburiyatlarini bajarishga tayyorliklarini aniq tushunishlari lozim. Er-xotin oilani mustahkamlash va sog‘lom farzandlarni tarbiyalash uchun sog‘lom turmush tarzini olib borishga tayyor bo‘lishlari kerak. Uy-joy va moddiy boyliklar har doim ham er-xotin munosabatlarining davomiyligiga ta’sir qilmasligi mumkin, ammo ba’zan ular nizolarni kuchaytiruvchi omilga aylanishi ehtimoldan xoli emas.

2. Motivatsion faollik. Oila mehr-muruvvatga, o‘z zimmasiga mas’uliyatni olishga tayyorlikka, farzandlarni tarbiyalash hamda ularni o‘ziga to‘q, mustaqil shaxs sifatida voyaga yetkazishga asoslangan bo‘lishi lozim.

3. Psixologik faollik. Oilani mustahkamlash va rivojlantirish, shuningdek, ziddiyatli vaziyatlarni hal etishga yordam beradigan fazilatlar va xatti-harakatlar mavjud bo‘lishi zarur.

4. Pedagogik faollik. Oilaviy hayotning turli jabhalarida zarur bilimlarga ega bo‘lish va ularni qo‘llashga tayyorlikni anglatadi. Ijobiy muloqot natijasida tomonlar nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga intiladi, bu esa mojarolarni kamaytirishga yordam beradi. Ko‘pincha har bir tomon murosaga rozi bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin. Ba’zan esa kuchli his-tuyg‘ular yoki munosabatlardagi kuch nomutanosibligi sababli muammolar faqat maslahatlashish orqali hal etiladi. Oiladagi nizolarni bartaraf etishda juftliklar bir-birini tushunishga harakat qilishi zarur, bunda murosaga kelish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, bu jarayonda tomonlarning g‘alaba qozonishi shart emas, chunki g‘alaba mag‘lubiyatni ham anglatishi mumkin.

Ajralish ko‘pgina hollarda oilaviy nizolarni hal etish usullaridan biriga aylanadi. Psixologlarning fikriga ko‘ra, ajralish uch bosqichda sodir bo‘ladi:

Birinchi bosqich – hissiy ajralish darajasi. Bu bosqichda sheriklar bir-birini qadrlash, hurmat qilish, sevish va yordam berishni to‘xtatadi.

Ikkinchi bosqich – jismoniy ajralish bilan tavsiflanadi. Juftlar alohida to‘shakda uxlashni boshlaydi yoki hattoki alohida yashashga o‘tadi.

Uchinchi bosqich – huquqiy ajralish bosqichi, bu yerda rasmiy ajralish amalga oshiriladi.

Oilaviy muhit qanday bo‘lishi sheriklarning o‘zaro munosabati va xatti-harakatlariga bog‘liq. Faqat birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali baxtli kelajak sari intilish mumkin. Shu sababli sheriklar quyidagi nizolarni hal qilish qoidalariga rioya qilishi muhimdir:

– bir-birini o‘z holicha qabul qilish;

– kelishmovchiliklarga o‘zaro munosabatda bo‘lish va ularning o‘z-o‘zidan hal bo‘lishiga umid qilmaslik;

– juftni yaxshiroq tushunish, uning xususiyatlari va o‘ziga xosligini qabul qilish;

– yaqinlashish maqsadida qiyinchiliklarni yengishga harakat qilish;

– kechirishni o‘rganish va xafagarchilikni unutishga intilish;

– fikrni majburlash emas, balki muzokara orqali erishishni o‘rganish; zarur bo‘lsa, o‘z qarashlarini himoya qilish, ammo boshqa tomonning fikrini ham hurmat qilish.

Oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiyaning rolini oshirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan “Oilaviy mediatsiya” mavzusida turli tadbirlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va nikohlanuvchilarning ongiga “Oila – muqaddas dargoh” degan tushunchani singdirish maqsadida “Ahil oila sirlari” mavzusida o‘quv seminarlar muntazam ravishda o‘tkazib borilmoqda.

“Oila” markazi mutaxassisi Gulnora Eshonxonova fikriga ko‘ra, oilaviy mediatsiya jarayonida ikki tomonning roziligi olinishi, mediatorni taraflarning o‘zlari tanlashi, tomonlarning o‘zaro manfaatlarini inobatga olgan holda, kelishuvga erishishi, jarayonning maxfiyligi hamda taraflarning do‘stona munosabatlarini saqlab qolish kabi prinsiplar asosida ish olib boriladi.

“Oilaviy mediatsiyani qo‘llash natijasida oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar va oilaviy muhit yaxshilanadi. Shuningdek, er-xotin ajrashgan taqdirda ham, ularning farzand tarbiyasidagi huquq va majburiyatlari adolatli taqsimlanishiga erishiladi”, – deya ta’kidlaydi Gulnora Eshonxonova.

Bundan tashqari, fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirobod tumanlararo sudining nikohdan ajrashish uchun ariza bergan oilalarni yarashtirish yuzasidan ijobiy tajribasi alohida o‘rin tutadi: birinchidan, nikohdan ajratish uchun murojaat qilgan tomonlarning nizosi alohida mediatsiya xonasida ko‘rib chiqiladi; ikkinchidan, ajrashish maqsadida kelgan tomonlar, avvalo, ushbu xonada olimlar, sudyalar, mediatorlar, oqsoqollar, psixologlar va boshqa mutaxassislarning ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Xorijiy davlatlar amaliyotida oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiya muhim o‘rin tutadi. Jumladan, ko‘plab mamlakatlarda mediatsiyaning oilaga yo‘naltirilgan (family-focused approach) modeli keng qo‘llanadi. Masalan, Yaponiyada sud mediatsiyasi (chotei) ning ikkinchi toifasi hisoblangan fuqarolik ishlari bo‘yicha mediatsiya barcha fuqarolik nizolari, jumladan, tijorat nizolarini ham qamrab oladi. Oilaviy mediatsiya esa faqatgina oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda qo‘llanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-yilda Yaponiyada oilaviy mediatsiya 135 793 ta ishda qo‘llangan [11].

Oilaviy mediatsiya instituti jahon tarixida ilk bor 1960-yillarda AQShda amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, 1970-yillarda G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga kirib borgan. Bugungi kunda ushbu mintaqalarda oilaviy nizolarning qariyb 80 foizi mediatsiya orqali hal etilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mediatsiya faqat nikohdan ajralish bilan bog‘liq nizolarni emas, balki quyidagi turdagi oilaviy nizolarni ham qamrab oladi:

– oilaviy meros bilan bog‘liq nizolar;

– oilaning ijtimoiy himoya organlari bilan yuzaga keladigan nizolar;

– bolalar tarbiyasi, farzandlikka olish;

– vasiylikda bo‘lgan bolalarning yangi muhitga moslashuvi (adaptatsiyasi) kabi holatlar.

AQShning ko‘plab shtatlarida esa ota-onaning ajrashuvidan so‘ng bolalar tarbiyasi va vasiyligi bilan bog‘liq nizolar bo‘yicha oilaviy mediatsiyani majburiy o‘tkazishni nazarda tutuvchi qonunlar amalda qo‘llanmoqda [12]. Eng muhimi, 2021-yilda pandemiya sharoi-

tida nizolarni hal etishda yangi yondashuv – onlayn mediatsiya tizimi keng joriy etildi.

Buyuk Britaniyada barcha oilaviy nizolar sudgacha bo‘lgan bosqichda majburiy mediatsiya tartibida ko‘rib chiqilishi belgilangan. Ya’ni tomonlar sudga murojaat qilishdan oldin nizoni mediatsiya orqali hal qilishga harakat qilishi lozim. Mediatsiya jarayonining maxfiyligi, asosan, taraflar va mediator o‘rtasidagi kelishuv asosida tartibga solinadi va amalga oshiriladi. Bu mediatsiya jarayonining ishonchliligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada advokatlar to‘g‘ridan to‘g‘ri oilaviy nizolarda mediator sifatida faoliyat yuritish huquqiga ega emas. Biroq advokatlik firmalariga a’zo bo‘lgan advokatlarga, agar tomonlar rozilik bildirsalar, oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiya orqali kelishuv tuzish vakolati berilgan.

Avstraliyada ham xuddi AQSh va Buyuk Britaniyadagi kabi 2007-yildan boshlab ota-onalar ajrashganidan so‘ng farzandlar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolar yuzasidan sudgacha bo‘lgan vaqt davomida akkreditatsiyadan o‘tgan oilaviy mutaxassisga murojaat qilish majburiy etib belgilangan. Bundan oiladagi zo‘ravonlik yoki bolalarni o‘g‘rilash bilan bog‘liq nizolar mustasno. Shuningdek, mamlakatdagi Oilaviy munosabatlar markazlari federal budjet hisobidan moliyalashtiriladi.

Irlandiyada er-xotinlar mediatsiya bilan bepul ta’minlanadi. Shvetsiyada 90 foiz ota-onalar bevosita yoki bilvosita bolalarga taalluqli bo‘lgan masalalarni mediatsiya tartibida yoki o‘zlari mustaqil ravishda hal qilishni afzal ko‘rishadi.

Daniya, Finlandiya, Islandiya, Norvegiya hamda Shvetsiyada oilaviy nizolarni hal etishda mediatsiya (vositachilik) instituti 1790–1800-yillarda shakllangan [13]. Xususan, Daniyada sudgacha va sud jarayoni davomida bepul mediatsiya xizmati bola bilan uchrashuv imkoniyatidan mahrum bo‘layotgan shaxslar uchun taqdim etilishi qonuniy tartibda belgilangan.

Avstriyada oilaviy mediatorlarning konsultativ kengashi tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati davlat budjetidan moliyalashtirilishi belgilangan. Mamlakatda oilaviy komediatsiyaning tarmoqlararo modeli keng tarqalgan. Ushbu model asosida mediatsiya jarayoni, odatda, ikki nafar mediator ishtirokida amalga oshiriladi. Ulardan biri psixologiya sohasining vakili (masalan, psixolog, psixoterapevt yoki oilaviy nizolar bo‘yicha maxsus malakaga ega mutaxassis), ikkinchisi esa yuridik soha vakili bo‘lishi lozim (yurist, advokat yoki notarius). Shuningdek, komediatorlar tarkibini ikki nafar emas, balki ikki va undan ortiq shaxs ishtirokida shakllantirish mumkin. Bunda tomonlar talabidan kelib chiqqan holda, gender tengligiga amal qilinishi maqsadga muvofiq.

Germaniyada “Mediatsiyani qo‘llab-quvvatlash va nizolarni suddan tashqari hal etishning boshqa tartiblari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq [14], mediator mediatsiya asoslari va uning tartib-qoidalari bo‘yicha nazariy bilimlar; mediatsiya muzokaralarini amalga oshirish va muloqot qilish texnikasi hamda nizolarni boshqarish, mediatsiya huquqi (magistratura), amaliy mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar texnikasi sohalarida zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lish lozim.

MDH mamlakatlarida, xususan, Rossiya va Qozog‘istonda taraflar tomonidan mediatsiya tartibi ko‘plab nizolar, jumladan, oilaviy nizolarni hal qilishda ham qo‘llanmoqda. Ushbu davlatlarda oilaviy mediatsiya instituti bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda va sudgacha bo‘lgan muqobil nizoni hal etish vositasi sifatida tobora ommalashmoqda.

Oilaviy mediatsiyaga oid quyidagi holat bunga misol bo‘la oladi: mediatorga besh nafar farzandi bor er-xotin murojaat qilgan. Ular uzoq vaqt davomida bolalarni bog‘cha va maktabdan kim, qachon va qanday olib ketishini murosasiz holatda hal qila olmagan. Ikkala turmush o‘rtoq ham to‘liq ish kuni davomida band bo‘lishi sababli bu masala ularning hayotida doimiy nizoga sabab bo‘lgan.

Mazkur vaziyatda ular bu masalani o‘zaro kelishuv asosida hal qilish maqsadida professional mediator xizmatiga murojaat qilishga qaror qilishgan.

Mediatsiya tartibining bir qismi sifatida mediator har ikki tarafning roziligini olgan holda, er va xotin bilan alohida uchrashuvlar tashkil etdi. Ushbu uchrashuvlar davomida mediator har bir turmush o‘rtoq bilan muammoning asosiy jihatlarini aniqlab, ularga birgalikda to‘rttadan iborat yakuniy kelishuv takliflarini ishlab chiqishda yordam berdi (har bir tarafdan ikkitadan).

Natijada quyidagi kelishuvlarga erishildi:

– bolalarni bog‘cha va maktabdan olib ketish vazifasi haftaning dushanba-chorshanba kunlari er, payshanba-shanba kunlari esa xotin zimmasiga yuklatilishi belgilandi;

– har oyda bir marta, dam olish kunlari, navbatma-navbat har bir turmush o‘rtoq bolalarni shahardagi ko‘ngilochar tadbirlarga olib borishi lozimligi belgilandi;

– er huquqiy munosabatlarning barchasini elektron shaklda yuritiladigan ochiq jurnalga kiritib borishi majburiyatini zimmasiga oldi.

Ushbu kelishuv taraflar o‘rtasida yozma mediatsiya shartnomasi ko‘rinishida rasmiylashtirildi. Shartnomada har bir band bo‘yicha ijro muddatlari ham ko‘rsatildi.

Mediatsiya yakunida er o‘z tashabbusi bilan xotinini tabiat qo‘ynida romantik uchrashuvga taklif qildi.

Xorijiy davlatlarning ushbu sohadagi normativ huquqiy-hujjatlarida, jumladan, Malayziya Mediatsiya to‘g‘risidagi akti va Finlandiyaning Mehnat nizolarida mediatsiyaning fuqarolik-huquqiy munosabatlar va oilaviy munosabatlardan kelib chiqqan nizolarni hal etishda qo‘llanishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Rossiya mediatsiyasida asosiy jihat samarali kelishuvlarga erishishdir. Mediator bo‘lish uchun o‘n sakkiz yoshdan katta bo‘lgan, vositachilik hamda nizolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega, qobiliyatli, sudlanmagan fuqaro bo‘lishi kerak. Belarus Respublikasida “Oilaviy mediatorlik” loyihasi amalda. Unda Yevropa Ittifoqi tajribasi asosida – huquqshunoslar va psixologlar hamkorligidan ko‘pincha foydalaniladi.

Belarus Respublikasida ajralish jarayonida er-xotinlar o‘rtasidagi mulkni taqsimlash, bolalar bilan bog‘liq masalalar yuzasidan shartnoma tuzishda mediatsiya xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Qozog‘istonda mediator bo‘lish uchun shaxs kamida yigirma besh yoshga to‘lgan, oliy ma’lumotli, o‘qishni tamomlagan, professional mediatorlar reyestriga kiritilgan yoki iste’fodagi sudya bo‘lishi lozim. Ushbu davlatda oilaviy nizolarni oqsoqollar orqali hal etish bo‘yicha qadimiy tarixiy tajriba mavjud.

Qirg‘izistonda esa gender tengligi va oilaviy zo‘ravonlik muammolarini hal etishga qaratilgan “Sezim” markazi faoliyat yuritmoqda. Markazning maqsadi – oilaviy nizolarni suddan tashqari tinch yo‘l bilan hal qilish, oilaviy mediatsiya bo‘yicha o‘quv dasturlarini joriy etish va uni amaliyotda qo‘llashdir.

Ukrainada esa oilaviy munosabatlar ishtirokchilari nizolarni o‘zaro kelishuv orqali yoki sudga murojaat qilib hal etish huquqiga ega. Ko‘plab fuqarolar sudni barcha nizolar uchun yakuniy hal qiluvchi instansiya deb bilsalar-da, mediatsiya xizmatiga murojaat qilayotganlar soni ham ortib bormoqda.

Shunday ekan, mediator oilaviy nizolarni hal etishda nafaqat huquqshunoslik, balki psixologik yondashuvlarni ham qo‘llab, tomonlarni yarashtirishga intiladi.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilaviy nizolarda mediatsiya institutini faol qo‘llash, zarur bo‘lganda esa uni majburiy qilish muhim hisoblanadi. Bu esa ajrim arafasida turgan oilalarni favqulodda holat sifatida ko‘rib, ularni mediatsiya tartibida yarashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishga imkon yaratadi. Shulardan kelib chiqqan holda, bir qancha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, mamlakatimizda qadimdan shakllanib kelgan va ijobiy natijalar bergan oilaviy nizolarni milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz asosida mahallada obro'-e'tiborga ega yoshi ulug' oqsoqollar, fuqarolar yig'ini raislari, qo'ni-qo'shnilar yoki qarindosh-urug'lar ishtirokida hal etish tajribasini yanada yuqori bosqichga olib chiqish zarur.

Kelgusida oilaviy nizolar yuzasidan fuqarolar yig'ini raislari (oqsoqollarining) vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, ularning fuqarolar yig'ini hududidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida "fuqarolar yig'ini hududida istiqomat qiluvchi fuqarolarning oilaviy va mulkiy huquqlariga doir tuzilgan mediativ kelishuvlarni tasdiqlaydi" mazmunidagi normalarni qonunchilikka kiritish taklif etiladi.

Ikkinchidan, "Oilaviy mediatorlik" kabi loyihalarni amalga tatbiq etish zarur. Bunday loyihalarda huquqshunoslar bilan bir qatorda psixologlarning ham ishtirokini ta'minlash, ularning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq nizolarni bartaraf etishda mediatsiya tartibini qo'llashda, mediator sifatida nafaqat yuristlar, balki pedagoglar, psixologlar hamda katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan namunali jamoatchilik vakillarining ham ishtirok etishi (ya'ni co-mediation — hamkorlikdagi mediatsiya) maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, agar er-xotin sudga nikohdan ajratish bo'yicha murojaat qilsa, sud ularga yarashish uchun muhlat belgilashi va tomonlarni majburiy tartibda mediatorga yuborishi zarur. Biroq bu jarayon tomonlarning sudga murojaat qilish huquqini cheklamasligi lozim.

Beshinchidan, ta'lim tashkilotlarida bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni hal etish (bolalar o'rtasida, ota-onalar o'rtasida, o'qituvchi va o'quvchi yoki ota-onalar o'rtasida yuzaga keladigan holatlarda) uchun mediatsiya institutini joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Bu chora nizoning chuqurlashib, yanada chigallashishining oldini olishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, afsuski, ko'plab fuqarolar oiladagi nizolarni hal qilishda mediator xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, bunga qanday murojaat qilishni bilmaydi. Shu bois oilaviy mediatsiyaning mazmuni va ahamiyatini keng jamoatchilikka tushunarli tarzda tushuntirish, uni ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilish hamda ko'pchilik gavjum joylarda e'lonlar orqali yoritish lozim.

Yettinchidan, mediatsiya to'g'risidagi barcha zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, tegishli tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi ixtisoslashtirilgan *www.mediatsiya.uz* veb-saytini yaratish zarur.

Sakkizinchidan, mediatorlarga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, mediator quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– kamida 28 yoshda bo'lishi;

– oliy yuridik yoki gumanitar ma'lumotga ega bo'lishi;

– kamida 160 soatlik maxsus tayyorgarlik kursini tamomlagan bo'lishi;

– professional mediatorlar reyestriga kiritilgan bo'lishi;

– kasbiy malaka va fuqarolik javobgarligi sug'urtasiga ega bo'lishi.

REFERENCES

1. Jurayev Sh. Ma'muriy sud ishi yurituvida kelishuv bitimi institutini takomillashtirishning ayrim nazariy va amaliy masalalari [Some theoretical and practical issues of improving the institution of settlement agreements in administrative court proceedings]. *Legal, Scientific and*

Practical Journal of Jurisprudence, 2023, vol. 3, no. 4, pp. 5–7. DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./HNQU7760.

2. Xoliqov A. Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari [Role and features of the institution of mediation in the resolution of disputes]. *Journal of Universal*, 2023, vol. 1, no. 11, pp. 2–4.

3. Maripova S. Oilaviy nizolarda mediatsiya [Mediation in Family Disputes]. *The Criterion of Justice Scientific-Practical*, 2022, no. 5, pp. 28–29.

4. Ibratova F., Ravshanov B. Mediatsiya – oilaviy nizolarni hal etishning muqobil usuli sifatida [Mediation as an alternative way to resolve family disputes]. *Scientific aspects and trends in the field of scientific research: Proceedings of the International scientific online conference,* 2022, pp 80–85.

5. Kamolov Y. Oilaviy janjallarning vujudga kelish sabablari, muammolar va ularni bartaraf etish usullari [Causes of family conflicts, problems and ways to eliminate them]. *Innovate academy: Proceedings of the Scientific and practical conference on science and innovation in-academy*, 2021, pp. 196–200.

6. Khabibullayev D., Khalikov Sh. The practical importance of using mediation in resolving family disputes. *Journal of Law Research*, 2022, iss. 1, pp. 60–66.

7. Tojiyeva M. Bolalar manfaatlari bilan bog‘liq nizolarni bartaraf etishda mediatsiya tartibini qo‘llash [Application of the procedure of mediation in the resolution of disputes related to the interests of children]. *Science and Innovation International Scientific Journal*, 2022, vol. 1, no. 5, pp. 8–12, pp. 24–28. DOI: 10.5281/zenodo.7067846.

8. Esanova Z.N. Bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq nizolarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari [Procedural features of court proceedings in disputes related to the upbringing of children]. Tashkent, TSIL Publ., 2010, p. 52, pp. 56–63.

9. Makhsudova M. Iqtisodiy sudlarda qarshi da’vo arizasi kiritish tartibi va o‘ziga xos jihatlari [Procedure and features of filing a counter-period application in economic courts]. Available at: https://bukhara-news.uz/i%D2%9Btisodij-sudlarda-%D2%9Barshi-davr-arizasi-kiritish-tartibi-va-%D1%9Eziga-hos-zhi%D2%B3atlari/

10. Rustamova B. Oilaviy nizolar va uni hal etish yo‘llari [Family disputes and ways to resolve them]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences,* 2022, vol. 2, no. 2, pp. 11–15.

11. Salimova I. Procedural features of the use of the institute of mediation in the resolution of civil and economic cases: national and foreign experience. Society and innovations. 2022, vol. 11, pp. 322–332. DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss11/S-pp322-332

12. Matkarimov Q., Xoliqov Sh. Xorijiy davlatlardagi oilaviy mediatorlarga qo‘yiladigan talablar va advokatning mediator sifatidagi oilaviy nizolarni hal etish tajribasi [Requirements for family mediators in foreign countries and the experience of a lawyer in resolving family disputes as a mediator]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2022, vol. 2, no. 3, pp. 45–51.

13. Zdrok O.N. Family mediation: world experience and development prospects in the Republic of Belarus. Law in Modern Belarusian Society. Minsk, Biznesofset Publ., 2015, pp. 316–323.

14. Tleuvova G. Oilaviy nizolarni mediatsiya usulida hal qilishda MDH davlatlarining tajribalari [Experience of CIS countries in resolving family disputes through mediation]. 2020, pp. 1–5.

15. Roberts M. *Mediation in Family Disputes: Principles of Practice*. 3rd ed. Aldershot: Ashgate Publishing Limited, 2008.

Kelib tushgan / Получено / Received: 30.0.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 16.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./CNBC2104
UDC: 343.23+343.851(410)(045)(575.1)

BUYUK BRITANIYANING JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHGA DOIR ILG‘OR TAJRIBALARI VA ULARNING AYRIMLARINI MILLIY TIZIMGA JORIY ETISH MASALALARI

Nigmatov Ruftullo Olimdjonovich,
IIV Akademiyasi boshlig‘ining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari,
PhD, professor
ORCID: 0009-0004-2286-7083
e-mail: nruftullo@inbox.ru

Annotatsiya. *Maqolada Buyuk Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining huquqiy asoslari, asosiy qonunlari va dasturlari tahlil qilinib, ushbu tajribaning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Jumladan, Buyuk Britaniya davlatining qonunchilik tizimi va profilaktik strategiyalari, jamoatchilik bilan hamkorlik, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tajribasi, qolaversa, ushbu davlatda jinoyatchilik darajasining o‘zgarishi, muayyan jinoyat turlarining ko‘payishi yoki kamayishi sabablari, mazkur sohada erishilgan yutuqlar, mavjud muammolar o‘rganildi. Tadqiqotda umumiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Buyuk Britaniya qonunlari va amaliy dasturlari samaradorligi baholanib, O‘zbekiston uchun foydali model sifatida ko‘rildi. Xususan, mahalliy xavfsizlikni ta’minlashda fuqarolar ishtirokini oshirish, shaharsozlikda xavfsizlik standartlarini joriy etish va profilaktik choralar integratsiyasi kabi takliflar ilgari surildi. O‘zbekistonning mahalla tizimi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, unda jamoatchilik ishonchini mustahkamlash hamda jinoyatchilikni kamaytirishga oid muhim yo‘nalishlar berildi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda mavjud normativ-huquqiy baza va amaliy mexanizmlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashishda jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishning yangi yo‘llarini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *jinoyatchilikka qarshi kurashish, Buyuk Britaniya, profilaktik strategiyalar, fuqarolar ishtiroki, mahalla tizimi, xavfsizlik standartlari, politsiya faoliyati, kiberxavfsizlik, terrorizmga qarshi kurashish, jamoatchilik xavfsizligi, jinoyatchilik darajasi*

ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ ВЕЛИКОБРИТАНИИ В БОРЬБЕ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ И ВОПРОСЫ ЕГО ИМПЛЕМЕНТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНУЮ СИСТЕМУ

Нигматов Руфтулло Олимджонович,
PhD, профессор,
заместитель начальника Академии МВД
по научной работе и инновациям

Аннотация. *В статье анализируются правовые основы системы борьбы с преступностью в Великобритании, ключевые законы и программы, а также рассматриваются возможности адаптации данного опыта к условиям Республики Узбекистан. Так, изучены особенности британской законодательной системы и профилактических стратегий, практика взаимодействия с населением, использование современных технологий, а также причины изменения уровня преступности, роста или снижения отдельных её видов. Выявлены достижения и существующие проблемы в данной сфере. В исследовании применены методы общего анализа, сравнительно-правового анализа, синтеза, наблюдения, обобщения, индукции и дедукции. Эффективность британских законов и прикладных программ была оценена с точки зрения их возможного использования в Узбекистане в качестве модели. В частности, предложены меры по повышению участия граждан в обеспечении локальной безопасности, внедрению стандартов безопасности в градостроительстве, а также интеграции профилактических мер. Сформулированы практические рекомендации по совершенствованию деятельности органов правопорядка и системы «махалля» в Узбекистане, в том числе направления по укреплению общественного доверия и снижению уровня преступности. Результаты исследования могут быть использованы для развития нормативно-правовой базы и практических механизмов борьбы с преступностью, обеспечения более активного участия гражданского общества и эффективного применения современных технологий.*

Ключевые слова: *борьба с преступностью, Великобритания, профилактические стратегии, участие граждан, система «махалля», стандарты безопасности, деятельность полиции, кибербезопасность, борьба с терроризмом, общественная безопасность, уровень преступности*

ADVANCED EXPERIENCE OF GREAT BRITAIN IN COMBATING CRIME AND ISSUES OF IMPLEMENTING SOME OF THEM IN THE NATIONAL SYSTEM

Nigmatov Ruftullo Olimdjonovich,
Deputy Head of the Academy
of the Ministry of Internal Affairs of Uzbekistan
for Scientific Affairs and Innovations,
PhD, Professor

Abstract. *The article analyzes the legal framework, basic laws, and programs of the UK crime control system and considers the possibilities of adapting this experience to the conditions of Uzbekistan. In particular, the legislative system and preventive strategies of Great Britain, public cooperation, experience in using modern technologies, as well as changes in the crime rate in this country, the reasons for the increase or decrease in certain types of crimes, achievements in this area, and existing problems were studied. The research used methods of general analysis, comparative legal analysis, synthesis, observation, generalization, induction, and deduction. The effectiveness of the laws and practical programs of Great Britain was assessed and considered as a useful model for Uzbekistan. In particular, proposals were put forward to increase citizen participation in ensuring local security, introduce safety standards in urban planning, and integrate preventive measures. Practical recommendations were developed for improving the mahalla system and the activities of law enforcement agencies in Uzbekistan, with important directions for strengthening public trust and reducing crime. The research results will serve the development of the existing regulatory framework and practical mechanisms in Uzbekistan, as well as open up new ways to ensure the active participation of the public in the fight against crime and the effective use of modern technologies.*

Keywords: *combating crime, Great Britain, preventive strategies, citizen participation, mahalla system, security standards, police activities, cybersecurity, counter-terrorism, public safety, crime rate*

Kirish

Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi dunyo miqyosida o‘zining mustahkam huquqiy asoslari, ilg‘or profilaktik strategiyalari va jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikka asoslangan kompleks yondashuvi bilan namunaviy model sifatida e’tirof etilgan. Ushbu tizim qonun ustuvorligini ta’minlash, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolar xavfsizligini kafolatlash va jamiyatda ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish tajribasi uning o‘ziga xos davlat tuzilishi va qonunchilik tizimiga asoslangan bo‘lib, global miqyosdagi tahdidlarga samarali javob berish qobiliyati bilan ajralib turadi.

2024-yil sentabr holatiga ko‘ra, Birlashgan Qirollikda jinoyatchilik darajasi Shotlandiyani hisobga olmaganda 1000 kishiga 84 tani tashkil etgan. Ya’ni umumiy jinoyatchilik darajasi 2023-yilning sentabriga nisbatan 4,0 foizga pasaygan. Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiya orasida eng yuqori jinoyatchilik darajasiga ega hudud Angliya bo‘lib, u yerda 1000 kishiga 87 ta jinoyat to‘g‘ri kelgan [1].

Angliya va Uelsdagi jinoyatchilik bo‘yicha hisobotga ko‘ra, alohida shaxslarga va uy xo‘jaliklariga qarshi jinoyatlar so‘nggi 10 yil davomida umuman pasaygan, jinsiy jinoyatlar bundan mustasno. Ammo oxirgi hisobot davrida ba’zi turdagi jinoyatlarning o‘sishi kuzatilgan. Angliya va Uelsdagi jinoyatlar sharhi (CSEW)ga ko‘ra, 2024-yilda 9,6 million jinoyat sodir etilgan bo‘lib, ular orasida asosiy jinoyatlarning (o‘g‘irlik, talonchilik, firibgarlik, kompyuterlardan g‘ayriqonuniy foydalanish va badanga shikast yetkazish) ulushi firibgarlik va o‘g‘riliklarning o‘sishi hisobiga o‘tgan yilga nisbatan 14 foizga oshgan (2023-yilda 8,4 million). CSEWga muvofiq asosiy jinoyatlar doirasida: firibgarlik 33 foizga oshgan (taxminan 4,1 million), o‘g‘rilik 13 foizga oshgan (taxminan 2,9 million). Kompyuterlardan g‘ayriqonuniy foydalanish 23 foizga kamaygan (taxminan 757 000 hodisagacha), bu shaxsiy ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishning 29 foizga kamayishi tufayli yuz bergan [2]. Ushbu statistik ma’lumotlar jinoyatchilikka qarshi kurashishda mavjud yutuqlar bilan birga, yangi tahdidlarga qarshi doimiy ravishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Buyuk Britaniyaning tajribasi 1980-yillardan boshlab shakllangan qonunlar, milliy strategiyalar va amaliy dasturlarga asoslanadi, bu esa uning samaradorligini ta’minlaydi.

Ushbu maqola Buyuk Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining huquqiy asoslarini, asosiy qonunlari va dasturlarini tahlil qilish bilan birga, ushbu tajribaning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy va amaliy mexanizmlarini chuqur o‘rganish, ularning samaradorligini baholash va bu tajribani respublikamizda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Xususan, maqolada *Police and Criminal Evidence Act 1984*, *Crime and Disorder Act 1998*, *Criminal Justice Act 2003* va *Offender Rehabilitation Act 2014* kabi muhim qonunlarning mazmuni va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishdagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, “Neighbourhood Watch”, “Project Servator” hamda “Serious Violence Strategy” kabi dasturlarning amaliyotdagi samaradorligini o‘rganish orqali O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zlanadi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyaning profilaktik choralari, jamoatchilik bilan hamkorlik modellari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tajribasini O‘zbekistonning mahalla tizimi va profilaktika inspektorlari bilan integratsiyalash imkoniyatlarini ko‘rib chiqish zarur.

Buyuk Britaniya tajribasi kompleks yondashuvga asoslangan bo‘lib, politsiya, mahalliy hokimiyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash muassasalari va jamoatchilik o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka tayanadi. Bu model

O‘zbekistonda jinoyatlarning oldini olish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar samaradorligini oshirish uchun muhim yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, “Neighbourhood Watch” dasturi orqali fuqarolarning mahalliy xavfsizlikni ta’minlashda ishtirokini kuchaytirish, “Secured by Design” standartlarini shaharsozlik va qurilish jarayonlariga joriy etish va “Project Servator” kabi profilaktik patrullarni O‘zbekistonning mahalla tizimiga moslashtirish imkoniyati mavjud. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda mavjud normativ-huquqiy baza va amaliy mexanizmlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashishda jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishning yangi yo‘llarini ochib beradi.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda jinoyatlarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Xususan, Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi qonunlaridan (masalan, *Police and Criminal Evidence Act 1984*, *Criminal Justice Act 2003*, *Serious Violence Strategy 2018*, *National Cyber Strategy 2022*) asosiy tahliliy material sifatida foydalanildi. Huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari, milliy va xorijiy manbalar, shuningdek, Buyuk Britaniya hukumati va tegishli idoralarning (Home Office, NPCC, NCSC) rasmiy hisobotlari asos qilib olindi.

Tadqiqotda umumiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Buyuk Britaniya jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlarini tahlil qilish va huquq tizimini o‘rganib chiqish jinoyatchilikka qarshi kurashishda samaradorlikni oshiradi. Tadqiqot jarayonida Buyuk Britaniyaning asosiy qonunlari, milliy strategiyalari va dasturlarini chuqur o‘rganish, jinoyatchilikka qarshi kurashish tajribasining asosiy elementlari, ularning samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilishga ahamiyat berildi.

Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy bazasi 1980-yillardan shakllangan bo‘lib, qator muhim qonunlar orqali mustahkamlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu qonunlar politsiya faoliyatini tartibga solish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish va jinoyatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Asosiy qonunlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– *Police and Criminal Evidence Act* 1984 (PACE). Ushbu qonun politsiya vakolatlarini aniqlashtirib, tergov jarayonlarini standartlashtirdi. PACE politsiyaning tintuv, hibsga olish va so‘roq qilish jarayonlarini qat’iy tartibga soldi, shu bilan birga, gumonlanuvchilarning huquqlarini himoyalashga xizmat qildi. Masalan, so‘roq jarayonlarining audio- va videotasvirga olinishi, dalillarning qonuniy yo‘l bilan olinishi kabi talablar sud jarayonlarida shaffoflikni oshirdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, PACE qonunchiligi politsiya faoliyatidagi intizomiy buzilishlarni 20 foizga kamaytirishga yordam berdi. Buning sababi sifatida mazkur qonun politsiya xodimlarining mas’uliyatini oshirishga xizmat qilganini ko‘rish mumkin [3];

– *Criminal Justice and Public Order Act 1994* (CJPOA). Bu qonun politsiya vakolatlarini kengaytirib, jamoat tartibini saqlashda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratdi. Ayniqsa, “sukut saqlash huquqi”ning cheklanishi sud jarayonlarida dalillarni baholashda muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mazkur qonunning qabul qilinishi ommaviy tartibsizliklarni 15 foizga kamaytirishga xizmat qilgan bo‘lsada, qonunning ayrim moddalari inson huquqlari tashkilotlari tomonidan, xususan, tintuv va hibsga olish vakolatlarining kengayishi sababli tanqid qilindi [4];

– *Crime and Disorder Act 1998.* Ushbu qonun jamoatchilik va politsiya o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi. Ayniqsa, yoshlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda G‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga qarshi sud buyruqlari (ASBO) va “*Youth Offending Teams*” (YOTs) tashkil etilishi natijasida yoshlar orasidagi jinoyatlar 25 foizga kamayishiga erishildi. Buning asosiy sababi mazkur qonun bilan irqiy nafratga asoslangan jinoyatlarni mustaqil huquqbuzarlik sifatida e’tirof etish sud jarayonlarida jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida qo‘llanishidir, o‘z o‘rnida, bu irqiy va etnik nizolarning kamayishiga sabab bo‘ldi [5];

– *Criminal Justice Act 2003*. Bu qonun sud jarayonlarini soddalashtirish va jazo tizimini isloh qilishga xizmat qildi. Jazo turlarining kengayishi, *“bad character evidence”* qabul qilinishi va qayta sudlanish *(double jeopardy*) imkoniyati sud tizimining samaradorligini oshirdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu qonun firibgarlik va iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha sud ishlarini ko‘rib chiqish muddatini 30 foizga tezlashtirdi [6];

– *Offender Rehabilitation Act 2014*. Ushbu qonun qisqa muddatli qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslarni normal hayotga reabilitatsiya qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, 12 oydan kam muddatli jazoni o‘tagan shaxslarning qamoqdan chiqqandan keyingi 12 oylik nazorat tizimi qayta jinoyat sodir etish darajasini 10 foizga kamaytirdi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mazkur qonun bilan joriy etilgan reabilitatsiya faoliyati talablari (RAR) jazo muddatidan oldin qamoqdan ozod qilinganlarning ijtimoiy moslashuvini 15 foizga oshirgan [7];

– *Policing and Crime Act 2017*. Ushbu qonun politsiya va favqulodda xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirdi, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi choralarni mustahkamladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qonun politsiyaning tezkor javob berish qobiliyatini 25 foizga oshirdi, ayniqsa, jamoat joylarida xavfsizlikni ta’minlashda ijobiy natijalarga erishilishiga xizmat qildi [8].

Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishda qonunlar bilan birga, milliy strategiyalar va dasturlar muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari ushbu dasturlarning samaradorligini va ularning jinoyatchilikka ta’sirini ko‘rsatadi:

– “*Neighbourhood Watch* (1982)”. Ushbu dastur jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish orqali mahalliy jinoyatlarni kamaytirishga xizmat qildi. Tadqiqotga ko‘ra, “*Neighbourhood Watch”* amal qiladigan mahallalarda o‘g‘rilik va vandalizm kabi jinoyatlar 16 foizga kamaydi. Dasturning muvaffaqiyati politsiya bilan aholi o‘rtasidagi ishonchni oshirish (76 foiz respondentlar dasturga qo‘shilishga tayyor ekanini bildirgan) va mahalliy aloqalarni mustahkamlashda namoyon bo‘ldi. Angliya va Uelsda 3,8 million xonadonni qamrab olgan bu dastur jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlashda muhim namunadir [9].

– “*Secured by Design* (1989)”. Atrof-muhit orqali jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan bu dastur qurilish va shaharsozlikda xavfsizlik standartlarini joriy etish orqali samara ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, *“Secured by Design”* standartlariga muvofiq qurilgan binolarda o‘g‘rilik 87 foizga, umumiy jinoyatlar esa 50–60 foizga kamaydi. Dasturning muvaffaqiyatli jihati politsiya, arxitektorlar va mahalliy hokimiyatlar o‘rtasidagi hamkorlikning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidadir. Mazkur dasturga asosan 1989-yildan hozirgi kunga qadar amalga oshirilayotgan qurilishlarning barchasi jinoyatlarning sodir etilishini qiyinlashtirish va oldini olishga qaratilgan [10].

– “*Project Servator* (2014)”. Profilaktik patrul dasturi bo‘lgan “*Project Servator”* jamoat joylarida xavfsizlikni ta’minlashda samarali ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqotga ko‘ra, dastur joriy etilgan hududlarda shubhali faoliyatlar bilan bog‘liq jinoyatlar 20 foizga kamaydi. Politsiyaning kutilmagan patrullari va jamoatchilik bilan hamkorligi aholida xavfsizlik hissini oshirdi (80 foiz respondentlar politsiya faoliyatini ijobiy baholagan) [11].

– "*Modern Crime Prevention Strategy* (2016)". Bu strategiya jinoyatlarning asosiy sabablarini (imkoniyat, shaxsiy xususiyatlar, foyda, giyohvandlik va alkogol) bartaraf etishga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, strategiya doirasidagi profilaktik choralar giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni 15 foizga, alkogol bilan bog'liq jinoyatlarni esa 10 foizga kamaytirdi. Strategiyaning ijro etilishida idoralararo hamkorlik muhim rol o'ynaydi [12].

– "*Serious Violence Strategy* (2018)". Jiddiy zo'ravonlikka qarshi kurashishga qaratilgan bu strategiya "*Violence Reduction Units*" (VRUs) loyihasi orqali amalga oshirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, VRU faoliyat yuritayotgan hududlarda zo'ravonlik holatlari 2019–2020-yillarda 41,377 taga kamaydi. Dasturning muvaffaqiyati yoshlar bilan erta aralashuv va mahalliy hamkorlikda ko'rsatildi, lekin moliyalashtirish va uzoq muddatli rejalashtirishda muammolar mavjud [13].

– "*Beating Crime Plan* (2021)". Ushbu strategiya mahalliy jinoyatlar, yashirin tahdidlar va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dastur doirasidagi elektron monitoring va mahalliy politsiya xodimlari bilan aloqa tizimi mahalliy jinoyatlarni 12 foizga kamaytirdi. Shuningdek, yoshlarni ta'limga qaytarish dasturlari zo'ravonlikka moyillikni 10 foizga pasaytirdi [14].

– "*National Policing Prevention Strategy* (2022)". Politsiya faoliyatida profilaktikaga e'tibor qaratilgan bu strategiya jinoyatlarning oldini olishda samara ko'rsatdi. Tadqiqotga ko'ra, strategiya doirasidagi choralar jabrlanuvchilar sonini 8 foizga kamaytirdi va politsiyaga bo'lgan talabni 5 foizga pasaytirdi [15].

– *"CONTEST 2023"*. Terrorizmga qarshi milliy strategiya bo'lgan "*CONTEST"* "*Prevent", "Pursue", "Protect"* va *"Prepare"* yo'nalishlari orqali amalga oshirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2017–2023-yillarda 39 ta yirik terrorchilik hujumi fosh etildi va 169 ta shaxs terrorchilik faoliyati uchun qo'lga olindi. Strategiyaning muvaffaqiyati idoralararo hamkorlik va jamoatchilik ishtirokida namoyon bo'ldi, lekin raqamli muhitdagi tahdidlarga qarshi kurashishda yangi texnologiyalardan foydalanishda murakkabliklar mavjud [16].

– *"National Cyber Strategy* (2022–2030)". Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan bu strategiya Milliy kiberxavfsizlik markazi (NCSC) va Milliy kiberkuchlar (NCF) orqali amalga oshirilmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, strategiya kiberhodisalar sonini 10 foizga kamaytirdi va kiberxavfsizlik standartlariga rioya qilish darajasini 15 foizga oshirdi [17].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Buyuk Britaniyada jinoyatchilik darajasi 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 4 foizga pasaydi, lekin firibgarlik (33 foizga oshgan, 4,1 million hodisa) va o'g'rilik (13 foizga oshgan, 2,9 million hodisa) kabi jinoyatlar o'sishi kuzatildi. Kompyuterlardan noqonuniy foydalanish 23 foizga kamaydi, bu shaxsiy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishning 29 foizga pasayishi bilan bog'liq. Ushbu ko'rsatkichlar qonunlar va dasturlarning umumiy jinoyatchilikka ijobiy ta'sirini, lekin ayrim sohalardagi muammolarni ham ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Buyuk Britaniya qonunchiligi tahlili. Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari, xususan, *Police and Criminal Evidence Act* 1984 (PACE), *Criminal Justice and Public Order Act* 1994, *Crime and Disorder Act 1998, Criminal Justice Act* 2003, *Offender Rehabilitation Act* 2014 va *Policing and Crime Act 2017* kabi qonunlar kompleks yondashuvni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. PACE qonuni politsiya faoliyatining shaffofligini ta'minlash, dalillarni qonuniy yig'ish va gumonlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda mustahkam asos yaratdi.

Masalan, PACE doirasida joriy qilingan "Codes of Practice" (Amaliy qoidalar) politsiyaning tintuv, hibsga olish va so'roq jarayon-

larida qonunga rioya qilishini kafolatladi, bu esa sudlarda dalillarning qabul qilinishi va jarayonlarning adolatliligini oshirdi. *Crime and Disorder Act 1998* esa jamoatchilik xavfsizligini mustahkamlash va yoshlar jinoyatchiligini kamaytirishda muhim o‘zgarishlarni amalga oshirishga sabab bo‘ldi. Xususan, “Anti-Social Behaviour Orders” (ASBO) joriy etilishi orqali mahalliy jamoalarda bezorilik va mayda huquqbuzarliklarga qarshi samarali choralar ko‘rildi. 2024-yilgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Angliya va Uelsda umumiy jinoyatchilik darajasi 1000 kishiga 87 ta jinoyatni tashkil etdi, ya’ni 2023-yilga nisbatan 4 foizga pasaygan, bu qonunlarning umumiy samaradorligini ko‘rsatadi. Biroq firibgarlik (33 foizga oshgan, 4,1 million hodisa) va o‘g‘rilik (13 foizga oshgan, 2,9 million hodisa) kabi jinoyatlarning o‘sishi yangi tahdidlarga qarshi qo‘shimcha choralar zarurligini ko‘rsatmoqda.

Milliy strategiyalar va dasturlarning natijalari. Buyuk Britaniyaning “Neighbourhood Watch”, “Secured by Design”, “Project Servator”, “Modern Crime Prevention Strategy”, “Serious Violence Strategy”, “Beating Crime Plan”, “National Policing Prevention Strategy”, “CONTEST 2023” va “National Cyber Strategy 2022 – 2030” kabi milliy strategiyalari va dasturlari jinoyatchilikka qarshi kurashishda kompleks hamda profilaktik yondashuvning samarasini ko‘rsatdi.

“Neighbourhood Watch” dasturi fuqarolarning xavfsizlikni ta’minlashda faol ishtirokini rag‘batlantirdi, natijada Angliya va Uelsda 3,8 milliondan ortiq xonadonni qamrab olgan 170,000 mahalla kuzatuv guruhlari tashkil etildi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, ushbu dastur joriy qilingan hududlarda jinoyatchilik darajasi o‘rtacha 16 foizga kamaydi. “Secured by Design” dasturi esa shaharsozlik va qurilishda xavfsizlik standartlarini joriy etish orqali o‘g‘rilik va vandalizm kabi jinoyatlarni 50–60 foizga kamaytirdi. “Project Servator” profilaktik patrullari terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda samarali bo‘lib, jamoat joylarida shubhali faoliyatlarni aniqlash va ularning oldini olishda muhim natijalarga erishdi. “Serious Violence Strategy” va “Beating Crime Plan” zo‘ravonlik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda muhim yutuqlarni qayd etdi, xususan, “Violence Reduction Units” (VRU) faoliyati natijasida 2019–2020-yillarda 41,377 ta zo‘ravonlik hodisasining oldi olindi. “CONTEST 2023” terrorizmga qarshi kurashishda davlat idoralari va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamladi, natijada 2017–2023-yillarda 39 ta yirik terrorchilik hujumi fosh etildi. “National Cyber Strategy” kiberxavfsizlik sohasida raqamli infratuzilmani mustahkamlash va kibertahdidlarga qarshi tezkor javob berish qobiliyatini oshirdi.

Jamoatchilik ishtiroki va ishonch. Buyuk Britaniya tajribasining muhim elementlaridan biri jamoatchilikning jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirokidir. “Neighbourhood Watch” dasturi orqali fuqarolar mahalliy xavfsizlikni ta’minlashda muhim subyekt sifatida ishtirok etmoqda. 2009–2010-yillarda o‘tkazilgan “British Crime Survey” ma’lumotlariga ko‘ra, mahallasida kuzatuv guruhi mavjud bo‘lmagan respondentlarning 76 foizi ushbu guruhlarga qo‘shilishga tayyorligini bildirgan. Bu jamoatchilikning politsiyaga bo‘lgan ishonchi va xavfsizlikni ta’minlashda faollik darajasini ko‘rsatadi. “Project Servator” dasturi esa jamoatchilikni “xavfsizlikni ta’minlashda ishtirok eting” g‘oyasi asosida safarbar qilib, fuqarolarning shubhali holatlar to‘g‘risida xabar berish faolligini oshirdi. “CONTEST 2023” strategiyasi doirasida jamoatchilik bilan aloqa kanallari (*gov.uk*, matbuot anjumanlari, “ProtectUK” platformasi) orqali axborot almashinuvi mustahkamlandi, bu esa aholining terrorizmdan himoyalanganlik hissini kuchaytirdi.

Texnologiya va innovatsiyalarning roli. Buyuk Britaniyada jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. “Secured by Design” dasturi “CCTV” kameralari va xavf-

sizlik tizimlarining qo‘llanishini kengaytirdi, bu esa jinoyatlarning oldini olishda samarali vosita bo‘ldi. “Project Servator” dasturi doirasida dronlar, videokuzatuv va sun’iy intellektga asoslangan tahlil vositalari shubhali faoliyatlarni aniqlashda foydalanilmoqda. “National Cyber Strategy” kiberxavfsizlik sohasida sun’iy intellekt va raqamli platformalardan foydalanish orqali kibertahdidlarga qarshi tezkor javob berish qobiliyatini oshirdi. Masalan, Milliy kiberxavfsizlik markazi (NCSC) raqamli infratuzilmani mustahkamlash va kiberhujumlarning oldini olishda muhim natijalarga erishdi. 2023-yilda NCSC tomonidan kibertahdidlarga qarshi 800 ga yaqin tergov amalga oshirildi, bu kiberxavfsizlik tizimining samaradorligini ko‘rsatdi [18].

Qiyinchiliklar va cheklovlar. Shunday bo‘lsa-da, Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimida bir qator muammolar mavjud. Firibgarlik va kiberjinoyatlarning o‘sishi (2024-yilda firibgarlik 33 foizga oshgan) zamonaviy tahdidlarga qarshi yangi yondashuvlar zarurligini ko‘rsatmoqda. *Crime and Disorder Act 1998* doirasida joriy qilingan *ASBO* buyruqlari ba’zi hollarda inson huquqlariga zid deb tanqid qilindi, xususan, sukut saqlash huquqining cheklanishi va tintuv vakolatlarining kengayishi fuqarolar erkinligiga tahdid soladi, deb baholandi. “Serious Violence Strategy” va VRU loyihalari moliyaviy mablag‘larning yetarli emasligi va uzoq muddatli rejalashtirish murakkabligi tufayli ba’zi hududlarda samarasiz bo‘ldi. Bundan tashqari, politsiya faoliyatida irqiy yoki milliy kelib chiqishga asoslangan tintuvlar masalasi jamoatchilikda muhokama mavzusi bo‘lib kelmoqda, bu politsiyaga nisbatan ishonchga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Xulosalar

Buyuk Britaniyaning tajribasi asosida O‘zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish uchun quyidagilarni mamlakatimiz huquqni qo‘llash amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiq:

– “Neighbourhood Watch” dasturining mahalliy kuzatuv guruhlari modelini O‘zbekistonning mahalla tizimiga moslashtirish mumkin. Masalan, mahalla raislari va profilaktika inspektorlari koordinator sifatida ishtirok etib, fuqarolarni xavfsizlikni ta’minlashda faol qatnashishga undashi mumkin;

– “Secured by Design” standartlarini O‘zbekistonning shaharsozlik va qurilish jarayonlariga joriy etish orqali jinoyatlarning oldini olish imkoni ortadi;

– “Project Servator” dasturining profilaktik patrullari O‘zbekistonning ichki ishlar organlari tomonidan qo‘llanishi, xususan, jamoat joylarida xavfsizlikni ta’minlashda samarali bo‘lishi mumkin;

– “CONTEST 2023” va “National Cyber Strategy” kiberxavfsizlik va terrorizmga qarshi kurashishda O‘zbekiston uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va idoralararo hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha muhim imkoniyatlarni yaratadi. O‘zbekistonda mavjud mahalla tizimi va profilaktika inspektorlari bilan ushbu dasturlarni integratsiya qilish orqali jamoatchilik ishonchini mustahkamlash, jinoyatchilik darajasini kamaytirish mumkin.

Buyuk Britaniyaning jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi qonunchilik, jamoatchilik ishtiroki, profilaktik choralar va zamonaviy texnologiyalarning uyg‘unligiga asoslanadi. Ushbu tizimning samaradorligi statistik ma’lumotlar (jinoyatchilik darajasining 4 foizga pasayishi, zo‘ravonlik hodisalarining oldini olish) va amaliy natijalar (“Neighbourhood Watch”, “Secured by Design”, “Project Servator”) orqali isbotlandi. Biroq firibgarlik va kiberjinoyatlarning o‘sishi, moliyaviy cheklovlar va inson huquqlariga doir tanqidlar tizimning murakkab muammolari sifatida ko‘zga tashlanadi. O‘zbekistonda ushbu tajribani mahalla tizimi va mavjud normativ-huquqiy bazaga moslashtirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashishning samarali modelini yaratish mumkin.

REFERENCES

1. UK Crime Rates, Sep 2024. Available at: https://crimerate.co.uk/
2. Crime and justice. Crime in England and Wales: year ending December 2024. Available at: https://www.ons.gov.uk/peoplepopulationandcommunity/crimeandjustice/bulletins/crimeinenglandandwales/yearendingdecember2024
3. Police and Criminal Evidence Act 1984, p. 60. UK legislation. Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1984/60/contents
4. Criminal Justice and Public Order Act 1994, p. 33. UK legislation. Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1994/33/contents
5. Crime and Disorder Act 1998, p. 37. UK legislation. Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1998/37/contents
6. Criminal Justice Act 2003, p. 44. UK legislation. Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2003/44/contents
7. Offender Rehabilitation Act 2014, p. 11. UK legislation. Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2014/11/contents
8. Policing and Crime Act 2017, p. 3. UK legislation. Available at: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2017/3/contents
9. Neighbourhood Watch. Community Crime Prevention Program. England & Wales Publ., 1982.
10. Police Crime Prevention Initiatives. 1989. Available at: https://www.securedbydesign.com/about-us/news/the-importance-of-secured-by-design
11. Project Servator. City of London Police. 2014. Available at: https://www.cityoflondon.police.uk/advice/advice-and-information/wsi/watch-schemes-initiatives/ps/project-servator/
12. Modern Crime Prevention Strategy. Home Office, 2016. Available at: https://www.gov.uk/government/publications/modern-crime-prevention-strategy
13. Serious Violence Strategy. Home Office, 2018. Available at: https://www.gov.uk/government/publications/serious-violence-strategy
14. Beating Crime Plan. Home Office, 2021. Available at: https://www.gov.uk/government/publications/beating-crime-plan
15. National Policing Prevention Strategy. National Police Chiefs' Council, 2022. Available at: https://www.npcc.police.uk/our-work/work-of-npcc-committees/prevention-coordination-committee/
16. Counter-terrorism strategy (CONTEST). Home Office, 2023. Available at: https://www.gov.uk/government/publications/counter-terrorism-strategy-contest-2023
17. National Cyber Strategy. Cabinet Office, 2022. Available at: https://www.gov.uk/government/publications/national-cyber-strategy-2022
18. Annual Review. National Cyber Security Centre, 2023. Available at: https://www.ncsc.gov.uk/report/annual-review-2023

Kelib tushgan / Получено / Received: 25.04.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./APJM4087
UDC: 343.13(045)(575.1)

ПОЛУЧЕНИЕ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ КАК СЛЕДСТВЕННОЕ ДЕЙСТВИЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ

Худайбергенов Бахрам Куанышбаевич,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент
кафедры «Уголовно-процессуального права»
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0000-0002-0173-5442
e-mail: xudaybergenovbaxram550@gmail.com

Парахатова Шахноза Ерназаровна,
базовый докторант
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0009-0003-0399-1436
e-mail: parakhatovashakhnoza@gmail.com

Аннотация. *Статья посвящена исследованию процесса получения образцов для экспертного исследования как одного из следственных действий в уголовном судопроизводстве. Рассматриваются теоретические и практические аспекты нормативного регулирования данной процедуры в Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан, а также выявляются существующие правовые пробелы, затрудняющие правоприменительную практику. Анализируются вопросы, касающиеся круга лиц, у которых могут быть получены образцы, возможности их принудительного изъятия, а также проведения данной процессуальной процедуры в рамках иных следственных действий. Особое внимание уделяется сравнительно-правовому анализу с законодательством зарубежных стран, включая правоприменительную практику Европейского суда по правам человека. В статье приводятся научные подходы отечественных и зарубежных исследователей, что способствует развитию научной дискуссии по данной теме. Авторы предлагают пути совершенствования нормативной базы и процессуального регулирования, направленные на укрепление законности и защиту прав участников уголовного процесса.*

Ключевые слова: *уголовный процесс, расследование, уголовное судопроизводство, принуждение, образцы, экспертное исследование, экспертиза, эксперт, следственное действие, судебная практика, принудительное изъятие, доказательства*

EKSPERTIZA TADQIQOTI UCHUN NAMUNALAR OLISH TERGOV HARAKATI SIFATIDA: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR

Xudaybergenov Baxram Kuanishbaevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasi
dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Paraxatova Shaxnoza Yernazarovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqola jinoyat protsessida tergov harakatlaridan biri sifatida ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksidagi ushbu tartibni normativ tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini qiyinlashtiradigan mavjud huquqiy bo‘shliqlar aniqlanadi. Namunalar olinishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasi, ularni majburan olib qo‘yish imkoniyatlari, shuningdek, mazkur protsessual tartib-taomilni boshqa tergov harakatlari doirasida o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinadi. Mualliflar xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, jumladan, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining huquqni qo‘llash amaliyotini qiyosiy-huquqiy tahlil qilishga alohida e’tibor qaratmoqda. Maqolada mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy yondashuvlari keltirilgan bo‘lib, bu mavzu bo‘yicha ilmiy munozaralarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mualliflar qonunchilikni mustahkamlash va jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda protsessual tartibga solishni takomillashtirish yo‘llarini taklif etadilar.*

Kalit so‘zlar: *jinoyat protsessi, tergov, jinoyat ishi yurituvi, majburlov, namunalar, ekspert tekshiruvi, ekspertiza, ekspert, tergov harakati, sud amaliyoti, majburiy olib qo‘yish, dalillar*

OBTAINING SAMPLES FOR EXPERT EXAMINATION AS AN INVESTIGATIVE ACTION: THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES

Khudaybergenov Bakhram Kuanishbaevich,
Associate professor of the Department of Criminal Procedural Law,
Tashkent State University of Law
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Parakhatova Shakhnoza Yernazarovna,
Basic doctoral student at Tashkent State University of Law

Abstract. *The article is devoted to the study of the process of obtaining samples for expert examination as one of the investigative actions in criminal proceedings. It examines the theoretical and practical aspects of the normative regulation of this procedure in the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and also identifies existing legal gaps that complicate law enforcement practice. The scope of persons from whom samples can be taken, the possibilities of their compulsory seizure, as well as issues related to the conduct of this procedural procedure within the framework of other investigative actions, are analyzed. The authors pay special attention to a comparative legal analysis of the legislation of foreign countries, including the law enforcement practice of the European Court of Human Rights. The article presents the scientific approaches of domestic and foreign researchers, which contributes to the development of scientific discussions on this topic. The authors propose ways to improve the regulatory framework and procedural regulation aimed at strengthening legislation and protecting the rights of participants in criminal proceedings.*

Keywords: *criminal process, investigation, criminal proceedings, coercion, samples, expert research, expert examination, expert, investigative action, judicial practice, compulsory seizure, evidence*

Введение

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati tomonidan:

jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko‘rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek, ushbu sudlarning tuman (shahar) sudlari, hududiy harbiy sudlar tomonidan ko‘rilgan ishlar bo‘yicha apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida chiqarilgan hukmlari va ajrimlari ustidan JPKning 511-moddasida ko‘rsatilgan shaxslarning shikoyatlarini o‘rganish natijalariga ko‘ra chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, uning o‘rinbosarlarining protestiga yoki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi sudyasining ajrimiga binoan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudlarining, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilgan hukmlari, ajrimlari, shuningdek, ushbu sudlar tomonidan birinchi instansiya tariqasida ko‘rilgan ishlar bo‘yicha apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida chiqarilgan hukmlari va ajrimlari ustidan JPKning 511-moddasida ko‘rsatilgan shaxslarning shikoyatlariga yoki O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, uning o‘rinbosarlarining protestiga binoan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Rayosatida – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay’atining taftish tartibida chiqarilgan qarorlari ustidan JPKning 511-moddasida ko‘rsatilgan shaxslarning arizasiga (iltimosnomasiga), sudyaning taqdimnomasiga, ommaviy axborot vositalarining xabarlariga ko‘ra kiritilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi raisining protestiga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining protestiga binoan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi holatga ko‘ra, sud tizimimizga yangi taftish instansiyasi joriy etilib, taftish va qayta taftish tartibida ishlar ko‘rib chiqila boshlangach, yuqori instansiyalar va ishni

qayta ko‘rish bosqichlari sezilarli darajada ko‘paydi. Apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarining funksiyalari o‘zaro bir xillashib ketganligi sababli, ularni ajratish ma’qulmi yoki birlashtirish ma’qulmi, degan munozarali savollar yuzaga keldi. Ushbu masalani ilmiy tahlil qilib, o‘z fikrimizni bildirmoqchimiz.

Zamonaviy jinoyat-protsessual tizimda sud qarorlariga shikoyat qilish huquqi nafaqat tomonlarning eng muhim protsessual huquqi, balki insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida tan olinadi. Jinoyat uchun hukm qilingan har bir shaxs qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi, shuningdek, afv etish yoki jazoni yengillashtirish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga ega [10].

Jinoyat protsessida prokuratura deyarli har doim davlatning mansabdor vakili (davlat ayblovchisi) sifatida ishtirok etadi. Ular jabrlanuvchining huquqlarini himoya qilish hamda kasbiy majburiyatlar asosida ish olib boradi. Ayblanayotgan shaxs va uning himoyachisi esa jinoyat javobgarligi yuzaga kelmasligi uchun o‘zining shikoyat qilish huquqidan foydalanadi.

Bu borada e’tiborli jihat shundaki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida har bir inson Konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan taqdirda, nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega ekanligi belgilangan [11].

Shuningdek, “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt”ning (1966-yil) 5-qismining 14-moddasida “har qanday jinoyat uchun aybdor deb topilgan va hukm qilingan shaxs, unga nisbatan chiqarilgan sud qarorlarini qonunga muvofiq yuqori sud instansiyasi tomonidan qayta ko‘rib chiqish huquqiga ega” degan qoida ham belgilangan [12].

Ushbu xalqaro Pakt O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1995-yilda ratifikatsiya qilingan. Amaldagi qonunchilik va xalqaro konvensiyalar asosida, jabrlanuvchiga berilgan sud qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqi hamda prokurorga protest bildirish huquqi faqat protsessual huquqlar hisoblanadi va inson huquqlari qatoriga kirmaydi. Shu bilan birga, jabrlanuvchining sud qarorlari (ayniqsa hukm) ustidan shikoyat qilish protsessual huquqi ham inson huquqlari qatoriga kirishini inkor etib bo‘lmaydi.

Qayd etilganlarga ko‘ra, bugungi kunda yuqori xalqaro huquqiy standartlarga muvofiq, taraflarga jinoyat ishini ikki instansiyada ko‘rib chiqish huquqi berilgan, ya’ni hukm qabul qilingandan so‘ng, uni ikkinchi instansiya sudiga shikoyat qilish mumkin. Bu yerda, birinchidan, taraflarning buzilishi yoki cheklanishi mumkin bo‘lmagan huquqi nazarda tutiladi; ikkinchidan, taraflar qonuniy kuchga kirmagan hukmga faqat bir marotaba yuqori instansiya sudiga shikoyat qilish huquqiga ega; uchinchidan, bunday shikoyat jinoyat ishini qayta ko‘rib chiqish huquqini anglatib, nafaqat sud qarorini shikoyat qilish, balki takroran sud tergovini o‘tkazish imkonini ham beradi.

Aynan shu sababli, jinoyat protsessida apellyatsiya instansiyasi hech qachon to‘liq yoki qisman shakllarga bo‘linmasligi kerak, chunki mahkum sud hukmidan so‘ng yuzaga kelgan yangi dalillar yoki yangi holatlarga asoslanib avval mavjud bo‘lmagan vajlarini keltirishi mumkin. Bu esa uning fuqarolik va protsessual huquqi sifatida tan olinishi lozim.

Insonning asosiy huquqlarini jinoyat protsessida himoya qilishning qo‘shimcha kafolati sifatida xizmat qiladigan va jinoyat sud ishlarini yuritishga Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan joriy etilgan institutlardan biri apellyatsiya tartibida ish yuritishdir [13].

Apellyatsiya instansiyasining joriy etilishi, shuningdek, ishlarning kassatsiya va taftish tartibida ko‘rib chiqilishining isloh qilinishi dastlabki tergov va birinchi instansiya sudi tomonidan sud muhokamasida yuzaga kelgan qoidabuzarliklarni samarali va tezkor tarzda tuzatish hamda bartaraf etish imkonini berdi [14].

Sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqish tarixida burilish davri 2000-yil 14-dekabrda 163-II-sonli qonun bilan boshlandi. Ushbu qonun bilan birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan sud qarorlarini apellyatsiya instansiya sudida tekshirish tartibi joriy qilindi, shuningdek, kassatsiya va nazorat institutlari isloh qilindi [15].

Sudlarning qonuniy kuchga kirmagan hukm va ajrimlarni qayta ko‘rishning mohiyati ulardagi aniqlangan kamchiliklarni tuzatishdan iborat. Hukm va ajrimlarning qonuniyligi, asosliligi hamda adolatliligini tekshirish instituti yuqori instansiya sudlari tomonidan sud nazoratini amalga oshirishning yorqin namunasidir. Birinchidan, amalga oshiriladigan faoliyatning asosiy qismini, ya’ni bosh yo‘nalishini aynan ushbu tekshirish tashkil qiladi. Ikkinchidan, bu tekshirish taraflarning roziligi va tashabbusiga bog‘liq bo‘lib, shikoyat yoki protest berilmasa, faoliyat boshlanmaydi.

Apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari sud qarorlarini tekshirish vakolatiga ega bo‘lib, ularning quyidagi asosiy xususiyatlari bir maqsadga xizmat qiladi:

1) hukmni bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslarining aniq belgilanganligi;

2) yuqori sud instansiyalarida jinoyat ishini ko‘rishda taraflarning (prokuror va himoyachi) faol ishtirok etishi;

3) yuqori sudlarda jinoyat ishini ko‘rish muddati belgilanganligi.

Ushbu umumiy shartlarning asosiy maqsadi – sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish jarayonida sud xatolarini bartaraf etish orqali odil sudlov samaradorligini oshirish hamda protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini o‘z vaqtida himoya qilishdan iborat.

Tadqiqot natijalari tahlili

Qayd qilingan asoslar bo‘yicha, qonuniy kuchga kirmagan hukmlarni qayta ko‘rib chiqish va qonuniy kuchga kirgan hukmlarni qayta ko‘rib chiqish jarayonlari bir-biridan aniq ajratilishi lozim. Qonuniy kuchga kirmagan hukmga nisbatan shikoyat berish va shu asosda jinoyat ishini qayta ko‘rib chiqish jarayoni ish holatlarini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Biroq qonuniy kuchga kirgan hukm ijrosi barchaga majburiy bo‘lgani uchun, bunday hukmni qayta ko‘rib chiqish jarayonini faqat haddan tashqari holatlar bilan chegaralash kerak.

Shu bilan birga, hukmlarni qayta ko‘rib chiqish jarayoni doirasida apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarining vakolatlari alohida mazmun va protsessual ahamiyatga ega bo‘lib, har biri jinoyat protsessi ishtirokchilarining jinoyat ishini ko‘rib chiqish huquqini ta’minlashga mo‘ljallangan mustaqil yuridik institut hisoblanadi.

Ko‘pchilik apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarining farqini faqat qonuniy kuchga kirmagan va qonuniy kuchga kirgan hukmlar bilan cheklangan deb hisoblasa-da, ular bundan tashqari o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Masalan, apellyatsiya shikoyati (protesti) hukm e’lon qilingan kundan boshlab o‘n sutka ichida berilishi kerak. Shuningdek, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi yoki fuqarolik da’vogari uchun bu muddat hukm nusxasi topshirilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Qonunda kassatsiya shikoyati (protesti) berish uchun biron-bir muddat belgilanmagan. Shu bilan birga, JPK 501-moddasining mazmuniga ko‘ra, hukm (ajrim) qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir yil o‘tgandan so‘ng berilgan shikoyat (protest), basharti unda og‘irroq jinoyatga doir qonun moddalarini qo‘llash zarurligi, jazoni kuchaytirish yoki mahkumning ahvolini og‘irlashtiradigan boshqa o‘zgarishlar (mahkumni o‘ta xavfli retsidivist deb topish, jazoni ijro etish koloniyasining qattiqroq turini belgilash, shartli hukmni bekor qilish, undiruv miqdorini ko‘paytirish, basharti bu jinoyat kvalifikatsiyasi mahkumning ahvolini og‘irlashtiruvchi tomonga o‘zgartirilishiga olib kelsa va h.k.), shuningdek, oqlov hukmini yoxud ishni tugatish to‘g‘risidagi ajrimini be-

kor qilish nazarda tutilgan bo‘lsa, sud tomonidan qanoatlantirilishi mumkin emas. Bunda bir yillik muddat tegishli hukm yoki ajrim qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab, kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan qaror qabul qilingan kun ham qo‘shilgan holda hisoblanadi. Bir yillik muddat o‘tgandan keyin berilgan kassatsiya shikoyati (protesti) ko‘rib chiqilmaydi va uni bergan shaxsga qaytariladi.

Agar kassatsiya shikoyati (protesti) Jinoyat-protsessual kodeksining 501-moddasida belgilangan bir yillik muddat ichida berilgan bo‘lsa-da, mazkur muddat ish bo‘yicha qaror qabul qilinmaguncha o‘tib ketsa, shikoyat (protest) qanoatlantirilmasdan qoldiriladi va bu haqda shikoyat bergan shaxsga rasmiy ravishda ma’lum qilinadi.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqda yoki uy qamog‘ida saqlanayotgan hamda apellyatsiya instansiyasi sudining majlisida ishtirok etishni istagan mahkumning ishtirokini ta’minlash sudning majburiyatidir. Shu sababli jinoyat ishi sudga kelib tushgandan so‘ng, mahkumning apellyatsiya sudida ishtirok etish istagini bildirgan yoki bildirmaganligi aniqlanadi va natijasiga ko‘ra sud majlisida bevosita yoki videokonferensaloqa tizimi orqali ishtirok etishi ta’minlanadi.

Qaysi ehtiyot chorasi qo‘llanilishidan qat’i nazar, mahkumning apellyatsiya instansiyasi sud majlisida ishtirok etish huquqidan mahrum etilishi jinoyat-protsessual qonunining jiddiy buzilishi hisoblanadi va sud ajrimining bekor qilinishiga asos bo‘ladi.

Mahkum (yoki oqlangan shaxs)ning kassatsiya instansiyasi sud majlisida qatnashish masalasini hal qilish sudning huquqidir. Shu bois jinoyat ishi kelib tushgandan so‘ng mahkum (yoki oqlangan shaxs)ning kassatsiya instansiyasi sudida ishtirok etish zarurati aniqlanadi va natijasiga ko‘ra, uning sud majlisida bevosita yoki videokonferensaloqa tizimi orqali ishtirok etishi ta’minlanishi lozim.

Xulosalar

Yuqorida keltirilgan apellyatsiya instansiyasi sudining vakolatlari asosida apellyatsiya instansiyasi sudiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

“Apellyatsiya instansiyasi sudi – jinoyat ishi bo‘yicha chiqarilgan, ammo qonuniy kuchga kirmagan hukm (ajrim)ning qonuniyligi, asosligi va adolatliligini tekshiruvchi yuqori instansiya sudidir. Ushbu sud jinoyat ishini to‘liq sud tergovi o‘tkazgan holda har tomonlama tekshiradi va qonuniy yechim qabul qilish vakolatiga ega bo‘ladi”.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda sud qarorlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslari “Birinchi instansiya sudining hukmi, ajrimi ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish)” nomli 55^{1}-bobda belgilangan (JPKning 497^{19}-moddasi).

Shu bilan birga, qonunda kassatsiya instansiya sudining quyi sudlarning qarorlarini bekor qilish va o‘zgartirish asoslari alohida nazarda tutilmaganligi sababli, JPKning 497^{19}-moddasida ko‘rsatilgan hukm (ajrim)ni bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslari ushbu instansiya sudiga ham taalluqli, deb aytish mumkin. Demak, yuqori instansiya sudlari tomonidan sud qarorlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish asoslari bir xil bo‘lishi kerakligi aniqlandi.

Jinoyat ishini to‘liq sud tergovi o‘tkazgan holda birinchi va apellyatsiya instansiya sudlarida ko‘rib chiqish huquqi bilan yuqori instansiya sudida qayta ko‘rib chiqish huquqini ajratish zarur. Yuqori instansiya sudida ish ko‘rib chiqish faqat cheklangan doirada, ya’ni odatda huquqiy nuqtayi nazardan, sud tergovisiz va ish bo‘yicha holatlarni aniqlamasdan amalga oshiriladi.

Albatta, jinoyat-protsessual tizimi jinoyat protsessi ishtirokchilariga davlatimizning eng yuqori sudiga murojaat qilish huquqini ta’minlashi lozim, chunki u sud piramidasining yuqori bosqichida yakuniy baholash funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga, sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqish jarayoni o‘zaro to‘ldiruvchi, funksional jihatdan xilma-xil va son jihatdan cheklangan instansiyalar tizimi-

ga asoslangan bo‘lib, har bir instansiya taraflarning sud qarorini tanqid qilish protsessual huquqini amalga oshirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan muhim va o‘ziga xos jihatlarga asoslanib, jinoyat ishlarini sud tartibida qayta ko‘rishda apellyatsiya instansiyasining va kassatsiya instansiyasining alohida-alohida yuqori instansiya sifatida sud tizimida o‘ziga xos o‘rni mavjudligi haqida fikr bildiramiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida [President of the Republic of Uzbekistan in his Address to the Oliy Majlis and the People of Uzbekistan]. 2020, December 27.

2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi [The concept of further deepening democratic reforms and developing civil society in our country]. Report at a joint meeting of the Legislative Chamber and Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, O‘zbekiston Publ., 2010, p. 18.

3. Abidov A. Joriy yilning I choragi davomida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan 19 646 nafar shaxsga nisbatan 15 681 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqildi [During the first quarter of this year, criminal courts considered 15,681 criminal cases against 19,646 individuals.]. Available at: https://t.me/AzizAbidov/6095

4. Stoyko N.G. Ugolovnyy protsess zapadnykh gosudarstv i Rossii: sravnitel’noye teoretiko-pravovoye issledovaniye anglo-amerikanskoy i romano-germanskoy pravovykh sistem [Criminal Procedure in Western States and Russia: A Comparative Theoretical and Legal Study of the Anglo-American and Romano-Germanic Legal Systems]. St. Petersburg, Law Faculty of St. Petersburg State University Publ., 2006, p. 264.

5. Abdullayev F. Apellyatsiya sudida jinoyat ishlarini ko’rib chiqish tartibini takomillashtirish muammolari [Problems of improving the procedure for considering criminal cases in the Court of Appeal]. 2005, p. 89.

6. Tukhtasheva U.A. Ugolovno-protsessual’nyye puti ustraneniya sudebnykh oshibok [Criminal procedural ways of eliminating judicial errors]. 2020, p. 45.

7. Kuchkarov X.Z. Jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rilishini takomillashtirish [Improving the review of criminal cases in higher courts]. 2024, p. 80.

8. Suyunova D.J. Jinoyat protsessida sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish [Verification of the legality, validity and fairness of court decisions in criminal proceedings]. Tashkent, 2025, p. 50.

9. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi [Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2024.

10. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2023.

11. Universal Declaration of Human Rights December 10, 1948. Article 8.

12. International Covenant on Civil and Political Rights 1966. Article 14.

13. Rustambayev M.X, Tuxtasheva U.A. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati va sud-huquq islohoti [Judiciary and judicial reform in the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2009, p. 205.

14. Istiqlol va istiqbol huquqi [The right to independence and perspective]. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Tashkent State Law Institute, Tashkent, O‘zbekiston Publ., 2012, p. 352.

15. Vaxabov D.D., Tuxtasheva U.A Sud xatolarini aniqlash va bartaraf qilish yuzasidan yuqori turuvchi instansiya sudlari vakolatlari [Powers of higher courts to identify and eliminate judicial errors]. Tashkent, 2016, p. 80.

Kelib tushgan / Получено / Received: 22.04.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./RWOS2313
UDC: 341.24(045)(575.1)

XORIJIY DAVLAT SUD HUKM (QAROR)LARINI TAN OLISH VA IJRO ETISH BO‘YICHA DAVLATLARARO MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHDA XALQARO SHARTNOMALARNING AHAMIYATI

Xaliqulov Komoliddin Nosirovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi
o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0009-1361-9906
e-mail: x.komoliddin@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xorijiy davlat sud hukm(qaror)larini tan olish va ijro etishda davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda xalqaro shartnomalarning ahamiyati tahlil qilingan. Muallif tomonidan universal, mintaqaviy va ikki tomonlama xalqaro shartnomalar orqali davlatlararo huquqiy munosabatlarni tartibga solish ko‘rib chiqilgan. Xususan, universal, mintaqaviy va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarga to‘xtalib, ularning har biri xorijiy davlat hukm(qaror)larini tan olish va ijro etish jarayonida o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Jumladan, xorijiy davlat sud hukm(qaror)larini tan olish va ijro etishda davlat suvereniteti, milliy manfaatlar va jinoyatdan olingan daromadlarni musodara qilish kabi masalalar xalqaro hamkorlik doirasida yoritilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston, Ozarbayjon va Chexiya kabi davlatlar bilan imzolagan ikki tomonlama shartnomalari, jumladan, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jazoni o‘tashni davom ettirishi hamda huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha bitimlari tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy davlatlar sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha “Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi Minsk va Kishinev konvensiyalari hamda O‘zbekiston Respublikasining ikki tomonlama shartnomalarida belgilangan talablariga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, universal konvensiyalarning umumiy yondashuvi va mintaqaviy, ikki tomonlama bitimlardagi protsessual tartiblar o‘rtasidagi farqlarga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish, xalqaro shartnomalar, universal va mintaqaviy konvensiyalar, ikki tomonlama shartnomalar, jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam, Minsk konvensiyasi, Kishinev konvensiyasi, davlat suvereniteti, davlatlararo hamkorlik*

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДОГОВОРОВ В РЕГУЛИРОВАНИИ МЕЖГОСУДАРСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ ПО ПРИЗНАНИЮ И ИСПОЛНЕНИЮ СУДЕБНЫХ РЕШЕНИЙ ИНОСТРАННЫХ ГОСУДАРСТВ

Халикулов Комолиддин Носирович,
преподаватель кафедры
«Международное право и права человека»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *В настоящей статье рассматривается значение международных договоров в регулировании межгосударственных отношений, связанных с признанием и исполнением судебных решений иностранных государств. Автор анализирует правовое регулирование данных вопросов посредством универсальных, региональных и двусторонних международных соглашений. Особое внимание уделено специфике каждого из этих видов соглашений в контексте признания и исполнения судебных решений. В частности, рассматриваются вопросы государственного суверенитета, национальных интересов и конфискации доходов, полученных преступным путём, в рамках международного сотрудничества. В статье приведён анализ двусторонних договоров, заключённых Республикой Узбекистан с такими государствами, как Казахстан, Азербайджан и Чехия, включая соглашения о продолжении исполнения наказания лицами, лишёнными свободы, и оказании правовой помощи. Кроме того, освещены положения Минской и Кишинёвской конвенций о правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам, а также требования, содержащиеся в двусторонних соглашениях Республики Узбекистан. Отдельное внимание уделено отличиям между общим подходом универсальных конвенций и процессуальными процедурами, закреплёнными в региональных и двусторонних договорах.*

Ключевые слова: *признание и исполнение судебных решений иностранных государств, международные договоры, универсальные и региональные конвенции, двусторонние соглашения, правовая помощь по уголовным делам, Минская конвенция, Кишинёвская конвенция, государственный суверенитет, межгосударственное сотрудничество*

THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL TREATIES IN THE REGULATION OF INTERSTATE RELATIONS ON THE RECOGNITION AND EXECUTION OF JUDICIAL RULINGS (DECISIONS) OF FOREIGN STATES

Khalikulov Komoliddin Nosirovich,
Lecturer of the Department of International Law
and Human Rights,
Tashkent State University of Law

Abstract. *In this article, the significance of international treaties in the regulation of interstate relations in the recognition and enforcement of court decisions (decisions) of foreign states is analyzed. The author examines the regulation of interstate legal relations through universal, regional, and bilateral international treaties. In particular, universal, regional, and bilateral international treaties are considered, and the specific features of each of them in the process of recognition and enforcement of judgments (decisions) of foreign states are highlighted. In particular, issues such as state sovereignty, national interests, and confiscation of proceeds from crime in the recognition and enforcement of court decisions (decisions) of foreign states are covered within the framework of international cooperation. The article analyzes bilateral agreements signed by the Republic of Uzbekistan with such countries as Kazakhstan, Azerbaijan, and the Czech Republic, including agreements on the continuation of serving sentences and the provision of legal assistance to persons sentenced to imprisonment. Also, attention is paid to the requirements of the Minsk and Chisinau Conventions "On Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters," as well as bilateral agreements of the Republic of Uzbekistan on the recognition and enforcement of court decisions (decisions) of foreign states. At the same time, attention was drawn to the differences between the general approach of universal conventions and the procedural procedures in regional, bilateral agreements.*

Keywords: *recognition and enforcement of judicial decisions of a foreign state, international treaties, universal and regional conventions, bilateral treaties, legal assistance in criminal cases, Minsk Convention, Chisinau Convention, state sovereignty, interstate cooperation*

Kirish

Bugungi kunda suveren davlatlar o‘rtasida bir davlat sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarning boshqa davlat hududida huquqiy kuchga ega bo‘lishi va ijro etilishi masalasida vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishda xalqaro shartnomalar asosiy vosita hisoblanadi.

XIX asrning o‘rtalari va XX asr boshlarida hukm (qaror)larni tan olish va ijro etish bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama xalqaro shartnomalar tuzish orqali shakllanib borgan. Bu jarayon, o‘z navbatida, davlatlarning odil sudlovni amalga oshirishda bir-birlarining sud tizimlariga bo‘lgan ishonchini ifodalagan. Biroq so‘nggi yillarda xalqaro hamjamiyatda qonun ustuvorligining izdan chiqishi va pasayishi kuzatilmoqda. Jumladan, World Justice Project (WJP) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyoning 70 foizdan ortiq mamlakatlarida sud-huquq tizimlari zaiflashgan. Natijada taxminan 5,1 milliard kishi uchun o‘z huquqiy muammolarini hal qilishda odil sudlov va adolatli huquqiy himoyaga erishish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan [1]. Council of Europe Annual Penal Statistics (2023-yil) ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa qamoqxonalaridagi mahbuslarning o‘rtacha 27 %ini xorijiy fuqarolar tashkil qiladi [2]. Ushbu ko‘rsatkich xorijiy davlat sudlari tomonidan chet ellik shaxslarga nisbatan chiqarilgan hukm va qarorlarning tan olinishi hamda ijro etilishi bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqolada xorijiy davlat sudlarining hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish jarayoni xalqaro huquqiy jihatdan tahlil qilingan bo‘lib, bu borada universal, mintaqaviy va ikki tomonlama xalqaro shartnomalar asosiy huquqiy manbalar sifatida o‘rganilgan. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy ilmiy usullardan foydalanilgan:

– *Tizimli tahlil usuli.* Xorijiy davlat sudlarining hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish masalalari universal, mintaqaviy (xususan, Minsk va Kishinyov konvensiyalari) hamda ikki tomonlama shartnomalar doirasida belgilangan normalar asosida o‘rganildi. Har bir turdagi xalqaro shartnomaning huquqiy mohiyati, qo‘llanish tartibi va protsessual jihatlari alohida tahlil qilindi.

– *Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli.* Xorijiy sud hujjatlarini tan olish va ijro etish sohasida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar – Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988-, 2000- va 2003-yillardagi universal konvensiyalari, mintaqaviy konvensiyalar (Minsk va Kishinyov) hamda O‘zbekiston Respublikasining ayrim davlatlar bilan imzolagan ikki tomonlama shartnomalaridagi normalar o‘zaro solishtirildi. Ushbu normalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlar aniqlanib, ularning amaliy qo‘llanishdagi o‘rni tahlil qilindi.

– *Mantiqiy tahlil.* Xorijiy sud hukmlarini tan olish va ijro etish jarayonida xalqaro shartnomalar orqali davlatlararo munosabatlarni huquqiy tartibga solishning dolzarb jihatlari umumlashtirildi hamda asosli xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot natijalari

Uilyam H. Neukomning ta’kidlashicha, “xalqaro hamjamiyat barcha sohalarda qonun ustuvorligi yutuqlarini kengaytirish bo‘yicha sa’y-harakatlarni ikki barobar kuchaytirishi lozim” [3]. M. Volfning so‘zlariga ko‘ra, “xalqaro munosabatlarda yuzaga keladigan barcha muammolar ichida xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ularni majburiy ijro etish muammosi, ehtimol, eng muhimidir” [4, 45-b.].

T. Xabriyevaning fikriga ko‘ra, xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro hamkorlik davlatlar o‘rtasida o‘z fuqarolari va yuridik shaxslarining manfaatlarini samarali himoya qilish uchun ishonchli huquqiy asos yaratadi [5].

X. Tursunovning ta’kidlashicha, “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilikka ta’sirini sudlar tomonidan xalqaro shartnomalar, bitim yoki

konvensiyalarda belgilangan normalarning qo‘llanishida ko‘rish mumkin” [6].

N. Marysheva va A. Shukinlarning fikricha, sud qarorlarini o‘zaro tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali boshqa davlatlarning adliya organlariga bo‘lgan ishonchini ifodalaydi va transchegaraviy huquqlarni samarali himoya qilish hamda xalqaro huquqiy tartibni mustahkamlashning kafolati hisoblanadi [4, 46-b.].

Xorijiy davlatlarning sud hukm (qaror) larini tan olish va ijro etish bo‘yicha davlatlararo huquqiy hamkorlik xalqaro shartnomalar yoki o‘zarolik prinsipi orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu munosabatlarni tartibga solishning asosiy vositasi sifatida xalqaro shartnomalarni ta’kidlashimiz o‘rinlidir. U. Nizamedinxo‘jayev o‘z tadqiqot ishida ta’kidlaganidek, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro hamkorlik uch darajada amalga oshiriladi: davlatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama bitimlar doirasida, ikki tomonlama hamkorlik shaklida hamda mintaqaviy darajada [7, 19-b.]. Xususan, xalqaro shartnomalarni ishtirokchilarining qamroviga qarab universal, mintaqaviy va ikki tomonlama shartnomalarga tasniflash mumkin. Xalqaro huquq subyektlari o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq manbasi bo‘lgan xalqaro shartnomaga ixtiyoriy ravishda qo‘shiladi va undan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishni o‘z zimmasiga oladi [8, 48-b.]. Transmilliy jinoyatchilikka qarshi bir qator xalqaro shartnomalarning normalarida xorijiy davlat sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etish masalalariga oid imperativ normalar mavjud. Chunki bir davlat sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarning boshqa davlatlar hududida huquqiy ta’sirini tan olish va ijro etish jarayonlari davlatlararo xalqaro hamkorlik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

1980-yillarda davlatlararo narkotik moddalar savdosidan olingan daromadlar va boshqa jinoyatlardan tushgan mablag‘larni musodara qilish hamda ular bilan bog‘liq masalalarga oid qoidalar milliy qonunchilik doirasida ishlab chiqila boshladi. Keyingi o‘n yillikning ikkinchi yarmida esa qonun ijrosini ta’minlash bo‘yicha xalqaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratildi [10, 108-b.]. 1986-yilning iyun oyida konvensiyaning dastlabki loyihasi e’lon qilindi. Unda ishtirokchi davlatlar milliy qonunchiligining tafsilotlari, sudlari tomonidan chiqarilishi lozim bo‘lgan qarorlarning turlari, ushbu qarorlarning huquqiy oqibatlari va amal qilish muddati kabi jihatlar yoritilgan edi [9, 108-b.].

1988-yil 20-dekabrda “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi BMT konvensiyasi qabul qilindi. Mazkur konvensiya narkotik moddalarni sotishdan olingan daromadlarni musodara qilish bo‘yicha umumiy qoidalarni belgilaydi. Konvensiyada har bir ishtirokchi davlat tomonidan huquqbuzarlik natijasida olingan daromadlar, mol-mulklar hamda jinoyat sodir etishda foydalanilgan yoki foydalanish uchun mo‘ljallangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, materiallar va jihozlarni musodara qilish choralari ko‘rilishi lozimligi nazarda tutilgan. Ushbu konvensiyaning 5-moddasi 4-bandi “a” kichik bandida qayd etilishicha, ishtirokchi davlatlarning vakolatli organi tomonidan musodara qilish bo‘yicha so‘rov yuborilgan taqdirda, agar bunday qaror chiqarilgan bo‘lsa, uning ijrosi amalga oshirilishi shart.

Konvensiyada belgilangan qoidalardan kelib chiqib, xorijiy davlat hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, jinoyat sodir etishda foydalanilgan yoki foydalanish uchun mo‘ljallangan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, materiallar va jihozlar hamda jinoyat yo‘li bilan orttirilgan daromad va mol-mulkni musodara qilish bo‘yicha ishtirokchi davlatlar o‘rtasida hamkorlik amalga oshiriladi. Jumladan, vakolatli davlat organlari o‘z sudlari tomonidan chiqarilgan qarorga asosan, mol-mulkni musodara qilish bo‘yicha qarorning

ijrosini ta’minlash choralarini ko‘radi. Xorijiy davlat hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha vakolatli davlat organlari mol-mulk joylashgan davlat sudidan protsessual qonunchilikka muvofiq, hukm (qaror)ni tan olish va tasdiqlashni talab qilishi mumkin [9, 114-115-b].

BMTning 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi” konvensiyasining 2-moddasi “g” bandida “musodara qilish” deganda, sud yoki boshqa vakolatli organning qarori bilan mol-mulkdan uzil-kesil mahrum qilish tushunilishi to‘g‘risidagi qoidalar belgilangan [10]. Xususan, ishtirokchi davlatlar jinoiy yo‘l bilan olingan daromad, mol-mulk va boshqa vositalarni musodara qilish bo‘yicha sud yoki vakolatli organ tomonidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini davlatlararo hamkorlik asosida amalga oshiradi (13-modda) [10]. Konvensiyaning 14-moddasida esa ishtirokchi davlatlar tomonidan yuborilgan so‘rov ijro etilayotganda, ijro etuvchi davlat o‘z milliy qonunchiligida belgilangan darajada harakat qilishi belgilangan [10].

S. Rouzning ta’kidlashicha, ushbu konvensiya xalqaro prokurorlar va sudyalardan farqli o‘laroq, ichki qonunchilikni amalga oshirish va ularni ijro etish bo‘yicha davlatlararo hamkorlikka asoslanadi [11].

2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi konvensiyasining 54-moddasi 1-bandi “a” kichik bandida ishtirokchi davlatlar o‘z vakolatli organlariga boshqa ishtirokchi davlat sudlari tomonidan chiqarilgan musodara qilish to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etish uchun zarur choralar ko‘rish vakolatini beradi [12]. Frensis Desterbek va Delfin Shantslar mol-mulkni musodara qilish bo‘yicha davlatlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishdan oldin konvensiya doirasida muzlatish va olib qo‘yish kabi tizimlarni yaratish zarurligini ta’kidlaganlar [13]. A. Volevodzning fikriga ko‘ra, “huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi qonun xorijiy davlat sudlarining mulkni musodara qilish to‘g‘risidagi hukm (qaror)larini ijro etish imkoniyatini nazarda tutadi” [14]. A. Urusov esa “musodara qilish uchun yangi ish qo‘zg‘atishdan ko‘ra, odatda, xorijiy davlat sud qarorlarini ijro etish afzalroqdir”, deb ta’kidlagan [15].

Mazkur sohada davlatlararo xalqaro hamkorlik ularning sudlari tomonidan musodara qilish to‘g‘risida chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etish imkonini beradi. Shu bilan birga, hukm (qaror) aniq va yakuniy (res judicata), ya’ni qonuniy kuchga kirgan bo‘lishi lozim. Jinoiy yo‘l bilan olingan daromad, mol-mulk yoki boshqa vositalarni musodara qilish tartibiga oid qoidalar Albaniya jinoyat kodeksining 36-moddasi [16], Germaniya jinoyat kodeksining 73-moddasi [17] va Polsha jinoyat kodeksining 44-moddasida [18] keltirilgan.

Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish sohasida davlatlararo hamkorlikni amalga oshirishning asosiy sabablaridan biri sifatida davlatlarning milliy manfaatlarini himoya qilishga intilishi, jumladan, shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini o‘z hududidan tashqarida ham himoya qilish istagini ko‘rsatish mumkin. Har bir suveren davlat o‘z hududidagi nizolar bo‘yicha xorijiy hukm (qaror)larni tan olish va ijro etish imkoniyati, mezonlari, chegaralari hamda tartibini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega. XX asr oxirlariga kelib, mazkur sohani tartibga soluvchi mintaqaviy shartnomalarning roli ortib borayotganligi qayd etilishi lozim. Xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (keyingi o‘rinlarda – MDH) doirasida 1993-yil 22-yanvarda “Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi konvensiya (keyingi o‘rinlarda – Minsk konvensiyasi) qabul qilingan [19].

B. Voljenkinaning ta’kidlashicha, xalqaro shartnomalarni tuzishda davlatlar huquqiy yordam turlari va ularni amalga oshirish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi [20].

M.Davidova esa “bir davlat sudlari tomonidan boshqa davlat sudlari yoki vakolatli organlarining muayyan bir protsessual harakatlar yuzasidan so‘rovlarini amalga oshirishi keng ma’noda huquqiy yordam ko‘rsatish”, deya o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan [21, 18-b.]. F. Fayziyevning fikricha, jinoyat ishlari bo‘yicha sud hukmlarini ijro etish huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarda belgilab qo‘yilgan [22, 23-b.].

Mazkur konvensiyaning 6-moddasida “... hukmni ijro etish uchun topshirish” [19] va “...hukmlarning fuqaroviy da’voga oid qismi” [19] hamda 51-moddasi 1-qismi “b” bandida “jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarning zararni qoplash to‘g‘risidagi qarorlari”ni [19] tan olish va ijroga qaratish bo‘yicha ishtirokchi davlatlar o‘zaro hamkorlikni amalga oshirishi belgilangan.

Minsk konvensiyasi MDHga a’zo davlatlarning sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni tan olish va ijro etishni ta’minlash uchun huquqiy asos yaratdi, deyish mumkin. O.V. Panyushkinaning ta’kidlashicha, Minsk konvensiyasining asosiy kamchiliklaridan biri unga a’zo davlatlarning jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukm (qaror)larni tan olishdagi muammolar edi [23].

MDH doirasida 2002-yil 7-oktabrda “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi konvensiya (keyingi o‘rinlarda – Kishinev konvensiyasi) qabul qilindi [24]. Minsk konvensiyasida yuzaga kelgan kamchiliklar hisobga olinib, Kishinev konvensiyasining 6-moddasiga “...hukmlarni tan olish va ijro etish yo‘li bilan o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatadilar”, degan aniq normalar kiritildi [24].

Shuningdek, Minsk konvensiyasidan farqli o‘laroq, Kishinev konvensiyasida ishtirokchi davlatlarning jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olish va ijro etish bo‘yicha yangi normalar belgilandi. Xususan, mazkur konvensiyada zararni qoplash, jarimalarni undirish hamda musodara qilish masalalari (54-modda, “b” bandi) alohida ko‘rsatildi [24]. Ushbu qoidalarning kiritilishi sudlanuvchilarga jabrlanuvchilarga jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplash hamda so‘ragan davlat sudining qonuniy kuchga kirgan hukmi asosida musodara qilish jarayonini amalga oshirish imkonini beradi.

Kishinev konvensiyasining qabul qilinishidan asosiy maqsad jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatishni tartibga solishda davlatlararo xalqaro hamkorlikni amalga oshirish edi. Xususan, ishtirokchi davlatlarning jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olish va ijro etishga oid qoidalarni belgilab berdi. Konvensiyaning 110- va 111-moddalariga ko‘ra, hukmlarni tan olish va ijro etish quyidagi asoslar va tartibda amalga oshirilishi belgilangan [24].

Kishinev konvensiyasi hukmlarni tan olish va ijro etishni rad etish bo‘yicha qoidalarni ham o‘z ichiga oladi. Jumladan, sud qarorining davlat suvereniteti yoki xavfsizligiga zarar yetkazishi, shuningdek, qonunchilikka zid bo‘lishi (21-modda) [24] holatlarida rad etish mumkin. Shuningdek, hukm sirtdan chiqarilgan bo‘lsa; shaxs sodir etgan qilmishi uchun jazolangan, oqlangan yoki jinoyat ishi qonunda belgilangan tartibda tugatilgan bo‘lsa; sodir etilgan jinoyat boshqa davlat qonunchiligida jinoyat sifatida tan olinmasa; yoki shaxsni irqi, jinsi, diniy e’tiqodi, etnik mansubligi yoki siyosiy qarashlari sababli ta’qib qilish holatlarida ham hukmni tan olish rad etilishi mumkin (112-modda) [24].

Yuqoridagi qoidalar xorijiy davlat sud hukmlarini tan olish va ijro etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda har bir davlat hududida hukm (qaror)larning adolatsiz qo‘llanishining oldini olish, inson huquqlarini himoya qilish hamda davlat suverenitetini hurmat qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalarga nazar soladigan bo‘lsak, xorijiy davlat sud hukmlarini tan olish

va ijro etish bo‘yicha qoidalarni ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi jinoiy ishlar bo‘yicha xorijiy davlat sudlari hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha imzolagan shartnomalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni o‘tashni davom ettirishni tartibga soluvchi shartnomalar va 2) huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar bo‘yicha shartnomalar.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni o‘tashni davom ettirishni tartibga soluvchi shartnomalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, masalan, O‘zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o‘rtasida 1997-yil 18-iyundagi [25], shuningdek, Qozog‘iston Respublikasi bilan 2021-yil 6-dekabrdagi [26] shartnomalarda belgilangan qoidalarga ko‘ra, ushbu shartnomalar doirasida xorijiy davlat sudi tomonidan chiqarilgan hukmlarni tan olish va ijro etish davlatlararo o‘zaro rozilik asosida quyidagi shartlarga muvofiq amalga oshiriladi:

– shaxs fuqarosi bo‘lsa yoki o‘sha davlatda doimiy yashash joyiga ega bo‘lsa;

– mahkum yoki uning qonuniy vakili ariza bergan bo‘lsa;

– hukm qonuniy kuchga kirgan bo‘lsa;

– qilmish tan oluvchi davlat qonunchiligiga muvofiq jinoyat deb topilgan bo‘lsa;

– jinoyat natijasida yetkazilgan zarar undirilgan bo‘lishi yoki jazoga kamida Ozarbayjon Respublikasi bilan olti oy, Qozog‘iston Respublikasi bilan esa kamida bir yil muddat tayinlangan bo‘lsa.

Jinoyat ishlari bo‘yicha xorijiy davlat sudlari tomonidan jinoyat sodir etish natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashga oid hukmlarni tan olish va ijro etish tartiblari O‘zbekiston Respublikasining huquqiy yordam va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarida belgilangan. Xususan, “Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risida”gi, 1997-yil 2-iyunda O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida imzolangan shartnomaning 52-moddasi 1-qismi “b” bandida [27] hamda Chexiya Respublikasi bilan 2002-yil 18-yanvarda tuzilgan shartnomaning 50-moddasi 1-qismi 2-bandida [28] ushbu tartibga oid qoidalar ko‘rsatilgan.

Rossiyalik olim I. Lukashukning fikriga ko‘ra, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipiga muvofiq, davlatlar qonunlar va boshqa qoidalarni qabul qilish kabi suveren huquqlarini amalga oshirayotganda, o‘z xalqaro huquqiy majburiyatlarini hisobga olishi shart [29]. Nemis olimlari Karolina fon Gall va Liza Kuyuslat ta’kidlaganidek, xalqaro shartnoma normalari tegishli qonunlar orqali implementatsiya qilinib, oddiy qonun maqomini oladi. Shundan keyin ular Germaniya sudlari tomonidan ichki huquqning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi va qo‘llanadi [30]. O‘zbekistonlik olim G. Yuldashevaning qayd etishicha, “O‘zbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlariga so‘zsiz rioya qilish mamlakatimiz sudlarining eng muhim vazifalaridan biridir” [31, 41-b.].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi ham xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi sifatida ushbu jarayonlardan chetda qolmay, xalqaro shartnomalar doirasida olgan majburiyatlarini bajarishda xalqaro shartnomalarga belgilangan qoidalarni o‘z milliy qonunchiligida aks ettirib kelmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 66-bobida xorijiy davlat sudining hukmi (qarori)ni tan olish va ijroga qaratish bo‘yicha normalar belgilangan. Jumladan, mazkur kodeksning 610-moddasiga ko‘ra, faqatgina xorijiy davlat jinoyat ishlari bo‘yicha sudi tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan yoki ruhiy holatining buzilishi natijasida xorijiy davlat sudi tomonidan tibbiy majburlov chorasi qo‘llashga oid qarorini tan olish va ijro etish bo‘yicha xalqaro hamkorlik amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu qoidalar faqat xorijiy davlat jinoyat sudining ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan hukmlarini tan olish

va ijroga qaratish bilan bog‘liq masalalarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida tahlil qilingan universal xalqaro shartnomalarga muvofiq, xorijiy davlat sudlarining hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha belgilangan normalardan kelib chiqib, jinoiy yo‘l bilan olingan daromad, mol-mulk va boshqa materiallarni (giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni) musodara qilishning ikkita usulini ajratish mumkin.

Birinchi usul – ishtirokchi davlat sudidan qaror olish: so‘ragan tomon (yordam so‘ragan davlat) so‘ralayotgan tomon (yordam ko‘rsatuvchi davlat) sudiga ushbu davlat qonunchiligida talab etilgan barcha zarur hujjatlar va dalillarni taqdim etgan holda, musodara qilish bo‘yicha hukm (qaror) olish uchun murojaat qiladi. Qaror chiqarilgach, uning ijrosini ta’minlash maqsadida so‘ralayotgan davlatning vakolatli organlariga murojaat qilinadi.

Ikkinchi usul – ishtirokchi davlat sudining qarorini ijroga qaratish: so‘ragan tomon sudlari muayyan jinoyat ishi bo‘yicha jinoiy yo‘l bilan olingan daromad, mol-mulk hamda boshqa materiallarni (masalan, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni) musodara qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi. Agar mazkur qarorda ko‘rsatilgan aktivlar so‘ralayotgan davlat hududida joylashgan bo‘lsa, so‘ragan tomon so‘ralayotgan davlatning vakolatli organlariga ushbu qarorni ijro etish uchun so‘rov yuboradi. Ba’zi hollarda so‘ralayotgan davlat sudlari mazkur qarorni tan olish masalasini milliy qonunchiligida belgilangan qoidalarga muvofiq tekshirish huquqiga ega bo‘lishi mumkin.

Ikkala usulda ham so‘ragan va so‘ralayotgan tomonlarning milliy qonunlariga rioya qilish talab qilinadi. Xorijiy davlat hukm (qaror)larini tan olish va ijro qilish bo‘yicha davlatlararo so‘rovlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida davlatlar o‘rtasidagi o‘rnatilgan xalqaro hamkorlik asosiy rol o‘ynaydi.

Shuningdek, xorijiy davlat sudlarining hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha mintaqaviy va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda protsessual qoidalar belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:

Birinchidan, hukmni tan olish va ijro etish bo‘yicha iltimosnoma taqdim etiladi. Mazkur iltimosnoma vakolatli sudlar tomonidan milliy qonunchilik normalariga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

Ikkinchidan, hukmning qonuniy kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat. Sudlanuvchi yoki mahkum haqida ma’lumot hamda hukmda belgilangan qilmishning jinoyat ekanligini tasdiqlovchi qonun moddalari matni.

Uchinchidan, bir jinoyat uchun ikki marta jazo tayinlanishiga (ne bis in idem) yo‘l qo‘ymaslik va adolatni ta’minlash maqsadida mahkumning avval o‘tagan jazo muddati inobatga olinadi. Shuningdek, ishtirokchi davlat sudi tomonidan xorijiy davlat sudi hukmini tan olish va ijro etish to‘g‘risida qaror qabul qilishda o‘z milliy qonunchiligida belgilangan qoidalarni inobatga olgan holda, bunday qilmish uchun tayinlanadigan jazoni belgilaydi.

To‘rtinchidan, agar ishtirokchi davlat qonunchiligida ushbu qilmish uchun belgilangan eng yuqori jazo hukmda ko‘rsatilganidan kam bo‘lsa, sud qonunchilikda nazarda tutilgan maksimal jazoni belgilaydi.

Xulosalar

Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish masalasi bugungi globallashuv sharoitida xalqaro huquqiy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi kuzatilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, jinoiy ishlar bo‘yicha xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etishga doir davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda universal xalqaro shartnomalar daromad, mol-mulk va boshqa materiallarni musodara qilish bo‘yicha umumiy majburiyatlarni belgilovchi normalarni o‘zida aks ettirgan. Biroq ushbu shartnomalar aniq protsessual qoidalarni nazarda tutmagani sababli ularni qo‘llashda, asosan, ish-

tirokchi davlatlarning milliy qonunchiligiga tayaniladi.

Mintaqaviy shartnomalar, xususan, Minsk va Kishinev konvensiyalarida jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukm (qaror)larni tan olish va ijro etish to‘g‘risidagi qoidalar hamda ularga qo‘yiladigan talablar belgilangan. Kishinev konvensiyasi avvalgi hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etgan holda, jarima, zararlarni qoplash va musodara bo‘yicha davlatlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni o‘zida aks ettirgan.

Ikki tomonlama xalqaro shartnomalar, odatda, ma’lum bir sohaga yo‘naltirilganligi va hududiy ta’sir doirasining chegaralanganligi bilan ajralib turadi. Xorijiy davlat sud hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha mintaqaviy hamda ikki tomonlama shartnomalarning universal xalqaro shartnomalardan o‘ziga xos jihati shundaki, ular mazkur jarayonni tartibga soluvchi protsessual qoidalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi yuqorida sanab o‘tilgan bir qator xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi ekanligini hisobga olgan holda, xorijiy davlat sudi tomonidan ozodlikdan mahrum qilish yoki tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasi qo‘llash bo‘yicha chiqarilgan qarorlardan tashqari, jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlar yoki boshqa turdagi jazo choralarini qo‘llash bo‘yicha xorijiy davlat jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan hukm (qaror)larni tan olish va ijro etishga doir xalqaro huquq normalarini O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligida aks ettirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, universal, mintaqaviy hamda ikki tomonlama shartnomalar xorijiy davlat sudlari hukm (qaror)larini tan olish va ijro etish bo‘yicha davlatlararo munosabatlarni tartibga solish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Bunday huquqiy asoslar nafaqat davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, balki inson huquqlari va odil sudlovni xalqaro miqyosda ta’minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. World Justice Challenge 2024: The Rule of Law: Foundation of Democracy. Available at: https://worldjusticeproject.org/world-justice-challenge/world-justice-challenge-2024-rule-law-foundation-democracy

2. Aebi M.F., Cocco E., Molnar L. Prisons and Prisoners in Europe 2023: Key Findings of the SPACE I survey. Available at: https://wp.unil.ch/space/files/2024/12/SPACE_I_2023_Key_Findings.pdf

3. WJP Rule of Law Index 2024 Global Press Release, 2024. Available at: https://worldjusticeproject.org/news/wjp-rule-law-index-2024-global-press-release?utm_source=chatgpt.com

4. Marysheva N.I., Shchukin A.I. Inostrannoye sudebnoye resheniye kak ob”yekt priznaniya i privedeniya v ispolneniye v Rossii [Foreign Court Decision as an Object of Recognition and Enforcement in Russia]. *Law. Journal of the Higher School of Economics*, 2020, vol. 2, pp. 45–83.

5. Khabriyeva T.YA. Mezhdunarodnoye sotrudnichestvo v oblasti priznaniya i ispolneniya inostrannykh sudebnykh resheniy [International cooperation in the field of recognition and enforcement of foreign judgments]. *Journal of Russian Law*, 2006, vol. 8(116), pp. 4–6.

6. Tursunov X.M. Xalqaro huquq normalarini sudlarda qo‘llash muammolari [Problems of applying international law in courts]. Tashkent, 2011, p. 72.

7. Nizamedinxodjayev U.R. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik [International cooperation in combating crime]. Tashkent, 2020, p. 19.

8. Mirhamidova M.N., Kadirova N.R., Xamdamova Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi qonunining qo‘llanilishi [Application of the Law of the Republic of Uzbekistan on International Treaties]. Tashkent, JIDU Publ., 2024, pp. 48, 176.

9. Commentary on the United Nations Convention against Illicit Traffic in Narcotic Drugs and Psychotropic Substances. 1988, pp. 108, 114–115. Available at: https://www.unodc.org/documents/treaties/organized_crime/Drug%20Convention/Commentary_on_the_United_Nations_Convention_1988_R.pdf

10. United Nations Convention against Transnational Organized Crime. Adopted by General Assembly resolution 55/25. 2000. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml

11. Rose C. Enforcing the ‘community interest’in combating transnational crimes: the potential for public interest litigation. *Netherlands International Law Review*, 2022, vol. 69(1), pp. 57–82.

12. Adopted by General Assembly resolution 58/4. United Nations Convention against Corruption, 2003. Available at: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml

13. Francis D., Delphine S. Asset Recovery in the UNCAC Convention: Possibilities and Limitations. The European Criminal Law Associations‘ Forum. Available at: https://eucrim.eu/articles/asset-recovery-uncac-convention-possibilities-and-limitations/#docx-to-html-fnref2

14. Volevodz A.G. Pravovoye regulirovaniye deyatel’nosti pravookhranitel’nykh organov gosudarstv romano-germanskoy sistemy kontinental’nogo prava po okazaniyu mezhdunarodnoy pravovoy pomoshchi v rozyske, areste i konfiskatsii denezhnykh sredstv i imushchestva, poluchennykh prestupnym putyom [Legal regulation of the activities of law enforcement agencies of states of the Romano-Germanic system of continental law in providing international legal assistance in the search, seizure and confiscation of funds and property obtained by criminal means]. *FRG Russian Investigator*, 1999, vol. 2, no. 6, pp. 59–64.

15. Urusov A.A. Mezhdunarodno-pravovoye regulirovaniye sotrudnichestva v sfere priznaniya i ispolneniya prigovorov (resheniy) sudov inostrannykh gosudarstv [International legal regulation of cooperation in the field of recognition and enforcement of sentences (decisions) of courts of foreign states]. *Bulletin of the Academy of the Investigative Committee of the Russian Federation*, 2023,

vol. 4(38), pp. 193–203. DOI: 10.54217/2588-0136.2023.38.4.024.

16. Criminal code of the Republic of Albania. Available at: https://euralius.eu/index.php/en/library/albanian-legislation?task=download.send&id=11&catid=10&m=0

17. German Criminal Code. Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html

18. Penal Code. Prepared on the basis of: consolidated text Journal of Laws of 2024. Available at: https://isap.sejm.gov.pl/isap.nsf/download.xsp/WDU19970880553/U/D19970553Lj.pdf

19. Konventsii o pravovoy pomoshchi i pravovykh otnosheniyakh po grazhdanskim, semeynym i ugolovnym delam [Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters]. Minsk, 1993.

20. Volzhenkina V.M. *Primeneniye norm mezhdunarodnogo prava v rossiyskom ugolovnom protsesse* [Application of international law norms in Russian criminal proceedings]. St. Petersburg, 1997, p. 88. Available at: https://www.procuror.spb.ru/izdanija/1997_02_03.pdf

21. Davydova M.V. *Osushchestvleniye vzaimnoy pravovoy pomoshchi po ugolovnym delam* [Implementation of mutual legal assistance in criminal matters]. Irkutsk, Irkutsk Law Institute (branch) of the Academy of the Prosecutor General’s Office of the Russian Federation Publ., 2017, p. 18.

22. Fayziyev F.M. Mezhdunarodno-pravovoye regulirovaniye otnosheniy mezhdu gosudarstvami po okazaniyu pravovoy pomoshchi [International legal regulation of relations between states on the provision of legal assistance]. Tashkent, 2007, p. 23.

23. Panyushkina O.V. Mezhdunarodno-pravovyye normy, reguliruyushchiye priznaniye i ispolneniye prigovorov inostrannykh sudov [International legal norms governing the recognition

and enforcement of foreign judgments]. *Bulletin of Voronezh State University, Series: Law*, 2008, vol. 1, pp. 344–354.

24. Konventsii o pravovoy pomoshchi i pravovykh otnosheniyakh po grazhdanskim, semeynym i ugolovnym delam [Convention on Legal Assistance and Legal Relations in Civil, Family and Criminal Matters]. Kishinev, 2002.

25. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni o‘tashni davom ettirish uchun o‘tkazish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi va Ozarbayjon Respublikasi o‘rtasidagi shartnoma [Agreement between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Azerbaijan on the transfer of persons deprived of their liberty to continue serving their sentences]. 1997.

26. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni jazoni o‘tashni davom ettirish uchun topshirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasidagi shartnoma [Agreement between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan on the transfer of persons deprived of their liberty for the purpose of continuing to serve their sentence]. 2021.

27. O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi shartnoma [Agreement between the Republic of Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan on legal assistance and legal relations in civil, family and criminal matters]. Almata, 1997.

28. O‘zbekiston Respublikasi bilan Chexiya Respublikasi o‘rtasida Fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi shartnoma [Agreement between the Republic of Uzbekistan and the Czech Republic on legal assistance and legal relations in civil and criminal matters]. Tashkent, 2002.

29. Lukashuk I.I. Normy mezhdunarodnogo prava v pravovoy sisteme Rossii [Norms of international law in the legal system of Russia]. Moscow, Spark Publ., 1997, p. 10.

30. Karolin F.G., Kuyus L. Primeneniye mezhdunarodnogo prava sudami Germanii [Application of international law by German courts]. *Comparative Constitutional Review*, 2017, vol. 6(121), pp. 78–86.

31. Yuldasheva G. Xalqaro huquq normalarining O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tomonidan qo‘llanilishi [Application of international law by the judicial system of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL Publ., 2004, p. 15.

Kelib tushgan / Получено / Received: 24.04.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./HBAK1422
UDC: 339.543:[343.352+328.185](045)(575.1)

BOJXONA ORGANLARINI KORRUPSIYASIZ SOHAGA AYLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Yuldashev Maqsud Mamasoliyevich,
Bojxona qo‘mitasi Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi xodimi,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0009-6767-4070
e-mail: Uzsammax@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslari va amaliy samaradorligi, bugungi keng tarqalgan xalqaro tajriba, xususan, G20 mamlakatlari, BMT konvensiyalari va komplayens-nazorat tizimining afzalliklari o‘rganilgan. Muallif AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Qozog‘iston va Sloveniya kabi davlatlarning bojxona sohasida korrupsiyaga qarshi samarali modullarini tahlil qilgan. Ushbu davlatlarning tanlab olinishida tadqiqotchi tomonidan so‘nggi yillarda Bojxona qo‘mitasi rahbariyatining tashrif buyurayotgan davlatlar va hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bojxona ma’muriyatlarining ilg‘or natijalariga tayanilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–122-son Farmoni asosida qabul qilingan “Bojxona organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirish” dasturidagi 40 ta chora-tadbir va ularning ijro holati baholangan. Mazkur chora-tadbirlarning baholanishida intervyu va ekspertlar fikri usullaridan keng foydalanilgan. Amaliyotdagi korrupsiyaviy holatlar misollariga tayangan holda, mavjud tizimning kamchiliklari aniqlangan. Tadqiqot davomida aynan muayyan bir sohani to‘liq tavsif etuvchi qonunchilik hujjatlarini qabul qilinishida yo‘l qo‘yilgan e’tiborsizlik natijasida kuch va vositalar sarfida samarasizlik yuzaga kelganligi bo‘yicha aniq tahlillar keltirib o‘tilgan. Asosiy muammo sifatida tadqiqotchi tomonidan bojxona organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirishda boshqa sohalarda bo‘lganligi kabi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi darajasida kompleks yondashuvning yo‘qligi, faqat ichki buyruqlar bilan cheklanib qolinishi va tashqi omillarga e’tibor berilmasligi ko‘rsatilgan. Xulosada bojxona sohasini korrupsiyadan holi qilish uchun milliy dastur qabul qilish, aniq mezonlar belgilash va xalqaro standartlarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *bojxona, korrupsiya, komplayens-nazorat, milliy kengash, milliy ma’ruza, qonunchilik tahlili, korrupsiyasiz soha, qarshi kurashish modeli*

ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОСНОВ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ ТАМОЖЕННЫХ ОРГАНОВ В СФЕРУ, СВОБОДНУЮ ОТ КОРРУПЦИИ

Юлдашев Максуд Мамасолиевич,
самостоятельный соискатель Правоохранительной
академии Республики Узбекистан
сотрудник Управления внутренней безопасности
таможенного комитета

Аннотация. *В статье рассмотрены правовые основы и практическая эффективность проводимых в Республике Узбекистан реформ, направленных на превращение таможенных органов в сферу, свободную от коррупции. Исследуется международный опыт, в частности практика стран G20, положения конвенций ООН и преимущества системы комплаенс-контроля. Автор анализирует успешные антикоррупционные модели в таможенной сфере таких стран, как США, Великобритания, Сингапур, Казахстан и Словения. Выбор указанных государств обоснован тем, что в последние годы руководство Таможенного комитета Узбекистана активно налаживало сотрудничество именно с этими странами. Особое внимание уделено анализу реализации 40 мероприятий, предусмотренных Программой преобразования таможенных органов в систему, свободную от коррупции, утверждённой на основе Указа Президента Республики Узбекистан от 27 апреля 2022 года № УП–122. В процессе оценки использовались методы интервью и экспертного опроса. На основе конкретных примеров из практики выявлены недостатки существующей системы. Отмечается, что из-за отсутствия комплексного подхода на уровне Национального совета по борьбе с коррупцией, как это имеется в других сферах, реализация программ ограничивается внутренними приказами, при этом внешние факторы остаются без должного внимания. В статье также проанализированы случаи неэффективного использования ресурсов, вызванного принятием нормативных актов без всестороннего анализа сектора. В заключение представлены рекомендации по принятию национальной программы по борьбе с коррупцией в таможенной сфере с определением чётких критериев и внедрением международных стандартов.*

Ключевые слова: *таможня, коррупция, комплаенс-контроль, Национальный совет, национальный доклад, правовой анализ, безкоррупционная сфера, модель противодействия коррупции*

ANALYSIS OF THE LEGAL BASIS FOR TRANSFORMING CUSTOMS AUTHORITIES INTO A CORRUPTION-FREE SPHERE

Yuldashev Maqsud Mamasoliyevich,
Officer of the Personal Security Department
of the Customs Committee,
Independent researcher at the Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *The article examines the legal basis and practical effectiveness of the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan to transform customs authorities into a corruption-free sphere, current widespread international experience, in particular, the advantages of the G20 countries, UN conventions, and the compliance control system. The author analyzed effective anti-corruption modules in the customs sphere of such countries as the USA, Great Britain, Singapore, Kazakhstan, and Slovenia. In the selection of these countries, the researcher relied on the advanced results of the leadership of the Customs Committee of the visiting countries and the customs administrations with which cooperation has been established in recent years. Also, 40 measures and the state of their implementation in the program "Transformation of Customs Authorities into a Corruption-Free System," adopted on the basis of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-122 dated April 27, 2022 "On Additional Measures for Further Improvement of Customs Administration," were assessed. Interviews and expert opinion methods were widely used in the assessment of these measures. Based on examples of corruption cases in practice, the shortcomings of the existing system were identified. During the study, specific analyses were presented on the inefficiency in the expenditure of forces and resources as a result of negligence in the adoption of legislative acts that fully characterize a particular sphere. As the main problem, the researcher points to the lack of a comprehensive approach at the level of the National Anti-Corruption Council in transforming customs authorities into a corruption-free system, as*

in other areas, limiting it only to internal orders and ignoring external factors. The conclusion provides recommendations for the adoption of a national program to eradicate corruption in the customs sphere, the establishment of specific criteria, and the implementation of international standards.

Keywords: *customs, corruption, compliance control, National Council, national report, legal analysis, corruption-free sphere, counteraction model*

Kirish

Har qanday davlatning xavfsizligiga tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lganligi uchun korrupsiya umumbashariy muammolardan biri hisoblanadi. Dunyo davlatlarining barchasida korrupsiyani salbiy ta’sirining oldini olish va uning xavfsizlikka tahdidiga qarshi kurashish bo‘yicha strategik rejalar qabul qilingan.

Korrupsiyaning xalqaro hamjamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham doimiy ta’kidlab kelinmoqda. Xususan, Davlat rahbari korrupsiyaning dunyo miqyosidagi zararini 3 trillion AQSh dollariga yaqin miqdorda ekanligini bildirib, haqiqiy holatni va korrupsiya natijasida ko‘rilayotgan zararning aniq hajmini to‘liq ifoda etib bo‘lmasligini ma’lum qilgan.

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy tajribasida korrupsiya eng ko‘p uchraydigan davlat tashkilotlarida “korrupsiyasiz soha”ga aylantirish bo‘yicha alohida chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tajribani O‘zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish modellaridan biri sifatida baholash mumkin. Xalqaro amaliyotda barcha sohalar uchun bir xilda qarshi kurashish usullarining qo‘llanishi yetarlicha samara bermaganligi sababli, sohalarni xavf darajalariga bo‘lgan holda ularning xususiyatidan kelib chiqib xatti-harakat qilishni risk-tahlil, xavfni boshqarish kabi turli nomlar bilan atash mumkin. Milliy tajribadagi “korrupsiyasiz soha” tushunchasi va mohiyatini ham aynan shunday deb ta’kidlash maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligiga 8 yildan ortiq vaqt o‘tdi. Ushbu muddat mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlari, 15 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Natijada yildan yilga ko‘plab sohalarda korrupsiyaviy holatlar aniqlanib, turli jinoiy usul va vositalar bilan talon-toroj qilingan davlat mulki o‘z o‘rniga qaytarilishiga erishilmoqda. Oliy ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida eng ko‘p korrupsiyaviy holatlar mavjudligi bayon etilib, dastlab ushbu sohalarni korrupsiyadan holi qilish bo‘yicha tizimli choralar belgilandi. Bugungi kunda korrupsiyadan holi qilishga alohida e’tibor qaratilayotgan shunday sohalardan biri bojxona tizimi hisoblanadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tomonidan amalga oshirilgan tahlillar deyarli barcha sohalarda ushbu illatni butunlay yo‘q qilib tashlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasiz bo‘lib borayotganligini, tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali qarshi kurashish usul va vositalarini takomillashtirish lozimligini ko‘rsatib qo‘ydi. Shu sababli, ushbu maqolada bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish maqsadida qabul qilingan normaviy-huquqiy hujjatlarning huquqiy tahlili va mavjud kamchiliklar keltirib o‘tilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari doimiy ravishda ilmiy tadqiqot olib borish uchun dolzarbligini yo‘qotmagan. Ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlarida korrupsiya va uni keltirib chiqaruvchi omillar, qarshi kurashish usul va vositalari bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Ushbu tadqiqot ishida aynan 2024-yil va 2025-yilning o‘tgan davrida o‘tkazilgan milliy va xorijiy tadqiqotlardan foydalanilgan.

Jumladan, Osaka universiteti (Yaponiya) professori Jozef Pozsgay-Alvares va Bolonya

universiteti (Italiya) tadqiqotchisi Oksana Husslar tomonidan “strategik korrupsiya” tushunchasi tadqiq qilinib, korrupsiyaning faqat ichki muammo emas, balki davlatlar tomonidan geosiyosiy maqsadlarga erishish uchun qo‘llanadigan vosita sifatida ham faoliyat ko‘rsatishi tahlil qilingan [1].

Shuningdek, “Between Immunity and Impunity: External Accountability of Political Elites for Transnational Crime” nomli kitobida Alabama universiteti professori Yuliya Zabelina siyosiy elitalarning xalqaro huquqiy immunitetdan foydalanib, transmilliy jinoyatlardan qanday qutulishlari va bu holatga qarshi qanday choralar ko‘rish mumkinligini tahlil qilgan [2].

Makkavilka Tello Bartolome, Kevin Fernandez va boshqalar korrupsiya va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi dinamik bog‘liqlikni o‘rganib chiqib, korrupsiyaning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tahlil qilishgan va bu sohadagi xalqaro aloqalarni ko‘rsatuvchi modellarni ishlab chiqishgan bo‘lsa, Nils Kyobis, Kristofer Starke va Iyad Raxvanlar tomonidan sun’iy intellektning korrupsiyaga qarshi kurashdagi imkoniyatlari va xavflari haqida tadqiqot olib borilib, AI texnologiyalarining davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlashdagi rolini tahlil qilishgan.

Lekin “korrupsiyasiz soha” tushunchasi nisbatan yangi atama hisoblanganligi sababli milliy tadqiqotchilar tomonidan bu borada ilmiy izlanishlar olib borilmagan va uni tashkil etishning huquqiy asoslari tahlil etilmagan.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot ishi bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirishning huquqiy asoslarini kompleks tahlil qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Tadqiqotning metodologik asosi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

Tadqiqot ishi *multidissiplinar yondashuv* asosida amalga oshirilgan bo‘lib, unda huquqshunoslik, davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar va kriminologiya sohalaridagi nazariy qoidalar uyg‘unlashtirilgan. Asosiy yondashuv sifatida qiyosiy-huquqiy tahlil metodi qo‘llangan.

Tadqiqot obyekti: O‘zbekiston Respublikasida bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish jarayoni va uning huquqiy tartibga solinishi.

Tadqiqot predmeti: Bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning normativ-huquqiy bazasi, xalqaro tajriba va amaliy samaradorlik ko‘rsatkichlari.

Qo‘llanilgan tahlil usullari:

Kontent-tahlil: barcha hujjatlardagi kalit atamalar va chora-tadbirlar taqsimlangan.

Strukturaviy tahlil: hujjatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va yo‘l berilgan farqlar aniqlangan.

Funksional tahlil: har bir hujjatning amaliy ta’siri baholangan.

Ivent-tahlil metodi: 2022–2024-yillar davomida bojxona tizimida ro‘y bergan korrupsiyaviy holatlar xronologik tartibda tahlil qilingan. Jumladan, Samarqand viloyati bojxona boshqarmasidagi 2024-yil iyun oyidagi hodisa batafsil o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalari

Tobora transmilliy tus olib borayotgan korrupsiya jinoyatiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati ortib bormoqda. Tadbirkorlik va iqtisodiy integratsiyaning samarali rivojlanishi sharoitida xalqaro munosabatlar subyektlari tomonidan o‘zaro munosabatlarda halollikni ta’minlashning asosiy sharti hisoblangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha turli darajada huquqiy va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishmoqda.

Bunda, turli darajada hamkorlikni rivojlantirish masalalarining dolzarbligi ortib bormoqda.

Xususan, rivojlangan davlatlardan iborat G20 tashkiloti tomonidan 2024-yil noyabr oyida o‘tkazilgan davlat rahbarlarining navbatdagi sammitida 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha harakatlar rejasi tasdiqlangan. Shuningdek, xususiy sektor vakillarini korrupsiyaga qarshi kurashishda halollikni

ta’minlash bo‘yicha qo‘shgan hissasi uchun rag‘batlantirish tamoyillari qabul qilingan.

G20 davlatlarining keyingi 3 yillikda korrupsiyaga qarshi kurashishda o‘z oldiga qo‘ygan rejalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Korrupsiya bilan bog‘liq ishlarda aktivlarni qaytarish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2. Benefitsiar egaligi shaffofligini ta’minlash va noqonuniy pul yuvishga qarshi kurashishni takomillashtirish.

3. Xorijdagi poraxo‘rlikka qarshi kurashish.

4. Raqamlashtirish orqali davlat idoralari faoliyatining shaffofligini ta’minlash.

5. Xususiy sektor faoliyatining shaffofligini ta’minlash.

BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 46-moddasida a’zo davlatlarning mas’ul tuzilmalari o‘rtasida bevosita hamkorlik qilinishi belgilangan. Shuningdek, 54-moddada konvensiyada nazarda tutilgan jinoyatlarni tergov qilishda keng ko‘lamli hamkorlik nazarda tutilgan.

Shunga ko‘ra, a’zo davlatlar uchun 2021-yilda Xalqaro huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha operativ tarmog‘i (Global Operational Network of Anti-Corruption Law Enforcement Authorities – GlobE Network) tashkil etilgan. Ushbu tarmoq sekretariati vazifasini BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi bajaradi.

Ma’lumki, korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida dunyo davlatlarining hamkorligini ta’minlash va birgalikdagi qarshi kurashish tizimini yaratish maqsadida xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiyaviy va majburiy tusdagi konvensiya, kelishuv, memorandum kabi huquqiy asoslar yaratib kelinmoqda. Shulardan biri Aktivlar haqidagi deklaratsiyalarni tekshirish uchun ma’lumot almashish to‘g‘risidagi xalqaro kelishuv bo‘lib, u 2021-yil mart oyida Mintaqaviy korrupsiyaga qarshi tashabbus tashkiloti ((Regional Anti-Corruption Initiative – RAI) tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu kelishuv qabul qilinganidan beri ilk bor 2024-yilga kelib Makedoniya tomonidan ratifikatsiya qilindi.

Shuningdek, bir qator rivojlangan davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yangi tajriba usullarining nazariy va amaliy ahamiyatini o‘rganish ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2012-yilda hukumat rahbari Si Szinpin tomonidan belgilangan islohotlar bo‘yicha turli yo‘nalishda tadqiqotlar o‘tkazib kelishmoqda. Shunday tadqiqotlardan biri 2024-yil yakunida tadqiqotchilar Syun Li (Xun Li), Vensi Pan (Wensi Pan) va Gan Syuy (Gang Xu) tomonidan tayyorlangan “Yanada “kelishgan hukumat” Xitoyda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tadbirlarning xodimlar tana ko‘rinishiga ta’siri” nomli maqola hisoblanadi. Maqolada 2009-yilda Xitoy davlat xizmatchilarining 40 foizdan ortig‘i doimiy og‘ir vazndan aziyat chekkanligi, hozirgi kunda bu kabi holatlar kuzatilmayotganligi ma’lum qilingan.

Xalqaro tajribada keng qo‘llanadigan korrupsiyaga qarshi kurashish modellaridan biri “komplayens-nazorat” tizimini joriy etish hisoblanadi.

Bugungi kunda 100 dan ortiq mamlakatlardagi turli shakldagi korxona va kompaniyalarda korrupsiyaga qarshi “komplayens-nazorat” tizimi joriy etilgan. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Malayziya, Sloveniya, Qozog‘iston “komplayens-nazorat” tizimini o‘zida joriy etish bo‘yicha samarali tajribaga ega bo‘lgan davlatlardir.

Fransiyada 800 000 yevrodan oshiq kapitalga ega bo‘lgan davlat korxonlarida “komplayens-nazorat” tizimlarini joriy etgan bo‘lishlari shart.

Buyuk Britaniyaning 1 mlrd funt sterling kapitalga ega bo‘lgan 700 dan ortiq davlat ulushiga korxonalar tashkil etilgan ushbu tizim turli korrupsiya xavflaridan hi-

moya qiluvchi kompleks choralar sifatida qo‘llanmoqda.

Masalan, Qozog‘istonda qator sohalar, xususan, bank tizimida va barcha davlat ulushi bo‘lgan korxonalarda 2017-yildan boshlab, komplayens xizmatining joriy etilishi majburiy ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

– “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda komplayens xizmatini tartibga solish mexanizmlari kiritilgan;

– komplayens xizmatining joriy etishishi natijasida mamlakatning investitsion jozibadorligi oshishiga va xalqaro reytinglarda yuqorilashiga sabab bo‘ldi;

– tizimning samarali joriy etilishi “idoraviy halollik” shaklida amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Sloveniyaning amaliyotida bank sektorida komplayens xizmatining joriy etilishi natijasida davlat sektoriga kadrlarni tanlashda maksimal shaffof mexanizmlar o‘tishga imkon berdi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishning mukammal tizimi yaratilgan. Mazkur xizmat faoliyati alohida qonun (“Cloveniya davlat xoldingi akti to‘g‘risida”gi) bilan tartibga solinadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqotning kirish qismida ta’kidlanganidek, “korrupsiyasiz soha” atamasi korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan davlat tashkiloti va idoralarida qarshi kurashishning alohida usullarini joriy etish maqsadida amalga oshiriladigan kompleks choralarning umumiy nomlanishi hisoblanadi.

Bojxona organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirish g‘oyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbus bo‘lib, 2022-yil 17-fevral kuni bojxona organlari bilan videoselektr shaklida o‘tkazilgan uchrashuv asos bo‘lgan. Mazkur tashabbus asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-aprelda “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–122-son Farmoni qabul qilingan.

Farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad bojxona ma’muriyatchiligini yangi bosqichga olib chiqish, bojxona va yuk operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish orqali inson omilini keskin qisqartirish, bojxona sohasini ochiqlik, shaffoflik hamda ishonchlilik tamoyillari asosida korrupsiyadan holi tizimga aylantirish hisoblanadi. Shu sababli farmonning 4-ilovasi bilan “Bojxona organlarini korrupsiyadan holi tizimga aylantirish” Dasturi va 5-ilova bilan “Bojxona organlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, odob-axloq qoidalari va IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar bo‘yicha o‘quv kurslarda o‘qitish” reja-jadvali tasdiqlangan. Dasturda:

– bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish;

– kadrlar bilan ishlash va ularni ijtimoiy himoya qilish kabi ikki asosiy yo‘nalishda jami 40 ta chora-tadbirlar belgilangan.

Mazkur chora-tadbirlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, korrupsiyaga qarshi kurashishda xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash va qarshi kurashish tuzilmalar faoliyatini optimallashtirishga alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan tizimda korrupsiyaviy holatlarning mavjudligi qarshi kurashish usullarini yetarlicha samarador emasligini ko‘rsatadi. Jumladan, o‘tkazilgan tezkor tadbirlar davomida avtotransport vositalari ehtiyot qismlari savdosi bilan shug‘ullanuvchi MCHJning bojxona rasmiylashtiruvi bo‘yicha mutaxassisi mahalliy tadbirkor tomonidan 2024-yilning iyun oyida Turkiyadan olib kelingan, qiymati 850 mln so‘mlik tovar moddiy boyliklar uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat bojlarini bojxona idoralaridagi tanishlari orqali tez va arzon narxlarda bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirib berganligi evaziga 1300 AQSh dollari talab qilib, shundan 1100 AQSh dollarini olgan vaqtida, mazkur ishga aloqador bo‘lgan, Samarqand viloyati bojxona boshqar-

masiga qarashli bojxona postlaridan birining boshlig‘i ham 200 AQSh dollari olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlanganligi korrupsiyaga qarshi kurashish bevosita vazifasi hisoblangan rahbar kadrlarning haligacha ushbu illatdan qutulolmayotganligini bildiradi.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi, bojxona organlarini “korrupsiyasiz soha”ga aylantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar nima uchun samara bermay qolmoqda?

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5729-son Farmoniga asosan, 2019-yil 1-avgustdan boshlab eksperiment tariqasida kapital qurilish va oliy ta’lim sohalarida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish ishlari boshlangan. Shuningdek, 2021-yildan “Korrupsiyasiz soha” loyihasi sog‘liqni saqlash, davlat xaridlari va bank tizimida ham amalga oshirish bo‘yicha vazifalar belgilanib, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tomonidan har bir soha bo‘yicha alohida “Yo‘l xarita”lari tasdiqlangan.

Ta’kidlash joizki, “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish uchun mazkur sohalarning tanlab olinishiga asosiy sabab sifatida ularda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning yuqori ekanligi, korrupsiyaga oid jinoyatlar soni yildan yilga oshib borayotganligi hamda ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra aynan mazkur sohalarda eng ko‘p korrupsiya tarqalganligi inobatga olingan.

Ushbu sohalarda o‘tgan davr mobaynida yo‘l xaritalari va qonunchilik normalari asosida tizimli ishlar amalga oshirilib, raqamlashtirilganligi natijasida ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, 2023-yilda sog‘liqni saqlash tizimida aniqlangan korrupsiyaviy holatlar soni 299 tani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 85 taga kamaygan. Ushbu ko‘rsatkich banklarda mos ravishda 323 (381), oliy ta’limda 112 (187) tani tashkil etgan [3].

Bojxona organlarida ham amalga oshirilayotgan islohotlarning ko‘zlangan natijani berishini ta’minlashning dastlabki zaruriy sharti huquqiy asoslarni yaratish hisoblanishi tabiiy. Lekin Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi darajasida bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish maqsadida chora-tadbirlarni belgilanmaganligi va kompleks yondashuvni amalga oshirilmaganligi, soha bo‘yicha faqatgina bojxona organlarining hamkor tuzilmalari bilan qarshi kurashilganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, 2024-yil yakunlari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy ma’ruzadan ham bojxona organlarini “korrupsiyasiz soha”ga aylantirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar va ularning tahlili o‘rin olmaganligini ko‘rish mumkin.

2022–2025-yillar davomida bojxona organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish qabul qilingan ichki buyruqlarning soni va qamrovi qanchalik keng bo‘lmasin, ular sohani tartibga solish uchungina xizmat qiladi. Sohada korrupsiyani keltirib chiqaruvchi tashqi omillar ham mavjudligi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi darajasida normativ hujjatlarni qabul qilishni va ijrosini ta’minlash orqali uchinchi tomon mas’uliyatini oshirishni taqozo etadi.

Xulosalar

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish masalasining O‘zbekiston Respublikasi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Xalqaro tajribani o‘rganish natijasida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali modellari aniqlandi. G20 davlatlarining 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan harakatlar rejasi, BMTning GlobE Network tarmog‘i va “komplayens-nazorat” tizimining afzalliklari tahlil qilindi. AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Qozog‘iston va Sloveniya kabi mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatdiki, endilikda tizimli yondashuv va raqamlashtirish orqali korrupsiya darajasini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili qarama-qarshi natijalarni ko‘rsatdi. Bir tomondan, Prezidentning 2022-yilgi PF–122-son Farmoni asosida 40 ta chora-tadbir belgilanib, bojxona ma’muriyatchiligini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha muhim qadamlar tashlandi. Inson omilini keskin qisqartirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy etish bo‘yicha ishlar olib borildi. Boshqa tomondan, amaliyotda sodir bo‘layotgan korrupsiyaviy holatlar (masalan, Samarqand viloyati bojxona boshqarmasidagi hodisa) mavjud tizimning kamchiliklarini yaqqol ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida qator tizimli muammolar aniqlandi. Eng muhimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi darajasida bojxona organlari uchun kompleks dastur mavjud emasligi hisoblanadi. Sog‘liqni saqlash (299 holat, 85 taga kamayish), bank tizimi (323 holat) va oliy ta’lim (112 holat) kabi sohalarda erishilgan ijobiy natijalar bojxona tizimida kuzatilmagan. Buning asosiy sabablari faqat ichki buyruqlar bilan cheklanib qolinishi, tashqi omillarga yetarlicha e’tibor berilmasligi va aniq baholash mezonlarining yo‘qligidir.

Muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

birinchidan, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tomonidan bojxona organlari uchun alohida dastur ishlab chiqish va tasdiqlash zarur;

ikkinchidan, xalqaro standartlar asosida “komplayens-nazorat” tizimini joriy etish, korrupsiya xavfi yuqori lavozimlarda maxsus profilaktika mexanizmlarini yaratish lozim;

uchinchidan, natijalarni obyektiv baholash uchun aniq mezonlar va ko‘rsatkichlarni belgilash, tizimli monitoring va tashqi nazorat mexanizmlarini takomillashtirish kerak.

Xulosa o‘laroq, bojxona organlarini korrupsiyasiz sohaga aylantirish faqat ichki choralar bilan emas, balki xalqaro tajriba, ilmiy yondashuv va davlat dasturi asosida kompleks tizim sifatida amalga oshirilganda samarali natijalarga erishish mumkin. Bu jarayon O‘zbekistonning xalqaro reytinglarda o‘rnini mustahkamlash va investitsion jozibadorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Pozsgai-Alvarez J., Huss O. The meeting of two worlds: strategic corruption as an emerging concept in (anti-) corruption studies and international relations. *Contemporary Politics*, 2025, vol. 31, iss. 2, pp. 306–327. DOI: 10.1080/13569775.2024.2370695/ .

2. Zabyelina Y. Between Immunity and Impunity: External Accountability of Political Elites for Transnational Crime. Cambridge University Publ., 2023, p. 266. DOI: 10.1017/9781009086301

3. National report on combating corruption. Information and analytical information. Anti-Corruption Agency of the Republic of Uzbekistan, 2024, p. 70.

4. Ismailov B.I. Xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslar aktivlarini deklaratsiya qilish [Declaration of assets of officials in foreign countries]. B.I. Ismoilov (Ed.) Tashkent, Anti-Corruption Research and Training Center of the Academy of the Prosecutor General’s Office of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 6.

5. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari [Uzbekistan on the threshold of the 21st century: threats to security, conditions for stability and guarantees of development]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 1997, p. 86.

6. Tairova N.M. Korruptsiya kak sotsial’noye yavleniye: istoriko-filosofskiye i politologicheskiye aspekty mirovoy mysli i praktiki [Corruption as a social phenomenon: historical, philosophical and political aspects of world thought and practice]. *Management Consulting*, 2014, vol. 2, pp. 159–169.

7. Kuznetsova N.F., Min'kovskiy G.M. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, MSU Publ., 1994, p. 58.
8. Kairzhanov Ye.I. Prestupnost' – yavleniye sotsial'noye [Crime is a social phenomenon]. *Crime prevention*, 2003, vol. 1, p. 8.
9. Satarov G.A. Rossiya i korruptsiya: kto kogo? [Russia and corruption: who will win?]. *Russian Newspaper*, 1998, p. 2.
10. Tojiboyev K. Mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zgalar mulkini talon-toroj qilganlik uchun javobgarlik [Liability for plundering other people's property through abuse of official position]. Tashkent, TSIL Publ., 2004, p. 13.
11. Klitgaard R. Addressing corruption together. Paris: OECD Development Centre, 2015.
12. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A. The economic consequences of legal origins. *Journal of Economic Literature*, 2017, vol. 46(2), pp. 285–332.
13. Karimov A.N. O'zbekiston bojxona tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy masalalari [Legal issues of combating corruption in the customs system of Uzbekistan]. *Jurisprudence*, 2021, vol. 2, pp. 45–52.
14. Abdullayev B.M. Korrupsiyaga qarshi ekspertizaning metodologik asoslari [Methodological foundations of anti-corruption expertise]. *State and Law*, 2022, vol. 3, pp. 78–85.
15. Anti-corruption and Integrity in Customs: International Best Practices. OECD. Paris: OECD Publ., 2023.
16. Li X., Pan W., Xu G. A "Leaner" Government? The Effect of China's Anti-Corruption Campaign on the Body Weight and Health of Public Sector Employees, 2022. DOI: 10.2139/ssrn.4363161.

Kelib tushgan / Получено / Received: 01.05.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.06.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.06.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3./YJED4788
UDC: 34:304.444(045)(575.1)

IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR BILAN ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI: TOSHKENT VILOYATI VA TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA

Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi
ORCID: 0000-0002-8764-8090
e-mail: dilfuzakamol74@gmail.com

Shayakubov Shomansur Shakabilovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasi mudiri o'rinbosari,
tarix fanlari nomzodi
ORCID: 0000-0002-8764-8090
e-mail: sh.shayakubov77@gmail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 11-aprelda "Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan "Ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar muammolarini hal qilishga ko'maklashuvchi yuridik klinika faoliyatini yo'lga qo'yish" loyihasi doirasida tayyorlandi. Ushbu maqolada Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 16–21 yoshdagi ishtirokchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari asosida ijtimoiy xavf guruhiga mansub yoshlarning ruhiy-emotsional holati, jamiyatdagi o'rni va psixologik ehtiyojlari tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida yoshlarning stress, depressiya, ijtimoiy izolyatsiya, tushunmovchilik, qonunbuzarlikka moyillik, o'zini yolg'iz his qilish, psixologik yordamga ehtiyoj kabi ko'rsatkichlari atroflicha o'rganildi. So'rov natijalari yoshlarning katta qismi ijtimoiy faol muhitda bo'lishiga qaramasdan, ma'lum qismida ruhiy iztirob, e'tirof etilmaslik, qo'llab-quvvatlov yetishmasligi va ichki zo'riqishlar mavjudligini ko'rsatdi. Maqolada diagramma va foizli tahlillar orqali yoshlarning faoliyati, oilaviy munosabatlari, jamiyat bilan integratsiya darajasi, empatiya va kelajakka bo'lgan qarashlari xususida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, so'rov natijalari asosida yoshlar bilan ishlashda psixologik maslahat, individual yondashuv, profilaktik tadbirlar va huquqiy tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishga oid aniq tavsiyalar berilgan. Ushbu maqola ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlar bilan ishlashda amaliy qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin bo'lib, tegishli tashkilotlar, ta'lim muassasalari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari uchun muhim manba hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy xavf guruhi, ruhiy salomatlik, stress, depressiya, so'rovnoma, psixologik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy izolyatsiya, huquqiy xabardorlik*

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ РАБОТЫ С МОЛОДЁЖЬЮ, ОТНОСЯЩЕЙСЯ К ГРУППЕ СОЦИАЛЬНОГО РИСКА: НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА ТАШКЕНТА И ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

Джуманиязова Дильфуза Камаловна,
кандидат философских наук, доцент кафедры
«Общеобразовательные дисциплины и культура»
Ташкентского государственного юридического университета

Шаякубов Шомансур Шакабилович,
кандидат исторических наук, заместитель заведующего кафедрой
«Общеобразовательные дисциплины и культура»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *Настоящая статья подготовлена в рамках проекта «Организация деятельности юридической клиники по содействию решению проблем молодёжи, относящейся к группе социального риска», направленного на реализацию задач, поставленных на видеоселекторном совещании под руководством Президента Республики Узбекистан от 11 апреля 2023 года, посвящённом повышению эффективности государственной молодёжной политики и совершенствованию системы работы с молодёжью. В статье представлены результаты опроса молодёжи в возрасте от 16 до 21 года, проведённого в городе Ташкенте и Ташкентской области, на основе которого проанализировано психоэмоциональное состояние, положение в обществе и психологические потребности молодых людей, относящихся к группе социального риска. В рамках исследования подробно изучены такие показатели, как стресс, депрессия, социальная изоляция, недопонимание, склонность к правонарушениям, чувство одиночества и потребность в психологической помощи. Результаты опроса показали, что несмотря на вовлечённость большинства молодёжи в социально активную среду, у части респондентов наблюдаются внутренние напряжения, эмоциональные страдания, недостаток поддержки и отсутствие признания. С помощью диаграмм и процентного анализа статья даёт ясное представление об активности молодёжи, семейных отношениях, уровне интеграции в общество, эмпатии и взглядах на будущее. На основе полученных данных разработаны практические рекомендации по организации эффективной работы с молодёжью: психологическое консультирование, индивидуальный подход, профилактические мероприятия и правовое воспитание. Статья может служить практическим пособием при работе с молодёжью, относящейся к группе социального риска, и представляет собой важный ресурс для профильных организаций, образовательных учреждений и органов местного самоуправления.*

Ключевые слова: *группа социального риска, психическое здоровье, стресс, депрессия, анкетирование, психологическая поддержка, социальная изоляция, правовая осведомлённость*

ISSUES OF IMPROVING THE SYSTEM OF WORKING WITH YOUTH BELONGING TO SOCIALLY RISK GROUPS: ON THE EXAMPLE OF TASHKENT REGION AND THE CITY OF TASHKENT

Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna,
Associate Professor of the Department
of General Sciences and Culture,
Candidate of Philosophical Sciences

Shayakubov Shomansur Shakabilovich,
Associate Professor of the Department
of General Sciences and Culture,
Candidate of Historical Sciences

Abstract. *This article was prepared within the framework of the project "Establishing the Activities of a Legal Clinic to Assist in Solving the Problems of Youth Included in the Social Risk Group," aimed at ensuring the implementation of the tasks set at the videoconference meeting chaired by the President of the Republic of Uzbekistan on April 11, 2023, "Measures to Increase the Effectiveness of Work in the Field of Youth Policy and Further Improve the System of Working with Them." In this article, based on the results of a survey conducted among participants aged 16-21 in the city of Tashkent and Tashkent region, the psycho-emotional state, place in society, and psychological needs of young people belonging to the social risk group were analyzed. Within the framework of the study, such indicators of youth as stress, depression, social isolation, misunderstanding, propensity for delinquency, feeling lonely, and the need for psychological assistance were studied in detail. The survey results showed that, despite the fact that the majority of young people are in a socially active environment, a certain part of them have mental distress, lack of recognition, lack of support, and internal tension. In the article, through diagrams and percentage analyses, it is possible to get a clear picture of young people's activities, family relationships, level of integration with society, empathy, and views on the future. Also, based on the survey results, specific recommendations were given on the effective organization of psychological counseling, an individual approach, preventive measures, and legal education processes in working with youth. This article can be used as a practical guide in working with youth belonging to social risk groups and is an important resource for relevant organizations, educational institutions, and local self-government bodies.*

Keywords: *social risk group, mental health, stress, depression, survey, psychological support, social isolation, legal awareness*

Kirish

Bugungi kunda jamiyatning barqaror taraqqiyoti va kelajak avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazish masalasi eng ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlod va ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlarning ichki dunyosi, ruhiy holati, jamiyatdagi o‘rni va munosabatlar tizimini chuqur o‘rganish zarurati ortib bormoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlar bilan ishlashda faqat ma’rifiy va profilaktik tadbirlar emas, balki sotsiologik tahlillarga asoslangan ilmiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sotsiologik tadqiqotlar orqali yoshlarning ichki ehtiyojlari, ruhiy holati, faolligi, ijtimoiy munosabatlari hamda qiyinchiliklarga munosabati real statistik ma’lumotlar asosida ochib beriladi. Bu esa davlat va nodavlat tashkilotlari, ta’lim muassasalari hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1].

Uyushmagan yoshlar mehnatga layoqatli aholining katta qismini tashkil etadi. Shu bois ular bilan rejali ishlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Asosan 19–20 yoshdagilar faol, ijtimoiy munosabatlarga ehtiyoji baland yoshlardir. Lekin bugungi kunda ularning katta qismi ijtimoiy munosabatlardan chetda qolmoqda. Buni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev bir necha marta ochiq aytib, ular bilan ishlashni zamonaviy darajaga ko‘tarish vazifalarini belgiladi.

Uyushmagan yoshlar deb, ma’lum bir ixtisoslik yoki kasb-hunar bilan shug‘ullanmaydigan, aniq ish yoki o‘qish joyiga ega bo‘lmagan, ijtimoiy faol bo‘lmagan o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslarni aytish mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati IV qurultoyida: “Ular bilan hech kim deyarli shug‘ullanmayapti, ular o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, desak, achchiq haqiqatni tan olgan bo‘lamiz. Buning oqibatida uyushmagan, ya’ni ishlamaydigan, o‘qimaydigan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan, salbiy ta’sirlarga beriluvchi yoshlar soni ortib bormoqda”, – degan so‘zlari achchiq haqiqat ekanligi barchamizga ma’lum.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, asosiy kuch uyushmagan yoshlar ekanligini, ular bilan ko‘proq ishlash, milliy g‘oya ostida birlashtirish bugungi kun talabi bo‘lib qolmoqda.

Material va metodlar

Ushbu maqolada Toshkent shahri va Toshkent viloyati hududlaridagi yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – yoshlarning ijtimoiy-ruhiy holatini, ularning oilaviy munosabatlari, o‘zini jamiyatda tutuvchi shaxs sifatida qabul qilishi, stress va zo‘riqish holatlari, huquqiy xabardorlik darajasi hamda yordamga muhtojlik holatini o‘rganish va ularni ilmiy asosda tahlil qilishdan iboratdir.

Mazkur tahlil natijalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga qaratilgan islohotlar, jumladan, “Yoshlarga oid davlat siyosati”ni amalga oshirishning samaradorligini oshirishga, shuningdek, muammolarni ilmiy asosda hal etishga xizmat qiladi. Tahlil natijalari asosida maqolada aniq xulosalar va takliflar taqdim etiladi.

Tadqiqot natijalari



1-rasm. Respondentlar yoshi

1-rasm respondentlarning yosh taqsimotini ko‘rsatadi. Rasmda yosh toifalari, soni (aniq qiymatlar) va foizlar (% ifodasida) hamda sonlar tendensiyasida ko‘rsatilgan. Respondentlarning aksariyat qismini 17 yoshdagilar tashkil etadi. Ularning soni 45 nafarni tashkil etadi, bu esa jami ishtirokchilarning 48 foiziga teng. Bu ko‘rsatkich boshqa yosh guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori. 16 yoshdagi respondentlar – 24 nafar (26 foiz) bo‘lib, ikkinchi yirik guruh hisoblanadi. 18–20 yosh oralig‘idagi ishtirokchilar soni juda kamchilikni tashkil etib, 18 yoshlilar – 6 nafar (6,4 foiz), 19 yoshlilar – 7 nafar (7,4 foiz), 20 yoshlilar – 4 nafar (4,3 foiz), 21 yosh va undan katta yoshdagi respondentlar soni ham juda kamchilkni tashkil etadi. 1–3 kishi (1–3 foiz) atrofida. Bu yoshlar diagrammada past foizni tashkil etadi. So‘rovnoma asosan 16–17 yoshdagi o‘quvchi yoshlar orasida o‘tkazilgan bo‘lib, bu yoshdagi yoshlar ijtimoiy xavf guruhini tahlil qilishda asosiy auditoriyani tashkil qiladi [2]. Yosh o‘sishi bilan ishtirokchilar sonining kamayib borishi yuridik klinikaning aynan yoshlar va o‘smirlarga yo‘naltirilganligini bildiradi. Profilaktik va huquqiy-ma’rifiy ishlar aynan 16–17 yosh oralig‘idagi yoshlar bilan chuqurlashtirilgan tarzda olib borilishi lozim. 18–20 yoshdagi yoshlarni ham faolroq jalb qilish uchun OTM, kollejlardagi ma’rifiy tadbirlarni kuchaytirish kerak bo‘ladi. 21 yoshdan oshgan respondentlar kam bo‘lsa-da, ularning ijtimoiy xavf holatini alohida o‘rganish lozim, chunki bu yoshdagilar ko‘pincha “e’tibordan chetda qolgan” guruhlar hisoblanadi.



2-rasm. Faoliyat turi

2-rasm so'rovnomada qatnashgan yoshlarning hozirgi faoliyat holatini aks ettiradi. Rasmda respondentlar quyidagi toifalarga ajratilgan. Ularning 88 foizi "o'qiyapman" deb javob bergan bo'lib, bu raqam shuni ko'rsatadiki, respondentlarning deyarli barchasi (10 kishidan 9 nafari) ta'lim muassasasida (maktab, kollej yoki oliy ta'limda) tahsil olayotganini bildiradi. So'rovnoma asosan o'quvchilar va talabalar orasida o'tkazilgan bo'lib, respondentlarning 6 foizi "ishlayapman", 1 foizi "ishsizman" deb javob bergan. Bu juda kichik ko'rsatkich bo'lsa-da, biroq juda muhim signal hisoblanadi. Ishsizlik yoshlar o'rtasida depressiya, ijtimoiy xavfli guruhlarga qo'shilish, noqonuniy faoliyat va suiqasdga moyilligini bildiradi. Shuningdek, "boshqa" deb javob bergan 5 foiz respondentlar odatda o'zini aniq faoliyat bilan band deb hisoblamaydi. Ularning ijtimoiy faolligi past va bu ijtimoiy xavf darajasini oshiradi.



3-rasm. Javoblar natijasi

3-rasm respondentlarning asosiy yashash muhitini ko'rsatadi. Ya'ni ular hayotining aksar qismini kimlar bilan o'tkazayotganini aniqlashga yordam beradi. Respondentlarning 90 foizi "ota-onam bilan yashayman" deb javob bergan. Ulardan aksariyati ota-onasi yoki to'liq oilasi bilan yashayotganini bildirgan. Bu ijtimoiy barqarorlik uchun muhim omil hisoblanadi. Bunday guruhlarda ota-ona nazorati mavjud hamda oila ular uchun ma'naviy-ruhiy tayanch bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, oila ichida ota-onalar bi-

lan noto‘g‘ri muloqot, e’tiborsizlik, nazoratning haddan ortiq ko‘pligi yoki yo‘qligi, o‘z navbatida, yoshlarning ruhiy izolyatsiyasiga sabab bo‘lishi mumkin. Respondentlarning 4 foizi “do‘stlarim bilan” deb javob bergan. Bu yoshlar katta ehtimollik bilan, o‘z oilasidan ajralgan yoki mustaqil hayot tarziga o‘tgan bo‘lishi mumkin. Respondentlarning 2 foizi “yolg‘iz yashayman” deb javob bergan. Ushbu respondentlar yolg‘iz yashashni tanlagan yoki majbur bo‘lgan bo‘lishi mumkin (masalan, qarindoshi yo‘qligi, oilaviy muammolar, mustaqil hayotga o‘tishi). Xavfli jihati shundan iboratki, yolg‘iz yashovchi yoshlar depressiya, suitsid, ijtimoiy izolyatsiya holatlariga ko‘proq moyil bo‘lishadi. Bunday guruhga kiruvchi yoshlarni psixolog yoki ijtimoiy pedagog nazoratiga olish maqsadga muvofiq bo‘lib, ularni jamoaviy tadbirlarga, to‘garaklarga jalb etish orqali jamiyat bilan munosabatlarini mustahkamlash lozim. Respondentlarning 4 foizi “qarindoshlar” yoki “boshqa” deb javob bergan. Bu guruhga kiruvchi yoshlarga oila tayanchi yetishmasligi bilan izohlanadi. Ushbu guruhdagi yoshlar bilan ijtimoiy himoya va patronat tizimi asosida ishlash va mahallalarda profilaktika inspektori va psixologlar nazorati orqali individual monitoring yo‘lga qo‘yilishi shart hisoblanadi.



4-rasm. Qanchalik tez-tez bezovtalik yoki stressni boshdan kechirasiz?

4-rasmda respondentlarning stress yoki bezovtalikni his qilish darajalari foizlarda ko‘rsatilgan. So‘rov natijalari besh toifaga ajratilgan: respondentlarning 21 foizi “hech qachon”, 35 foizi “kamdan kam”, 35 foizi “ba’zida”, 7 foizi “tez-tez”, 2 foizi “doim” deya javob bergan. Ularning 21 foizi o‘zlarining ruhiy holatini nazorat qila oladigan, ijobiy psixologik immunitetga ega shaxslar hisoblanadi. Ishtirokchilarning 35 foizi “kamdan kam”, yana 35 foizi “ba’zida” bezovtalikni boshdan kechiradi. Bu esa stressga normal reaksiya ham bo‘lishi mumkin, biroq to‘g‘ri boshqarilmasa, bu holat ularda stressning vujudga kelish xavfini yanada oshiradi. Bunday yoshlar muntazam ravishda psixologik bosim, ijtimoiy bosim yoki oilaviy muammolarni boshdan kechirishi mumkin. Respondentlarning 9 foizi “tez-tez”, 7 foizi “doim” deb javob bergan. Bular psixologik xavf ostida bo‘lishi mumkin [3]. Ularning doimiy ruhiy holati beqaror, vaqti-vaqti bilan agressiya yoki tushkunlikka duch kelish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu holat, o‘z navbatida, o‘z-o‘ziga zarar yetkazishi hamda o‘qishdagi muvaffaqiyatsizlik, ijtimoiy izolyatsiya kabi xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin.



5-rasm. Javoblar natijasi

5-rasm respondentlarning o‘zlarini jamiyatda, oilada yoki do‘stlar davrasida qanchalik tushunilgan yoki tushunilmagan deb his qilishlari haqidagi psixologik holatini aks ettiradi. Javoblar quyidagi shaklda taqsimlangan. Respondentlarning 50 foizi “yo‘q” deb javob bergan. Bu guruhdagi ishtirokchilar jamiyat bilan ijobiy muloqotda, o‘z muammolari va his-tuyg‘ularini tushunadigan insonlar qurshovida bo‘lganligini ko‘rsatadi. Respondentlarning 40,4 foizi esa “ba’zida” deb javob bergan. Bunday javob berganlar odatda xavfli chegaradagi guruhlar sirasiga kiradi. Ular ba’zida o‘zlarini hech kim tushunmaydigandek his qilishadi hamda psixologik inqiroz yoki kuchli emotsional holatlarni boshidan o‘tkazishadi. Bu esa, o‘z navbatida, ichki izolyatsiya holatiga olib kelishi mumkin. Ushbu guruhdagi yoshlar ko‘pincha “ko‘zga ko‘rinmaydigan xavf” ostida bo‘lishadi. Bunday guruhga kiruvchi yoshlar har qanday yordamga muhtoj bo‘lsa-da, biroq kimgadir murojaat qilishni xohlashmaydi. Respondentlarning 9,6 foizi “ha” deb javob bergan. Bu guruhdagi yoshlar o‘zlarini doim hech kim tushunmagan yoki e’tibordan chetda qolgandek his qilishadi. Bu holat keyinchalik, hissiy izolyatsiya, yolg‘izlik, sotsial chetlashuv, stress, depressiya va hattoki suitsidgacha olib keluvchi xavfli psixologik jarayon bo‘lishi mumkin.



6-rasm. Javoblar natijasi

6-rasm respondentlarning odamlar orasida bo‘lgan taqdirda ham o‘zlarini yolg‘iz, tushunilmagan yoki ajralgan his qilish holatini o‘rganishga qaratilgan. Bu holat ko‘pincha emotsional izolyatsiya**,** ichki bo‘shliq va jamiyatga qo‘shila olmaslik kabi muammolarni ifodalaydi. “O‘zingizni odamlar orasida ham yolg‘iz his qilasizmi?” degan savolga respondentlarning 62 foizi “yo‘q” deb javob bergan**.** Ular o‘zlarini odamlar orasida ijtimoiy jihatdan qabul qilingan, muloqotga ochiq va ishtirokchi sifatida his qilishadi. Respondentlarning 26 foizi “ba’zida” deb javob bergan bo‘lib, ular vaqti-vaqti bilan o‘zlarini yolg‘iz his qilishadi. Bu toifa ishtirokchilar asosan ichki ziddiyatlar bilan o‘ralashib, o‘zini yetarli darajada qadrlamaydilar va odamlar orasida o‘z o‘rnini topolmaydilar. Agar bu holat respondentlarda davom etsa, bu guruhdagi yoshlar tushkunlik yoki depressiyaga duch kelishlari mumkin. “Ha” deb javob bergan 12 foiz yoshlar atrofida yaqinlari va do‘stlari bo‘lishiga qaramasdan o‘zlarini yolg‘iz his qilishadi. Bunday respondentlar bilan individual psixologik suhbatlar olib borish lozim. Diagramma natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning 38 foizi odamlar orasida bo‘lishiga qaramay, o‘zlarini yolg‘iz his qilishadi. Bu esa yuridik klinika yoki psixologik xizmatlar orqali emotsional va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.



7-rasm. Respondentlarning tushkunlik yoki umidsizlik hissini boshdan kechirish

7-rasmda respondentlarning tushhkunlik yoki umidsizlikni boshdan kechirish chastotasi keltirilgan. Ular quyidagi besh toifaga bo‘lingan: respondentlarning 32 foizi tushkunlik yoki umidsizlikni umuman his qilmaydi; 42 foizi “kamdan kam”, 24 foizi “ba’zida”, 2 foizi “tez-tez”, “doimo” deb javob bergan. Olingan natijalarni psixologik tahlil qilamiz. Respondentlarning 32 foizi ruhiy barqarorlikka ega, stressga chidamli guruhga kiradi. Ular ijtimoiy faol, o‘ziga ishonadigan va ijobiy dunyoqarashga ega bo‘lishadi. Ishtirokchilarning 42 foizi vaqti-vaqti bilan ruhiy zo‘riqishni boshidan kechiradi. Bunday vaziyatga tushishi uchun quyidagi vaziyatlar sabab bo‘lishi mumkin:

– o‘qishdagi bosim;
– oila yoki do‘stlar bilan ziddiyatlar;
– kelajakka bo‘lgan ishonchsizlik.

Respondentlarning 24 foizi “ba’zida” deb javob bergan. Bu guruh o‘zini sezilarli darajada beqaror yoki emotsional ruhiy holatda his qilayotgan bo‘lishi mumkin. Ichki motivatsiyaning susayishi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik, yaqin do‘stlari yoki oilasidan ajralish hissi bilan bog‘liq bunday yoshlarning xavf

darajasi orta borib, ularni doimiy e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ishtirokchilarning 2 foizi "tez-tez" va "doim" deb javob bergan. Bu guruhdagi yoshlar ruhiy tushkunlikni tez-tez yoki doimiy boshdan kechirayotganini bildiradi. Ushbu holat ishtirokchilari klinik depressiya yoqasida turganligini anglatadi va xavf darajasi yuqori bo'ladi, ularni zudlik bilan psixolog yoki psixiatr ko'magiga yo'naltirish lozim.



8-rasm. Javoblar natijasi

8-rasm respondentlarning o'z oilasi bilan munosabatlari qanday ekanligini baholashlari asosida tuzilgan. Bu ijtimoiy muhit, hissiy barqarorlik, xavfsizlik va qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq eng muhim ijtimoiy-psixologik indikatorlardan biri hisoblanadi. "Oila bilan munosabatingizni qanday baholaysiz?" degan savolga respondentlarning 67 foizi "juda yaxshi" deb javob bergan. Bu guruhdagi yoshlar ruhiy va ijtimoiy barqarorlikka ega bo'lib, o'zini qadrlangan va tushunilgan his qiladi. Bu holat ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Respondentlarning 24 foizi "yaxshi" deb javob bergan. Bu guruhda oilaviy munosabatlar, umuman olganda, ijobiy baholangan bo'lsa-da, ayrim noaniqliklar, kamchiliklar yoki ziddiyatlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ular bilan oilaviy muloqotni mustahkamlash bo'yicha dasturlar foydali bo'ladi. "Yomon" deb javob bergan 9 foiz ishtirokchilarda ba'zi oilaviy muammolar mavjud. Bu holatlar quyidagilar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

- oiladagi ziddiyatli vaziyatlar;
- ota-onaning farzandiga e'tiborsizligi, befarqligi;
- oilada qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi.

Bu guruhdagi yoshlar ijtimoiy xavf ostida. Ularda ruhiy tushkunlik, yolg'izlik, ishonchning yo'qolishi, hattoki stressga chidamsizlik belgilarini ko'rish mumkin. Umuman olganda, so'rov natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat yoshlar uchun oila – barqarorlik va qo'llab-quvvatlash manbayi hisoblanadi. Biroq har 10 nafar respondentdan 1 nafari uchun bu manba stress yoki xavotir manbayiga aylangan. Mazkur holat yuridik klinika va ijtimoiy-psixologik xizmatlarning profilaktik yondashuvlarini talab etadi.



9-rasm. Javoblar natijasi

Ushbu savol orqali respondentlarning yaqin ishonchli do‘stlari mavjudligi haqidagi subyektiv fikri aniqlangan. 9-rasmda quyidagi uchta asosiy javob toifasi mavjud bo‘lib, “Siz ishonishingiz mumkin bo‘lgan yaqin do‘stlaringiz bormi?” degan savolga respondentlarning 66 foizi “ha” deb javob bergan. Ushbu guruhga kiruvchi yoshlar o‘z atrofida ishonadigan yaqin do‘stlari bor deb hisoblaydi. Ularning ruhiy holati mustahkam, yolg‘izlik hissi kamroq, ijtimoiy moslashuvchanligi yuqori bo‘ladi. “Yo‘q” deb javob berganlarning 17 foizi hech qanday yaqin do‘stga ega emasligini bildirgan. Bunga ijtimoiy izolyatsiya, ishonch muammosi, yolg‘izlik yoki beqaror psixologik muhitda yashash kabi holatlar sabab bo‘lishi mumkin. Mazkur toifaga kiruvchi yoshlar ijtimoiy himoyasiz, psixologik yordamdan mahrum bo‘lganligi ehtimoli bor. Respondentlarning 17 foizi “ishonchim komil emas” deb javob bergan. Ushbu toifa yoshlarning bunday yo‘l tutishiga, oldingi salbiy holatlar (xiyonat, rad etilish) sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga yoshlarning uchdan ikki qismi ishonchli do‘stga ega, bu ijobiy holat hisoblanadi. Ammo har uchinchi ishtirokchi o‘zini ijtimoiy jihatdan ishonchsiz his qilmoqda. Bu holatni bartaraf etish uchun do‘stlik, empatiya va tengdoshlar bilan muloqotni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik dasturlar zarur.



10-rasm. Javoblar natijasi

10-rasm respondentlarning o‘zlarini ijtimoiy muhitda – yaqinlari, do‘stlari, jamiyat a’zolari tomonidan qanchalik darajada qo‘llab-quvvatlangan deb his qilishlari haqidagi fikrini aks ettiradi. “Atrofingizdan qanchalik qo‘llab-quvvatlashni his qilasiz?” degan savolga respondentlarning 30 foizi “juda kuchli” deb javob bergan bo‘lsa, 60 foizi “yetarli” deb javob bergan. Bu guruhdagi yoshlar o‘zlarini ijtimoiy muhitda emotsional, ijtimoiy va axloqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanayotgan deb his qiladi. Ushbu ko‘rsatkich juda ijobiy hisoblanadi. Bu yoshlar o‘z muammolarini yolg‘iz hal qilmaydi. Ular yordam so‘rash, maslahat olish, muammoni ochiq aytishga tayyor yoshlar guruhiga kiradi. “Zaif” deb javob bergan 9 foiz respondentlar qo‘llab-quvvatlashni kam his qiladi. Shuningdek, ular ichki izolyatsiyaga moyil bo‘lishi ham mumkin, yordam so‘rashga tortinishadi, o‘zini kamsitilgan his qilish ehtimoli bor. Respondentlarning 1 foizi “qo‘llab-quvvatlash yo‘q” deb javob bergan. U o‘zini jamiyatda butunlay yolg‘iz, yordamga muhtoj deb his qiladi. Bunday holat:

– og‘ir psixologik stress;

– o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik;

– suitsidga moyilligi.

Bunday guruhga kiruvchi yoshlar juda yuqori ijtimoiy xavf guruhiga moyilligi bor hisoblanadi. Ularga zudlik bilan individual psixologik yordam ko‘rsatish va ijtimoiy xizmatlar orqali yordam tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Bunday yoshlar o‘zini qanchalik ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanayotgan deb his qilsa, ularning ruhiy salomatligi, qaror qabul qilish qobiliyati, stressga bardoshliligi ortadi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, har 10 kishidan 9 nafari o‘zini qo‘llab-quvvatlangan deb hisoblaydi – bu jamiyatda ma’naviy tarbiya yetarlicha ekanligini bildiradi. 10 kishidan 1 nafari esa zaif yoki umuman qo‘llab-quvvatlanmagan muhitda yashaydi. Uni yuridik klinikalar, psixologik xizmatlar va ijtimoiy tashkilotlar tomonidan alohida nazoratga olish kerak bo‘ladi. Diagrammadagi natijalar juda quvonarli – ishtirokchilarning 90 foizi o‘zini ijtimoiy himoyalangan, ishonchli muhitda deb biladi [4]. Ammo 10 foiz respondent (zj69

aif + umuman yo‘q) – emotsional xavf guruhiga kiradi. Yuridik klinika ularning ijtimoiy holatini mustahkamlashda vositachi bo‘lishi lozim.



11-rasm. Javoblar natijasi

11-rasmda yoshlarning ruhiy bosimni yengish uchun zararli moddalar (alkogol, narkotik, boshqa stimulyatorlar)dan foydalanish holati o‘rganildi. “Stressni yengish uchun spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va boshqa moddalarni iste’mol qilganmisiz?” de-

gan savolga respondentlarning 86 foizi "hech qachon" deb javob bergan. Bu respondentlar zararli moddalarni stressni yengish vositasi sifatida iste'mol qilmagan. Ushbu guruhdagi yoshlarda zararli odatlarning oldi olingan, himoyalangan va profilaktika samarali ishlagan. Respondentlarning 10 foizi "kamdan kam" deb javob bergan. Bu yoshlar kamdan kam hollarda stressdan chiqish uchun zararli moddalarni iste'mol qilganini bildiradi. Bunday holat tajriba (eksperiment), do'stlar bosimi yoki o'z-o'zini tinchlantirish bilan bog'liq bo'lishi, agar bu guruhdagi yoshlarga jiddiy e'tibor qaratilmasa, bu jarayon odatga aylanishi mumkin. Ular bilan xavfsiz muqobil strategiyalar (psixologik maslahat, sport, kreativ faoliyat) haqida suhbatlar olib borish lozim bo'ladi. Respondentlarning 4 foizi "ba'zida" va "tez-tez" deb javob bergan. Bu guruhga kiruvchi yoshlar psixologik bosimga dosh bera olmasdan zararli moddalarni iste'mol qilgan bo'lishi mumkin. Bunda ular asosan ruhiy og'riqni yengish, muammolardan qochish uchun foydalangan bo'lishi ham mumkin. Ular bilan zudlik bilan psixologik maslahat, ehtimoliy reabilitatsiya muassasalari shug'ullanishi kerak. Yuridik klinika va maktab psixologlari tomonidan individual nazorat o'rnatish lozim. Diagrammadagi ijobiy ko'rsatkichga qaramay, 14 foiz respondentning zararli moddalarga murojaat qilgani ogohlantiruvchi signaldir. Bu yoshlar bilan individual tarzda psixologik, huquqiy va ijtimoiy yondashuvni kuchaytirish lozim.



12-rasm. Javoblar natijasi

12-rasm respondentlarning atrofdagilar bilan (maktabda, ishda, oilada, ko'chada) nizolarga, ziddiyatlarga borishini aks ettiradi. Bu savol yoshlarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy muvofiqligi va ziddiyatga moyilligini aniqlashda muhim mezondir. "Boshqalar bilan (maktabda, ishda, oilada) nizolarga kirishish hollari qanchalik tez-tez sodir bo'ladi?" degan savolga respondentlarning 40 foizi "hech qachon", deb javob bergan. Bu respondentlar o'zini boshqalar bilan murosali, ijtimoiy jihatdan uyg'un shaxs deb his qiladi. Ular:

- konfliktlarning oldini olishga harakat qiladi;
- salbiy emotsiyalar ustidan nazoratga ega;
- to'g'ri muloqot va muammolarni hal etish qobiliyatiga ega.

Bu guruhda psixologik barqarorlik va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori. Respondentlarning 50 foizi "kamdan kam" deb javob bergan. Bu guruh ham odatiy ijtimoiy vaziyatlarda murosani afzal ko'radi, ammo ayrim holatlarda mojaro ehtimoli mavjud, muloqotda ba'zan agressivlik, tushunmaslik yoki sabrsizlik holatlari kuzatiladi. Ularda ijtimoiy xavf darajasi past, ammo ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Respondentlarning

7 foizi “ba’zida” yoki “tez-tez” deb javob bergan.

Bunday respondentlar tezda ziddiyatga boruvchi yoki sabrli bo‘lmagan shaxslar bo‘lishi mumkin. Bularda odatda ruhiy zo‘riqish, oilaviy yoki ijtimoiy bosim surunkali davom etishi mumkin. Bunday guruhga kiruvchi yoshlarga individual psixologik suhbatlar, muomala etikasini, shu bilan birga, muammoni tinch yo‘l bilan hal qilish texnikalarini o‘rgatish lozim bo‘ladi. Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 90 foizdan ortiq yoshlar ziddiyatlardan yiroq yoki murosani tanlovchi shaxslardir. Bu jamiyatda salbiy tajovuz darajasining nisbatan past ekanligidan dalolat beradi. Biroq 7 foiz respondentlar ziddiyat holatlarini boshdan kechirayotganini bildirgan, bu esa ular bilan maxsus psixologik va ijtimoiy yordam ishlarini yo‘lga qo‘yishni talab qiladi. Ijtimoiy muvozanatni saqlash va nizolarning oldini olish bo‘yicha yoshlarning ko‘pchiligi yaxshi ko‘nikmaga ega. Shu bilan birga, 6–7 foiz respondentlar doimiy yoki ba’zida turli nizolarga duch kelmoqda. Bu holatlar psixologik yordam, muomala etikasini o‘rgatish va ijtimoiy treninglar orqali ijobiy tomonga yo‘naltirilishi mumkin.

Qoidalar yoki qonunlarni buzishga bo‘lgan istakni qanchalik tez-tez his qilasiz?



	Son	Foiz (%)
Hech qachon	59	63%
Kamdan kam	25	27%
Ba’zida	9	10%
Tez-tez	0	0%
Doim	1	1%

13-rasm. Javoblar natijasi

“Qoidalar yoki qonunlarni buzishga bo‘lgan istakni qanchalik tez-tez his qilasiz?” degan savolga (13-rasm) respondentlarning 63 foizi “hech qachon” deb javob bergan. Bunday respondentlar:

- qonunlarni hurmat qiladi;
- ijtimoiy qoidalarni qadriyat sifatida qabul qiladi;
- mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan moslashgan.

Respondentlarning 27 foizi “kamdan kam” deb javob bergan. Ularda qonun yoki tartiblarni buzishga bo‘lgan moyilliklar mavjud bo‘lib, bu holatlar ko‘pincha emotsional zo‘riqish, adolatsizlik hissi, yoki tizimga ishonchsizlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Respondentlarning 10 foizi “ba’zida”, 1 foizi “doim” deb javob bergan. Bu guruhda qonunbuzarlik istagi davriy yoki doimiy tarzda mavjud bo‘lishi mumkin. Bunday yoshlarga individual psixologik suhbatlar, shaxsiy motivlarni aniqlash orqali hamda ijtimoiy xizmatlar, yuridik klinikalar orqali axloqiy, huquqiy yordam berish lozim. Har 10 kishidan 6 nafari qonunlarga sodiq. Ammo 4 nafardan biri (“kamdan kam”, “ba’zida” va “doim”) qonunbuzarlik istagini his qiladi yoki boshidan kechirgan. Bu esa ijtimoiy nazorat, huquqiy ta’lim va profilaktik choralarni talab etadi. Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, respondentlarning 63 foizi qonunni hurmat qiluvchi, jamiyatga moslashgan. 37 foizi potensial xavf guruhi hisoblanadi. Bular norozilik, emotsional g‘azab, ijtimoiy adolatsizlik kabi omillardan kelib chiqadigan ichki xatti-harakat impulslariga ega.



14-rasm. Javoblar natijasi

"Hech o'zingizni yoki boshqalarga nisbatan tajovuzkorlik hissini his qilganmisiz?" degan savol respondentlarning agressiya (ya'ni jahl, zo'ravonlikka moyillik, o'ziga yoki boshqalarga nisbatan zararli harakat istagi) holatini boshdan kechirishini aniqlaydi. Bu savolga respondentlarning 67 foizi "hech qachon" deb javob bergan. Bu respondentlar emotsional barqaror, ichki zo'riqishlarga nisbatan chidamli, tajovuzkorlik darajasi past bo'lgan shaxslar hisoblanadi.

Respondentlarning 21 foizi "kamdan kam" deb javob bergan. Ular ba'zida g'azab, jahl, tajovuzni his qiladilar, ammo uni o'z o'rnida nazorat qila oladilar. Bunday holatlar stress, e'tiborsizlik yoki nizolar natijasida yuzaga kelishi, ularda potensial ichki zo'riqish mavjud bo'lib, ammo hali nazorat doirasidan chiqmaganligi seziladi. Respondentlarning 11 foizi "ba'zida", 1 foizi "tez-tez" deb javob bergan. Ushbu guruh ishtirokchilri tajovuzkor hisoblanadi. Bunga sabab ichki izolyatsiya, norozilik, e'tiborsizlik, oilaviy yoki ijtimoiy bosimdan kelib chiqishi mumkin. Bunday yoshlar ijtimoiy xavf guruhiga kirishi sababli ularga maxsus psixologik maslahatlar, agressivlikni tinch yo'l bilan yengish usullarini o'rgatish (masalan, san'at, sport) va individual kuzatuvga olish lozim.

14-rasm shuni ko'rsatadiki, 10 kishidan 3 nafari ("kamdan kam", "ba'zida", "tez-tez") bu hissiyotlarni boshdan kechirgan. Agressiv impulslar yoshlar orasida nafaqat ruhiy salomatlik, balki huquqiy va ijtimoiy xavf ko'rsatkichlari hisoblanadi [5]. Umuman olganda, 67 foiz respondent tajovuzkorlikni rad etgan, bu ijobiy natijadir. Ammo 33 foiz respondentda bu hissiyot mavjud, ular normal, davriy yoki xavfli ko'rinishdagi agressiya sifatida ko'rib chiqilishi lozim.



15-rasm. Javoblar natijasi

Ushbu savol respondentlarning kelajak haqidagi umumiy kayfiyati va umid darajasini ko‘rsatadi. 15-rasm asosida yoshlarning optimistik yoki pessimistik qarashlari ham tahlil qilinadi. Respondentlarning ushbu savolga 67 foizi “juda ijobiy”, 21 foizi “ijobiy” deb javob bergan. Bu guruhga kiruvchi yoshlar, umidli va ichki motivatsiyaga ega, rejali, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, o‘ziga ishonadi, o‘z hayotini boshqarishga tayyor turgan respondentlardir. Ular psixologik barqaror, o‘z yo‘lini aniq ko‘rayotgan, jamiyatda faol o‘rin egallashga intilayotgan yoshlar hisoblanadi. Respondentlarning 11 foizi “Betaraf” – bu guruh kelajakka nisbatan befarq, noaniq yoki ehtimoliy xavotirli qarashga ega, ichki motivatsiya pasaygan, aniq maqsadga ega emas. Bunday yoshlarga o‘zini anglash va shaxsiy potensialni rivojlantirishga qaratilgan psixologik suhbatlar lozim. “Juda salbiy” deb javob bergan 2 foiz respondentlar hayotga nisbatan umidsizlik, tushkunlik yoki kelajakdan xavotirda. Bu respondentlarda ichki ziddiyatlar mavjud bo‘lib, atrofdagilarning yoki oilaviy bosim ta’sirida salbiy qarash shakllangan. Ularda tushkunlik yoki depressiv holat ehtimoli bor. Bular ijtimoiy xavf guruhiga mansub yoshlar hisoblanib, ular bilan zudlik bilan psixologik suhbatlar, umid va motivatsiyani oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar olib borish lozim. Diagramma natijalari shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning deyarli 90 foizdan ortig‘i kelajakni ijobiy yoki juda ijobiy baholaydi. Ammo har 20 respondentdan 1 nafari (5 foizi) kelajakni salbiy yoki noaniq deb biladi – bu ularning ijtimoiy integratsiyasi va psixologik qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojini anglatadi. Shu bilan birga oliy motivatsiya va optimizm respondentlar orasida yuqori – bu yaxshi ijtimoiy-psixologik muhitdan darak beradi. Ammo salbiy qarash bildirgan yoshlar (2–3 foiz) individual yondashuv va ruhiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj.



16-rasm. Javoblar natijasi

“Faol ravishda erishishga intilayotgan maqsadlaringiz yoki orzularingiz bormi?” degan savolga (16-rasm) 78 nafar respondent (84 foiz) “ha” deb javob bergan. Bu katta ko‘rsatkich bo‘lib, ishtirokchilarning aksariyati aniq bir maqsad yoki orzuga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Ular bu maqsadga faol intilayotganliklarini bildirganlar. 8 nafar respondent (8 foiz) “yo‘q” deb o‘z fikrini bildirgan. Bu guruhda maqsad yoki orzu yo‘qligi kuzatilgan. Ularning ulushi ancha kam, lekin bu holat ham e’tiborga loyiq. 8 nafar respondent (8 foiz) “javob berishga qiynalaman” degan. Bu javobni berganlar maqsadga ega bo‘lish yoki uni anglash borasida ikkilanishmoqda yoki o‘z fikrlarini aniq ifoda eta olmaganlar. Respondentlarning katta qismi, ya’ni 84 foizi faol harakatda bo‘lgan maqsad yoki orzuga ega. Bu ularning motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan intilishlarini ko‘rsatadi. Respondentlarning 16 foizi, ya’ni 8 foizi “yo‘q” va 8 foizi “qiynalaman” deb javob bergan. Ular

maqsad yoki orzular borasida noaniqlikka egadirlar. Bu guruh bilan individual ishlash, motivatsion treninglar yoki psixologik ko‘mak orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.



17-rasm. Javoblar natijasi

“Hayotingizni mazmunsiz deb his qilishingiz qanchalik tez-tez sodir bo‘ladi?” degan savolga respondentlarning (17-rasm) 37 nafari (39 foizi) “hech qachon” deb javob bergan. Respondentlarning deyarli yarmi hayotini mazmunsiz deb hisoblamaydi. Bu ularning hayotdan qoniqish darajasi yuqoriligini bildiradi. “Kamdan kam” deb 36 nafar respondent (38 foizi) javob bergan. Bu guruh ham ijobiy qarashga ega. Demak, jamiyatda ijobiy psixologik holatga ega bo‘lganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. “Ba’zida” deb 17 kishi (19 foiz) javob bergan. Bu guruhdagi ishtirokchilar vaqti-vaqti bilan hayotlarining mazmuni borasida ikkilanishadi. Bu holat stress, noaniqlik yoki hayotdagi muayyan muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. “Tez-tez” deb 1 nafar respondent (1 foiz) javob bergan. Juda kam ishtirokchi hayotini ko‘pincha mazmunsiz deb his qiladi. Bu holat jiddiyroq psixologik yordamga muhtojlikni anglatishi mumkin. “Doim” deb 3 nafar respondent (3 foiz) javob bergan. Ushbu guruh kichik bo‘lsa-da, ularning doimiy ravishda hayotni mazmunsiz deb hisoblashi chuqur psixologik muammolardan dalolat berishi mumkin. Shu bilan birga ijobiy natija ham mavjud, 77 foiz (39+38) ishtirokchilar hayotlarini mazmunli deb hisoblashadi yoki kamdan kam hollarda salbiy fikrda bo‘lishadi. E’tibor talab qiluvchi guruh, 22 foiz (19+1+3) insonlar esa ma’lum darajada salbiy fikrlarga ega. Ayniqsa, “tez-tez” va “doim” deb javob berganlar bilan psixologik ko‘mak ishlari olib borilishi lozim.



18-rasm. Javoblar natijasi

"O'zingizga zarar yetkazish fikri hech xayolingizga kelganmi?" degan savolga (18-rasm) respondentlarning 71 foizi "yo'q" deb javob bergan.

Bu ijobiy hol bo'lib, ularning aksariyatida o'ziga nisbatan salbiy fikrlar mavjud emasligini bildiradi. So'rovnoma ishtirokchilarining 16 foizi "ha" deb javob bergan. Bu ular hayotlarining ma'lum bir bosqichida o'zlariga zarar yetkazish fikrida bo'lgan. Ushbu holat jiddiy psixologik signal bo'lib, ularni alohida e'tibor bilan kuzatish va qo'llab-quvvatlash zarur. Respondentlarning 13 foizi "javob berishga qiynalaman" degan. Bu guruh ochiq javob bera olmagan, balki noqulaylik yoki aniq fikr bildirishda qiyinchilik sezgan bo'lishi mumkin. Ular bilan individual muhitda suhbatlar olib borish foydali bo'ladi. Umuman olganda, berilgan javoblarga ko'ra, 71 foiz respondentlar ruhiy salomatlik jihatidan xavfsiz deb hisoblanadi. 29 foiz (ya'ni "ha" va "qiynalaman" deb javob berganlar) esa potensial xavf guruhiga moyilligini bildiradi. Bu ko'rsatkich e'tiborli bo'lib, ushbu yoshlarga psixologik maslahatlar berish, individual yordam ko'rsatish kerak [6].



19-rasm. Javoblar natijasi

"Jamiyat tomonidan tashqi ko'rinishingiz, xatti-harakatlaringiz yoki yutuqlaringizga bosimni his qilasizmi?" degan savolga (19-rasm) respondentlarning 60 foizi "yo'q" deb javob bergan. Ularning aksariyati jamiyat tomonidan bosim sezmasligini bildirgan. Bu guruh ishtirokchilarining ijtimoiy muhitda o'zini erkin his qilishini yoki o'z fikri va yutuqlariga nisbatan ishonchli ekanini ko'rsatadi. Respondentlarning 22 foizi "ba'zida" deb javob bergan. Ushbu guruh bosimni doimiy emas, balki ba'zida sezadi. Bu holat jamiyatning ayrim holatlarida ijtimoiy stereotiplardan kelib chiqishi mumkin. Ishtirokchilarning 18 foizi "ha" deb javob bergan. Bu guruh jamiyat bosimini o'zida his qiladi. Umuman olganda, ijobiy tomoni respondentlarning 60 foizi jamiyat ta'sirini sezmaydi, bu yaxshi ijtimoiy-psixologik holatni bildiradi. E'tiborli jihati ishtirokchilarning 40 foizi (22 foizi "ba'zida" va 18 foizi "ha") bosimni sezgan. Bu yoshlarning ijtimoiy baholash va tanqidga sezuvchanligini bildiradi. Bosim his qilayotganlar bilan ochiq muloqotli muhit yaratish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, individual va guruh bo'lib psixologik treninglar o'tkazish foydali bo'ladi.



20-rasm. Javoblar natijasi

"Agar psixologik yoki maslahatchi bilan gaplashish imkoniyati bo‘lsa, foydalanarmidingiz?" degan savolga (20-rasm) respondentlarning javoblari quyidagicha. "Ha" deb javob bergan ishtirokchi 44 nafarni tashkil etadi. Respondentlarning katta qismi psixolog yoki maslahatchi bilan suhbatlashish imkoniyati bo‘lsa, undan foydalanishni istagan. Bu ularning ichki ehtiyojlari, emotsional qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoji borligini bildiradi. "Yo‘q" deb javob berganlar 39 nafar nafarni tashkil etadi. Bu guruh maslahatchi yoki psixolog xizmatiga ehtiyoj sezmagan yoki bu xizmatni foydali deb hisoblamaydi. Ehtimol, ular o‘z muammolarini mustaqil hal qilishga o‘rgangan yoki bunday xizmatga ishonchsizlik bilan qaraydilar. "Ishonchim komil emas" deb javob bergan respondent 11 nafarni tashkil etadi. Bu javobni berganlar ikkilanishda. Ular psixologik yordamga ehtiyoj bor-yo‘qligini aniq bilmaydi yoki qaror qabul qilishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Umuman olganda, 44 nafar (taxminan yarmi) psixologik yordamni olishga istak bildirgan. Shuni e'tiborga olish muhimki, 50 ta ishtirokchi (39+11) bu xizmatga nisbatan qiziqish bildirmagan. Bu holat axborot yetishmasligi, ishonchning pastligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Respondentlarga psixologik yordamga oid targ‘ibot ishlarini kuchaytirish zarur. Mutaxassislar bilan ochiq muloqot platformalari (masalan, maxfiy suhbat imkoniyatlari) tashkil qilish foydali bo‘ladi. "Ishonchim komil emas" degan guruh uchun psixologik xizmat nima ekanligi, undan qanday foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot berish lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 16–21 yoshdagi ishtirokchilar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi yoshlarda mavjud muammolar, psixologik holat, ijtimoiy moslashuv darajasi va emotsional ehtiyojlar haqida keng qamrovli ma'lumotlar berdi. Ushbu tahlil, yoshlarga qaratilgan davlat siyosati va huquqiy-ma'rifiy chora-tadbirlarning samaradorligini baholashda muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotda ishtirok etganlardan deyarli 90 foizi o‘quvchi yoki talaba, 90 foizdan ortig‘i esa ota-onasi bilan yashaydi. Bu holat, nazorat va qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjudligidan darak bersa-da, oilaviy ichki nizolar, befarqlik yoki haddan ortiq nazorat tufayli stress va izolyatsiya holatlari mavjud bo‘lishi ehtimolini istisno etmaydi.

Psixologik jihatdan, respondentlarning 70 foizdan ortig‘i stress va bezovtalikni vaqti-vaqti bilan boshdan kechiradi, 29 foizi esa

o‘ziga zarar yetkazish haqidagi fikrlarni tan olgan yoki bu savolga javob berishda qiynalgan. Yana 38 foiz respondent odamlar orasida ham o‘zini yolg‘iz his qilishini bildirgan. Bu holatlar yoshlar o‘rtasida psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyoj nihoyatda yuqori ekanini ko‘rsatadi. Ijtimoiy munosabatlar borasida respondentlarning 34 foizi yaqin do‘stlarga ega emasligi yoki do‘stlariga to‘liq ishonmasligini aytgan. 10 foiz respondent esa jamiyat tomonidan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmaslikni his qiladi. Har o‘ninchi ishtirokchi oilaviy muammolar mavjudligini bildirgan. Ushbu ko‘rsatkichlar yoshlar orasida hissiy izolyatsiya va ijtimoiy yakkalanishga sabab bo‘luvchi omillar mavjudligini ko‘rsatadi.

Deviant xatti-harakatlarga moyillik borasida, 14 foiz respondent ziqlikni yengish uchun zararli moddalar (spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari) iste’mol qilganini bildirgan. 37 foiz respondent qonun yoki qoidalarni buzishga moyilligini tan olgan. 33 foizi esa o‘zida agressiya hissi mavjudligini bildirgan. Bu esa yoshlar orasida ichki norozilik, g‘azab, ijtimoiy adolatsizlik hissi va bosim natijasida kelib chiqadigan xavfli xatti-harakatlarning ehtimolini tasdiqlaydi.

Shunga qaramay, ijobiy holatlar ham mavjud. Respondentlarning 88 foizi kelajakni ijobiy yoki juda ijobiy baholagan, 84 foizi aniq maqsad va orzulariga ega ekanligini bildirgan. Bu ularning ichki motivatsiyasi yuqoriligini, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilayotganini anglatadi. Shuningdek, 50 foiz respondent psixologik yordam olishga tayyor ekanligini bildirgan. Bu esa maxsus xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

Yakuniy xulosalarga ko‘ra, yoshlar orasida ijtimoiy xavfning asosiy manbalari – oilaviy nizolar, psixologik bosim, ishsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, do‘stlik va qo‘llab-quvvatlash tizimlarining zaifligidir. Ushbu xavflarni bartaraf etish uchun quyidagilar zarur:

– psixologik xizmatlarni maktab va mahallalarda tizimli yo‘lga qo‘yish;

– stress, g‘azab va yolg‘izlikni yengish bo‘yicha treninglar tashkil etish;

– huquqiy tarbiya va empatiya madaniyatini rivojlantirish;

– oilaviy va ijtimoiy muhitni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish;

– yuridik klinikalar orqali shaxsiy maslahatlar va profilaktik yordamni kuchaytirish.

Mazkur tadqiqot natijalari yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, xususan, ijtimoiy xavf ostidagi guruhlar bilan individual ishlash mexanizmlarini yaratishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosalar

Toshkent shahri va Toshkent viloyati yoshlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari, yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq tendensiyalar, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy xavfdan himoyalashga qaratilgan turli tashabbuslarga bo‘lgan munosabatlariga oid qimmatli ma’lumotlarni taqdim etdi. Tafsiliy tahlil shuni ko‘rsatdiki, yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy xavfning asosiy manbalari oila, bilim olish, ishsizlik va ijtimoiy adolatsizlik muammolaridan iboratdir. Yoshlar orasida ijtimoiy xavfga bo‘lgan munosabatlar turli xil bo‘lib, eng ko‘p tarqalgan xavflar oiladagi iqtisodiy qiyinchiliklar va bilim olishdagi muammolar bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu holat, o‘z navbatida, yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishishdagi imkoniyatlarini chegaralab qo‘yayotganligi, buning ortidan yoshlar iqtisodiy mustaqillikka erishish va o‘z imkoniyatlarini yanada oshirish uchun turli yo‘llarni izlayotganligini kuzatish mumkin.

So‘rov natijalari shundan dalolat beradiki, yoshlar o‘rtasida axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarga oid o‘zgarishlarga bo‘lgan qiziqish hamda muammolar katta ahamiyatga ega. Yoshlarning har qanday ijtimoiy xavfni bartaraf etish uchun, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan ta’lim va tarbiya tizimlariga muhtoj ekanligini ko‘rish mumkin. Yoshlar o‘zlarini ijtimoiy xavfdan himoya qi-

lish va barqaror hayot tarzini yo'lga qo'yish uchun ta'lim va kasbiy tayyorgarlik dasturlariga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka qaratilgan loyihalarga qiziqish bildirmoqdalar.

Yoshlarni ijtimoiy xavfga qarshi kurashishga tayyorlash uchun maxsus dasturlarning samaradorligini oshirish zarurati mavjud. Bundan tashqari, mahalliy organlar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli tadbirlar va dasturlarni yaratish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tahliliy material, Toshkent shahri va Toshkent viloyati yoshlari o'rtasidagi ijtimoiy xavflar va ularga qarshi kurashish choralariga oid yangi tendensiyalar va muammolarni ochib beradi. Bunday tadqiqotlar, yoshlar bilan ishlashning samarali mexanizmlarini yaratish va ijtimoiy xavfni kamaytirish uchun amalga oshiriladigan aniq tadbirlarni ishlab chiqishda muhim manba bo'ladi. Kelgusida amalga oshiriladigan ushbu mavzudagi tadqiqotlarning kengaytirilgan shakllari yoshlarning ijtimoiy xavfdan himoyalanishini ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

REFERENCES

1. Youth Wellbeing Policy Review. Paris, OECD Publ., 2022, p. 85.
2. UNESCO. Mental Health and Psychosocial Wellbeing of Adolescents, 2020, p. 98.
3. Rysakov I. *Psikhologiya podrostka v usloviyakh sotsiuma* [Psychology of a teenager in a social environment]. Moscow, Education Publ., 2021, p. 115.
4. Qodirov A., Abdurahmonov J. Yoshlar siyosati: amaliyot va muammolar [Youth policy: practice and problems]. Tashkent, Fan Publ., 2023, p. 102.
5. Golova Yu.P. Sotsialnaya rabota s molodyozhyu: teorya i praktika [Social work with youth: theory and practice]. Moscow, Graduate School Publ., 2008, p. 180.
6. Mikhaylov V.A. Sotsial'nye problemy molodyozhi v Rossii: teoriya i praktika sotsial'noy raboty [Social problems of youth in Russia: Theory and practice of social work]. Moscow, Science Publ., 2011, p. 200.
7. Alekseyeva T.I. Psikhologiya molodyozhi: sotsial'nye, kul'turnye i lichnostnye aspekty [Psychology of youth: social, cultural and personal aspects]. St. Petersburg, Piter Publ., 2013, pp. 220–240.
8. Panina M.M. Sotsial'naya rabota s molodezh'yu i sem'yami v sotsial'no-opasnom polozhenii [Social work with youth and families in socially dangerous situations]. Moscow, RGGU Publ., 2017, pp. 60–85.
9. Kozlova N.L. Sotsial'nye tekhnologii profilaktiki deviantnogo povedeniya molodyozhi [Social Technologies for the Prevention of Deviant Behavior Among Youth]. Moscow, Academic project Publ., 2016, p. 250.
10. Erofeyev Yu.I. Problemy molodyozhi v sovremennoy Rossii: sotsiokul'turnye aspekty [Problems of youth in modern Russia: social cultural aspects]. Moscow, Scientific book Publ., 2012, pp. 14–152.
11. Smirnova N.A. Sotsial'noye blagopoluchiye molodyozhi i formy sotsial'noy pomoshchi [Social Well-Being of Youth and Forms of Social Assistance]. St. Petersburg, RGU Publ., 2014, p. 210.
12. Shmidt A.N. Molodyozh' i obshchestvo: sotsial'naya politika i profilaktika sotsial'nykh riskov [Youth and society: social policy and prevention of social risks]. Moscow, Science Publ., 2019, pp. 160–180.
13. Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects. UNICEF. Tashkent, UNICEF Uzbekistan, 2020, p. 76.
14. Adolescents' Mental Health and Psychosocial Well-being at Schools. UNICEF. Tashkent, UNICEF Uzbekistan, 2022, p. 92.

15. Juraev B., Abdullaev S. Youth Social Deviation in the Process of Reforms in Uzbekistan. Atlantis Publ., *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*, 2022, vol. 677, p. 6. DOI: 10.2991/assehr.k.220509.081.

16. Ochilov B. Sociological Study of Social and Innovative Activities of Youth in Uzbekistan. Tashkent, *ResearchGate*, 2023, p. 10.

17. Uzbekistan to Improve Access and Quality of Social Services for Vulnerable People. Washington: The World Bank Press Release. World Bank, 2024, p. 25.

18. Partnering to Improve Child Psychiatry Training and Services in Uzbekistan. University of Michigan. *Michigan Medicine News*, 2025, p. 85.

19. CDP Uzbekistan. Integrated Child Development Programme: Overview and Implementation. Tashkent: ICDP Uzbekistan, 2023, p. 72.

20. Tojiboyev B., Isokov S. Youth Social Deviation in the Process of Reforms in Uzbekistan. Atlantis Publ., 2022, pp. 394–400.

21. Turdiboyeva G. The Factors Influencing the Spread of Delinquency and Crime Among Minors in Uzbekistan. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2024, pp. 1–4.

22. Otamuratov S. Sociological Aspects of Studying the Specific Characteristics of the Youth Social Group. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 2023, p. 49.

23. Murodova A.M. Problems and Prospects of the Youth of Modern Uzbekistan. *International Journal on Integrated Education*, 2022, pp. 188–192.

24. Urunov Sh., Komiljonova N. State Youth Policy in Uzbekistan: Its Goals. *Achievements and Challenges. Involta Scientific Journal*, 2023, pp. 123–142.

25. Adxamov P. Working with Disorganized Youth and Studying Their Psychology. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 2025, pp. 288–290.

26. Kuvatov J.A. Prevention of Crime and Delinquency Among Young People. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2023, pp. 373–377.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 3-SON

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.